



СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURKONDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND CONTEMPLATION



СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР
ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНСФЕРА
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ НАУКИ И
ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECHNOLOGY
TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

Илм келажасгимиз равнақидир

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURKHANDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND
CONTEMPLATION

Илмий мақолалар журнали

N-4 2024



ТАЪСИСЧИЛАР;
СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ХУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТРАНСФЕРИ
МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ
ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Ҳар чоракда 1 марта чиқади.

**Jurnal 25-05-2020 yil. №11-079
raqami bilan ro'yxatga olingan.**

O'zbekiston Respublikasi OAK ning 2021 yil
12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati
asosida ro'yxatga olingan.

Ommaviy axborot vositasi davlat
ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVONNOMA N-11-079.

My.gov.uz. Yagona interaktiv. davlat
xizmatlari portali.
N 8102-325e-cd96-f50a-53b3-3119-7970

Hujjat yaratilgan sana: 2020-05-25.

Ariza raqami: 19051279.

НАШР ИНДЕКСИ 190-111.

ЖУРНАЛ «ADAD PLYUS» МЧЖ
матбаа бўлимида чоп этилди.
Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани,
Бунёдкор кўчаси 28-уй.
Босишга рухсат этилди: 17.12.2024.
Қоғоз бичими 60x84 1/8.
Босма табоғи 12,0. Офсет босма.
Офсет қоғози. Адади 100.
Баҳоси келишилган нархда.
Буюртма № 48.

Техник ходимлар:
Мамаражабов Ғайрат
Қаршиев Ислон
Раҳмонов Маҳаммади
Саҳифаловчи:
Қўшоқова Моҳигул

Таҳририят манзили: Сурхондарё вилояти
Термиз шаҳри "Баркамол авлод" кўчаси 43 уй.
tursunovsafullo12@mail.ru
Тел: 876 223 07 66.
+99 891 577 90 50,
+99 894 200 49 55,
+99 891 229 22 29.

Бош муҳаррир:

Главный редактор:

Chief Editor:

Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич
Тарих фанлари доктори, профессор
Термиз давлат университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

Заместитель главного редактора:

Deputy Chief Editor:

Пардаев Тошкенбой Раджабович
Тарих фанлари доктори, доцент
Термиз давлат университети

Журналнинг илмий котиби:

Холмўминов Ҳусан Эшмўминович тарих
фанлари доктори, доцент, Термиз давлат
университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Тошқулов Абдуқодир
Аскарлов Аҳмадали
Каримов Соҳибназар
Муртазоева Раҳбархон
Сағдуллаев Анатолий
Воҳидов Шодмон
Виктор Агаджаниан
Юнусова Хуршида
Абдуллаев Улғубек
Толипов Файзулла,
Дадамирзаева Гулчехра,
Хидиров Холмамат,
Дониёров Алишер
Шамсиддинов Рустам
Обломуродов Наим
Саидахматов Шарифбек
Туропова Моҳидил
Эшов Баҳодир
Саидов Илҳом
Ҳайитов Шодмон
Ғаффоров Шокир
Мусаев Нуриддин
Бобожонова Дилором
Абдуллаева Яхшибека
Эргашева Юлдуз
Давлатова Саодат
Маткаримова Садоқат
Раҳмонов Фахриддин
Турсунов Нурулло
Тилеукулов Гаўҳар
Бўриев Очил
Қурбонова Манзила
Турсунов Жавли
Ҳўшбоқов Панжи

Раҳимов Баҳодир
Акчаев Фаррух
Усмонов Муртоз
Ирискулов Олимжон
Турсунов Анвар
Якубова Диларам
Аҳмедова Гулчехра
Умаров Иқром
Назирова Бахтиёр
Мамаражабов Ғайрат
Дуланов Отабек
Қаршиев Ислон
Саидов Бахтиёр
Менглибоев Акмал
Норбўтаев Ислонбек

**ЖАМОАТЧИЛИК
КЕНГАШИ:**

Турдиев Тоштемир
Алланов Қилич
Муртозоев Бобоназар
Шариф Ёкубов
Мустафоқулов Рўзибой
Холматов Зокир
Холиков Зокир
Норбошева Меҳри
Бакиров Поён
Йўлдошев Нормамат
Хуррамов Алишер
Тўраев Эргаш
Ёрматов Фахриддин
Эргашева Сайёра

TARIX

ТАНИҚЛИ ОЛИМ ВА УСТОЗ ПРОФЕССОР ПАРДА ИСМОИЛОВ - 80 ЁШДА



Мустафоқулов Рўзиқул Бойназарович,

*Термиз давлат университети ижтимоий фанлар факультети
бошланғич таълим кафедраси доценти, филология фанлари номзоди.
<https://orcid.org/0009-0005-2553-8845>*

Шариф Ёқубов,

*Термиз давлат университети ижтимоий фанлар факультети
бошланғич таълим кафедраси доценти, филология фанлари номзоди.*

E-mail: sharif.yoqubov@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0002-8677-1325>

UDK8/81(81,33)

Аннотация: Ўз соҳасининг билимдон устозларидан бири Парда Исмоиловнинг ҳаёт йўллари ва ижодий фаолияти ҳақида ушбу мақолада маълумот берилган. У ўз мутахассислик фанидан ташқари бўш вақтларида бадий адабиётга ҳам меҳр қўйиб ижод қилади. Эртаксевар болаларнинг севимли эртакчи бобосининг мингдан зиёдроқ эртаклари борлиги ҳақида маълумот берилади. У халқона эртаklar, масаллар, мақоллар, хикоялар муаллифи ҳисобланади.

Калит сўзлар: эртак, ривоят, афсона, жин, ажина, пари, сеҳр, жоду, пайғамбарлар, ҳайвонлар, шайтон.

Аннотация: В данной статье представлена информация о жизненном пути и творческой деятельности Парды Исмаилова, одного из знающих мастеров своего дела. Помимо своей специальности, в свободное время

он также любит художественную литературу. Любимый детский сказочник дедушка Эртаксевар имеет более тысячи историй. Он автор народных сказок, притч, пословиц, рассказов.

Ключевые слова: сказка, легенда, легенда, демон, морщина, фея, волшебство, колдовство, пророки, животные, черт.

Abstract: This article provides information about the life and creative activities of Parda Ismailov, one of the most knowledgeable teachers in his field. In addition to his specialty, he also enjoys writing fiction in his free time. It provides information about the fact that his grandfather, a favorite storyteller of children who love stories, has more than a thousand tales. He is the author of folk tales, parables, proverbs, and stories.

Keywords: fairy tale, legend, legend, jinn, fairy, fairy, magic, spell, prophets, animals,

devil.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUSTION). Ярим асрдан буён илм-маърифат майдонида ғайрат-шижоат кўрсатиб келаётган толмас устоз, етук олим Парда Исмоилов 1945 йилнинг 15 январь куни Бойсун туманининг Пойгабоши қишлоғида таваллуд топди. Барча тенгдошлари қатори етти ёшга тўлганда биринчи синфга қабул қилинди ва 1964 йил Бойсун туманидаги 1-сонли мактабни олтин медал билан тугатди. 1969 йилда Низомий номидаги Термиз давлат педагогика институти физика-математика факултетининг математика ва чизмачилик йўналишини тугатди.

1976 йилнинг декабр ойида П.Исмоилов Ойбек номи Термиз давлат педагогика институти (ҳозирги Термиз давлат университети)нинг математика кафедрасига ишга таклиф қилинди.

Профессор Парда Исмоилов - нозик таъб, қаттиққўл ва адолатли муаллим. Бу талабчанлик яхши устоз, яхши мураббийликнинг белгисидир. Соҳасининг билимдон устозларидан бири. "Чизма геометрия" фанидан узоқ йиллардан бери маъруза ўқийди ва амалий машғулотлар олиб боради. Ҳуснихатининг гўзаллигини кўриб, ёзувига ошно бўлиб қоласиз. Чиройли ёзиш сирларининг билимдони. Шириндан шакар суҳбатлари ўзгача: масал, матал, мақолларни қўшиб, қиёмига етказиб гапиради. Эшитганлар у билан яна суҳбатлашсам, деб қўмсаб юради. Юрагининг тўрида ижодга нисбатан катта эътиқод борлиги сезилиб туради.

Ижодкорлиги бизни янада яқинлаштирди. Билдикки, бадий ижодда ҳам ўзига ўта талабчан экан. Домла нафақат педагогик йўналишда, балки бадий ижодда ҳам олдинги сафлардан ўрин олган.

У 33 та китоб муаллифи: 12 та дарслик, 13 та ўқув қўлланма, 8 та услубий қўлланма, 4 та услубий-методик тавсиянома ва 100 дан ортиқ илмий мақолалари, 112 дан ортиқ ҳикоя ва ҳажвиялари республика, вилоят газета ва

журналларида эълон қилинган. Унинг "Ақл билан бахт", "Ота қарзи", "Сеҳрли таёқ ва Қурбақа қарздор бўлди", "Сўз ташрифи", "Қурбақа қарздор бўлди", "Сеҳрли шаҳар", "Хушфеъл бўлсанг, хуш ёқасан" каби эртаклар тўплами ҳамда "Шифо топай десанг" китоблари нашр юзини кўрган ва ўқувчилар қўлига бориб текган. Эртаклар оламида яшаган эртакчи бобо Парда Исмоиловнинг мингдан ортиқ оригинал эртаклари нашр юзини кўрди ва ўқувчилари қўлига бориб тегди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Парда Исмоиловнинг профессор, ижодкор олим бўлиши тасодифий эмас. Чунки Бойсун тумани академик Мулла Эркаев, Ўзбекистон халқ ёзувчиси Шукур Холмирзаев, Ўзбекистон халқ шоири Усмон Азим, ёзувчи, жамоат арбоби Эркин Аъзамов, профессорлар Жаббор Омонтурдиев, Шукур Хуррамов Гаффор Саматов, Бекпўлат Умуркулов, Шомат Саматов, Хурсанд Холиқов каби юзлаб олимлар, шоирлар, жамоат арбобларини етиштириб берганлиги сир эмас.

Парда Исмоилов билан бўлган кўпгина суҳбатларимиз илм-фан, маърифат, бадий ижод ҳақида борган. Домла менинг халқ оғзаки ижоди билан шуғулланишимни билиб, кўпроқ суҳбатларимизни шу соҳага қаратарди. Бир суҳбатимизда домла аждодлари, ота-боболари ҳақида оғиз очиб қолди¹.

- "Рўзиқул домла менинг отамни бутун бойсунликлар Исмоил Заргар дер эдилар. Отамнинг оталарини Қўлдаш амин дер эдилар. Шунингдек, бизнинг авлодимизнинг хотираларини гўёки "магнит"га ўхшатганлар. "Буларга хотирадан худо берган" деб гапиришардилар. Бир кўрган нарсасини асло эсдан чиқармас, эшитганини эса унутмас эканлар. Ҳатто, собиқ шўро даврида қадриятларимиз ўзига яраша ҳолга келиб қолган давр эди. Ўша йиллари айрим кишилар ота-онасининг, қариндош уруғларининг қабрини зиёрат қилишга ҳам

¹ 1993 йил 18 декбрдаги суҳбатдан.

эътиборсиз эдилар. Оқибат, унинг қайси қабр эканлигини эсдан чиқариб қўйганлар ҳам бўлган. Шундай пайтларда уни топиш учун отамдан келиб сўрар эдилар. Шунда отам қабрнинг қаерда эканлигини аниқ-тиниқ айтиб юборар эдилар. Топа олмаганлар эса яна қайтиб келиб, бобо ўзингиз бориб кўрсатиб беринг, деб эргаштириб кетишар эди”.

Хатто, Исмоил Заргар бобо ҳамқишлоқларининг авлод шажараларини ҳам адашмасдан айтиб бериш қобилиятига эга эдилар. Мен юқоридаги фикрларни бежизга келтирмадим. Аллоҳ инъом этган хотирадан домламиз ҳам четда қолган эмас.

Яна бир суҳбатимизда домла ўзи тўқиган жуда кўп эртақлар қўлёзма ҳолида борлигини айтиб қолди. Уларни менга беришини, таҳлил ва талқин қилиб ҳамкорликда нашрдан чиқаришни таклиф қилдим. Домла рози бўлгандай бўлди, аммо домла менинг таклифимни қабул қилмади шекилли, жим бўлиб кетди².

Мен домланинг эртақларини анъанавий эртақлар бўлса керак, деган фикрда эдим. Орадан бир йил ўтар ўтмас “Ақл билан бахт³” номли эртақлар тўпламини нашрдан чиқарибди. Домланинг кўп сонли эртақларини ўқиб чиқдим. Ўқиган сайин, яна ўқигим келарди. Энг асосийси уни болаларга ўқиб берсангиз нур устига аъло нур бўлади.

Мен юқоридаги тусмол фикримдан қайтдим. Эртақлар Парда Исмоиловнинг ўзи тўқиган, ўз қаламига мансуб эртақлар экан. Ижодкор домланинг бирин-кетин 10 та эртақлар тўплами китоблари нашр юзини кўрди, севимли ўқувчилари қўлига бориб тегди.

Маънавият ва маърифат, яхшиликнинг фазилатлари, ёмонликнинг хунук оқибатлари ҳақидаги ҳаёллар, фикрлар оғушида юради. Шу боис, у халқона эртақлар, масаллар битади.

“Парда Исмоиловнинг масал ва ҳикоялари, эртақлари матбуотда тез-тез

эълон қилинганлигининг гувоҳи бўлгансиз. “Ақл билан Бахт” эртақлар тўплами унинг ижод соҳасидаги биринчи китоби. Китобдаги эртақлар ўқувчини чуқур ўйга толдиради, ҳаётий хулосалар чиқаришга ундайди, кўнгилда эзгу туйғуларни уйғотади”⁴.

Домланинг эртақларида халқ оғзаки ижодига хос барча сифатлар ўрин олган. Хусусан, жамоатчилик, оғзакичилик, анъанавийлик, эртақларнинг ғоявий йўналиши, композицияси қаҳрамонларнинг вазифалари ўз ўрнида тасвирга олинган. Бунинг учун эртақчининг яъни, ижрочининг ижодий қобилияти, дунёқараши, воқеликни акс эттира олиш иқтидори, эртақчилик анъаналарини қай даражада билиш тажрибаси, руҳий ҳолатлари билан боғлиқ ҳолда амалга оширилган. Эртақларидаги ўзига хослик хусусияти - воқеабандлик, бирор воқеани мукамал ҳикоя тарзида баён қилиши кўзга ташланиб турибди. Тингловчида бадий завқ ўрнатиши, ҳаяжонга солиши, ижобий қаҳрамонлар тарафида туриб рақиб қаҳрамонларига қарши курашга чорлаши табиий тасвирларга эга.

Муаллиф эртақларининг ўзига хос ғоявий мавзу йўналишини ва таълимий эстетик функцияларини яхши англаб етган. Шу сабабли ҳам эртақларидаги қаҳрамонларини ғайри табиий кучларга қарши қўйиб, ғайри табиий нарса ва мўжизали қушларни, девларни, қизлар ва паризодлар, маликалар, бедаво дардларга дори топилиши каби эпизодларни ёрқин очиб берган.⁵

Шу ўринда А.М.Горкий фикрини келтириб ўтмишни маъқул кўрдим “эртақларда ҳаммадан ҳам уйдирма” ҳодисаларни олдиндан кўра билувчи тафаккуримизнинг ажойиб хусусияти... Фикримизча, инсоннинг ажойиб хусусиятларидан бири - “Фараз”ни ҳам

² Бу суҳбат 1995 йил 18 декабр бўлиб ўтган.

³ Исмоилов П. Ақл билан бахт. Адабиёт жамғармаси, Тошкент- 2006, 4-бет.

⁴ “Ақл билан бахт,” “Адабиёт жамғармаси”, нашриёти, Тошкент-2006, 3-бет

⁵ Горький М. Адабиёт ҳақида. Тошкент.1962, 319-бет.

худди шу фантазия, “уйдирма вужудга келтириб тарбиялаган”⁶.

Ёзувчининг юқоридаги фикрларидан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, “Фантастика эртак мезони унинг “жони ва қонидир”. Агар эртакларда юқоридаги сифатлар кўринмаса, у куруқ “суяк”ка ўхшаб қолади. Муаллиф эртакларининг мағзи фантастика, сеҳр жодулардан ҳам куруқ қолган эмас. Бу усул ҳам ишончли меъёр даражада амалга ошган. Улар ўсиб келаётган болаларимизнинг таълим, тарбия, маърифат, иззат-хурмат каби инсоний фазилатларини тарбиялаш хизматига бўйсундиришган. Домланинг эртакларида кўпроқ нуруний- кексалар, донишмандлар, падари бузрикворлар тингловчи диққатини жамлаб, уларни эртак эшитишга ундайди.

Эртакларининг ер ости, ер усти, парранда-ю даррандалар, дев, алвасти, ёвуз кучлар, кўҳиқоф тоғи, инс-у жинслар пайғамбарлар, шахзодалар, дуолар, асроил, жаброил, кўса, шайтон, иблислар лашкари ва бошқалар эртакларининг икки кутб қаҳрамонларидир.

Юқоридаги фикрларимизга қўшимча ҳолда шунини айтиш ўринлики, Парда Исмоилов ўзига хос услубда эртаклар тўқишда: образлар талқинига, ғоявий мазмунига ва конфликтга, сюжет ва композицияга, фантастик уйдирмаларга жиддий эътибор қаратиб, уларни ўрнида қўллаб олган. Эртак қаҳрамонларининг тили ва тасвирига қатъий амал қилган.

Шунингдек, эртакларда ҳаёт, яхшилик ва ёмонлик, бахт наъшидалари, қайғу-ғам изтироблари, севги-муҳаббат, вафосадокатнинг қувончлари оҳанграбо оҳангларда тараннум этилган.

Устоз П. Исмоилов болалар учун ҳам бир қатор эртаклар яратганки, уларда ўсиб келаётган авлодни юртсеварлик, инсонпарварлик, табиатга муҳаббат, аждодлар анъаналари, халқимизнинг эзгу қадриятларига садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг ахлоқий, эстетик туйғуларини ўстириш ният қилинган.

Ҳа, ҳаёт тараккиётда, авлодлар ўсиш-улғайишда. Анъаналар занжир ҳалқаларидай авлодларни бирлаштиради: Эртак тинглаб, унинг қаҳрамонлари бўламан деган мактабга қадам қўяётган болалар Ватан тараккиётига муносиб ҳисса қўшувчи, унинг фаровон келажагини таъминловчи ворислар бўлиб етишади, болалик ҳаёллари нурафшон туйғулар эртакларда ўз ифодасини топган.

Эртакчи бобо Парда Исмоилов адабиёт сўз санъати эканлигини яхши англаб етган сўз “заргар”и сўзнинг сеҳрли қудратини ўз эртаклари қатига синдирган. Шоирларнинг маҳорати ҳам сўздан қай тариқа усталик билан ўз ўрнида таъсирчан фойдаланишларига қараб белгиланишини домла ёдда тутати.

Парда Исмоилов эртакчиликда киши характери болаликдан шаклланиши, “бўлармоннинг боласи бошдан маълум”, дея мақолда таъкидланганидек, бола хатти-ҳаракатларида унинг табиати, ниятлари, қизиқишларининг ифодасини топиши, кўпроқ яхшиликларга бошқариш, зарурлиги ғояси илгари сурилган.

Қисқаси, профессор Парда Исмоиловнинг болаларбоп асарлари содда тилда ёзилгани, муҳим ахлоқий-тарбиявий ғоялар ташиганлиги билан ўзига хос ибратга лойиқ.

“Бир бор экан, бир йўқ экан ...” Ё, товба, нақадар ёқимли оҳанг! Оҳанграбога ўхшайди. Ҳаёлни бирдан ўзига тортади. Гап бор нарса ҳақидами ёки йўқ нарса ҳақида? Бунинг аҳамияти йўқолади, энди кўнглингиз тафаккур бўшлиқлари, ҳаёлот осмони сари парвозга отланади.

“Эртаклар бизнинг бешигимизни тебратган, болалик кўнглимизни овулган. Эртак ўқисам, эртак эшитсам ёки у ҳақида сўз кетса, ҳаёл мени узоқ болаликка бошлаб кетади. Бу эртаклар нақадар сеҳргар, нақадар дилтортар эди! Лекин энди уларнинг кўпи эсимда йўқ ва нашр этилаётган ҳатто, эртак китобларидан ҳам ўрин олмаган. Ўша эртакларни мароқ билан айтувчи кишилар ҳам аллақачон оламдан ўтиб кетишган. Бу эртакларни хотирада болаликда эшитганларимнинг

айримлари холос. Хайрият, улар қатида, қайси бир “сеҳргар”лар гўшасида яшаётган экан.

Уларни сақлаб қолмаганлигимиз ёки ёзиб қўймаганимиз учун кўп афсуҳнадомат чекам, гоҳо ёлғиз қолиб, эслаганимда ўксиниб қўяман” дейди эртақчи Парда бобо. Биламизки, эртақлар халқ мулки, битмас - туганмас, тўзимас хазина.⁷

Парда Исмоиловнинг қаламига мансуб эртақлар сизни гоҳ шоҳлар саройига, гоҳ деҳқонлар даласига, гоҳ табиблар даврасига, гоҳ парилар оламига, гоҳ сеҳр – жодулар уммонида бошлаб боради, Муаллиф оталаримиздан эшитган эртақларни имкон қадар тиклашга интилан, уларнинг айримларини бириктириб, янги эртақ яратишга ҳаракат қилган, энг муҳими, эртақ руҳини сақлаган.

Улар халқ эртақларига ҳамоҳанг. Шунинг учун уларда эшитган эртақларимизга ўхшаш тасвирлар учраши ҳам мумкин. Чунки халқ эртақлари оғиздан - оғизга ўтиб, олам кезади. Айримлари шу тариқа “йўл юриб, йўл юрса ҳам мўл юриб” янги ранг олади, янги тасвирлар билан бойийди. Буларнинг барчаси сўзловчи томонидан яхшилик ниятида қилинади.

Домланинг ушбу эртақларида анъанавий қонуниятларига ҳос ёвузлик устидан эзгулик ғалаба қилади, баднафсликдан инсоф устун келади, меҳнаткаш текинхўр устидан ғолиб бўлади, ожизлар кучга тўлади, бахтсизлар бахт соҳибига айланади. Уларни ўқиганда, ўқувчини ҳайрат ва ҳаяжон тарк этмайди.

Болаларнинг завқи-ку бўлакча. Кексалар ҳам халқ эртақларини тинглаб, эртақка айланиб қолган олис болаликка қайтгандай бўлади. Инсон ўз эртақ ва дostonларига ишониб яшайди. Эртақ, дostonларда эса мазлумлар зулм остида қолиб кетмайди, уларни озодликка, хурликка олиб чиқувчи қаҳрамон оддий халқ орасидан етишиб чиқади. Не бир қийинчилик, не бир синовлардан, беҳисоб

чиғириқлардан ўтиб, куч қувватга тўлади. Ботирлик, паҳлавонлик, донолик ва тадбиркорликка эришади. Оқибатда ўзгаларни ҳам бахтга етаклайди, ўзлари ҳам саодат топишади. Эртақ ўқиган киши саодатманд бўлади, йўлчи юлдузлар борлигига яна бир бор ишониб, саргузаштига шерик, ақл- заковатга тўлади ва ўзи ҳам гўё қаҳрамонга айланиб қолади. Энди унинг қалбида эзгулик, диёнат, меҳр - оқибат, янгиликка интилиш туйғуси янада жўш уради. Болалар кўнгли янги қувончлар билан бойийди⁸.

“Эртақлар қанчалик ўхшаш бўлмасин, бадий шакл, образлар талқини, тил воситалари жиҳатидан ўзаро фарқ қилади”⁹ деганларидек Парда Исмоиловнинг эртақларида анъанавий эртақларга ўхшашлик учраши эҳтимолдан ҳоли эмас. Аммо, кўчирмачилик излари эртақларида сезилмайди. Чунки, домланинг ўз тили ва услуби асосида эртақлар ижод қилинган.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Биз профессор, олим эртақчи бобога темирдек мустаҳкам соғлиқ тилаган ҳолда янада қизикдан қизик эртақлар кутиб қоламиз. Шундай қилиб мақоламиз, эртақларимиз қаҳрамонлари ўз мурод-мақсадларига етибди.

⁷ 207-йил 18-мартдаги суҳбатдан

⁸ Юқорида кўрсатилган китоб 7 бет.

⁹ Ўша асар 192 б.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Абдурасулов М. Ўзбек маърифатпарвар шоирлари илм-маърифат ҳақида. “Ўқитувчи” нашриёти. Тошкент. 1972.
2. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди Тошкент. “Ўқитувчи”. 1990.
3. Мадаев О., Собитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди. “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Тошкент. 2001.
4. Мустафоқулов Р. Сурхон Адиблар болаларга. Тошкент. “Ёзувчи” нашриёти. 2000.
5. Мустафоқулов Р. Сурхондарё фольклорининг ҳозирги яшаш ҳолати ва бадийяти. 2023.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИНING ТАРИХИЙ ТАЖРИБАСИ (ҚАШҚАДАРЁ МИСОЛИДА)

Эргашева Юлдуз Алимовна,

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти Ўзбекистон тарихи кафедраси мудири,

Профессор, тарих фанлари доктори

e-mail: yuae63@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-7824-1777>

Узаков Бахром Негматович,

Шаҳрисабз давлат педагогика институти Тарих кафедраси доценти,

тарих фанлари номзоди

e-mail: uzakovbn@gmail.com

UDK: 323(575.1)-053.81

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширилишининг тажрибаси, асосий босқичлари Қашқадарё вилояти мисолида таҳлил қилинган. Шунингдек, Ўзбекистоннинг янги тараққиёт босқичида ёшларни истеъдод ва қобилияти, эзгу интилишларини тўлиқ рўёбга чиқариш, ижтимоий фаоллигини ошириш, ижтимоий ҳимоя қилиш, бандлигини таъминлаш, улар орасида тадбиркорликни ривожлантириш масалалари бирламчи манбалар асосида ёритилган.

Калит сўзлар: ёшлар сиёсати, “Ёшлар дафтари”, ёшлар бандлиги, ёшлар тадбиркорлиги, ижтимоий ҳимоя.

Аннотация: В статье анализируется опыт осуществления государственной молодежной политики в Узбекистане, её основные этапы на примере реализации в Кашкадарьинской области. Также на основе первоисточников освещаются вопросы поддержки, создания условий для полной реализации благородных устремлений, талантов и способностей молодежи, повышения их социальной активности, их социальной защиты, обеспечения занятости, развития предпринимательства среди них на новом этапе развития Узбекистана.

Ключевые слова: молодежная политика, “Молодежная тетрадь”, занятость молодежи, молодежное предпринимательство, социальная защита.

Abstract: The article analyzes the

experience of implementing state youth policy in Uzbekistan, its main stages using the example of implementation in the Kashkadarya region. Also, based on primary sources, the issues of support, creation of conditions for the full realization of noble aspirations, talents and abilities of young people, increasing their social activity, their social protection, ensuring employment, developing entrepreneurship among them at a new stage of development of Uzbekistan are covered.

Keywords: youth policy, “Youth Notebook”, youth employment, youth entrepreneurship, social protection.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Бугунги дунёдаги глобаллашув жараёни шароитида нафақат мамлакатимизда, балки бутун жаҳонда жадал ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий муносабатлардаги ўзгаришлар ёшлар таълими ва тарбияси, ижтимоий ҳимояси, ёшларга оид давлат сиёсати ва ҳокимият органларининг фаолиятида янгича ёндашувлар ва имкониятлар кенгайтирмоқда. Мустақиллик йилларида мамлакатимизда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишнинг инновatsion ўзига хос ривожланиш хусусиятларини таҳлиллар асосида тадқиқ этиш, эришилган натижаларни объектив баҳолаш, ютуқ ва камчиликларни илмий асосда таҳлил қилиш орқали тегишли хулосалар чиқариш, истиклол даври тарихини

тўлароқ ва холисона акс эттириш, сиёсий-ижтимоий соҳа тарихини чинакам илмий тамойиллар асосида ёритиш, ўзига хос жиҳатларини илмий назарий таҳлил этиш билан долзарб ва муҳим аҳамият касб этади. Чунончи, жамиятдаги ўзгаришларга мутаносиб равишда мамлакатимизда миллий ўзликни англаш ва миллий истиқлол ғояси асосида янада мустақкамроқ жипслашиш масалаларига ҳамда уларга ҳамоҳангликда ёшларни истеъдод ва қобилияти, эзгу интилишларини тўлиқ рўёбга чиқариш, ижтимоий фаоллигини ошириш, ижтимоий ҳимоя қилишда давлат сиёсатининг инновацион хусусиятларини тарихий тажрибаси, бу йўналишдаги ислохотлар, фаолиятни такомиллаштириш истиқболларига алоҳида эътибор берилиб, ўрганиш бугунги кун олимларининг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ҳар замонда, ҳар жамиятда ёшлар жамиятни ҳаракатга келтирадиган, унинг мазмун-моҳиятини белгилайдиган куч сифатида эътироф этилган. Ватанимиз тарихига назар ташласак, XX аср бошларидаги миллий уйғониш даврида ҳам тарих саҳнасига ёшлар қудратли куч сифатида чиққанини биламиз. Жумладан, XIX аср охири-XX аср бошларида Туркистонда шаклланган жадидчилик ҳаракатининг асосий намоёндалари ҳам айнан ёшлар эди. Ҳаракат асосчилари бўлган Беҳбудий, Мунаввар Қори каби мутафаккирларимиз ёшларни диний илм билан бирга дунёвий илм олишларига ва бу орқали юртни, халқни маънавий жиҳатдан уйғотиб, мустақиллик сари қадам қўйишга интилганлар. Бироқ мустабид даврнинг қатағон сиёсати сабаб жадидчилик ҳаракати намоёндаларининг орзулари ушалмай қолди.

Аждодларимиз ҳамиша баркамол инсонни тарбиялашга интилганлар ва ўз фарзандлари, маҳалла ёшлари ва бутун жамиятнинг тарбияли бўлиши учун курашганлар. Ёшларни тарбиялашда менинг болам, сенинг боланг деб

ажратилмаган. Чунки “бир болага етти маҳалла ҳам ота ҳам она” таомилига амал қилинган, таълим-тарбия бериш ҳамманинг виждон амри ҳисобланган. Зеро, бола оилада дунёга келса-да маҳаллада ўсиб улғаяди, илк урф-одатлар ва миллий қадрият-у анъаналар каби тушунчалар тўғрисида тасаввурларга эга бўлади, мактабда таълим олади. Ёшларимизнинг истеъдод ва қобилияти, эзгу интилишларини тўлиқ рўёбга чиқариш, ижтимоий фаоллигини ошириш, ҳаётда муносиб ўрин эгаллашлари учун барча имкониятларни яратиб бериш халқимиз учун муҳим аҳамият касб этади.

Бугунги глобаллашув асрида ёшлар таълими ва тарбияси ҳар қачонгидан ҳам муҳим ва долзарб аҳамият касб этмоқда. Бу космополитик ғоялар ва “оммавий маданият”нинг турли халқлар ва миллатлар ёшлари онгини заҳарлашга уринаётгани билан характерланади. Шу сабабли ҳам давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек: “Ҳар қандай жамият тараққиётида унинг келажагини таъминлайдиган ёш авлоднинг соғлом ва баркамол бўлиб вояга етиши ҳал қилувчи ўрин тутди. Шу сабабли биз ислохотларимиз кўлами ва самарасини янада оширишда ҳар томонлама етук, замонавий билим ва ҳунарларни пухта эгаллаган, азму шижоатли, ташаббускор ёшларимизга таянамиз”[1]. Бу эса ёшлар тарбияси ва таълим тизимини давлат сиёсатининг устувор вазифаси сифатида белгиланишини заруратга айлантиради ҳамда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш билан боғлиқ амалий ишларга эътибор кучайтиришни тақозо этади.

Дунё аҳолисининг 14 дан 30 ёшгача бўлганлар сони 2 миллиардга яқин кишини ташкил қилади, яъни қарийб 20 фоизини ёшлар ташкил қилади. Ўзбекистонда эса бу кўрсаткич 60 фоиздан ошади. Статистика маълумотларига таяниб шуни айтиш мумкинки, Ўзбекистон туғилиш нисбатан юқори мамлакатлар қаторига киради ва келажакда ҳам мамлакат аҳолисининг умумий сониди ёшларнинг

салмоғи юқори бўлишини таъкидлаб ўтиш зарур. Бу эса Ўзбекистоннинг ёшлар мамлакати деб эътироф этиладиган мақомини янада мустаҳкамланишига хизмат қилади.

Мустақилликнинг дастлабки кунларидан ёшлар тарбияси ва таълими долзарб аҳамият касб эта бошлади. Ёшлар - эртанги кунимиз, келажагимизни белгилловчи ҳал қилувчи кучи ҳамда халқимиз, давлатимизнинг бебаҳо бойлигидир. Эртаси фаровон бўлишини истаган жамият ёшлари учун муносиб шароитлар яратиш ҳақида қайғуради.

Сўнгги йилларда юртимизда амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлар жараёнини аҳолининг асосий қисмини ташкил этувчи ёшлар иштирокисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Зотан, юксак билимли, интеллектуал салоҳиятли йигит-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамиятда муносиб ўрин эгаллашларига қўмаклашиш давлатимиз сиёсатининг устувор вазифаларидан бири бўлиб, бугунги кунда ушбу йўналишда аниқ чоратадбирлар рўёбга чиқарилмоқда. Давлат ташкилотлари билан бирга жамоат ташкилотларининг фаоллиги, хусусан маҳалла институтининг ёшлар тарбияси ва таълими, улардаги ижтимоий муаммоларнинг ижобий ечимини излашда масъулиятини ошириш бўйича вазифа ва ваколатлари кенгайтириб борилмоқда. Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш қонунчилик асослари, механизмлари ишлаб чиқилиб ҳаётга татбиқ этилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев ёш авлодни ҳар томонлама соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш борасидаги ишларни янги босқичга кўтариш мақсадида 2016 йилда муваққат Президент бўлган пайтларида биринчи бўлиб имзолаган ҳужжат айнан “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги қонун эди. Бу эса давлатимиз раҳбарининг Президент мақомида сиёсий майдондаги фаолияти айнан ёшлар масаласидан бошланганлигини билдиради. Мазкур

қонун асосида ёшларни ижтимоий фаолликларини шакллантириш, турли хил йўналишдаги салоҳиятларини камол топтириш борасида ташкилий ва ҳуқуқий жараёнларни тизимли равишда ривожлантириб бориш орқали янгича ёндашувларга кўпроқ эътибор қаратилмоқда. 2017 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Президентининг ташаббуси билан ёшлар ҳаётига бевосита тааллуқли бўлган жами 40 та Қонун ва қонуности ҳужжатлари қабул қилинди. Жумладан: Ўзбекистон Республикасининг 3 та Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 5 та Фармони, 8 та Қарори, 2 та Фармойиши; Вазирлар Маҳкамасининг 18 та Қарори ва 4 та Фармойиши имзоланди. Давлатимиз раҳбари раислигида 2024 йил 30 июнда ёшлар сиёсати бағишланган видеоселектор йиғилишида мамлакатимизда сўнгги етти йил ёшларни қўллаб-қувватлаш, уларни истеъдод ва салоҳиятини рўёбга чиқаришда “катта сакраш даври” бўлганини ҳамда етти йил ичида ёшларга оид 100 дан зиёд қонун ва қарор қабул қилиниб, 200 дан ортиқ имтиёз берилганлигини таъкидлади. [3] Мазкур қонун ва қонуности ҳужжатларни қабул қилиш ҳамда амалдаги қонунчиликка ўзгартиш ва қўшимчалар киритишдан мақсад илм-фан ва технологиялардаги ютуқларни ёшлар ҳаётига олиб кириш ва унинг ҳуқуқий асосини мустаҳкамлаш ҳисобланади. Бу эса ёшларни дунёнинг илғор мамлакатларида эришилган ютуқлардан фойдаланиб янада юксалишига хизмат қилишни назарда тутди. Шунингдек, мазкур қонунлар ва қонун ости ҳужжатларда Ўзбекистон ёшларининг ўз истеъдод ва қобилиятини намоён этиш, уларни қўллаб-қувватлаш, жамиятнинг энг ҳаракатчан ва фаол қатламига айланишининг ҳуқуқий асослари белгилаб берилди ҳамда тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистонда 30 июнь – “Ёшлар куни” деб эълон қилинди. Турли соҳаларда юксак натижа ва ютуқларга эришаётган фидойи ёшларимизни

рағбатлантириб бориш мақсадида “Мард ўғлон” давлат мукофоти ва “Келажак бунёдкори” медали таъсис этилди. Ёшларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларнинг ахборот технологиялари бўйича саводхонлигини ошириш, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини таъминлаш вазифаларини ўз ичига олган бешта муҳим ташаббус амалга оширилмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг ташаббуси билан ёшларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилувчи давлат ташкилоти бўлган Ёшлар ишлари агентлиги ташкил этилди. Бугунги кунда агентлик чин маънода ёшларнинг манфаатларини ифодалаб келмоқда. Ёшларни ижтимоий, ҳуқуқий, психологик қўллаб-қувватлаш, ишсиз ёшларнинг бандлигини таъминлаш мақсадида “Ёшлар дафтари” тизими жорий этилди. Ёшларни касб-хунарга йўналтириш мақсадида “Ёшлар келажакимиз” жамғармаси ташкил этилди ва ўтган йиллар давомида жамғарма ҳисобидан катта лойиҳалар амалга оширилди. Ёшларнинг sanoat ва тадбиркорлик соҳаларидаги ташаббусларини амалга ошириш ва қўллаб-қувватлаш мақсадида “Ёшлар sanoat ва тадбиркорлик зоналари” ташкил этилмоқда. Ёшларнинг инновatsion ғоя ва ташаббусларини рўёбга чиқариш мақсадида ҳудудларда Ёшлар технопарклари ташкил этилди. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш Концепцияси ишлаб чиқилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида ёшлар муаммоларини ўрганиш ва таҳлил қилиш, уларни таълим-тарбия масалалари, бандлигини таъминлаш ва бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш чора-тадбирлари муҳокамаси юзасидан видеоселектор йиғилишларини мунтазам ўтказилиши анъанага айланганлиги ва уларда бир қатор стратегик вазифалар қаторида тадбиркорлигини бошламоқчи бўлган ёшларнинг мини-технология ва ускуналар

харид қилиши учун субсидия ажратиш, кредит олишда суғурта тўлови бўйича кўмаклашиш юзасидан муҳим топшириқлар берилганлиги ёшларни иқтидор ва истеъдодини рўёбга чиқариш учун янада кенг шароитлар яратилиши ва имкониятлар эшиги кенг очишга қаратилган.

2020 йил “Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”, 2021 йил “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили”, 2022 йил “Инсон кадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили”, 2023 йил “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили” деб белгиланганда ҳам жорий йилни **“Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”** деб номланишида ҳам ўзига хос уйғунлик ва тадрийжийлик бор ва ёш авлодга қаратилаётган эътиборнинг юксак намунасидир. Эътибор берсак, йиллар номланишида ҳам бутун эътибор инсон омилини юксалтириш, мамлакатимиз келажакки бўлмиш ёшларга ва уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга қаратилган. Зеро, ҳар бир кишининг жамият учун тўлақонли шахс бўлиб етишиши юксак савиядаги таълим ва миллийлик заминидан узилмаган тарбия, ҳар жиҳатдан камол топтириш учун шарт-шароит яратилганлиги билан узвий боғлиқлиги аён. Албатта, йилни номланиши ёшларни қўллаб-қувватлаш борасида нафақат йиллик давлат дастури доирасида катта ишлар қилинишини ва ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган амалий ишларни оширишни, балки сўнгги йилларнинг бу борадаги ислохотларнинг тадрийжий давоми деб ишонч билан айтиш мумкин. Бу йилги ўзгаришларнинг ўзига хос жиҳатли замирида ёшларга давлат томонидан кўмак ва қўллаб-қувватлашни таъминлайдиган узлуксиз ва яхлит тизимнинг жорий этилиши бўлади. Бу тизим йигит-қизларни замонавий, талабчан касбларга ўқитиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, уларни иш ва уй-жой билан таъминлаш, кафолатланган ижтимоий ҳимоя билан таъминлашни ўз ичига оладиган чора-

тадбирларни давомини англатади.

Дарҳақиқат, сўнгги етти йил ичида, ушбу ишлар самарасини ҳар биримиз кундалик ҳаётимизда гувоҳ бўлмоқдамиз. Бугунги кунда давлатимиз раҳбарининг шахсий намунаси ортидан ҳокимлардан тортиб, ҳар бир идора раҳбарларининг ёшлар билан юзма-юз мулоқотлар ўтказаетгани, бундай мулоқотларда ёшларнинг кўп муаммолари жуда тез ечимини топаётгани ниҳоятда қувонарлидир. Чунончи, ҳар ёшнинг ҳаётига оид муаммонинг ижобий ечимини топиши - бу келажақда жамиятнинг фаровонлиги ва мустаҳкамлигига қўйилган пойдевордир. Ўтган 2023 йили ёшлар сиёсати бўйича ишларни маҳаллада ташкил этиш бўйича мутлақо янги вертикал бошқарув тизими яратилди. Ёш авлоднинг ижтимоий-иқтисодий муаммоларини ҳал этиш ва бандлигини таъминлаш мақсадида 14-30 ёшдаги 9 миллион нафар ёшларнинг баланси шакллантирилди. Бўш вақтини мазмунли ташкил этиш, иқтидорини юзага чиқариш мақсадида беш босқичли “Беш ташаббус олимпиадаси” ўтказиб келинмоқда. 9 минг 400 та маҳаллага фидойи ва ташаббускор ўғил-қизлардан иборат ёшлар етакчилари танлаб олинди. Маҳаллада бу тизим орқали ёшларга 100 дан ортиқ имкониятлар яратилди.

Ёшлар билан ишлаш соҳасини тубдан ислоҳ қилиш ва янада ривожлантириш бўйича Қашқадарё вилоятида кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда. Бугунги кунда вилоятда 819 та маҳалла мавжуд бўлиб, улардаги ёшлар етакчилари томонидан ёшлар баланси шакллантирилиб, тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Вилоятнинг 916 минг 871 нафар ёшлари уч тоифага ажратилди: 23 774 нафар - “оғир”, 522 804 нафар - “ўрта”, 394 067 нафар - “яхши” ҳамда давлатимиз раҳбарининг кўрсатмаларига кўра кўпроқ “оғир” ва “ўрта” тоифадаги ёшлар билан ишлашга эътибор қаратилди.

“Ёшлар баланси” асосида вилоятда 23 774 нафар “оғир” тоифадаги ёшлар 528 нафар раҳбарларга номма-ном бириктирилиб,

ёшларнинг муаммоларини ҳал этиш чоралари кўрилди. “Ёшлар бандлиги дастури” асосида вилоятда 40 292 (96,8 %) ишсиз ёшлар бандлигини таъминланди[4]. Эътиборлиси шундаки, ёшларни доимий иш ўринларига жойлаштириш, касб-ҳунарга ўқитиш билан бир қаторда уларга субсидия асосида меҳнат куроли олиб берилди, деҳқончилик учун экин майдонлари берилди, тадбиркорлик учун кредит ажратилди, ҳунармандчиликка жалб этилди.

Мамлакатимизда ёшларнинг тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлашнинг янги механизмлари жорий этилди. Қисқа муддатда амалга оширилган оқилона сиёсатнинг натижаси ўлароқ, бугунги кунда тадбиркорлик субъектларининг 23 фоизини, шундан якка тартибдаги тадбиркорларнинг 21,5 фоизини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этмоқда [5]. Жумладан, ҳозирги кунда Қашқадарё вилоятида ҳам 41 минг 467 тадбиркорлик субъектларининг 23 фоизини, 38 минг 223 якка тартибдаги тадбиркорларнинг 22 фоизини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этмоқда. Улар юртимиз иқтисодий салоҳиятининг юксалиши ва халқимиз фаровонлиги йўлида меҳнат қилишмоқда.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, касб-ҳунар ҳамда тадбиркорлик кўникмаларига ўқитиш орқали махсус сертификат олган ёшларга Марказий банкнинг асосий ставкасидан 4 фоиз паст ставкада микрокредитлар ажратилмоқда. Бу кредитлар 7 йил муддатга 3 йил имтиёзли давр билан бериляпти. Ўтган йилнинг ўзида мамлакатимиз ёшлар тадбиркорлиги учун 4 триллион сўм кредит ажратилиб, 150 мингта лойиҳа ишга тушди, 325 мингта иш ўрни яратилди ҳамда 43 минг гектар экин майдони ажратилиб, 435 минг ёшлар бандлиги таъминланди. Бу мақсадлар учун катта маблағларни ажратилгани қанча-қанча ёшларни ҳаётда ўз ўрнини топишига имкон бермоқда.

Ёшлар ўртасида бандликни таъминлаш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш масаласи вилоятимизда ҳам асосий

этибор марказида бўлди. Бунинг учун профессионал таълим тизими меҳнат бозоридаги талаб ва халқаро андозаларга мос янгича ёндашувлар асосида ислоҳ қилинмоқда. Халқимиз, айниқса, ёшларимизнинг тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, уларга ўз бизнесини йўлга қўйиши учун катта имтиёзлар берилди. Шу ўринда 2021 йилда 844 нафар ўғил-қизга 30 миллиард 513 миллион сўм банк кредитлари ажратилгани ва шундан 786 нафарига “Ёшлар келажакимиз” ва “Хар бир оила - тадбиркор” дастурлари доирасида 25 миллиард 203 миллион сўм кредит берилди. “Хар бир ёшга - бир гектар” лойиҳаси доирасида 1 минг 729 нафар талабгорга 1548 гектардан зиёд ер майдони ажратилди. Вилоят ёшларининг 2 минг 526 нафарига ўтган йилни ўзида деҳқончилик учун экин майдонлари берилиши, 3 минг 148 нафарига тадбиркорлик фаолияти учун кредит ажратилиши, 11 минг 662 нафари ҳунармандчиликка жалб этилиши, 2 минг 809 нафар ёшларга бандликни таъминлаш мақсадида 6 млрд 429 млн сўм субсидиялар ажратилиши, 11 минг 068 нафар ёшларнинг тадбиркорлик фаолияти учун 270 млрд 313 млн сўм кредит ажратилиши [6] ёшларни бандлигини таъминлаш ва уларда тадбиркорлик ташаббусини ривожлантиришда, ёшлар ижтимоий муаммоларини ҳам ҳал этишда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Вилоятда ёшлар ўртасида бандликни таъминлаш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш мақсадида Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарларида, Шаҳрисабз, Чирокчи, Яккабўғ, Нишон, Касби, Миришкор, Муборак ва Китоб туманларида “Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари” ташкил этилиб самарали фаолият олиб бормоқда. Хусусан, Қарши шаҳридаги “Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари”да ўтган йили қиймати 19,1 млрд. сўмлик 18 та лойиҳа амалга оширилиб, 360 ишчи ўрин яратилди, чўл зонасида жойлашган Чирокчи туман “Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари”да эса қиймати 8,5 млрд.сўмлик

12 та лойиҳа амалга оширилиб, 89 ишчи ўрни яратилди [7].

Эҳтиёжманд оилаларнинг фарзандлари, чин етим, ногиронлиги бўлган ва даволанишга муҳтож болаларга алоҳида меҳр-мурувват кўрсатиш бўйича янги тизим жорий этилди. Бу борада Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи Қашқадарё вилоят Кенгаши томонидан амалга оширилган ишлар ҳам диққатга сазовордир. 2017-2023 йиллар давомида Ёшлар иттифоқи вилоят Кенгаши томонидан 24 мингдан ортиқ тадбирларда жами 2 млн. нафарга яқин ёшлар қамраб олинди. Қашқадарё вилоятида бугунги кунгача 369 нафар ёш оилаларга иттифоқ уйлари учун Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши ҳисобларидан 12 миллиард сўмдан ортиқ субсидия маблағлари тўлаб берилган. Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи Қашқадарё вилояти Кенгаши томонидан вилоят бўйлаб 10 маротаба “Меҳр улашамиз” акцияси ўтказилиб, 1 минг 200 дан ортиқ ижтимоий ҳимояга муҳтож оила фарзандларига ўқув қуроллари, мактаб ва кишки кийимлар олиб берилди [8].

“Ёшлар дафтари”га киритилган 32 минг 438 нафар ёшларга ўтган йилда 47 млрд. 828 млн. сўмлик турли кўмак кўрсатилди. Шу жумладан 1 минг 567 нафар ёшларга 4 млрд 773 млн сўм миқдорида меҳнат қуроллари олиб берилди, 5 минг 665 нафар ёшларга 14 млрд 131 млн сўм миқдорида тўлов-контракти тўлаб берилди, 539 нафар ёшлар келажак касблари лойиҳаси доирасида ўқитилди, 3 минг 013 нафар ёшларга 7 млрд 420 млн сўм миқдорида тиббий хизмат харажатларини қоплаб берилди, 917 нафар ёшларга 5 млрд 666 млн сўм сафарбарлик чақируви резерви харажатлари қоплаб берилди, 312 нафар ёшларга 389 млн сўм ҳайдовчилик гувоҳномаси харажатлари тўлаб берилди, 414 нафар ёшларга 9 млрд 246 млн сўм имтиёзли кредит маблағлари ажратилди, 852 нафар ёшларга деҳқончилик учун ўртача 20 сотихдан ер майдонлари ажратилди, 244 нафар ёшларга 287 млн.сўм илм-фан, спорт, санъат ва маданият йўналишларида ўқиш

харажатларини қоплаб берилди ва ҳоказо [9]. Бу қуруқ статистик рақамлар ортида фақатгина бир йил давомида мамлакатимизда ёшларнинг ҳар бир тоифасига берилаётган эътибор, уларга давлат томонидан кўрсатилаётган ғамхўрлик микёси йилдан-йилга кенгайиб бораётганлигидан далолат беради.

Ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш соҳасида Президентимизнинг ташаббус ва таклифлари билан бир қатор танловлар, нуфузли анжуманлар ўтказилапти. Жумладан, Қашқадарёлик ёшлар ҳам “Беш босқичли беш ташаббус” олимпиадасида иштирок этиб бир қатор муваффақиятларга эришиб, ота-оналари, устоз ва мураббийларининг олқишларини олишди.

Ёшлар тарбияси ва ҳаётида муҳим аҳамият касб этадиган таълим тизимида улкан ўзгаришлар амалга оширилди. Ёшларнинг замонавий илм-фан ва юқори технологияларни мукамал эгаллаши учун барча куч ва имкониятлар ишга солинмоқда. Мамлакатимизнинг барча ҳудудларида янгидан-янги олий таълим муассасалари, илмий ва ижодий марказлар ташкил этилаётганлиги, булар ёш авлоднинг эртаимизнинг муносиб эгалари бўлиб етишишларига хизмат қилаётганлигини алоҳида қайд этиш лозим. Президентимиз доимо таъкидлаб келаётганларидек, Учинчи ренессанс пойдеворини яратар эканмиз, ёшлар - халқимизнинг асосий таянчи ва суянчидир. Сўнгги тўрт йилда вилоятда янги олий таълим муассасалари ташкил этилиб, ҳозирда 7 давлат ва 6 хусусий олий таълим муассасалари фаолият олиб бормоқда. Бу дегани биргина вилоятдаги олий таълим муассасаларида ёшлар қўшимча равишда таълим олиш имкониятига эга бўлишди. Шунингдек, олий ўқув юртларига қабул қилишда эҳтиёжманд оилалар қизлари учун грантлар сонини 2 баробарга кўпайтирилиши, магистратурага кирган қизларни контракт пулларини давлат томонидан тўлаб берилиши, аёло баҳоларга ўқиётган, ижтимоий ҳимояга муҳтож талаба қизлар учун махсус

стипендиялар жорий этилиши ёшларга бўлган ғамхўрликни яна бир нишонасидир [10]. Ундан ташқари Президент мактаблари, “Темурбеклар мактаби”, ихтисослашган ва ижод мактаблари барпо этилдики вилоятда ҳам пойтахт каби замонавий таълим олиш учун имкониятлар кенгайди.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Бугун мамлакатимиз ёшлари томонидан эришилаётган улкан ютуқлар замирида Янги Ўзбекистон даврида ёшлар тарбияси, таълими, умуман, кадрлар тайёрлаш тизимига алоҳида эътибор қаратилгани мужассам. Умуман, ёшлар – том маънода катта куч, улар билан ишлашни тўғри ва самарали ташкил этиш эса ана шу кучни яратувчанлик, юксалиш, фаровон ҳаёт учун йўналтириш омили бўлади.

Мамлакатимизда ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш, уларнинг ҳаётга мустақил қадам қўйишлари учун барча зарур шароитларни яратишга, ёшларни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларнинг ахборот технологиялари бўйича саводхонлигини ошириш, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини таъминлашга ва шу билан бирга, ёшларда замонавий тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш ва янги иш ўринларини яратиш орқали уларнинг бандлигини таъминлаш, вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар ва жиноятчилик профилактикасини самарали ташкил этиш, оилавий ажримларнинг олдини олиш, ёш авлодда мустақам ватанпарварлик ғояси ҳамда қатъий фуқаролик позициясини шакллантиришга қаратилган ишлар мамлакатимиз олдида турган ёшларга оид давлат сиёсатининг муҳим вазифаларидан бўлиб қолаверади. Шунини инобатга олган ҳолда, ёшларга оид давлат сиёсатининг устувор йўналишларини, бу борада ҳаётга татбиқ этилаётган дастурларнинг мазмун-моҳиятини ёшларимиз онгига етказиш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан биридир. Биз бу йўлда ёш авлодга камарбаста бўлишимиз, уларни

ҳар томонлама қўллаб-қувватлашимиз | мақсадга мувофиқдир.

**АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА/REFERENCES):**

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи жорий архиви маълумотлари.
3. <https://president.uz/uz>
4. Ёшлар ишлари агентлиги Қашқадарё вилояти бошқармаси жорий архиви маълумотлари.
5. Ўзбекистон Ёшлар ишлари агентлиги жорий архиви маълумотлари.
6. Ёшлар ишлари агентлиги Қашқадарё вилояти бошқармаси жорий архиви маълумотлари.
7. Эргашева Ю. Ҳар томонлама тўғри тарбияланган фарзанд сиз кутгандан-да зиёда эътибор ва эҳтиром кўрсатади.// Халқ сўзи, 2024 йил, 2 феврал.
8. Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи Қашқадарё вилоят Кенгаши жорий архиви маълумотлари.
9. Ёшлар ишлари агентлиги Қашқадарё вилояти бошқармаси жорий архиви маълумотлари.
10. Ergasheva Yu.A. Main Trends in the Development of the Higher Education System of Uzbekistan// Academic Journal Incorporations, 2023/8/20.

ЎЗБЕКИСТОНГА АҲОЛИНИ КЎЧИРИШ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН: ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ДЕМОГРАФИК ОМИЛЛАР

Толипов Файзулла Саидович,

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Ижтимоий фанлар кафедраси профессори, тарих фанлари доктори (DSc)

e-mail: tolipovfayzulla1971@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-0110-4333>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: мақолада XIX аср охири - XX асрда Россия империяси ва совет давлатининг Ўзбекистонга аҳолини кўчириш сиёсати тарихи, унга таъсир этган ижтимоий-иқтисодий ва демографик омиллар, ўзбек халқининг кўчирилган халқларга нисбатан кўрсатган бағрикенглиги, ҳукуматнинг олиб борган ички ва ташқи сиёсати баён қилинган. Унда дастлаб Россия империяси, сўнгра иккинчи жаҳон уруши йилларида турли халқларнинг ғарбий ўлкалардан кўчириб келтирилиши, эвакуация қилиниши ва уларнинг тақдири ёритилган.

Калит сўзлар: аҳоли, халқ, миллат, кўчириш, Ўзбекистон, Россия империяси, совет давлати, бағрикенглик, эвакуация, уруш, корхона, ишлаб чиқариш, этник, болалар, жасорат.

Аннотация: в статье описывается история переселенческой политики Российской империи и советской власти народов в Узбекистан в конце XIX – XX века. В нём анализируется социально-экономические и демографические факторы, оказавшие на нее влияние, толерантность узбекского народа к переселенным народам, а также внутренняя и внешняя политика правительства. В ней освещаются эвакуация в годы Второй мировой войны различных народов из запада и их судьба.

Ключевые слова: население, народ, нация, расселение, Узбекистан, Российская империя, советское государство, толерантность, эвакуация, война, предприятие, производство, этнический, дети, мужество.

Abstract: the article describes the history of the resettlement policy of the Russian

Empire and the Soviet power of various peoples in Uzbekistan in the late XIX - XX centuries. It analyzes the socio-economic and demographic factors that influenced it, the tolerance of the Uzbek people to the resettled peoples, as well as the domestic and foreign policy of the government. It highlights the evacuation of various peoples from the West by Soviet power during the Second World War and their fate.

Keywords: population, people, nation, resettlement, Uzbekistan, Russian Empire, Soviet state, tolerance, evacuation, war, enterprise, production, ethnic, children, courage.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Бугунги кунда Ўзбекистондаги барча миллат ва элатлар бир хил ҳуқуқ ва мажбуриятларга эгадирлар. Уларнинг мамлакат қонунларида белгилаб қўйилган ҳуқуқ ва эркинликлари, манфаатлари тўлиқ таъминланган. Ўзбекистондек кўп миллатли мамлакатда жамиятни ижтимоий-маънавий янгилашдан кўзланган бош мақсад – ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, диний бағрикенгликни таъминлашдан иборатдир. Бу мамлакат қонунларида ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда, айниқса Конституцияда ўз аксини топган. Унинг 4-моддасида Ўзбекистон Республикаси ўз ҳудудида истиқомат қилувчи миллат ва элатларнинг тиллари, урф-одатлари ва анъаналари ҳурмат қилинишини таъминлайди, уларнинг ривожланиши учун шароит яратади, 8-моддасида эса Ўзбекистон халқини миллатидан қатъи назар, Ўзбекистон Республикасининг

фуқаролари ташкил этиши белгилаб қўйилган [1. 4-8 моддалар].

Дунё халқлари тилларида миллатлараро тотувлик, яъни толерантлик сўзи кенг қўлланилади. Аслида толерантлик (лотинчада чидамлик) - ўзгаларнинг турмуш тарзи, хулқ-атвори, одатлари, ҳис-туйғулари, фикр-мулоҳазалари, ғоялари ва эътиқодларига нисбатан чидамлик ва бағрикенглик кўрсатишдир. Толерантлик, бу-ҳар хил миллат вакиллари ва турли диний эътиқодларга эга бўлган кишиларнинг бир замин, бир ватанда олийжаноб ғоя ва ниятлар йўлида ҳамкор, ҳамжихат бўлиб яшашини англатади. Шу маънода толерантлик ва полиэтник хусусият Ўзбекистон жамиятининг муҳим белгиларидан биридир. Давлат ички сиёсатининг асосий талабларидан бири бу, турли миллат вакиллари хурмат қилиш ва уларнинг яшашлари учун барча шарт-шароитларни яратиб беришдан иборатдир.

Республиканинг полиэтник хусусияти унинг ўзига хослигидир. Мамлакатимиз аҳолиси этник таркибида туб аҳоли устун мавқеини эгаллайди. Туб жой аҳоли (автохтон халқ) нинг асосий қисмини ўзбеклар ташкил этади, уларнинг умумий аҳоли салмоғидаги улуши салкам 80 фоиздан ортиқроқдир [2. -С. 87. -С 203] . Бу ерда ўзбеклардан ташқари титул миллат вакиллари орасида қорақалпоқ, тожик, қozoқ, қирғиз, туркманлар ҳам азалий халқлар ҳисобланадилар. Улардан ташқари, қozoқ, қирғиз, тожик, туркман, уйғур, татар, бошқирд, славян халқларидан рус, украин, белорус, поляк, латиш, корейс, умуман 130 дан ортиқ миллатлар истиқомат қиладилар, Барча миллатлар фаолиятини мувофиқлаштирувчи 137 та миллий маданий марказлар фаолият юритмоқда. Мамлакатда 16 та диний конфессия фаолият юритади. [3. 26.01].

МУҲОКАМА. (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ўзбек халқи қадимги даврларидан то ҳозиргача улкан тарихий ва этноэволюцион жараёнларни бошдан кечирди. Натижада кўпмиллатли Ўзбекистон халқи шаклланди. Бунда минтақанинг қулай иқлим ва табиий

шароити, меҳмондўст халқи онгида шаклланган бағрикенглик принциплари, шунингдек бой хом ашё ресурсларига эга эканлиги азалдан турли халқларни кириб келишлари учун муҳим омил бўлган. Ўзбекистоннинг полиэтниклик хусусияти айниқса Россия империяси Туркистонни босиб олгандан сўнг янада кенгайган. Кўчириб келтирилган турли миллатларнинг асосий қисми Россиянинг Ғарбий минтақаларидан келиб жойлашганлар эди.

Шу тарика Ўзбекистонга кўчириб келтирилганлар аста-секин ошиб борган, Хусусан, XIX аср охирига келиб ўлкада русларнинг умумий аҳоли таркибидаги салмоғи 1.9% ни ташкил қилган бўлса, кейинчалик Марказий Россиядан ўлкага доимий яшаш учун келаётганлар сони кўпая бошлаган.. Шу боисдан Туркистон шаҳарларида европалар яшовчи шаҳар кварталлари ва қишлоқлари ташкил этилди. Жумладан, 1875-йилдан то 1890-йилгача Туркистонга 1300 аҳоли кўчиб келтирилиб, 19 та рус қишлоғи вужудга келди. 1891-1892-йилларда Россияда очарчилик кучайган пайтларда Туркистонда бундай қишлоқлар сони 25 тага етди. 1906 йилга келиб ўлкада 266 000 руслар рўйхатга олинган, яъни улар умумий аҳолининг 4,5 % ни ташкил қилганлар [3. С. 87]. Марказий ҳукумат ҳар қандай йўл билан бўлса ҳам маҳаллий аҳолига мансуб унумдор ерларни рус оилаларига ажратиб беришга ҳаракат қилган ва ер солиқларини ошириб, маҳаллий аҳолининг ўз ерларини сотишга мажбур этганлиги тарихий манбаларда мавжуд.

Бундай «бўш турган ерлар», биринчи навбатда, ҳарбий хизматдан бўшаган аскарларга, Россиядан кўчириб келаётган аҳоли вакилларига берилди. Ана шундай ўтроқ районлардан тортиб олинган ерлар Сирдарё вилоятида 47600 таноб, Фарғона вилоятида 75000 таноб, Самарқанд вилоятида 3000 минг таноб, Каспийорти вилоятида 7000 танобни ташкил этган. Россия империясининг Марказий Осиёни забт этиши ўлкада ижтимоий-иқтисодий муносабатлар ва унинг характерини

тубдан ўзгаришига олиб келди. Айниқса тарихан шаклланган ер эгалиги муносабатлари билан бирга, мустамлака бошқарув тизимининг ўлка иқтисодиётига фаол аралашувнинг шакллангани шубҳасиз. Бу даромад ва фойда олиш манбалари, турлари ҳамда уларнинг шакллари ҳам таъсир кўрсатмасдан қолмади. Бу ўз ўрнида маҳаллий аҳолиларга қўшимча юк бўлганлиги шубҳасиз. Аммо маҳаллий аҳоли вакиллари кўчириб келтирилганларга нисбатан адоватда бўлмади, аксинча уларга ер-сув, мол-мулк ажратишда кўмак бериб, бағрикенглик кўрсатди.

Яна тарихий маълумотларга эътибор қаратилса, Россиянинг Марказий қисми, Поволжье, Урал, Волгабўйи ҳудудларидан европалик аҳолининг ёппасига кўчиши асосан 1906-1910 йилларда ўтказилган Столыпин аграр реформаси ҳамда 1891-1892 йиллардаги, 1912, 1914 йиллардаги очарчилик ва қурғоқчиликлар даврида ҳам кучайган. Гарчанд, ўлкада алоҳида рус қишлоқлари ва шаҳарларда даҳалар ташкил топган бўлса-да, кўчириб келтирилган аҳолининг бир қисми қишлоқларга ҳам жойлаштирилган. Биргина Фарғона областида 1907 йилда 24 346 та шарқий славян миллатига мансуб аҳоли яшаган бўлса, шаҳарларда уларнинг сони 14 722 та бўлган, Тошкент уездининг ўзида 1917 йилга келиб 28 та рус қишлоқлари мавжуд бўлган. Аҳолининг яна талай қисми Семиречинск ва Сирдарё областлари қишлоқларига жойлаштирилган. 1913 йилга келиб Сирдарё областида уларнинг сони тахминан 161 861 тани ташкил қилган [4. 87-88].

Ўша пайтдаги аҳолининг этник таркибига эътибор қаратилса, ўлка шаҳар ва қишлоқлари аҳолиси орасида айниқса ўзбек, тожик, қozoқ, туркман, уйғур ва русларнинг нуфузи юқори бўлган. Аҳолининг асосий қисмини ўзбеклар ташкил этган. Йирик шаҳарларда бошқа миллат вакиллари ҳам истиқомат қилганлар. Хусусан, биргина Тошкент шаҳрида подшо Россияси томонидан

аҳолини ялпи рўйхатга олиш маълумотларига кўра ўзбеклар шаҳарликларнинг - 82,5 фоизни, руслар – 11,4 фоизни, тожиклар, татарлар, қozoқлар, Ўрта Осиё яҳудийлари, арманлар ва бошқалар 6.1 фоизини ташкил этганлар. Умуман, XIX асрнинг охирида ўлкада 116 та рус посёлкаси қурилиб, уларда 70745 киши истиқомат қилган. XX аср бошига келиб, Туркистондаги рус аҳолисининг сони 197420 кишига етди [5. 203].

Минтақада яшаган рус, украин, белорус, поляк, казаклардан ташқари бу ерда араблар, яҳудийлар, лўлилар ҳам яшаганлар. Бинобарин, йирик шаҳарларда ўзбеклар билан бирга бошқа этнос вакиллари ҳам ёнма-ён, ҳатто аралаш яшаб келганлар. Хусусан, ўзбеклар зич яшайдиган Тошкент, Бухоро, Самарқанд, Қўқон, Хўжанд, Кармана, Термиз, Нурота каби шаҳарлардаги маҳаллаларда тожик, туркман, араб, яҳудий, уйғур, лўли (цыган) каби этнослар, этник ҳамда этнографик гуруҳлар нисбатан зич тарқалганлар. Улар орасида сон жиҳатдан кўпчиликни ташкил этувчи халқлар ўзбеклардан сўнг тожиклар бўлиб, улар республиканинг барча шаҳарларида туб-жой аҳоли сифатида рўйхатга олинганлар.

Ўзбекистонга кўпгина миллатларнинг ёппасига кўчиб келишининг иккинчи тўлқини иккинчи жаҳон уруши йилларига тўғри келади. Ушбу даврдаги кўпмиллатлиликнинг тарихий асосларига эътибор қаратилса, Ўзбекистонга ўнлаб бошқа миллат вакиллари кўчириб келтирилди. Ўзбек халқи уларни ўз оға инисидек бағрига олди. Бу борада рақамларга мурожаат этсак, 1941 йилда Ўзбекистон аҳолиси жами 6 миллион 551 минг кишини ташкил этган ва уларнинг 1 миллион 500 мингга яқини урушда иштирок этган, деб ҳисобланар эди. Тўпланган янги маълумотларга кўра, Ўзбекистондан 1 миллион 951 мингга яқин киши урушга сафарбар этилган. [6. 2020.10.05]. 1941 йилнинг охиригача 300 га яқин корхона ҳарбий изга солинди, жанговар техника, қурооллар, ўқ дори ишлаб чиқаришга мослаштириб қайта

қурилди. Бу корхоналарда фронтга сафарбар этилган эркаклар ўрнини кексалар, хотин-қизлар эгалладилар. Уруш бўлаётган ва душман яқинлашиб келган ҳудудлардан муҳим саноат корхоналарини колхоз, совхоз ва МТС лар мулкларини, маданий бойликлар ва ўқув юртларини Шарққа, жумладан Ўзбекистонга кўчириш, жойлаштириш ишлари бошланиб кетди. Фашистлар томонидан ёндирилган, вайрон қилинган шаҳарлар ва қишлоқларнинг аҳолиси, оталари, урушнинг дастлабки кунлариданоқ ҳалок бўлганларнинг болалари, юз минглаб кишилар улкан оқим бўлиб кўчиб кела бошладилар.

Уруш йиллари ўзбек халқи ҳақиқий инсонпарварлик кўрсатдилар. Хусусан, 1941-1942 йилларда Ўзбекистонга 15649 нафар бола кўчириб келтирилган. Бу жараён ундан сўнг ҳам давом этди. Кўпгина аҳоли вакиллари икки ва ундан ортиқ етим болаларни ўз тарбияларига олдилар. 1943 йилнинг охирига келиб шаҳарларда 4672 бола, қишлоқларда эса, 870 бола ўзбек халқи томонидан тарбияга олинган эди [7. №78.78]. Уруш арафасида республикада 106 та болалар уйида 12 минг бола тарбияланган бўлса, 1945 йилга келиб, уларнинг сони Ўзбекистон вилоятларида ва Қорақалпоғистонда 263 та болалар уйида 31300 болага етди. Ўзбек халқи урушнинг дастлабки йилларида Россия, Украина, Белоруссия Молдавия, Болтиқбўйи республикаларидан кўчирилиб келтирилган бир миллиондан кўпроқ кишиларни, шу жумладан 240 мингдан кўпроқ болаларни ўз бағрига олди [8. Б. 53].

Ўзбек халқининг тарихий жасоратлари ҳақидаги маълумотларга мурожаат этадиган бўлсак, биргина 1941 йил декабрга қадар Ўзбекистондаги шаҳар ва қишлоқларга 525 минг нафар аҳоли келтирилиши ва жойлаштирилиши режалаштирилган. Амалда уларнинг сони 665419 нафарни ташкил этган. 1942 йил январ ойининг ўрталарида Тошкент тумани маҳаллаларига 2712 киши эвакуация қилинган. Уларнинг 1252 нафари эркаклар, 1460 нафарини аёллар

ташкил этган. Улар руслар - 1913, украинлар - 126, белоруслар-33, яҳудийлар -569, арманлар -9, татарлар - 13, поляклар - 6, немислар - 3, греклар - 2, латишлар - 7, молдованлар - 8, шведлар-1, чувашлар - 6, эстонлар – 5, бошқа миллат вакиллари 8 нафарни ташкил этган. Жами Тошкент вилоятига 1942 йил январ ойининг ўрталаригача келганларнинг сони 5414 кишини ташкил этган. Улардан 2341 нафари эркаклар, 3073 нафари аёллар бўлган [9. Б.53].

Жами Тошкент вилоятига 1942 йил январ ойининг ўрталаригача келганларнинг сони 5414 кишини ташкил этган. Улардан 2341 нафари эркаклар, 3073 нафари аёллар бўлган. В.Ишқувватов, Ф.Толиповларнинг ёзишича, 1941 йилнинг ноябр ойи давомида Украинадан Ўзбекистонга 54029 нафар (жумладан, Одесса областидан -9508, Киевдан- 7528, Днепетровскдан -4238, Харьковдан -3490, Винницкдан -2810, Житомирдан -2082 киши) киши эвакуация қилинган эди. Уруш йилларида биргина Сурхондарё вилоятига 20 мингдан ортиқ аҳоли келтирилиб жойлаштирилган бўлса, уларнинг 3.5 мингтаси ёш болалар эди. Эвакуация қилинган аҳоли учун Самарқанд вилоятининг Булунғур, Жомбой, Нарпай, Пастдарғом ва бошқа туманларидаги маҳаллаларда ҳам болалар уйлари ташкил этилади. Уларда 4270 нафардан ортиқ бола тарбияланган, Бухоро вилоятидаги маҳаллаларга эса 150 мингдан ортиқ эвакуация қилинган аҳоли жойлаштирилган.

1941 йилда Наманган вилояти маҳаллаларига Украина, Белорусия, Болтиқбўйи республикаларидан 19 минг киши эвакуация қилинган. Уларнинг 1674 нафари иш билан таъминланган. Тўрақўрғон, Янгикўрғон ва Поп туманларида махсус болалар уйлари ташкил қилинади. Қорақалпоғистонга эса 3891 нафар киши кўчириб келтирилган. 900 оила ота-онасидан ажралган етим болаларни ўз тарбиясига олади. Шунингдек ҳарбий хизматчиларнинг ва кўчириб келинганларнинг 20,3 минг нафар

болалари болалар боғчасига, яслиларга ва болалар уйига жойлаштирилади [10. 38-41].

Улар турли болалар уйлари ва шахсий хонадонларга жойлаштирилди. Яъни, Ўзбекистонга кўчиб келтирилган халқлар ташкил қилинган болалар уйларига ва ўнлаб ҳарбий госпиталларга республика халқи, ташкилотлари, маҳаллалар тасарруфига бириктирилди. Маҳаллий ҳукумат аҳоли билан ҳамкорликда оталиқ сифатида болалар уйи ва госпиталларни озик-овқат, мева-чевалар билан таъминлаб турганлар, Ўзбекистон ҳақиқий инсонпарвар ўлкага айланиб, халқ ўз бағрикенглигини намоиш этди. Бундай мисолларни яна кўплаб келтириш мумкин. Бу эса ўзбек халқи миллий менталитетига ва Ўзбекистонда шаклланган ҳақиқий бағрикенгликнинг ифодаси эди.

Ўзбекистон – толерантликка асосланган демократик давлатдир. Бу иборани ҳамиша ифтихор билан тилга оламиз. Бунга тўла асослар бор. Тарихдан маълумки, халқ ўз бошидан кечирган оғир қатағон йиллари ва иккинчи жаҳон уруши йиллари кўп ситамларга юз тутган корейслар, немислар, турклар, поляклар, греклар, қрим-татар ва бошқа миллат вакиллари Ўзбекистонни Ватан тутдилар. Уларнинг ҳозирги авлодлари учун Ўзбекистон она Ватанга айланди. Чунки улар шу ерда туғилиб, камолга етдилар, ҳаётда ўз ўрнини топдилар. Ҳозирги кунда Ўзбекистондаги миллий маданий марказлар ўз халқининг анъаналари, маросимларини тиклаш, уларни шу ерда яшовчи бошқа миллат вакиллариغا яқиндан таништириш, қолаверса, ўзбек халқининг маданияти, санъати, тили, урф-одатларини тарғиб этишга алоҳида эътибор қаратиб келмоқда. Бу саъй-ҳаракатлар табиийки мамлакатда миллатлараро муносабатларни янада мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда.

Миллий марказлар фаолиятининг натижаси сифатида “Ўзбекистон – умумий уйимиз”, “Шу азиз Ватан барчамизники”, “Қудратимиз-бирлик ва ҳамжиҳатликда”, “Мақсад бир, ғоя бир, Ватан ягона”, “Ватан ягонадир – Ватан биттадир” ғояларининг асл моҳиятини чуқур англаб

етган ҳолда турли миллат вакиллариининг шу муқаддас Ватаннинг буюк келажагини куриш ва унинг мустақиллигини янада мустаҳкамлаш йўлида фидойилик билан сидқидилдан қилаётган меҳнат фаолиятларида, турли соҳаларда қўлга киритаётган ютуқларида ёрқин намоён бўлмоқда.

Миллатлараро тотувлик бу хилма-хил миллатларнинг олижаноб ғоя ва ниятлар йўлида ҳамжиҳат бўлиб бир минтақада яшаши, жамият ва давлат равнақи йўлида биргаликда фаолият кўрсатишларини англатади. Бу ғоя эзгулик йўлида нафақат турли миллатлар, балки жамиятнинг барча аъзолари ҳамкорлигини назарда тутди. Миллатлараро тотувлик тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлаш, озод ва обод Ватан куришнинг муҳим шартидир. Қадимдан диёримизда ўзбек қозоқ, қорақалпоқ, қирғиз, туркман, уйғур, афғон, рус, украин, татар, бошқирд, корейс ва бошқа миллатлар вакиллари биргаликда, тинч-тотув яшаб келганлар. Шаҳар ва қишлоқларимизда масжидлар, черковлар, синагогалар фаолият кўрсатган. Уларда турли миллат, элат ва динга мансуб халқлар, ўз миллий урф-одат ва маросимларини эмин-эркин адо этганлар, ўз кадриятларини асраб келганлар. Ватанимиз тарихининг энг мураккаб, зиддиятли, оғир даврларида ҳам юртимиздаги мавжуд миллатлар вакиллари орасида этник зиддиятлар ва можаролар бўлган эмас. Бу юртимиз халқларининг ўзаро тотув, биргаликда яшаб келганликлари борасида катта тажрибага эга эканлигидан далолатдир.

Мамлакатни стратегик тараққиётини таъминлаш олиб борилаётган ислохотлар самарасини янада ошириш, давлат ва жамиятнинг ҳар томонлама жадал ривожланиши учун шарт шароитлар яратиш, мамлакатимизни модернизatsia қилиш ҳамда ҳаётнинг барча соҳаларини либераллаштириш барча устувор йўналишларни қамраб олган “Ўзбекистон-2030” стратегиясида ҳам ўз аксини топди. Унинг 100 мақсади “Жамиятда миллатлараро тотувлик муҳитини

мустаҳкамлаш ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини ривожлантириш” деб номланган. Миллатлараро муносабатлар соҳасида илмий-оммабоп мақолалар сонини 3 бараварга ошириш. Дўстлик жамиятлари сонини 60 тага етказиш ҳамда биродарлашган шаҳарлар сонини 2 бараварга ошириш белгиланганлигининг ўзи ушбу масалада давлат сиёсатининг муҳимлигини англатади [11. 12.09.2023]. Мамлакат Конституциясида эса давлат конституциявий тузуми, суверенитети, ҳудудий яхлитлигини муҳофаза қилиш, фуқаролик, миллатлараро ва конфессиялараро тинчлик ҳамда тотувликни мустаҳкамлаш масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратилган.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Умуман, XIX аср охири - XX асрда Россия империяси ва совет давлатининг Ўзбекистонга аҳолини кўчириш сиёсати натижасида кўплаб миллат вакиллари Ўзбекистонга келиб жойлашдилар. Улар шу ерни ватан тутдилар. Ўзбекистон кўпмиллатли, ёки бир сўз билан айтганда полиэтник давлатга

айланди, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик Ўзбекистондаги миллатлар онгига, маънавий дунёсига таъсир кўрсатди. Турли миллат вакиллари бу ердаги ғамхўрлик, бағрикенглик туфайли давлат ва жамиятнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ўз ўрнига эга бўла бошладилар. Бу ҳолат ҳозир ҳам давом этиб, янги Ўзбекистонда тобора ўзининг ижтимоий-сиёсий мавқеини сақлаб келмоқда. Олиб борилаётган изчил ислохотлар натижасида миллатлараро тотувлик жамиятнинг янги Ўзбекистон тараққиётидаги барқарорлик ва осойишталигини сақлашга, урф-одатлар ва анъаналарни авайлаб-асрашга, уларни фуқаролар маънавий турмушига айлантиришда ҳал қилувчи кучга айланиб бормоқда. Ўзбекистонда бугунги кунда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилган. Ушбу масала азалдан халқ менталитети ва инсонпарварлигининг ёрқин ифодаси бўлганлигини кўриш мумкин. Бунга юқорида қайд этилган тарихий мисоллар ёрқин далилдир.

АДАБИЁТЛАР ВА МАНБААЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т. 2023. 4-8 моддалар.
2. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. Т, 2011. С 87.: Гаффоров Ш. Туркистонда Россия империясининг аҳолини кўчириш сиёсати ва рус-тузем мактаблари. // Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон. Илмий-анжуман материаллари. – Т., 2003. – 203-бет.
3. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко... С 87.
4. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко...- С 87.
5. Пален К.К Отчёт по ревизии Туркестанского края. Сельское управление: Русское и туземное. – Часть II. Отдел 1. СПб., 1911. С. 27.
6. Аждодлар жасорати ва хотирасига юсак эҳтиром // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Буюк ғалабанинг 75 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. // Янги Ўзбекистон.- № 80. - Т., 2020 йил. 10 май.
7. Ишқувватов В., Толипов Ф. Маҳалла: ўтмишда ва бугун. -Тошкент., 2014.-Б. 53.
8. Ишқувватов В. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг ривожланиш тарихи. Т., 2020. Б 39.

9. Ишқувватов В. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг ривожланиш тарихи. Т., 2020. Б 39.

10. Ишқувватов В. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг ривожланиш тарихи. Т., 2020. Б 39.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон-2030» стратегияси тўғрисидаги Фармони. ПФ-158-сон // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023.

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНГА КЎЧИРИЛГАН ХАЛҚЛАР ТАҚДИРИ

Холмунинов Хусан Эшмўминович,

*Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари доктори (DSc)*

E-mail xusan_75xolmuminov@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0003-6634-6020>

Бобомуродов Ислонбек Нарзулла ўғли,

Термиз давлат университети Тарих мутахассислиги магистранти

UO'K: 910.4 (091):94.(584.4)

Аннотация: Мақолада иккинчи жаҳон уруши йилларида совет ҳукуматининг кўчириш сиёсати натижасида собиқ иттифокнинг турли ҳудудларидан бир қатор халқларни Ўрта Осиё ва Қозоғистон ҳамда Ўзбекистонга кўчириш сиёсати ва унинг ижтимоий оқибатлари масалалари таҳлил этилди. Кўчирилган халқларга нисбатан мамлакатимиз аҳолисининг оғир синовли давларда кўчириб келтирилган халқларга нисбатан кўрсатган, бағрикенглик, ҳамжиҳатлик ва биродарлик ҳислатларининг ўзига хос жиҳатлари илмий таҳлил этилди.

Калит сўзлар: Совет ҳукумати кўчириш сиёсати, Узоқ Шарқ, Бурятия, Монголия АССР, Хабаровск, Приморье ўлкасидан аҳолини кўчириш сиёсати, бағрикенглик, миллатлараро тотувлик, ҳамжиҳатлик.

Аннотация: В статье были проанализированы вопросы политики переселения ряда народов из различных регионов бывшего Союза в Среднюю Азию, Казахстан и Узбекистан в результате политики переселения советского правительства в годы второй мировой войны и ее социальные последствия. Были научно проанализированы характерные черты толерантности, солидарности и братства, проявленные жителями нашей страны по отношению к переселенным народам в трудные испытательные моменты.

Ключевые слова: политика советского правительства по переселению, политика переселения из Дальнего Востока, Бурятии, Монгольской АССР, Хабаровского,

Приморского края, толерантность, межнациональное согласие, сплоченность.

Annotation: The article analyzes the policy of resettlement of a number of peoples from various regions of the former Soviet Union to Central Asia, Kazakhstan and Uzbekistan as a result of the resettlement policy of the Soviet government during the Second World War and its social consequences. The scientific analysis of the specific aspects of the tolerance, solidarity and brotherhood shown by the population of our country towards the resettled peoples during difficult times is carried out.

Keywords: The resettlement policy of the Soviet government, the policy of relocating people from the Far East, Buryatia, Mongolian ASSR, Khabarovsk, Primorye, tolerance, interethnic harmony, solidarity.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUSTION). Ўзбекистон азалдан кўп миллатли юрт бўлиб, унда турли халқ ва элат вакиллари елкадош бўлиб ҳаёт кечирганлар. Бу ҳамжиҳатликнинг асосий омили ўзбек халқига хос бўлган сабр-қаноатчилик ва бағрикенглик фазилатларининг узвий қисмига айланганлиги билан изоҳланади. Айтиш мумкинки, истиқлол йилларида бу азалий анъана янгича мазмун касб этмоқда.

Жаҳон тажрибаси миллатлараро тотувликни таъминлашга бир ёқлама, юзаки ёндашув жиддий муаммолар келтириб чиқаришини кўрсатди. Хусусан, давлатга ўз номини берган (титул) миллат билан ўша жойда яшайдиган бошқа миллат ва элат вакиллари орасидаги муносабатлар

жиддий эътиборни талаб қилади. Акс ҳолда, жамият ҳаётидаги тинчлик ва барқарорлик издан чиқиши мумкин.

Халқимиз бағрикенг, одамларимизнинг қалби дарё, саховати тенгсиз. Бу олижаноб фазилятларнинг ҳамма вақт, ҳатто энг қийин даврларда ота-боболаримиз ўзга миллат вакилларига бошпана берди, улар билан бир бурда нонни баҳам кўрди [1:Б. 48.]. Шу сабаб оғир синовли дамларда Ўзбекистон улар учун иккинчи Ватан бўлди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Тарихдан маълумки, 1937-1950 йилларда қатағонлик сиёсати оқибатида собиқ иттифокнинг турли ҳудудларидан бир қатор халқларни Ўрта Осиё ва Қозоғистонга кўчириш сиёсати амалга оширилди. Бундай сиёсатнинг асл мақсади халқларни бири-биридан ажратиш ва жазолаш учун амалга оширилган эди. Совет ҳукуматининг бу хатти-ҳаракатлари фашистлар оккупацияси даврида айрим кишилар ва гуруҳларининг хоинлиги учун берилган жазо мамлакат хавфсизлигини кўриқлаш [2: Б.116.] деб таърифланган эди.

Жумладан 1940-1950 йилларда собиқ СССР нинг турли ҳудудларидан бир қатор халқларни Ўрта Осиё ва Қозоғистонга кўчириш сиёсати ўтказилиб, бу асосан бутун халқларни бир-биридан ажратиш ва жазолаш мақсадида амалга оширилганди. Бу даврда совет ҳукуматининг бу хатти-ҳаракатлари фашистлар оккупацияси даврида айрим кишилар ва гуруҳларининг хоинлиги учун берилган жазо мамлакат хавфсизлигини кўриқлаш деб таърифланган эди.

Жумладан 1937 йил 21 августда 1428-326-сонли “Узоқ Шарқ чегара районларидан корейс халқини кўчириш” тўғрисидаги қарорига мувофиқ, Узоқ Шарқ, Бурятия, Монголия АССР, Хабаровск, Приморье ўлкасидан ҳамда Чита вилоятларидан корейс халқларини Қозоғистон ва Ўрта Осиё республикаларига оммавий тарзда зудлик билан кўчириш белгиланган эди. Марказ кўрсатмасига мувофиқ, 1937 йил кузида 11 минг корейс оилалари (55 минг киши)

Ўзбекистонга кўчириб келтирилди. 1938 йил ноябрида Ўзбекистонда яшаётган корейс оилалари сони 16,3 минг нафар (74,5 минг киши)га етди [3:69.Б.]. Кўчириб келтирилган корейслар даставвал барча ҳуқуқ ва имтиёзлардан маҳрум этилган эди. 1953 йил Сталин вафотидан кейингина улар барча фуқаролар каби тенг ҳуқуқли имтиёзлари тикланиб, эркин яшаш имкониятига эга бўлишган. Ҳозирги вақтда уларнинг кўп қисми Сахалин, Жанубий Сахалин шаҳарларида истиқомат қилишмоқда. 1989 йилдаги аҳоли рўйхати маълумотларига кўра, қарийб 100 мингга яқин корейслар Қозоғистон республикасида ва 183,1 мингга яқини Ўзбекистонда истиқомат қилишган[4: Б.35].

1943-1944 йилларда қалмиқлар, қрим татарлари, чеченлар, ингушлар, немислар, қорачойлар, понтия греклари, месхети турклари, болқорлар ўзларининг тарихий ватанлари, доимий ёки вақтинчалик яшаш жойларидан мамлакатнинг шарқий туманларига кўчириб юборилди[5: Б.18].

Маълумотларга кўра, 1936-1952 йиллар мобайнида 20 дан ортиқ миллат вакилларида иборат қарийб 3 млн.га яқин киши хоинликда айбланиб, марказ кўрсатмасига мувофиқ Сибирь ва Ўрта Осиё республикаларига мажбуран кўчириб юборилган эди. Қатағонга учраган халқларнинг саккизтаси ўз она юртларидан бутунлай кўчирилиб юборилган[6: Б.80] бўлиб, булар Поволжье немислари, қалмиқлар чеченлар, ингушлар, қорачойлар, болқорлар, қрим-татарлари ва месхети турклари эди [7: Б.58].

Бу даврда собиқ иттифок мудофаа вазирлиги буйруғи билан 1944 йил 18 майида “Ватан хоинлари” сифатида Ўзбекистонга кўчириб келтирган қрим-татарларининг умумий сони 889.400 кишини ташкил этган. “Ишончсиз” ҳисобланмиш бу халқлар кўчирилаётган вақтдаёқ конституциявий ҳуқуқларидан маҳрум этилиб, республикада ишчи кучига эҳтиёж кучли бўлган Олмалик, Бекобод, Чирчиқ каби саноат шаҳарларига, яъни янги ўзлаштирилган ерларда барпо этилган

колхоз ва совхозларга жойлаштирилган. Етарлича шарт-шароитлар бўлмаганлиги боис кўчириб келтирилган вақтнинг ўзидаёқ бадарга қилинганлардан 195000 киши вафот этган[8: Б.80].

Шунингдек, 1944 йил 1 октябргача бўлган маълумотга кўра, Ўзбекистонга Қримдан 147170 кишидан иборат 37325 оила кўчирилган, шундан 18444 таси корхоналарга, 18881 таси колхоз-совхозларга жойлаштирилди. Бундан ташқари 175 минг нафар чеченлар, 157 минг нафар ингушлар, 4,5 минг нафар болқор, арман ва греклар келтирилди[9: Б.69].

Архив маълумотига кўра, Фарғона вилоятига жойлаштирилган Қримдан ва Грузиядан махсус кўчирилганлар (1945 йил 1 июлгача) 6569 оиладан 4322 оила колхоз аъзолигига қабул қилинган ва шахсий томорқа ҳамда ер билан таъминланган ҳамда 3847 оиладан 979 оила қишлоқ хўжалиги кредитини олган[10: Б.471].

Қора денгиз бўйларида ва Қримда истиқомат қилган грекларни кўчиришнинг иккинчи босқичида 1949 йил 12 минг этник греклар Тошкент, Чирчиқ, Янгийўл шаҳарларига жойлаштирилди. Улар учун махсус 14 та шаҳарчалар барпо этилди[11: Б.48]. 1949 йил 1 январ маълумотларига кўра Ўзбекистонга махсус кўчирилганлар сони 177 090 кишини ташкил этган[12: Б.471].

Бу даврда кўчириб келтирилганлар мухтожлик ва оддий шарт-шароитлар йўқлигига қарамай, янги жойларга аста-секин ўрганиб, мослашиб бордилар. 1944 йилнинг июлидан 15 августигача махсус кўчирилганларни озиқ-овқат билан таъминлаш асосан қониқарли даражада бўлган. Давлат мудофаа Қўмитасининг қарорига мувофиқ, махсус кўчирилган ҳар бир киши йиллик норма ҳисобидан 8 кг ун ва 2 кг ёрма шаклида давлат ссудаси билан таъминланган[13: Б.471].

Кўчирилган аҳоли хўжаликларига ҳукумат баъзи ижтимоий-иқтисодий характердаги чора-тадбирлар белгиланган бўлса-да, лекин аксарият тарзда улар

ҳамма жойда таъкиб этилди, махсус лагерларга “жойлаштирилиб” турли қийноқларга дучор қилинганлиги қайд этилган.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, халқларни кўчириб юборишнинг барча зарарли оқибатларини баҳолаб чиқиш қийин. Бу одамларнинг нобуд бўлиб кетганлиги билангина эмас, балки кўчирилган халқлар маданияти, миллий давлат тузилиш принциплари бузилганлиги, республикалар ва автоном вилоятлар мустақиллиги поймол этилганлиги билан ифодаланади.

Уруш йилларида аҳоли таркибида ҳарбий хизматчилар оилалари, эвакуация қилинганлар, уруш туфайли ногирон бўлганлар, етим болалар, асир олинганлар каби ижтимоий гуруҳлар ҳам кўчирилиб[14: Б.177], уларнинг таркибида турли миллат вакиллари бор эди. Шубҳасиз, бу каби ҳолатлар migrants жараёнларининг ўзига хос хусусиятларини белгилар эди. Ўша йиллари 682 нафар япон асирлари ҳам Ўзбекистонга келтирилди[15: Б.35].

Японлар дастлаб, турли айбловлар билан оғир ишларга жалб этилиб, қийноқларга дучор этилган. Шу боис кўплаб япон фуқаролари оғир турмуш шароити ҳамда тортилган азоб укубатлар туфайли ўзга юртларда вафот этиб кетишган. Ҳатто ўша даврда марказ кўрсатмасига мувофиқ, собиқ иттифок ҳудудидаги кўчирилган халқлар дафн этилган қабристонларни ҳам бузиб ташлаш буюрилган эди. Аммо Ўзбекистонда бу ҳолатга йўл қўйилмади. Японлар дафн этилган қабристонлар сақлаб қолинди[16: Б.69]. Бу эса ўзига хос эҳтиром аломатлари эди. Шу сабабли бугунги кунда Ўзбекистон ҳамда Япон халқларининг ўзаро алоқадорлик жиҳатлари янада мустаҳкамланиб бормоқда. Тошкент шаҳрида япон боғининг ташкил этилиши, азалий дўстлик, биродарлик ришталарининг янада ривожланаётганлигидан далолат беради.

Шунингдек, бугунги кунда юртимизда истиқомат қилиб келаётган бир неча юзлаб

япон оилалари Ўзбекистонни ўз она юрти сифатида кадрлаб, шундай бағрикенг ўзбек халқи тинч-тотув турмуш кечириб, елкама-елка меҳнат қилиб келаётганлигидан бевосита фахрланишади.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш керакки, ўзбек халқининг ўзига хос бағрикенглик, ҳамжиҳатлик ўзаро тотувлик каби олийжаноб хислатлари оғир синовли дамларда ҳам турли миллат

вакиллариининг ўзаро ҳамжиҳатлигини таъминлашда муҳим асосий таянч бўлиб келган. Бундай олийжаноб анъана ва қадриятлар совет ҳокимиятининг қатағонлик сиёсати оқибатида собиқ иттифокнинг турли ҳудудларидан бир қатор халқларнинг Ўрта Осиё ва Қозоғистонга кўчириш сиёсати амалга оширилган оғир синовли дамларда ҳам ўзаро ҳамжиҳатликни таъминлашда муҳим ўрин тутган.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик .- Тошкент: Университет 2007.- 48 б.
2. Бўриева. М.Р. Демография асослари.-Тошкент: Университет,2001-114 б.
3. Раҳмонқулова А. Ўзбекистонга зўрлик билан кўчирилган халқларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволига доир (1930-1950 й). // Ижтимоий фикр. 2002. №1. 69 бет.
4. Ким П.Г. Корейцы Республики Узбекистан: история и современность. Т.: «Узбекистан» С. 35.
5. Ата-Мирзаев О. Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный историко-демографический аспект. – Т.: Медицинская литература им. А.А.Ибн Сина, 1998. С.18.
6. Alikhan Aman-Ulu. Population migration in Uzbekistan UNHCR. – Tashkent, 2000. P. 80
7. Бобожонова Н. Депортация қилинган халқларга меҳрибонлик – Ўзбекона бағрикенглик (1930-1950 йй.) // Бағрикенглик – жамият барқарорлигининг асоси. Илмий-амалий анжуман материаллари. Т.: Университет. 2003. 58-59 б.
8. Alikhan Aman-Ulu. Population migration in Uzbekistan UNHCR. – Tashkent, 2000. P. 80
9. Раҳмонқулова А. Ўзбекистонга зўрлик билан кўчирилган халқларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволига доир (1930-1950 й). // Ижтимоий фикр. 2002. №1. 69 бет.
10. ЎзМА, 314-фонд, 423-ёзув, 26-иш, 471 varaқ.
11. Юнусова Х. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда миллий муносабатларнинг баъзи жиҳатлари. // Ўзбекистон тарихи. 2002 №1, 48-бет.
12. Ўз МА, 314-фонд, 423-ёзув, 26-иш, 471 varaқ.
13. ЎзР МА, 314-фонд, 423-ёзув, 26-иш, 471 varaқ.
14. Ўзбекистон Республикаси Энциклопедияси. Қомуслар Бош таҳририяти. – Т., 1997. 177 бет.
15. Ким П.Г. Корейцы Республики Узбекистан: история и современность.- Ташкент: Узбекистан, 1993. - с 35.
16. Раҳмонқулова А. Ўзбекистонга зўрлик билан кўчирилган халқларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволига доир (1930-1950 й). // Ижтимоий фикр. 2002. №1.- 69 б.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

To'rayeva Matluba Xoliqulovna,

Qarshi Davlat universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrası dotsenti,

tarix fanlari doktori (DSc)

turayevamatluba69@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-5012-5690>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida ta'lim tizimidagi muammoli holatlar ularni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan ishlar Qashqadaryo oblasti misolida ko'rsatib berilgan. Qiyinchilik bilan bo'lsa-da ta'lim muassasalari o'z faoliyatini amalga oshirganligi birlamchi manbalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, "Qizil dehqon", O'zSSR Oliy Soveti Tashkiliy komiteti, internat-maktablar, Leningrad, Kiyev, Sevastopol, Smolensk, staxanovchilar, kolxoz, sovxoz, komsomol-yoshlar brigadalari, mudofaa fondi.

Аннотация. В данной статье проблемные ситуации в системе образования в годы Второй мировой войны были показаны на примере Кашкадарьинской области. На основе первоисточников выявлено, что образовательные учреждения осуществляли свою деятельность, несмотря на трудности.

Ключевые слова: Кашкадарья, «Красный крестьянин», Оргкомитет Верховного Совета СССР, школы-интернаты, Ленинград, Киев, Севастополь, Смоленск, стахановцы, колхоз, совхоз, комсомольско-молодежные бригады, фонд обороны.

Abstract. This article illustrates the problematic situations in the education system during the years of the Second World War and the measures taken to address them, using the example of the Kashkadarya region. Despite the challenges, it has been highlighted, based on primary sources, that educational institutions continued their activities.

Keywords: Kashkadarya, Red Peasant, Supreme Soviet of the Uzbek SSR

Organizational Committee, boarding schools, Leningrad, Kiev, Sevastopol, Smolensk, Stakhanovites, collective farm, state farm, Komsomol youth brigades, defense fund.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi ta'lim tizimi muassasalari faoliyatida ham murakkab vaziyatni vujudga keltirdi. Ayniqsa, mazkur sohada faoliyat yuritib kelayotgan mutaxassislarning frontga safarbar etilishi, ularning ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

МУНУКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1940-1941 o'quv yilida O'zbekiston hududida 4795 ta maktab faoliyat ko'rsatdi. Mazkur davrda Qashqadaryo oblasti (1938- yil 15-yanvardan) Buxoro oblastiga qo'shib yuborilgan edi. (1943-yil 20-yanvarda qayta tashkil etilgan)[1:20] Yuqorida ko'rsatilgan yilda Qashqadaryo hududida 470 maktab bo'lib, ularda 192,6 ming o'quvchi ta'lim oldi.[2:217] To'liqsiz o'rta maktablar soni 23 tani tashkil etdi.[3:132] Ammo urush boshlanishi arafasida ham maktablarda sinfxonalar yetishmasligi muammosi mavjud edi. Urush sababli maktablar uchun yangi binolar qurilishi to'xtatildi. Ta'lim muassasalari binolarining ko'pchiligi ko'chirib keltirilgan harbiy korxonalarning ishchilari uchun yotoqxonalarga, gospitalarga va bolalar uylariga ajratib berildi. Undan tashqari maktab binolarining asosiy qismi ta'mirtalab bo'lib, ba'zilar esa umuman yaroqsiz holga kelib qolgan edi.

O'zSSR XKS va O'zKP(b) MK komissiyasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijasiga ko'ra respublika hududidagi 70 ta maktab binosi turli muassasa va tashkilotlar

tomonidan egallab olinganligi ma'lum bo'ldi. 1941-1942 o'quv yilida Qashqadaryo hududidagi maktab binolarining 50 foizdan ortig'i qarovsiz holatda bo'lib, ularning 24 tasi esa butunlay yaroqsiz ahvolda edi. Masalan, Yakkabog' rayoni markazidagi maktab binosidan omborxona, Shahrisabz shahridagi Pushkin nomli maktab binosidan esa kasalxona sifatida foydalanib kelinmoqda edi. [4:1] Beshkent rayonidagi 1-sonli maktabning uchta xonasi evakuatsiya qilingan kishilarga bo'shatib berildi.

Ta'lim tizimi ham davlat byudjetidan katta mablag'lar ajratishni talab qiluvchi sohalardan hisoblanadi. Urush boshlanishi bilan ta'lim sohasi uchun byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar miqdori kamaytirildi. O'zbekistonda bu sohaga davlat byudjetidan 1940-yili 561317 rubl, 1942-yili 461588 rubl ajratildi.[5:92] Mazkur yilda Qashqadaryo hududida xalq ta'limi ehtiyojlari uchun 22916 ming rubl yoki umumiy byudjetning 46 foizi miqdorida mablag' ajratildi. 1941–1942 o'quv yilida Qarshi shahar maktablari uchun 1469,5 ming so'm ajratildi. Mazkur yilda Qarshi shahrida joylashgan maktablarni kapital ta'mirlash uchun 23000 so'm ajratilgan bo'lsa, Shahrisabz rayon maktablarining kapital ta'miri uchun 40000 so'm ajratildi.[6:2] Ikkinchi jahon urushi oqibatida ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'lar miqdori biroz kamaytirildi. O'z-o'zidan ravshanki, mablag'larning asosiy qismi urush xarajatlari uchun ajratildi. Ammo urush boshlanishi arafasida ham maktab ta'lim tizimida katta muammolar mavjud edi. Jumladan, shahar maktablarida o'qish yoshidagi barcha o'quvchilarni qamrab olish imkoniyati bo'lmagan bo'lsa, qishloq hududlarida esa maktablarning o'zi yetarli darajada emas edi. Shu sababli ham maktablar faoliyatini yaxshilash uchun o'qituvchilarning yordami va aholi ko'magida qurish va ta'mirlash ishlari olib borildi. Xususan, Kitob rayoni o'qituvchi va o'quvchilari, shuningdek, mahalliy aholining yordami bilan 43 ta maktab binosi ta'mirdan chiqarildi. Mazkur maktablarda bolalarning o'qishi uchun imkon darajadagi sharoitlar yaratildi. G'uzor rayoni

Chug'urtma qishloq sovetidagi Bolshevik dehqon xo'jaligi a'zolari kuchi bilan yangi maktab binosi qurildi. Pachkamar qishloq sovetidagi Lenin nomli dehqon xo'jaligida ham xuddi shunday yangi maktab binosi qurib ishga tushirildi. Sinf xonalari yetmagan maktablarda qo'shimcha sinf xonalari qurildi. Shahrisabz, Yakkabog', Beshkent va boshqa rayonlardagi ko'pgina maktablarda qo'shimcha sinf xonalari qurib foydalanishga topshirildi. Qarshi shahriga urush bo'layotgan hududlardan ko'chirib keltirilgan bolalar uchun maktablarda tashkil etilgan rus sinflari uchun qo'shimcha xonalar qurib ishga tushirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida maktab o'quvchilari doimiy ravishda qishloq xo'jaligi ishlariga ham jalb etildi. Zaruriyat yuzasidan ularning mehnatidan foydalanildi. Jumladan, Qarshi rayonidagi Stalin nomli maktabning 180 nafar o'quvchisi ustozlari rahbarligida 1941-yilning 20-oktyabrgacha 134000 kg paxta terib berdilar.[7:2] Shahrisabz rayoni Mo'minobod qishloq sovetidagi Jdanov nomli to'liqsiz o'rta maktabining 31 nafar o'quvchisi "Qizil dehqon" xo'jaligi yerlaridan bir oy ichida 31896 kg paxta terib topshirishdi. 1941-yilda respublikada yetishtirilayotgan paxtaning 10 foizi o'quvchilar tomonidan terib berildi.

1941-yilning iyul oyida matbuot sahifalarida Buxoro shahridagi 10-sonli o'rta maktab o'quvchilarining murojaati e'lon qilindi. Murojaatda harakatdagi armiyaga ko'proq qurol-yarog' kerakligi va uni ishlab chiqish uchun temir-tersak yig'ish jarayonida ishtirok etishga chaqirildi. Mazkur murojaatnomaga binoan Koson rayonidagi 10-sonli to'liqsiz o'rta maktab o'quvchilari qisqa vaqt ichida 8 tonna, 2-o'rta va 18-sonli to'liqsiz o'rta maktablarning o'quvchilari 40 tonna, Qarshi rayonidagi Aralavul qishlog'i hududida joylashgan maktab o'quvchilari 1200 kg, Stalin (Navoiy) nomli o'rta maktab o'quvchilari 19 tonna temir-tersak va boshqa turdagi metall terib topshirdilar. Qarshi shahar maktab o'quvchilari qisqa muddat ichida 30 tonna temir-tersak to'plab berdilar. Oblast miqyosida maktab o'quvchilari tomonidan jami 1500 tonna metall, 250 tonna makulatura

va boshqa narsalar to'plab topshirildi. To'plangan temir-tersaklar zavodlarga jo'natilib, ulardan front ehtiyojlari uchun qurol-aslahalar tayyorlashda foydalanildi. G'allakor rayonlarda hashorotga qarshi kurash eng muhim masalalardan biri sifatida e'tirof etildi. Chunki hashorotlar hamma donli ekinlar uchun katta zarar keltirmoqda edi. Shuning uchun respublikada zararkunanda hashorotlarga qarshi kurashuvchi maxsus brigadalar tuzildi. Ana shunday brigadalar tarkibida maktab o'quvchilari ham faoliyat olib bordi. Mazkur jarayon mamlakat mudofaa ehtiyojlariga qaratilgan tadbir deb hisoblandi. Birgina Qashqadaryo hududidagi maktab o'quvchilar tomonidan tuzilgan brigadalar kuchi bilan 10 ming yerdagi arpa va bug'doy qishloq xo'jalik zararkunandalaridan tozalandi. 1943-yilning bahorida hashorotlarga qarshi kurashda Qashqadaryo oblastidan 5 ming kishi ishtirok qildi. 20-maygacha 151 ga yerdagi g'alla hashorotdan tozalandi. Qarshi rayonidagi Aralovul qishlog'i hududidagi bug'doy maydonini hashorotdan tozalash jarayonlarida maktab o'qituvchilaridan 175 kishi ishtirok etdi. Ularning sa'y-harakatlari bilan 18 tonna hashorot yo'q qilindi. [8:15]

Urush yillaridagi katta muammolaridan yana biri bolalarning maktablarni tark etish holatlarining ko'payishi bo'lib, Qashqadaryo oblastining barcha shahar va rayonlarida ham bolalarning maktablarni tark etish holatlari kuzatildi. Maktablarda davomat va o'zlashtirish darajasi nihoyatda tushib ketdi. Masalan, 1943-yil noyabr oyida O'zSSR Oliy Soveti Tashkiliy komiteti va Qashqadaryo oblast partiya komiteti tomonidan maktablarning faoliyati muhokama qilindi. Ularning birgalikdagi qarorida, maktab yoshidagi bolalarni maktabga qatnov ko'rsatkichini ko'tarish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Koson, Beshkent, Yakkabog' rayonlari maktablari faoliyati o'rganilib, ularda bolalarning maktablarga qamrab olinishi bir oz yaxshiligi qayd etildi. Aksincha, Kitob, Shahrisabz, Miraki, Dehqonobod rayonlarida bu borada ahvol qoniqarsiz ekanligi ko'rsatib o'tildi. Maktab yoshidagi bolalarning faqat 87 foizi, ba'zan 25-30 foizi

maktablarga qamrab olindi. Natijada Qashqadaryo oblastida ta'lim sifati 96,6 foizdan 88,6 foizgacha qisqardi. Bolalarni maktablarga jalb qilish borasida o'qituvchilar tomonidan targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi. Ularning yashash sharoitlari ko'zdan kechirildi. Ahvoli og'ir bo'lgan oilalarning farzandlariga imkon darajasida yordamlar uyushtirildi. Shahar va qishloqlarda otonasidan ajralib qolgan bolalar soni ham ko'paydi. Bunday holatning oldini olish maqsadida janubiy hududlarda maktab-internatlar hamda yetim qolgan va qarovsiz bolalar uchun bolalar uylari tashkil etildi.

1943-yilga kelib, Qashqadaryo oblastidagi maktab internatlar soni 47 tani tashkil etdi. Jumladan, Beshkent, Qamashi, Koson rayonlarida 6 tadan, G'uzor rayonida 5 ta, Dehqonobod va Yakkabog'da 4 tadan, Qarshi shahrida 4 ta, Kitob rayonida 3 ta, Ko'kbuloqda 2 ta, Miraki va Chiroqchi rayonlarida 3 tadan, Shahrisabzda 1 ta internat-maktab faoliyat olib bordi.[9:78] Keyingi yillarda o'quvchilarning maktablarga qamrab olish ko'rsatkichi bir oz yaxshilandi. Masalan, Qashqadaryo oblasti Shahrisabz shahridagi maktablarda 1943–1944 o'quv yilida davomat 1942–1943 o'quv yiliga nisbatan 16 foizga oshdi, maktab yoshidagi bolalarni o'qitish bilan qamrab olish 96 foizini tashkil etdi. Ammo arxiv hujjatlarida qayd etilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan, mazkur masala doimiy ravishda hukumatning diqqat markazida bo'lib kelgan.

O'zSSR XKS tomonidan 1944-yilning 25-dekabrida "Qashqadaryo oblastida xalq maorifining ahvoli va maktablarning ishi to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. Mazkur qaror asosida Qashqadaryo oblasti maktablari holati o'rganilganda Shahrisabz rayonida 726 nafar bola, Kitob rayonida 1470 nafar bolalarning maktablarga qatnamayotganligi aniqlandi. Bu holat butun oblast miqyosida o'rganib chiqilganda jami 13055 nafar maktab yoshidagi bolalarning o'qishga qatnamayotganligi aniqlandi. Bunday holatning sabablari o'rganilganda, xalq maorifi bo'limlari va maktab rahbarlarining maktabga oid qonun hujjatlari talablarini

bajarish masalasidagi qat'iyatsizligi, tartib-qoidalarining ommaviy ravishda buzilishi, hamda kolxoz raislari va brigadirlar, qishloq sovetlari raislari tomonidan o'quvchilarni doimiy ravishda qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etib, o'qishdan qoldirilishiga olib kelganligi aniqlandi. Mazkur holatning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Eng avvalo, ota-onalar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borildi. 1944-1945 o'quv yiliga kelib, maktablar faoliyati ulardagi o'qitish tizimlari holati bir oz bo'lsa-da yaxshilandi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xullas, ikkinchi jahon

urushining boshlanishi ta'lim muassasalari faoliyatida ham katta muammolarni vujudga keltirdi. Ta'lim tizimiga ajratilayotgan mablag'lar qisqartirildi. Maktab binolarining etishmasligi holatlari yuz berdi. Maktab o'quvchilarining qiyin sharoitlar sabab, maktablarni tark etish holatlari yuz berdi. Ammo qiyin vaziyatlar bo'lishiga qaramay, davlat byudjetidan ta'lim tizimi uchun ma'lum miqdorda mablag'lar ajratib turildi. Hashar yo'li bilan bo'lsa-da maktab binolari ta'mirlandi va o'qitish jarayonlari amalga oshirildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Qashqadaryo VDA, 24-fond, 2-ro'yxat, 4-yig'ma jild, 20-varaq.
2. Qashqadaryo VDA. 133-fond, 1-ro'yxat, 116-yig'ma jild, 217-varaq.
3. Qashqadaryo VDA, 2-fond, 2-ro'yxat, 37-yig'ma jild, 132-varaq.
4. Qashqadaryo VDA, 1-fond, 1-ro'yxat, 141-yig'ma jild, 1-varaq.
5. Кадыров И.К. Очерки развития общеобразовательной школы Советского Узбекистана. – Ташкент, 1974. –С. 92.
6. “Qizil O'zbekiston” gazetasi 1942 yil 20 avgust.
7. “Qashqadaryo haqiqati” gazetasi. 1941 yil 22 oktyabr.
8. Qashqadaryo VDA, 1-fond, 26-ro'yxat, 10-yig'ma jild, 15-varaq.
9. Qashqadaryo VDA, 133-fond, 1-ro'yxat, 216-yig'ma jild, 78-varaq.

МАМЛАКАТИМИЗДА АҲОЛИНИ ИЧИМЛИК СУВИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Бўриев Соатмўмин Донаевич

Андижон давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар

кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди

<https://orcid.org/0009-0007-6614-4589>

UDK: 94(575.1).

Аннотация: Инсоннинг соғлом ва тўлақонли ҳаёт кечиришида сувнинг ўрнини ҳеч нарса билан қиёслаб бўлмайди. Экспертлар таҳлилига кўра, одам танасидаги сув микдори атиги икки фоиз камайса, ақлий имкониятлар 20 фоиз пасайиб кетар экан. Шу фактнинг ўзиёқ кўп нарсани англатади.

Сув инсоннинг бирламчи эҳтиёжи, ҳаётий зарурати. Қолаверса, сувнинг муқобили ҳам йўқ. Устига-устак, инсоният тамаддуни, иқтисодиёт тараққиёти, маиший турмушимиз шароити сувнинг қадри ва аҳамиятини янада оширмоқда. Маълумотларга кўра, бугунги кунда мамлакатимиз иқтисодиёт тармоқларида бир йилда ўртача 56-57 миллиард куб метр сув ресурсларидан фойдаланилади. Шундан 87 фоизи қишлоқ хўжалигида, 9 фоизи энергетика, саноат ва балиқчилик, бор-йўғи 4 фоизи ичимлик суви ишлаб чиқариши мақсадлари учун сарфланади. Истеъмолчилар сони муттасил ўсиб бормоқда, сув захиралари эса чекланган.

Калит сўзлар: сув объекти, ичимлик суви, сув қувурлари, сув таъминоти, сув иншоотлари, ички тармоқлар, минераллашган сув, металл қувурлар, шағал, арматура ишлари, бетон қоплама, сув ўтказгич, сув тинитгич, мосламалар

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUSTION). Бугунги кунда сувни асраш мавзуси глобал даражада кўтарилиб, нуфузли халқаро ташкилотлар минбарларида янграмоқда. Олим-у мутахассислар, экологлар, соҳа фаоллари чақириқлар ташламоқда. Мамлакатлар сув тақчиллиги ҳамда мавжуд захираларни тежаш юзасидан тегишли чоралар ишлаб чиқмоқда, махсус дастурлар қабул

қилинмоқда. Ўзбекистон ушбу йўналишда бошқаларга қараганда кўпроқ эътибор қаратиши талаб этилмоқда. Чунки республикаимизда шаклланадиган сув манбаи мамлакат ичкарасида эмас. Бунга мисол сифатида Президентимизнинг 2023 йилнинг 22 сентябр куни аҳолини сифатли ичимлик суви билан таъминлаш масалалари бўйича ўтказилган йиғилишда айтилган фикр-мулоҳазалари, факт ва рақамларни, амалий ҳаракатлар юзасидан берилган топшириқларни келтириш мумкин. Гап шундаки, ўша йиғилишда мамлакатимизда аҳоли саломатлигини яхшилаш ва ҳаёт сифатини оширишга қаратилган кўплаб ижтимоий, ҳудудий дастурлар бажарилаётгани, хусусан, сўнги олти йилда ичимлик суви соҳасига давлат бюджетидан 14 триллион 500 миллиард сўм ёки олдинга даврга нисбатан 6 баробар кўп маблағ ажратилгани, 31 минг километр ичимлик суви ва оқова тармоқлари ўтказилгани, 1200 та сув иншооти қурилиб таъмирлангани туфайли мингта маҳалладаги 6,5 миллион аҳоли хонадонларига илк бор тоза ичимлик суви кириб боргани айтилганди. Лекин ҳали қилинадиган ишлар ҳам кам эмаслиги, 30 та туман ва 1400 та маҳаллада ичимлик суви таъминотини яхшилаш зарурлиги ҳам таъкидланган. Улар учун тоза сув манбасини топиш зарур. Кўп ҳолларда сув беҳуда йўқотиляпти. Истеъмолнинг эса аниқ ҳисоби йўқ. Айрим насослар, соҳа корхоналарига тегишли махсус техникалар эскиргани давлатимиз раҳбари танқидига сабаб бўлганди. Шундан келиб чиқиб, республика “Ўзсувтаъминот” акциядорлик жамияти бошқаруви зиммасига 2023 йил якунигача 12 минг километр тармоқ ҳамда 1300 та сув иншоотини қуриш ва

таъмирлаш орқали 145 та маҳалладаги 1 миллион 100 минг аҳоли илк бор марказлашган ичимлик сувидан баҳраманд бўлишини таъминлаш вазифаси юкланди. Ана шу вазифа маъсулияти йилни самарали яқунлашга замин яратди. Жумладан, 2023 йилда барча дастурлар доирасида бюджетдан ажратилган 5.4 триллион сўмлик маблағлар ҳисобига 2598 объектда 11 минг 207 километр ичимлик ва 593 километр оқова сув тармоқлари ҳамда 1740 та сув иншооти қурилиб, реконструкция қилинди[1].

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Бугун жаҳон ҳамжамияти иқлим ўзгаришини инсоният олдида турган жиддий муаммолардан бири, деб тан олмақда. Маълумотларга кўра, ҳар йили 1,4 миллион киши тоза сув етишмаслиги боис турли хасталиклар сабаб ҳаётдан кўз юммоқда. Илм-фан тараққий этаётган XXI асрда сайёрамизда ҳар тўрт кишидан бири, яъни 2 миллиард инсон тоза ичимлик суви таъминотига эга эмас. Дунёда оқова сувларнинг 44 фоизи хавфсиз тарзда тозаланмаслиги 3,6 миллиард инсоннинг хавфсиз санитария шароитига эга бўлиш ҳукукидан маҳрум қияпти [2].

Мутахассисларнинг фикрича, айниқса сифатсиз сув кўплаб касалликларни келтириб чиқаради. Демак инсон саломатлиги унинг қанчалик сифатли сув истеъмол қилаётганига, таъминланганлик даражасига боғлиқ. Шунинг учун юртимизда ушбу масалага устувор вазифа сифатида эътибор қаратилиб, янги лойиҳалар ҳаётга татбиқ этилмоқда. Жумладан, 2018 йилнинг 30 ноябрида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида ичимлик суви таъминоти ва канализация тизимларини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги қарори қабул қилинган эди. Ушбу қабул қилинган қарор асосида сўнги икки йил мобайнида бу соҳага давлат бюджетидан 3,7 триллион сўм ажратилган. Бундан ташқари 48 та лойиҳага 1,9 миллиард доллар хорижий кредитлар жалб қилинган.

Бироқ кейинги уч йил ичида 3 миллион 600 минг аҳолига сув етказиш режалаштирилиб, маблағ масаласи ҳал қилиб берилган бўлса-да, барча муаммолар ўз ечимини топмаган.[3]

Шуни ҳам эътиборга олиш жоизки, кейинги йилларда глобал экологик ва ижтимоий-иқтисодий муаммолар туфайли обиҳаёт захираларининг камайиб бораётгани жиддий ташвишланарли ҳолатдир. Жумладан минтақамизда ҳам сув танқислиги билан боғлиқ вазият йил сайин мураккаблашмоқда. Мисол учун охириги ўн йилда Ўзбекистонда сув ҳажми 12 фоизга, ўтган йилга нисбатан бу йил 15 фоизга камайган.

Кейинги 15 йил ичида эса мамлакатимиз аҳолиси жон бошига сув таъминоти 3 048 куб метрдан 1 589 куб метрга қисқарган. Жаҳон сув ресурслари институти томонидан эълон қилинган сув стрессидан азият чекаётган давлатлар рейтингига Ўзбекистон 164 та мамлакат орасида 25-ўринни эгаллайди [4].

Бундай шароитда сувни тежаш ва ҳисобини юритиш ҳар доимгидан ҳам долзарб масалага айланди. Ўтган икки йил мобайнида Президент ва ҳукуматнинг шу соҳага доир 11 та қарори қабул қилиниб, бу йўналишда муҳим чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.[5]

Мамлакатимизда ичимлик суви таъминотини яхшилаш бўйича давлатимиз томонидан кенг кўламда ишлар олиб борилиб, ижтимоий дастурларда бу масалага алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Охириги беш йилда мазкур соҳага 10 триллион сўм ёки олдинги йиллардагига нисбатан 5 баравар кўп маблағ ажратилди. Бу даврда 6 миллион 500 минг аҳоли илк бор марказлашган ичимлик суви билан таъминланди. Жумладан ўтган йили юртимизда 474 та сув иншооти қурилиб, 6 минг 300 километрга яқин тармоқлар тортилган. 592 та маҳаллада 2 миллиондан зиёд аҳолининг сув таъминоти яхшиланган. Лекин ҳали бу масалада қийналаётган маҳаллалар кўп. Жумладан, Қашқадарё, Сурхондарё, ва Жиззах вилоятларида

ичимлик суви таъминоти 60 фоиздан кам. Ғузор, Дехқонобод, Косон, Шеробод, Ангор, Ғаллаорол ва Хатирчи туманларида бу кўрсаткич 30 фоизга ҳам етмайди. Шу боис, келгуси беш йилда бу соҳага 40 триллион сўм инвестиция жалб қилиб, ичимлик суви таъминотини 90 фоиз, оқова сув қамровини 35 фоизга етказиш режалаштирилган. Жорий йилда бу мақсадлар учун давлат бюджетдан 2 триллион сўм ажратилади ва 245 миллион доллар жалб этилади.[6]

Республикаимизнинг барча вилоятлари аҳолисини ичимлик суви билан таъминлаш борасида олиб борилаётган кенг кўламли ишлар ҳақида сўз юритганда, юртимизнинг жанубий ҳудуди бўлган Сурхондарё вилояти аҳолисини Тўпаланг сув омбори орқали ичимлик суви билан таъминлаш борасида ҳам талайгина ишлар амалга оширилаётганини таъкидламоқ зарур.

Сурхондарёнинг ўнг ирмоғи бўлган Тўпаланг дарёси Ҳисор тоғларининг денгиз сатҳидан 3800 метр баландлигида жойлашган Ҳазрати Султон қор ва музликларидан бошланади. Унинг узунлиги 124 километр бўлиб, у қор, ёмғир, муз ва ер ости сувларидан тўйинади ва ўз оқими бўйлаб ўнларча ирмоқ, сой ва булоқлар суви ҳисобига кенгайиб боради. Суви эрта баҳордан то ёзгача кўпаяди, кейин аста-секин камая бошлайди. Январ ойида дарё суви оқими сониясига 11,5 куб метрни ташкил этса, июнь ойида, яъни дарё суви тошган даврда 144 куб метрга етади. Дарё номи бежизга Тўпаланг дарё дейилмаган. Баъзилар уни бебош ва саркаш дарё ҳам деб атайдилар. Чунки у баланд тоғлардан бошланиб, тор даралардан катта тезлик ва шиддат билан оқади.

Ўтган асрнинг 80-йиллари ўртасигача айнан баҳор ойларида Тўпаланг суви тошиб, халқ хўжалигига катта зарар етказарди. Дарё суви шаштини пасайтириш, экин майдонлари, йўллар ва кўприкларга зиён етказишининг олдини олиш мақсадида ташкилотлар, корхоналар, хўжаликлар техника ва одамларни

сафарбар қилиб, тўғонлар барпо этишарди. Ниҳоят 1982 йили дарё сувини бир жойда жамлаш мақсадида Тўпаланг сув омбори қурилишига киришилди. Сигими 500 миллион куб метрли сув омборидаги обихаётдан шу пайтгача икки мақсадда, яъни айти ёз ойлари Ҳазарбоғ ва Оққапчиғай каналларига сув очиб, воҳанинг 120 минг гектардан зиёд экинзорларини суғориш ҳамда Зарчоб-1, Зарчоб-2 ГЭСларида энергия ишлаб чиқариш учун фойдаланиб келинади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2021 йилнинг 1-2 июнь кунлари Сурхондарё вилоятига ташрифи чоғида ичимлик сув муаммосини Тўпаланг сув омбори манбалари ҳисобига бартараф этиш бўйича топшириқ берганидан сўнг, бу ҳудудда дастлаб объектнинг техник иқтисодий ҳисоблари, сўнгра лойиҳа қидирув ишлари олиб борилди. Ўзбекистон сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Ирригация ва сув муаммолари илмий тадқиқот институти олимлари Тўпаланг сув омборидаги сув ҳолати ва таркибини ўрганиб, унинг фойдали ва минералларга бой эканлиги ҳамда қаттиқлик даражаси 4 фоиздан ошмайди деган хулосага келишдилар.

Агар Тўпаланг сув омборидан олинадиган ичимлик сувини Сурхондарё халқига етказиб бериш ишлари қай даражада амалга оширилгани жараёни тарихига эътиборни қаратадиган бўлсак, унда қуйидаги ишларининг амалга оширилгани гувоҳи бўламиз.

2021 йилнинг августида қурилиши бошланган лойиҳани босқичма-босқич якунлаш кўзда тутилди. Тўпаланг сув омборидаги сув вилоятнинг Сариосиё, Узун, Денов, Олтинсой, Шўрчи, Қумқўрғон, Жарқўрғон, Термиз, Бандихон, Қизирик, Ангор туманлари ва Термиз шаҳрига қувурлар орқали етиб боради ҳамда минералларга бой обихаётдан 1,7 миллион аҳоли баҳраманд бўлиши назарга олинган.

Республика “Гидропроект” акционерлик жамияти томонидан тайёрланган лойиҳанинг умумий қиймати

138 миллион АҚШ долларини ташкил этган. Асосий буюртмачи “Ўзсувтаъминот” акциядорлик жамияти бўлиб, бош пудратчи “Tupalang HPD Platinum” МЧЖ эди. Лойиҳа доирасида сув омборидан то Термиз шаҳригача 386,1 километр узунликда металл қувурлар ётқизирилиши, унинг 158,2 километри магистрал, 227,9 километри 12 та туман ва вилоят марказини сув таъминлаш узеллариғача бўлган ички қувурлардан ташкил топиши кўзда тутилган.[7]

Мутахассисларнинг айтишича, туманлар марказидаги узеллардан қишлоқлардаги хонадонларга кичик қувурлар тортиш учун Франциянинг CUEZ компанияси ҳамкорлик таклифи билан чиққан. Лойиҳада белгиланган ишлар тўлиқ якунлангач, қувурлар орқали истеъмолчиларга сониясига 200 метр куб тоза сув етказиб бериши режалаштирилган. Лойиҳа доирасида 10 та туманнинг режалаштирилган манзилида ҳажми 1000, 10.000 ва 20.000 куб метрдан иборат сув йиғиш резервуарлари барпо этилиши, бундан ташқари, Шўрчи ва Қумқўрғон туманлари оралиғида сув босимини сўндириш иншооти қурилиши назарда тутилган.

Бунёдкорлар ҳозиргача жами 55,4 километр, жумладан, 41,3 километр узунликда асосий магистрал ҳамда 14,1 километр ички қувурларни ётқизишди. Хусусан Сариосиё тумани ҳудудида магистрал ва ички қувурлар ётқизиш ниҳоясига етди. Денов тумани ҳудудида бу жараён 90 фоиз бажарилди. Иш сифатиға алоҳида эътибор бериб, тезкорлик билан меҳнат қилаётган бунёдкорлар белгиланган режа бўйича йил охиригача Шўрчи туманигача бўлган жами 88,1 километр масофада, жумладан, 51 километр магистрал қувурларни, 37,1 километр ички қувурларини ётқизишни тугаллашади. Режалаштирилган объектларда иш тўхтамаслиги учун арматура, цемент ва бошқа зарур хом-ашёлар етарли. 120 километр масофаға етадиган, қалинлиги 10 миллиметрли сифатли металл қувурлар келтирилган.

17,4 минг куб метр бетонлаштириш, 1,63 миллион куб метр ер қазиш, 1840 тонна арматура пайвандлаш ишлари амалға оширилди.

Айни пайтда қурувчилар қувур тортиш баробарида замонавий сув тақсимлаш ва сиғими 200 минг куб метр бўлган сув тозалаш иншоотларини барпо этишмоқда. Тўпалангдан келадиган сув, аввало, сув тозалаш иншоотиға қуйилади ва бир неча жараёнда филтрланади, хлорланади, тиндирилади, қум ва чўкиндилардан тозаланганидан сўнг, магистрал қувурларға тақсимланади. Марказий Осиёда энг баланд чўққида жойлашган Тўпаланг сув омборидан сув тепалиқдан тушиб келгани учун табиий босим билан барча ҳудудларға тенг етиб боради. Сув тозалаш ва тақсимлаш иншоотларида бугунгача 10,4 минг куб метр ҳажмда бетонлаштириш ишлари амалға оширилиб, тупроқ ишлари деярли ниҳоясига етказилди ва 910 тонна арматура пайвандланди. Шунингдек, Сариосиё тумани ҳудудида сиғими 1000 куб метр, иккинчисиники 10.000 куб метрли резервуар, Денов туманида сиғими 20.000 куб метр сув сақлаш ҳавзаси қуриш ишлари қизғин бормоқда. Айниқса магистрал сув қувурларини йўл кесишмалари, кўприклар, каналлар, айрим бинолар остидан ўтказиш қийин кечаётганини тилға олиб ўтиш жоиздир. Қурувчилар магистрал йўлларда юк ва йўловчи автомашиналар қатновига ҳалақит бермаслик мақсадида баъзида тунда ишлашға тўғри келмоқда. Улар қувурларни тортишда сифатға алоҳида эътибор қаратиб, харажатларни кўпайтирмасликка ҳаракат қилишмоқда. Йўл кесишмалари, кўприклар, канал ва бошқа суғориш тармоқлари, коммуникация объектлари остидан ўтказилаётган металл қувурлар устидан техника, айниқса, юк машиналари ўтганда қувурларға зиён етиши табиий ҳол албатта. Шунинг учун қурувчилар йўллар ва кўприклар остидан ўтаётган қувурларнинг чидамлилигини ошириш мақсадида устиға қоплама қувур кийдиришяпти. Уларни металдан ўзлари

ясашмоқда. Агар кувур устига кийдириладиган қоплама бошқа жойда тайёрланиб, вагонда олиб келинса, темир йўл харажати жуда қиммат бўлиб кетади. Шунинг учун металл лист олиб келиниб, цехда қопламали кувур тайёрланмоқда. Бу ишга 25 нафар пайвандловчи уста жалб қилинган.

Лойиҳани амалга оширишда пудратчи ташкилотларнинг 300 та турли русумдаги техника ва механизми сафарбар қилинган. 700 нафар пайвандловчи, бетончи, ҳайдовчи, муҳандис техник ходимнинг ҳар бири иш сифати учун курашишни мақсад қилиб олган. Ҳар бир объектда ишчилар овқатланиши, дам олиши, ювиниши учун шароит муҳайё этилган. Маошдан ташқари мукофотлар билан рағбатлантирилаётган ишчилар йил охиригача белгиланган режага қўшимча яна 20 километр узунликда сув қувурлари ётқизишни ният қилган. Лойиҳа якунлангач, Тўпаланг дарёсининг зилол суви минглаб аҳоли хонадонига кириб боради ҳамда воҳанинг жанубий минтақасида яшовчи одамларнинг тоза ичимлик сувдан баҳраманд бўлишдек азалий орзуси рўёбга чиқади.

Дарҳақиқат, сўнги йилларда юртимизда сув манбаига бўлган қарашларимиз тубдан ўзгарди. Сувни тежаш бўйича тарғибот ташвиқот ишлари баробарида аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш мақсадида эътиборга молик ишлар амалга оширилмоқда. Биргина ўтган йилда “Сурхондарё сув таъминоти” МЧЖ томонидан 76 та гуруҳли ҳамда 1091 та якка тартибдаги ичимлик суви ишлаб чиқариш иншоотлари орқали 43,5 миллион метр куб оби ҳаёт вилоят аҳолисига етказиб берилди.

“Сурхондарё сув таъминоти” МЧЖ ҳисобидан 2 миллиард 582 миллион сўм маблағ эвазига 13,5 километр ичимлик суви қувурлари, 34 та янги насос, 724 дона электр жиҳозлари, 64,8 тонна ёқилғи харид қилиниб, насос ва ичимлик, оқова сув қувурларини жорий таъминлаш, қудуқлар қазииш ишлари бажарилган. Бундан ташқари 12,7 миллиард сўмлик маҳаллий

бюджет ва ҳомийлик маблағлари эвазига 175 километр ичимлик суви тармоқлари қурилиб фойдаланишга топширилди.

1923 йилда вилоятда 279 та объектда тармоқ ва иншоотлар қурилиши амалга оширилди. Натижада сув таъминоти оғир бўлган 110 та маҳалладаги 1600 та хонадонда яшовчи 8500 нафар аҳолининг сув таъминоти яхшиланди ва йил якуни бўйича вилоят аҳолисининг марказлашган ичимлик суви билан таъминланганлик даражаси 60,8 фоиздан 62,9 фоизга етказилди. Маълумки, “Тўпаланг” сув омборига сув тоғлардаги қор ва муз эришидан йиғилади. Текширувларга кўра, бу сувнинг қаттиқлик даражаси 4 фоиз, фойдали минералларга бой ва мусаффо.

“Тўпаланг” сув омборидан ичимлик сувини олиб келиш бўйича қиймати 286,7 миллион АҚШ долларлик лойиҳа амалга оширилмоқда. Қабул қилинган лойиҳа доирасида Тўпаланг сув омборидан то Термиз шаҳригача 380 километр металл қувурлар тортилади. Унинг 159 километри магистрал, 221 километри шаҳар ва туманларни боғловчи ички тармоқлардир.

“Тўпаланг” лойиҳасининг биринчи босқичи якунига етказилгач, сув таъминоти 70 фоиз, иккинчи босқич якунлангач 90 фоизга етказилади. Бугунги кунда 147,1 километр (38 фоиз) қувур ва тармоқлар тортилган, сув тозалаш иншоотида 90 фоиз ишлар бажарилди. Лойиҳа доирасида Сариосиё, Денов, Шўрчи, Қумқўрғон ва Бандихон туманларида ички ва магистрал ичимлик сув тармоқлари тортилди. Ушбу лойиҳанинг афзаллик жиҳати шундаки, ичимлик суви ўз оқими билан келганлиги сабабли электр энергияси 8.6 миллион кВт иқтисод қилиниб, 7,7 миллиард сўм маблағ тежаб қолинади. Мазкур лойиҳани амалга ошириш доирасида умумий ҳисобда қурилиш-монтаж ишлари учун жами 300 донадан ортиқ машина механизм ва ускуналар ҳамда 109 нафардан ортиқ инженер-техник ва 700 нафар ишчи ходимлар жалб қилинган. Жамият томонидан воҳа аҳолисини тоза ичимлик суви билан узлуксиз таъминлаш мақсадида,

ўтган йилдан буён қарийб 2,6 миллиард сўм ҳисобидан 13,5 километр ичимлик суви қувурлари, 34 дона насос, 724 дона электр жиҳозлари ва ёқилғи маҳсулотлари харид қилинган. Шунингдек, 245 та насос, 326,8 километр ичимлик ва оқова сув қувурлари, 19 та босимли сув минораси таъмирланди. 24 та сув қудуқларида тозалаш ишлари олиб борилди. 279 та объектда 1157,1 километр тармоқ иншоотлари қурилган. Сув таъминоти оғир бўлган 110 та маҳалладаги 1600 та хонадонда сув таъминоти яхшиланган. Натижада, 32 та маҳалладаги 58 минг аҳоли сувдан баҳраманд бўлди. Умумий ҳисобда 272 та маҳалладаги 390 минг аҳолининг сув таъминоти яхшиланди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 16-17 ноябр кунлари Сурхондарё вилоятига қилган ташрифи давомида берилган топшириқларига асосан, 2024 йилда амалга оширилиши лозим бўлган ишлар белгилаб олинди. 2024 йилда мақсадли дастурлар асосида 132 миллиард сўм ва 4 та объектда Европа Тикланиш ва тараққиёт банкининг 60,4 миллион АҚШ доллари маблағлари ҳисобидан қуриш ва реконструкция ишларини амалга ошириш режалаштирилган. Бу ишлар амалга оширилгач, 167,5 минг нафар аҳолининг ичимлик суви таъминоти яхшиланади. Бундан ташқари, 2024-2026 йилларга мўлжалланган ЕТТБнинг кредит маблағлари ҳисобидан Оқтош ва Пошхўрт ер ости сув манбаларидан сув қувурларини қуриш йўли билан Музработ туманида сув таъминотини яхшилаш мақсад қилиб олинган. [8]

Сурхондарё вилоятидаги бир гуруҳ нуронийлар ва жамоат ташкилотлари вакилларининг вилоят аҳолисига мурожаатида жумладан шундай дейилади: “Қадрли воҳадошлар! Инсон ҳаётида сув энг муҳим ўрин эгаллашини яхши англаймиз. Нафақат инсоният, балки бутун табиатни сувсиз тасаввур этиш қийин. Чунки сув ижтимоий, маиший ҳаётимиз асоси, тараққиёт ва тириклик манбаидир. Давлатимиз раҳбари бошчилигида

изчиллик билан олиб борилаётган ислохотларнинг бош мақсади - инсон қадрини улуглаш, халқимизнинг фаровон ҳаётини, турмуш ободлигини таъминлашга қаратилганлигини барчамиз дилдан ҳис этмокдамиз.

Президентимиз томонидан илгари сурилган “Ўзбекистон-2030” стратегиясида ҳам сув ресурсларини тежаш, атроф –муҳитни муҳофаза қилиш масаласи ўта долзарб вазифа сифатида белгилаб берилгани бежиз эмас. Чунки, она табиатимизни, сув ресурсларимизни асраш, уни келажак авлодга бус-бутунлигича етказиш, фарзандларимиз, набираларимизнинг бебаҳо неъматлардан баҳраманд бўлишини таъминлаш инсоний бурчимиздир.

Халқимиз азал-азалдан сувни азиз неъмат билиб, сув чиқариб, яшиллик яратиб, элни яшнатганларни эъзозлайди, дуо қилади. Бундай эзгу ишларнинг энг юксак тасвирини сўз мулкининг султони Алишер Навоий яратган десак, муболаға бўлмайди. Зеро, ҳазрат бобомиз ўзининг “Фарҳод ва Ширин” достонида тошларни ёриб сув чиқарган, халқини бахтиёр ҳаётга етказган мард ва жасур Фарҳодни афсонавий қаҳрамон даражасига кўтарган. Таъкидлаш керакки, мутафаккир қаламига илҳом ва ҳарорат бағишлаган бундай қаҳрамонлик бугун ҳурматли Президентимиз томонидан айнан сурхондарёликлар учун амалга оширилди, десак айни ҳақиқатни айтган бўламиз.

Гап шундаки, мамлакатнинг жанубий минтақаси бўлган воҳамиз учун тоза ичимлик суви ҳаётий муаммога айланган. Бугунги кунда вилоят аҳолисининг 70 фоизи марказлаштирилган тоза ичимлик суви билан таъминланган. Бунинг устига ичаётган сувимизнинг минераллашув даражаси ошган. Бу эса организмда туз тўпланишига, буйрак, юрак билан боғлиқ хасталикларга олиб келиши мумкин.

Давлатимиз раҳбари ушбу муаммони қалбидан ўтказиб, уни бартараф этишга, воҳадошларимизнинг кўп йиллик орзусини рўёбга чиқаришга астойдил киришдилар. Кўп ўтмай “Тўпаланг” сув омборида

ичимлик суви таъминоти тарихий лойиҳаси бошланганлигини эълон қилиб, қурилишнинг ҳар бир босқичини ўзи назорат қилиб турдилар.

Президентимиз яқинда воҳамизга ташрифи давомида рамзий тугмачани босиб, лойиҳанинг биринчи босқичи якунланганини, воҳамиз аҳолисининг бир қисми экологик тоза ичимлик суви билан таъминланганини эълон қилдилар. Бу оддий гап, оддий юмуш дегани эмас! Бу саломатлигимиз, фаровон ҳаётимиз билан боғлиқ масала.

Юқоридаги лойиҳанинг дастлабки босқичида воҳамизнинг 4 та тумани, яъни 800 минг нафар аҳоли тоза ичимлик суви билан таъминланди. 2024 йилда эса натижа янада улкан бўлади. 380 километр қувур Термиз шаҳригача тортилиб, вилоятимиз аҳолисини тоза ичимлик суви билан таъминлаш даражаси 90 фоизга етказилади.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ота-боболаримиз, “Уммон олдида турсанг ҳам бир томчи сувни исроф қилма”, деб бежиз

айтишмаган. Хабарингиз бор, сўнгги 40 йил ичида дунёдаги ҳар бир киши бошига тўғри келадиган чучук сув миқдори 60 фоизга камайган. Яқин 25 йил ичида яна 2 баробарга камайиши тахмин қилинмоқда. Сув истеъмоли сўнгги 100 йил ичида 6 марта ортган, 2050 йилга бориб бу миқдор яна икки баробарга кўпайиши кутилмоқда. Шунинг учун замонавий сув тежовчи технологиялардан фойдаланиш, сувни ўз вақтида, бир томчисини ҳам исроф қилмасдан ишлатишингиз мақсадга мувофиқ бўлади. Сувнинг исроф бўлишига йўл қўйган шахсга қонунчилик асосида жавобгарлик чоралари ҳам борлигини ёддан чиқармаслигимиз керак!”[9]

Халқимизда “Сув келтирган элда азиз”, - деган нақл бор. Шундай экан, тириклик манбаи бўлган сувни асраб-авайлаш, ҳар томчисидан унумли ва тежаб фойдаланиш барчамизнинг инсонийлик бурчимиздир. Зеро, соғлигимиз ҳам, умримизнинг узок бўлиши ҳам, энг аввало, ичимлик сувининг сифатига боғлиқ эканлигини асло унутмаслигимиз зарур.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Муқобили йўқ неъмат. Янги Ўзбекистон газетаси, 2024 й., 15 феврал, №3 3, 1-2 бетлар.
2. Глобал иқлим ўзгаришларига миллий мослашув. Халқ сўзи газетаси, 2024 й., 14 май, № 93, 3 бет.
3. Ичимлик суви таъминотидаги муаммолар муҳокама қилинди, қўшимча вазифалар белгиланди. “Халқ сўзи” рўзномаси, 2020 й., 18 июль, № 151, 1 бет.
- 5 Сув хўжалигида замонавий технологияларни жорий этиш – барқарор ривожланиш омили. “Янги Ўзбекистон” рўзномаси, 2020 й., 17 декабрь, № 178 сон, 2-бет.
6. Ичимлик суви таъминотини яхшилаш бўйича вазифалар қўйилди. “Халқ сўзи” рўзномаси, 2022 й., 9 феврал, № 30, 1-бет.
1. Асрий орзулар ушалмоқда. “Янги Ўзбекистон” рўзномаси, 2022 й., 10 сентябр, № 185, 2 бет.
2. Оби ҳаёт қадри. Сурхон тонги газетаси, 2024 й., 21 феврал, № 8, 1 бет.
3. Сув текин эмас. Сурхондарё вилоятидаги бир гуруҳ нуронийлар ва жамоат ташкилотлари вакиллариининг вилоят аҳолисига мурожаати. Сурхон тонги газетаси. 2023 й., 30 ноябр. № 47, 1-2 бетлар.

SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING KUSHON DAVRI SHAHARSOZLIGI

Annayev Tuxtash Jo'rayevich,

*Termiz davlat universiteti arxeologiya kafedrasi dotsenti**yahoo.com: annaev_tuhtash@yahoo.com*

Qurbonov Islom Sharofiddin o'g'li,

*Termiz davlat universiteti arxeologiya mutaxassisligi magistranti**e-mail: qurbonovislom104@gmail.com*

Xoliyorov Toshturdi Ramazon o'g'li,

*Termiz davlat universiteti arxeologiya mutaxassisligi magistranti**e-mail: xoliyorovtoshturdi2001@gmail.com**https://orcid.org/0009-0008-6730-2771*

UDK: 94(575.1)

Annotasiya: Shimoli-g'arbiy Baqtriyaning qadimgi shahar madaniyati vatanimiz shaharlari tarixining uzviy qismidir. Shimoli-g'arbiy Baqtriyaning shahar madaniyatini o'rganish 1936-1938-yillarda arxeolog M.Ye.Masson boshchiligida faoliyat ko'rsatgan Termiz arxeologik ekspeditsiyasi faoliyati bilan boshlanadi. Tadqiqotlar ko'lamini kengaya bordi va arxeologik tadqiqotlar natijasi asosida Baqtriyaning qadimgi davr shaharsozligi va shahar madaniyatiga oid muhim asarlar yaratildi. Mazkur maqolada asosan Shimoli-g'arbiy Baqtriya hududida joylashgan Eski Termiz, Zartepa, Dalvarzintepa yodgorliklarining shaharsozligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Kushon, Baqtriya, Ayritom, Dalvarzintepa, Qoratepa, Eski Termiz, Zartepa, Fayoztepa, Tarmita, Xo'ja Gulsiyar, Bodhisattva, Stupa, Buddizm.

Аннотация: Древняя городская культура северо-западной Бактрии является неотъемлемой частью истории городов нашей страны. Изучение городской культуры Северо-Западной Бактрии начинается с деятельности Термезской археологической экспедиции, которой руководил археолог М. Е. Массон в 1936-1938 гг. Расширился объем исследований, и на основе результатов археологических исследований созданы важные труды по древнему градостроительству и городской культуре Бактрии. В данной статье представлены сведения о градостроительном планировании памятников Старого

Термеза, Зартепы и Далварзинтепы, расположенных преимущественно в Северо-Западной Бактрии.

Ключевые слова: Кушан, Бактрия, Айритом, Далварзинтепа, Каратепа, Старый Термез, Зартепа, Фаязтепа, Тармита, Ходжа Гульсияр, Бодхисаттва, Ступа, Буддизм.

Annotation: The ancient urban culture of Northwestern Bactria is an integral part of the history of the cities of our homeland. The study of the urban culture of Northwestern Bactria begins with the activities of the Termez archaeological expedition, which operated in 1936-1938 under the leadership of archaeologist M.Ye. Masson. The scope of research expanded, and important works on the urban planning and urban culture of ancient Bactria were created based on the results of archaeological research. This article provides information mainly on the urban planning of the monuments of Old Termez, Zartepa, Dalvarzintepa, located in the territory of Northwestern Bactria.

Keywords: Kushan, Bactria, Ayritom, Dalvarzintepa, Karatepa, Staryy Termez, Zartepa, Fayoztepa, Tarmita, Khodja Gulsiyar, Bodhisattva, Stupa, Buddhism.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Kushon podsholigi Shimoli-g'arbiy Baqtriyaning qadimgi davr shahar madaniyatining ravnaq topgan davridir. Bu davr shaharlarining ichki tuzilishi Eski Termiz, Dalvarzintepa, Zartepa, Hayitobodtepa, Jondavlattepa, Kampirtepa yodgorliklarida keng ko'lamda amalga

oshirilgan arxeologik tadqiqotlar tufayli ma'lum. Kushon davri Baqtriyaning Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston qismidagi shaharlar to'g'risida ma'lumotlar Tepasishoh[5] va Dilbarchin[6] yodgorliklarida amalga oshirilgan tadqiqotlar tufayli ma'lum darajada o'z yechimini topgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ushbu maqolada berilgan ma'lumotlar L.I.Albaum, G.A.Pugachenkova, B.A.Litvinskiy, V.A.Sedov, E.V.Rtveladze, T.J.Annayev, Sh.B.Shaydullayev, T.Nafasov, Sh.R.Pidayev, Z.Choriyev, B.Murtazoyev, J.Annayevlar va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlari natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar tahlil qilindi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Kushon podsholigi davrida Tarmita-Termiz ravnaq topgan, maydoni 350 gektardan oshgan. Biroq kushonlar davridagi Baqtriyaning ayrim shaharlaridan farqli, unda shahar ichki tuzilishi tarqoqroq olib borildi. Ichki shahar hududida, Duniyotepa o'rnida hamda o'rta asrlar shahristonining ayrim qismlarida imorat zich qurilganligi qayd etilgan. Shaharning boshqa joylarida uylar bog'-rog'lar hamda ekinzorlar orasida alohida qo'rg'on-chorbog' tarzida joylashgan. Ichki shahar jadal obod bo'la borgan. Bu yerda Kushonlar davri madaniy qatlami qalinligi 5 metrga boradi. Shaharda ulkan qurilish ishlari olib borilgan, maydoni 10 gektar bo'lgan ichki shahar atrofi, shu jumladan daryo tomondan ham, mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olingan. Bandargoh ya'ni port qism ham shu yerda bo'lib, u daryo bo'ylab ko'tarilgan devor bilan muhofaza qilinardi. Janubi-sharqiy qismda shaharni bandargoh bilan bog'lovchi maxsus nishab yo'l bo'lib, u sharq va g'arb tomondan yarim dumaloq burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devori bilan himoyalangan edi. Shaharga olib kiradigan asosiy yo'l janubi-g'arbiy burchakda joylashgan edi. Bu davrda shaharda ko'plab mahobatli imoratlar qurilgan[8].

Tarmita – Termizning Kushon podsholigi davri imoratlarining qurilishi va bezatilishida

qo'llanilgan toshtaroshlik namunalari Termizdan 30 kilometr Oks-Amudaryo bo'ylab joylashgan Xoja Gulsuyar mavzeidan qazib olingan. Kushon podsholigi davriga oid Xoja Gulsuyar yoki Burgutlar tepaligi yodgorligi esa, bu davrda oqtoshni qayta ishlaydigan ustaxona vazifasini o'tagan. Xoja Gulsuyar yoki "Burgutlar makoni" deb nomlangan bu ustaxonalarda yasalgan tosh mahsulotlari qayiqlarda Oks-Amudaryo orqali Shimoli-g'arbiy Baqtriyaning turli qismlariga yetkazilgan[1].

Kushonlar davrida Tarmita-Termiz buddaviylik dinining yirik markaziga aylandi. Bu davrda shahar atrofi bo'ylab buddaviylik inshootlari qad rostlaydi. Buyuk Kushon podshosi Kanishka davrida (milodiy II asrning birinchi yarmi) Termiz zimmasiga mafkuraviy vazifa ham yuklanib, u necha yuz yillar davomida buddaviylikning O'rta Osiyoda markazi bo'lib qoldi. Bu yerdan "Temir darvoza" orqali shimolga, So'g'diyonaga, Oks vodiysi orqali shimoliy-g'arbga, Marg'iyonaga hamda Pomir va Oloy tog'lari orqali shimoli-sharqqa, Sharqiy Turkistonga borgan da'vatchilar Budda ta'limotni mazkur viloyatlarga, shuningdek Xitoy va Tibetga yoydilar[10].

Tarmita-Termizning buddaviylikka oid moddiy madaniyat namunalari 1928 yilda Sharq muzeyi (Moskva)ning B. Denike rahbarligidagi ekspeditsiyasi davridayoq ma'lum bo'la boshlagan. 1928 va 1938 yillarda Eski Termizning Qoratepa buddaviylik inshooti shu tarzda fanda ma'lum bo'ldi. 1961 yildan 1990 yillar boshlariga qadar Eski Termizning Qoratepa buddaviylik inshootlari majmuida B. Ya. Staviskiy rahbarligida qo'shma arxeologik guruh izlanishlar olib bordi. 1969-1976 yillar oralig'ida Eski Termizning yana bir buddaviylik inshooti Fayoztepa arxeolog L. I. Albaum tomonidan o'rganildi. 2004-2006 yillar davomida Fayoztepada amalga oshirilgan qisman ta'mirlash va obidani saqlab qolish ishlari doirasida bu buddaviylik monastiri to'liq qazib ochildi[11].

Kushon davri Tarmita-Termizning shimoli-g'arbiy va shimoliy tarafida Qoratepa va Fayoztepa o'rnidagi buddaviy

monastirlarini qurilishi keng miqyosda olib borilgan. Qoratepadan topilgan muhim topilmalardan biri stupa hisoblanadi. Stupa esa buddaviylik dini tarqalgan barcha mamlakatlarda uchraydi. Stupalar esa bir xil uslubda qurilgan bo'lib to'rtburchak shaklida bo'lgan. Qoratepa xonalarining devorlari diniy rasmlar bilan bezatilgan. Buddaning o'zining tasviri ham uchraydi. Qoratepa buddaviylik ibodatxonasi g'orsimon shaklida bo'lib, Hindiston, Pokiston, Afg'onistonda joylashgan buddaviylik ibodatxonalari kabi yer ostiga qurilgan. Fayoztepa monastiri Eski Termiz yodgorligining shimoli-g'arbiy qismida, Qoratepa buddaviylik monastiridan chamasini 1 km masofa uzoqlikda joylashgan[3].

Amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Fayoztepa yodgorligining umumiy tarhi shimoli-g'arbdan janubi-sharqiy tomonga yo'nalgan to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, eni 34 va uzunligi esa 117 metrni tashkil etgan. Majmua 3 ta asosiy ya'ni markaziy, monastir va xo'jalik qismlaridan tashkil topgan. L.I. Albaumga ko'ra, yodgorlikning asosiy qismi stupa hisoblanib, u boshqa monastirlardan farqli ravishda hovli markazida emas, balki alohida joylashgan. Stupaga esa o'z navbatida g'isht va oqtoshdan barpo etilgan yo'lak orqali chiqilgan[4].

Mazkur buddaviylik stupasi 1968-yilda Fayoztepa yodgorligining sharqiy qismida amalga oshirilgan tozalash ishlari natijasida aniqlangan Uni o'rab turgan g'isht namunalari esa keyingi davrga oid stupa qoldiqlari sifatida qayd etilgan. Yodgorlikning markaziy qismida ibodatxona ham joylashgan[3].

Shimoli – g'arbiy Baqtriyaning Kushon podsholigi davri shaharlari sirasiga Zartepa (Angor vohasi) ham kiradi. Zartepa Kushon podsholigi davrida markaziy shahar hisoblanib, miloddan avvalgi I asrda asos solingan va milodiy VI asrgacha mavjud bo'lgan. Kushon podsholigi davrida bu shaharning qanday nomlanganligi haqida ma'lumot mavjud emas. Taniqli toponomist olim T.Nafasov Zartepa toponimi haqida to'xtalib o'tadi. Zartepa- Jarqo'rg'on t., Angor t. q-q; Termiz y., tepa Toj. Zard (sariq sarg'ish) yoki sar (bosh, yuqori, baland) +

tepa — sariq tepa, oq tuproqli balandlik, baland tepa. Bu — xalq izohi. Zartepalar sun'iy tepa, qadimiy qo'rg'on xarobasi. Hisor (qo'rg'on) so'zining o'zgargani — zar < sar < isor < hisor + tepa — qo'rg'onli tepa [7].

Zartepa Angor markazidan 4 km janubda Toshkent-Termiz avtomobil yo'lidan 1 km janubi-g'arbiy tomonda joylashgan. Tomonlari 400x400 m to'g'ri to'rtburchak shaklida. Shahar ichki qismi qadimgi mahallalar va inshootlar o'rnini hisoblangan tepaliklardan tarkib topgan. Shaharning shimoli-sharqiy burchagida to'g'ri to'rtburchak shaklida (120x120) asosiy shahar qismidan mudofaa devori bilan ajratib qo'yilgan arki a'lo joylashgan. Arki a'lo darvozasi uning shimoli-g'arbiy tarafidagi mudofaa devorida o'rnatilgan, shaharning janubiy-sharqiy burchagida tomonlari 60x60 m teng aynan arki a'loga o'xshash qism joylashgan. Ayni shu qismning janubiy-sharqiy va arki a'loning shimoli-sharqiy burchaklarida shahar darvozalari joylashgan. Shuningdek, arki a'loning shimoli-g'arbiy, ichki shaharning janubi-g'arbiy va g'arbiy taraflarida yana uchta darvoza o'rnatilgan bo'lgan. Shunday qilib shaharga besh darvoza orqali kirilgan. Yodgorlik ilk bora 1949-yilda arxeolog L.I.Albaum tomonidan aniqlangan. Keyinchalik 1972-1980-yillarda O'zFA Yahyo G'ulomov nomidagi Arxeologiya institutining xodimlari T.Annayev, Sh.Pidayev, K.Sobirov, K.Abdullayev va Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar Akademiyasi Moddiy madaniyat instituti guruhi bilan hamkorlikda qazuv ishlari olib borganlar. Umumiy maydoni 17 gektarga teng, shahar to'g'ri to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, ikki qismdan, ichki shahar va arki a'lodan iborat bo'lgan. Maydoni 15 gektarni tashkil etgan asosiy shahar qism har tomondan burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devor bilan o'rab olingan. O'z navbatida mudofaa devori va burjlarda shahar himoyasini kuchaytirish maqsadida shinaklar qurilgan. Darvozalarga tutash markaziy ko'chalar va ularga bog'langan yo'laklar shahar mahallalari va inshootlarini bir-biri bilan uzviy bog'lab turgan. Shahar mudofaa istehkomlari, ma'muriy va turarjoy binolari,

asosan, paxsa va to'g'ri to'rtburchak shaklidagi tomonlari 32x32; 33;33, qalinligi 10-12 sm ga teng xom g'ishtlardan qurilgan. Ma'muriy binolar, zodagonlar qabul xonalari oqtooshdan yasalgan tagkursilarga o'rnatilgan yog'och ustunlik ko'rinishda bo'lgan. Qabulxona zallari, marosim xonalari somonli loysuvoq ustidan qalin ganchga bo'yalgan. O'z navbatida hashamatli inshootlar pollari ham ganch qatlam bilan qoplangan. Zartepa Kushon podsholigi davrida shahar ahlining turar joylarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Zartepada har bir o'rtahol shaharlik turar joyi 10-12 xonadan, shaharlik zodagonlar xonadoni 20 dan ortiq turli hajmdagi binolardan iborat bo'lgan. Zartepada mahallarni tashkil etgan xonadonlar va boshqa turdagi binolar zich joylashgan bo'lsa-da, shaharning har qaysi qismi o'zaro bir biri bilan markaziy ko'chalarga tutash yo'lakchalar yordamida bog'langan bo'lgan[2].

Shimoli-g'arbiy Baqtriyaning Eski Termiz yoki Kushon davri Tarmita-Termizdan so'ng, eng yirik shahri Dalvarzintepa hisoblangan. Qadimiy shahar — Dalvarzintepa Sho'rchi tumanida Termiz-Dushanbe yo'li yoqalab joylashgan bo'lib, asosiy shahar qismi jami 33 gektar yerni egallagan. Shahar ikki qismdan: qudratli mudofaa devori bilan o'rab olingan shoh saroyi-qal'a va shaharning o'zidan iborat. Shahar mudofaaning istehkomli tizimiga ega bo'lib, bu yerda aslzodalar, hunarmandlar, kulollar, savdogarlar va ruhoniylar istiqomat qilishgan.

Dalvarzintepa yodgorligini muntazam o'rganish 1967-yilda arxeolog G.A.Pugachenkova ilmiy rahbarligida San'atshunoslik institutining O'zbekiston San'atshunoslik ekspeditsiyasi tomonidan boshlangan. Dalvarzintepada 200 metr devor qoldiqlari topilib, uning eni 4,6 m, balandligi 2,5 m keladi. Dalvarzintepa atrofida devor bilan o'ralgan ark xarobasi bo'lib, ark devorining uzunligi 130 m ga, balandligi esa 2,5 m ga tengdir. Dalvarzintepaning sharqiy qismida hatto 80 m masofada eni 4 metrlik tosh yo'l kovlab ochildigan. Bulardan tashqari, bu yerda bir necha to'rt burchakli paxsa devorli uylar topildi. Dalvarzintepada topilgan

900 ga yaqin tosh o'roq, jez o'roq, yorg'ichoq, don uchun kovlangan o'ra hamda kuyib ko'mirga aylangan arpa, bug'doy, tariq, so'li donlari va boshqa ashyolar qadimgi dalvarzinliklar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi[8].

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shahar xarobalari katta maydonni egallagan, uning atrofida qudratli mudofaa devorlari qad ko'targan. Devorning to'rtta joyidagi kesimlar uning qalinligi goho 10 metrgacha borishini ko'rsatadi. Devorlar poyida qazilgan xandak qadimda suvga to'ldirilgan, bu esa aholi uchun yana bir mudofaa vositasi edi. Shahar hududida uni bir qancha mahallalarga ajratgan shohko'chalar, shuningdek tor ko'chalar bo'lgan. Kengligi 12 metrgacha yaqin shohko'chalardan biri badavlat fuqarolarning uylaridan ikkitasi(DT-5 va 6)ga borib taqalgan. 1972-yil ekspeditsiya shu uylarning birida vazni 36 kg chamasi keladigan xazina topiladi. Badavlat fuqarolarning mahallasidan tashqari shaharda, arkga(qo'rg'on) yaqin yerda hunarmandlar va kulollarning mahallalari joylashgan. Shu yerda ko'p xonali uy, kulolchilik buyumlarini quritish maydonchasi va 11 ta xumdon ochildi. Qadimgi sharobchilar yashab, ishlagan uylar va musallasxonalar shaharning qarshi tomonida joylashgan. Dalvarzintepaning shimoli-g'arbiy qismida Kushon ma'budalaridan biriga bag'ishlangan ibodatxona topilgan. Shahar devori tashqarisida esa budda ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan dahma-naus ochildigan.

Dalvarzintepaning shahar tashqarisida I asrda tiklangan Budda ibodatxonasi, shahristonidan Buddaning boshi, Bodxisatvaning mahorat bilan ishlangan mahobatli haykali, fil suyagidan tayyorlangan shaxmatning ikki donasi topildi. Buddaning boshi loy va gipsdan yasalgan bo'lib, balandligi 39 sm, eni 25 sm keladi. Bodxisatvaning (o'sha davrga oid) haykali ham loy vagipsdan yasilib, rang bilan bo'yalgan. Uning balandligi 2 metr 18 sm, eni 89 sm. U bir paytlar Budda butxonasida turgan haykallar guruhidan biridir. Bu ko'hna topilmalar boshqa yodgorliklar bilan birgalikda 1988-yili Yaponiyaning Nara

shahridagi «Ipak yo‘li Naraga boradi» deb nomlangan xalqaro ko‘rgazmada namoyish etilgan edi. 1995-yili esa ular Parijdagi muhtasham «Grand-Pales» («Katga saroy»)ning nodir galereyasida muvaffaqiyat bilan namoyish etildi[9].

Dalvarzintepa shahristonini dastlab qadimshunos L.I.Albaum 1949-yili ko‘zdan kechirgan, 1960-1961-yillarda esa topografik tarixini chizib, dastlabki qazishma olib boradi. 1962-yili bahorida Hamza nomidagi San‘atshunoslik institutining O‘zbekiston san‘atshunoslik ekspeditsiyasi a‘zolari B.A.Turg‘unov bilan D.N.Sidorova Dalvarzintepaning qadimiy qismi yoshini aniqlash maqsadida shahristonning markaziy qo‘rg‘onida stratigrafik quduq qazishgan. 1967-yil mart oyida esa shahristonda keng ko‘lamdagi muhim tadqiqot ishlari olib borgan.

Dalvarzintepa Kushon Baqtriyasining Tarmita-Termiz, Dilbarchin, Jig‘atepa, Zartepa, qolaversa Baqtra, Bag‘rom kabi hunarmandchilikning turli sohaları rivojlangan shaharlar toifasiga kirgan. Shaharda hunarmandchilikning ommaviy turlaridan biri kulolchilikning taraqqiyotidan shaharning janubi-g‘arbiy tarafida qazib ochilgan 11 ta sopol idishlarni pishirishga mo‘ljallangan xumdonlarning topilishi juda muhimdir. Shunday qilib, Shimoli-g‘arbiy Baqtriyaning Kushon davri shaharlari o‘ziga xos qurilish uslubiga, me‘morchiligiga, hunarmandchiligiga, badiiy san‘ati va moddiy madaniyatiga ega bo‘lib, Kushon davlatida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shimoli – g‘arbiy Baqtriyaning qadimgi shahar madaniyati Vatanimiz shaharlari tarixining uzviy qismidir. Shimoli-g‘arbiy Baqtriyaning shahar madaniyatini o‘rganish 1936-1938 yillarda faoliyat ko‘rsatgan Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi(TAKE) faoliyati bilan boshlanadi. Shundan boshlab Shimoli–g‘arbiy Baqtriyaning qadimgi va o‘rta asrlar davri shahar madaniyati bosqichma-bosqich o‘rganilishda davom etdi, tadqiqotlar ko‘lami kengaya bordi va arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida Baqtriyaning qadimgi davr shaharsozligi va shahar madaniyatiga oid muhim asarlar yaratildi. Mustaqillik yillaridan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi arxeologiya shu jumladan qadimgi shahar madaniyatini o‘rganish masalalari tubdan o‘zgardi. Shaharsozlik va shahar madaniyati avvalambor ilk davlatchilik ko‘rinishining namunasi sifatida e‘tirof etildi. Shuningdek qadimgi shaharlarni o‘rganish davomida uning tarkibida qazib ochilgan inshootlar, san‘at va hunarmandchilik namunalari saqlash, ta‘mirlash, muzeylarda namoyish qilish muhim masala sifatida shakllandi.Bu borada Shimoli – g‘arbiy Baqtriya (Surxon vohasi) qadimgi davr shaharlarini o‘rganish, ayniqsa Eski Termiz misolida e‘tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki shahar madaniyatini o‘rganish o‘rganilayotgan hudud tarixini xolisona ochib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Аннаев Т, Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашриёти. Т., 1997. С.44.
2. Аннаев Т. J ва б. Агор археологик ёдгорликлари. “Voris-nashriyoti”. Т.,2014. С. 35-40.
3. Альбаум Л. И. Раскопки буддийского комплекса Фаязтепа (по материалам 1968–1972 гг.) // Древняя Бактрия. – Л., Наука, 1974. С. 54-55.
4. Альбаум Л. И. О толковании каратепинских комплексов (в свете раскопок Фаязтепе) // Буддийские памятники Кара-тепе в Старом Термезе. – М.: Наука, 1982. – С. 57;
5. Кругликова И. Т., Дильберджин. Материалы археологической карты Афганистана. Выпуск 2. М., Наука, 1974.
6. Литвинский Б. А., Седов В. А. Тепаи Шах. М., Наука. Стр. 20-22.

7. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. “Ўқитувчи” нашриёти. Т., 1988. С. 81-82.
8. Пидаев Ш. Р. Сирли Кушонлар салтанати. “Фан” нашриёти. Т., 1990. – С. 17-18.
9. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Далварзинтепа-кушанский город в юге Узбекистана.-Т. 1978. – С. 39.
10. Ртвеладзе Э. В. Термиз ва унинг Ўрта Осиёдаги аҳамияти // Термиз буюк йўллар чорраҳасидаги кўҳна ва янги шаҳар. Т., “Шарк”, 2001. С. 10.
11. Чориев З, Аннаев Т, Муртозоев Б, Аннаев Ж. Ал-Ҳаким ат Термизий. Т., “Янги аср авлоди”, 2008. – С. 12-13.

АРАБ МАНБАЛАРИДА ЎРТА ОСИЁ ТАРИХИЙ ТОПОНИМИЯСИГА ДОИР АЙРИМ ҚАЙДЛАР ТАҲЛИЛИ

Бердиев Хайриддин Абдуллоевич,

Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети

Ўзбекистон тарихи кафедраси доценти,

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),

20berdiev20@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-7790-9912>

UDK 801.82

Аннотация: Қадим замонларда, ўрта асрларда ва ҳозирги даврда ҳам Марказий Осиё минтақаларининг тарихий географиясини ўрганишда араб манбаларининг аҳамияти муҳим деб баҳоланган. Орадан кўп йиллар ўтиб, топонимияни ўрганиш жараёнида фақат лингвистлар эмас, балки тарихчилар ва географлар ҳам “жонли тарих” саҳифаси тарихий-географик тадқиқотларда ўз ўрнига эга эканлигини исботлашга интиломокдалар. Мақолада топонимик тадқиқотларда археология, халқ оғзаки ижоди ва лингвистика каби турли фанлар кесимида қўлланилаётган айрим муҳим ўзгаришлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: тарих, география, ёзма манбалар, археологик ва лингвистик тадқиқотлар, хариталар “тилга кирганда”.

Аннотация: В древности, в средние века и в наше время роль арабских источников считалась важной в изучении исторической географии среднеазиатских регионов. Спустя много лет не только лингвисты, но и историки и географы пытаются доказать, что страница «живой истории» имеет свое место в историко-географических исследованиях. В статье анализируются некоторые важные разработки в области топонимических исследований, которые используются в различных дисциплинах, таких как археология, фольклор и лингвистика.

Ключевые слова: история, география, письменные источники, археологические и лингвистические исследования, когда карты «входят в язык».

Abstract: In ancient times, in the Middle Ages and in our time, the role of Arabic

sources was considered important in the study of the historical geography of the Central Asian regions. Many years later, not only linguists, but also historians and geographers are trying to prove that the page of "living history" has its place in historical and geographical research. The article analyzes some important developments in the field of toponymic research, which are used in various disciplines such as archeology, folklore and linguistics.

Keywords: history, geography, written sources, archaeological and linguistic research, when maps "enter the language".

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Марказий Осиё минтақаси узоқ ўтмиши тарихий-маданий хусусиятлари ва диний муносабатларда қатор ўхшашлик ва муштарак хусусиятлар мавжуд. Халқимизнинг минг йиллар билан бўйлашадиган ёзма меросини ўрганиш, қўлёзма манбаларни таҳлил этиш асосида ўрта асрларда Ўрта Осиё тарихий географиясини ўрганиш замонавий фан нуқтаи назаридан асосан XIX асрда бошланди ва ҳозиргача давом этмоқда. Агарда XIX аср охири - XX аср бошлари тарихшунослиги ҳақида сўз борганида, аввало Ўрта Осиё минтақаси ва тарихий вилоят шаҳарларини тарихий-географик аспектда ўрганиш дастлаб Россия тарихшунослигида бошланди. Хусусан, бу даврда Ўрта Осиёга ташриф буюрган турли элчилик миссиялари аъзолари, савдогарлар, саёҳатчилар, ҳарбийлар ва бошқалар маҳаллий шаҳар, шаҳарча ва қишлоқларга ҳамда уларни боғлаб турувчи йўлларга катта эътибор қаратганлиги

айниқса, ҳарбий-стратегик аҳамиятга эга бўлган жой номларига эътибор қаратишган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ўрта Осиё тарихий географияси ҳақида XX асрнинг 20-80 йилларида тарихий-археологик тадқиқотлар натижалари ва ёзма манбалар маълумотлари таҳлили асосида кўплаб монографиялар, рисоалар ва мақолалар нашр этилган. Мисол тариқасида рус шарқшунослари В.В.Бартольд [Бартольд 1963. 169–433; 1964. 477.], М.Е.Массон [Массон 1984. 57 – 62], Э.В.Ртвеладзе [1986, № 12. 34 – 39], Б.Ю.Буряков [Буряков 2007. 6 – 11], Р.Г.Мукминова [Мукминова 1966. 226-259], С.Қ.Қораев [Қараев. 1991] асарларида Ўрта Осиё қадимги даври ва ўрта асрларига оид топонимик объектлари ўз аксини топанлиги билан аҳамиятлидир [Алимов. 2020 6-7].

Шу ўринда Ўрта Осиё ҳудудлари тарихий географияси араб манбалари асосида ўрганган Ш.С.Қамолитдин [Қамалиддинов 1996; 2006], Б.Ю.Буряков [Буряков. 1975], А.Муҳаммаджонов [Муҳаммаджонов. 2009], М.Филановичнинг [Филанович 2010], О.Бўриев [Бўриев 1997; 2015], З.Саидбобоев [Саидбобоев. 2008], К.А.Краҳмалъ ва бошқаларнинг [Краҳмалъ ва бошқ. 2013] асарларида ўрта аср шаҳарлари номлари, топонимик объектлар ҳамда ижтимоий-иқтисодий ҳаётига доир айрим маълумотларни қайд этилган.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISSCUSSION) Маълумки топонимика, энг аввало, тилшунослик фанидир. Бироқ, бу фақат тилшуносларнинг соҳаси, дейиш мумкин эмас [Лурье 2004]. Тарихий-географик маълумотларни инобатга олмасдан фақатгина лингвистик ёндашувни қўллаш ва ҳар доим ҳам ишончли этимологияни келтириб чиқара олмайди [Мусаев 1984]. Шунинг учун топонимика нафақат тилшунослар, балки қадимги даврларда ҳам, ўрта асрларда ҳам, бизнинг давримизда ҳам тарихчи ва

географларнинг ҳам тадқиқот объекти бўлиб келмоқда [Қамалиддинов. 2006].

Археологик маълумотларга кўра, мавжуд материаллар милоддан аввалги I минг йилликда вужудга келган Ўрта Осиё цивилизациясини тўғридан-тўғри худди шу ҳудуднинг бронза даври маданиятларигача кузатиш имконини бермайди. Ўрта Осиё оралиғидаги мавжуд жамиятни эронийларгача бўлган қадимий қабилавий тузилишга эга бўлган маданият яратилгани ҳисобга олсак, бу ҳудуд таракқиётини улар ижтимоий тузилишидаги мураккаблик шакллари билан боғлаб ўрганиш шарт эмас [Зеймал. 1987. 149-157].

Маълумки, Ўрта Осиё жанубида милоддан аввалги 6-5 минг йилликларда ҳинд-арий қабиалари бу ерга кўчиб келишидан анча олдин, ўтроқ деҳқончилик ва чорвачилик жамоалари протошаҳар маданияти шаклланган [Массон 1984. 57-62]. Марказий Осиёнинг бу қадимий маданиятларини кимлар яратганлиги ҳалигача чуқур ўрганилмаган. С.А.Винтерснинг маълумотларига кўра, Ўрта Осиёнинг ҳинд-арийлар истилосидан олдин милоддан аввалги II минг йилликнинг ўрталари ёки иккинчи ярмида унинг жанубий ҳудудларида дравид тилларида сўзлашувчилар яшаган, деб тахмин қилинади [Winters 1990: 120-44]. Маълумки, дравидизмлар санскрит луғатининг салмоқли қисмини ташкил қилади [Қамалиддинов 2006: 5.].

Милоддан аввалги II минг йилликда дравид тилларида сўзлашувчилар прототуркий тилларда сўзлашувчиларга яқин жойда яшашган ва Россиянинг Европа қисмидаги (Булғор, Хазар, Чуваш), Сибир (Якут) ва Узоқ Шарқнинг айрим туркий тилларида қадимги даврларда Ўрта Осиёнинг жанубий қисмида кенг тарқалган прототурк тилининг излари мавжуд ва сақланиб қолган. Археологик тадқиқот олиб борган Э.А. Новгородова маълумотларига кўра, Марказий Осиё даштларидаги Минусинск ҳавзасидаги Карасук маданиятининг ташувчилари аجدодлари (эрамиздан аввалги 2-минг

йиллик ўрталари) айнан чорвадор қабилалар бўлган [Новгородова 1970].

Тилшунослик адабиётида туркий тилларнинг энг қадимий шакллари прототуркий, сўзлашувчилари эса прототурк деб юритилади ва бу тилларнинг шаклланиш тарихи туркий сўзлари оиласи билан чамбарчас боғланганлигини кўрсатади. А.П. Дулзон фикрича Пелеа-Осиё ва Енисей тиллари деб аталиши ҳам шундан далолат беради [Дулзон. №1:25-28].

Ўрта Осиёнинг ўтроқ ва шаҳар аҳолисининг салмоқли қисмини прототурклар, яъни туркий тилли халқларнинг узок тарихий ва этник аجدодлари бўлган, улар бу ҳудуднинг асл аҳолиси бўлган ва унинг қадимий даврининг бир қисми маданиятини сақлаб қолган. Ўрта Осиёни ҳинд-орийлар босиб олгандан сўнг, янги келган орийлар томонидан сиқиб чиқарилган туркий тилли халқларнинг бир қисми шимолга йўл олди, қолган қисми эса юзаки тарзда эронлашган сўзлашув шаклини қабул қилган бўлиши мумкин.

Илк ўрта асрларда топонимлашиш жараёнида Шарқий эроний тилларга хос топонимларидан кейинги ўринда иккинчи йирик туркийлашган топонимлар гуруҳи, ўрта асрларда эса Ўрта Осиёда топонимиканинг энг кенг ёйилган қатламини ташкил қилган. Масалан, С.У. Умрзоқов тадқиқотларига кўра, биргина Қирғизистон ҳудудида қадимдан XII асргача тарихий манбалардан маълум бўлган 300 га яқин қадимий географик номлар аниқланган [Умрзоқов 1978: 53-57]. Туркий тилларнинг лексик ҳиссаси Европа ва Осиёнинг кўплаб тилларида, жумладан, топонимлашиш жараёнида қайд этилган. Бинобарин, бу улкан ҳудуд, шунингдек, Ўрта Осиё топонимиясини этимологик жиҳатдан кўриб чиқиш туркий тил соҳасига муносиб ўрни бўлганлигини кўрсатади.

Ўрта Осиё ҳудудида Ғарбий Эрон (форс-тожик) топонимиясининг фаол шаклланишининг бошланиши араблар истилоси даврига бориб тақалади деган

фикрни А.Л. Хромов айтиб ўтган [Хромов 1980: 132-138]. Ўрта Осиёда ғарбий Эрон тилидан бўлган янги форс тили (форс) билан бирга кенг тарқалган “қишлоқ” маъносини англатувчи янги форсча топоформантлар “- дех” ва “- обод” ҳам айнан шу даврда қўлланила бошланди. Ўрта Осиёда Ғарбий Эрон топоформантлари “- ан”, “- кирд” (-гирд, -жирд), “- диза” (- диз), “- руд” ва “- стан” (-истон) иштирокида топонимларнинг пайдо бўлиши ҳам шу даврга тўғри келганлиги эътироф этилган. Айнан шу даврда “қишлоқ” маъносини англатувчи янги форс топоформантлари “- дех” ва “- обод” қўлланила бошланди, Э.Э. Бартольд улар Ўрта Осиёда ғарбий Эрон тилидан келиб чиққан янги форс тили (форс) билан бирга кенг тарқалган деган фикрни эслатади [Бартольд 1963. Т. 2. Ч. 1. 23 – 106].

Шу билан бирга топонимиядаги ҳақиқий арабча элементлар аҳамиятсиз бўлиб, асосан Ўзбекистоннинг жанубида ва Зарафшон водийсида учрайди [Қораев 1991: 130].

Кейинги ўн йилликларда археологик, нумизматик, тарихий, лингвистик ва манбашуносликнинг жадал ривожланиши ҳамда Ўрта Осиёга оид жуда катта ҳажмдаги материалларнинг тўпланиши туфайли тарихий география, жумладан, топонимика фани ҳам катта тараққиётга эришди. Бизнинг фикримизча, бугунги кунда турли тарихий фанларга оид кенг қамровли маълумотларни ўз ичига олган кенг қамровли тадқиқотлар олиб бориш вақти келди. Шунга мувофиқ тарихий манбаларни тадқиқотчи З.И.Алимовнинг авторефератида келтирилган тарзда тўхталиб ўтамиз [Алимов 2020: 11-12].

Тарихий ҳамда қомусий манбалар:

XI аср: Берунийнинг «Масъуд қонуни» "القانون الوسعدى", «Геодезия» ва «Ҳиндистон», ас-Саолибийнинг «Ажойиб маълумотлар» ва «Йатимат ад-дахр», Саҳмийнинг «Тарихи Журжон» асарлари;

XII аср: Насафий томонидан ёзиб қолдирилган «ал-Қанд фи зикр уламо Самарқанд», ас Самъоний «Китоб ал

ансоб» ва «Мўъжам аш-шуйух»нинг "من معجم شيخ المنتخب «Зубдат ут-таворих» асарлари;

XIII аср: Ёкут ал Ҳамавийнинг «Муъжам ал-удабо».

Географик манбалар:

IX аср: ал-Хоразмийнинг «Китаб сурат ал-ард» "كتاب صرح الأرض" («Ернинг сурати») асари, Тамим ибн Бахрнинг номи сақланмаган ва унинг айрим қисмлари бошқа муаллифлар асарларида учрайдиган асари, Ибн Хурдодбеҳнинг «Китаб ал-масалик ва-л-мамалик» "المسائل و الممال" («Мамлакатлар ва йўллар ҳақидаги китоб») асари, ал-Яқубийнинг «Китаб ал-Булдан» "كتاب التذاي" («Мамлакатлар ҳақида китоб») асари;

X аср: Ибн ал-Фақиҳнинг «Китаб ал-Булдан» "كتاب التذاي" («Мамлакатлар ҳақида китоб») асари, Ибн Рустанинг «Китаб ал-аълак ан-нафиса» "كتاب الاعلاق" («Қимматбаҳо тошлар ҳақида китоб») асари, Қудамма ибн Жаъфарнинг «Китаб ал-хараж ва санъа ал-китаба» "الخراج و صناعة الكتابة" («Хирож ва котиблик санъати ҳақидаги китоб») асари, ал-Масъудийнинг «Китаб ат-танбих ва-л-ишраф» асари, Истахрийнинг «Китаб ал-масалик ва-л-мамалик» "المسائل و" («Мамлакатлар ва йўллар ҳақидаги китоб») асари, Ибн Ҳавқалнинг «Китаб сурат ал-ард» "كتاب صرة الأرض" («Ернинг сурати») асари, ал-Муқаддасийнинг «Ахсан ат-тақосим фи маърифат ал-ақолим» "أحسى التقاسيم في معرفة الأقاليم" («Иқлимларни ўрганишда тақсимотнинг афзали») асари;

XI аср: Берунийнинг «Масъуд қонуни» "القانون الوسعدى", «Геодезия» ва «Ҳиндистон» ва ал-Бакрийнинг «Китаб муъжам ма истажам...» "كتاب معجم استعجم من" «Араб бўлмаганлар ҳақидаги китоб») ва «Китаб ал-масалик ва-л-мамалик» "كتاب المسائل و الممال" («Мамлакатлар ва йўллар ҳақидаги китоб») асарлари, номаълум муаллиф қаламига мансуб «Китаб ғарайиб ал-фунун ва мулах ал-уюн» "كتاب غرابة الفنون و ملح العيون" («Фаннинг ғаройиботлари ва мўъжизалари ҳақидаги китоб») (MS. Arab. c. 90 нусхаси) асари;

XII аср: ал-Идрисийнинг «Нузҳат ал-муштоқ фи-хтироқ ал-афоқ» "نزهة المشتاق في اختراق الفاق" ёки «Китаб ар-Ружжор» («Ружжор китоби») асари;

XIII аср: Ёкут ал Ҳамавийнинг «Муъжам ал булдон» "معجم البلدان" асари, ал-Қазвинийнинг «Асар ал-билад ва ахбар ал-иъбад» "آثار البلاد و اخبار العباد" («Мамлакатлар асорлари ва Аллоҳ бандалари ҳақида хабарлар») асарлари.

Қадимги қўлёзмаларда Чоч воҳаси «Туркистонда энг йирик вилоят» деб қайд этилган. «Чочга ўхшаш қишлоқларда аҳоли гавжум бўлган, экин майдонлари гуллаб яшнаган, кўплаб масжидлар, кучли ва жасоратли халқи мавжуд бўлган бирорта мамлакат на Хуросонда, на Мовароуннаҳрда топилмайди», – деб ёзади X аср ўрталарида яшаган араб географи Истахрий. Ярим асрдан сўнг «Шарқнинг бирорта ҳам водийсида бундай шаҳарларга бой воҳа йўқ», – деб Истахрий фикрини қўллаб-қувватлаган эди Ибн Ҳавқал. Ҳақиқатда ҳам, бу ерда элликка яқин шаҳар ва шаҳарчалар бўлган.

Тошкент воҳасига алоқадор топонимик бирликлар жанубий карвон йўлидаги – Банокат (بنكت), Харашкат (خزشت), Худайнкат (خديكت), Дахкат (دخت), Арбилах (ارتلخ);

Яна муҳим географик манбалардан бири сайёҳ, географ олим Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Муҳаммад ал-Форисий ал-Истахрийнинг (951 йилдан сўнг вафот этган) «Китаб ал-масалик вал-мамалик» («Йўллар ва ўлкалар китоби») асаридир [179-181. كتاب مسالك الممالك. الاصطخرى. –ص.].

Асарнинг қўлёзма нусхалари ҳам узоқ асрлар давомида шу каби мураккаб жараёнларни бошдан кечирди. Шарқ Ренессанси даврида география фанида (X аср) юксалиш жараёни кечди. Бу йўналишда Бағдод ва Балх мактаби шаклланди. Абу Зайд ал-Балхий (ваф. 934) Балх мактабига асос солди. У асарида дунё ва X аср мусулмон оламининг йигирма иқлими харитасини тузди. Асар бизгача етиб келмаган. Истахрий «Китаб ал-масалик вал-мамалик»да Балхий асарини

янги маълумотлар билан тўлдириб, бойитади ва аниқликлар киритади. Бу ҳақда тадқиқотчи Р.Т.Худойберганов таъкидлашича, асарнинг биз учун энг қимматли жиҳати унда «Мовароуннаҳр» қисми географияси ва харитаси мавжудлигидир [Худойберганов. 2020: 13-16].

Ушбу асар XIX асрдаёқ Европа илм аҳлига маълум бўлган, Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Муҳаммад ал-Форисий ал-Истахрийнинг «Китаб ал-масалик вал-мамалик» асари бугунги кунда бир неча тилларга тўлиқ ва терма таржима қилинган. Мавжуд таржималарнинг охиригиси Мурат Ағарига тегишлидир. У 2015 йили илмий-оммабоп тарзда асарнинг тўлиқ матнини туркчада босиб чиқаради.

Араб географларининг Балх мактаби ҳамда «Китаб ал-масалик вал-мамалик» асари асосида турган дунё ва йигирма иқлим харитаси тадқиқига бағишланган. Чунончи, «Китаб ал-масалик вал-мамалик»нинг «Мовароуннаҳр» иқлимида тўрт юзга яқин жой номининг зикр этилиши унинг муҳим тарихий манба эканини тасдиқлайди. Шу пайтгача «Мовароуннаҳр» иқлимига доир кенг кўламли ишлар амалга оширилганига қарамай, уни етарлича ўрганилган, деб бўлмайди. «Мовароуннаҳр» иқлимида қайд этилган топонимларнинг ёзилиши ва ўқилишидаги хилма-хилликларда бу яққол кўзга ташланади.

Қўлёзмалар қанчалик қадимий бўлса, ҳарфларнинг «нуқта»лари шунча кам қўйилиши манбашуносларга яхши маълумдир. Бу вазият тадқиқотчининг жой номларини тўғри ўқишини қийинлаштиради. Унга топонимлар ёзилишида кўчирувчилар хатолари ҳам қўшилади. Жой номлари ёзилиши ва ўқилиши билан боғлиқ мураккабликлар иш жараёнида уч туркумга ажратилди.

Биринчи туркум: бир қўлёзманинг ўзида битта жой номининг бир неча шаклда ёзилиши билан изоҳлаш мумкиндир. Масалан, Суғд водийсидаги «برمش» – «Бармиш» [كتاب مسالك] дарё номи Болония

университети №3521 нусхасида «بامسن» ва «بارمس» шаклларида битилган [Scheicho Abu-Ishako el-Faresi vulgo el-Isstachri. Liber Climatium. – P. 319.].

Иккинчи туркум: жой номлари асарнинг турли нусхаларида хилма-хил ёзилади. Айримлари ҳатто ўнга яқин шаклда учрайди. Самарқанддан шимоли-шарқда ҳозирги Оқтепамитан қишлоғи ёнида жойлашган «بارکش» – «Баркас» шахри [كتاب مسالك الممالك. – ص. 181] «Масалик ал-мамалик» матнларида اباركت [Истанбул. Сулаймония кутубхонаси, Инв. № 3156, 109 а varaқ.] اباركت [Истанбул. Сулаймония кутубхонаси, Инв. № 2613, 156 б varaқ ва № 2971, 88 а varaқ.] اياركت шаклларида келган.

Жой номининг турли нусхада ҳар хил ёзилиши, асосан, кўчирувчи йўл қўйган хатолардир. Баъзи жой номларининг ўнлаб шаклда ёзилиши улар орасидан тўғрисиани аниқлаш масаласини келтириб чиқаради.

Учинчи туркум: жой номлари ёзилиши бошқа тарихий манбалардагидан фарқ қилади. «Китаб ал-масалик вал-мамалик»да «كذاك» – «Кадак», Ибн Ҳавқал уни «كراك» – «Казак», «Худуд ал-Олам» муаллифи «كرال» – «Карал» шаклида ёзади, Ибн Хўрдадбеҳ нашрида «كوبل» – «Кубал» деб берилган.

«Китаб ал-масалик вал-мамалик» сўнгги бандда асар нусхаларидаги хариталар ўзаро ва улардаги жой номлари матнда кўрсатилганлари билан ажралиб туради. Хусусан асарда харита шаклда акс этган Рум денгизи, Жазира ва Ироқ иқлимида матндагидан харитага нисбатан кўпроқ экани кузатилган. Турли нусхадаги хариталардаги жой номлари миқдори ҳам бир-бирига мос тушмади. Масалан, «Мовароуннаҳр» иқлими Гота, Қоҳира №199, Техрон №351 ва Истанбул №3156 нусхаларида икки ва Истанбул №2613, №2971, Берлин, Техрон, Кабул нусхаларида битта саҳифага чизилган. Шу сабабдан иқлим тасвири қўлами ҳам фарқ қилиши, хариталарда камчиликлар ҳам учрайди. Масалан, Самарқанд вилоятининг бугунги Жомбой тумани худудига қарашли «Зарман» мавзеси асарнинг

Берлин нусхасида Зарафшоннинг ўнг ва Истанбул (№3156) нусхасида чап соҳилида кўрсатилган. Баъзи бошқа жой номлари ёзилиши ва жойлашган ўринлари белгиланишида ҳам чалкашликларга йўл қўйилган. Бу ҳолатлар хариталар тадқиқида инобатга олиниши ҳамда улар асар матни билан бирга ўрганилиши зарурлигини тақозо қилади.

«Китаб ал-масалик вал-мамалик» қўлёзмаларини излаш натижасида унинг араб тилида 16 ва форс тилига таржимасининг 28 нусхаси мавжудлиги аниқланди, бу ўз навбатида Истахрий илмий мероси борасида аниқроқ тасаввур қилиш имконини беради.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONSLUSION). Ўзбекистон Фанлар академияси Шарқшунослик институти

қўлёзмалар фонди нафақат мамлакат, шу билан бирга бутун дунёдаги йирик фондлардан биридир. Ушбу институтда Шарқ (араб, форс ва турк) тилларидаги 18 минг жилдга яқин қўлёзма асарлар, 18 минг жилддан кўпроқ тошбосма асарлар ҳамда 3500дан зиёд акт ва ҳужжатлар сақланмоқда. Минг йиллик тарихга эга бўлган қўлёзма асарлар, шубҳасиз, Марказий Осиё халқларининг ақл-заковатини ўзида акс эттирган ноёб дурдоналардир. Хулоса шуки, тарихий географик билимлар ўтмишни ўрганишига эмас, балки илмий амалиётида қўлга киритилган натижаларни ёритадиган ва кенг жамоатчиликка етказувчи, тарихий тасаввур жонланишига, қадриятли жиҳатларини оммага етказсагина абадийлик эшикларини очади.

АДАБИЁТЛАР ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана // Соч. в 9 томах. Т. 2. Ч. 1. М., 1963. С. 169 – 433.
2. Бартольд В.В. Мавераннахр // Соч. в 9 томах. Т. 3. М., 1964. С. 477.
3. Массон В.М. Формирование древних цивилизаций в Средней Азии и Индостане // Древние культуры Средней Азии и Индии. Л., 1984. С. 57 – 62.
4. Ртвеладзе Э.В. Стена Дарбанда Бактрийского // ОНУ, 1986, № 12. С. 34 – 39.
5. Буряков Ю. К динамике развития городской культуры древнего и средневекового Чача // Чач – Бинкет – Ташкент (историческое прошлое и современность). Материалы научной конференции. Ташкент, 2007. С. 6 – 11.
6. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане в XVI в. По материалам Вакфнаме. –Т.: Фан, 1966.
7. Караев С.К. Топонимия Узбекистана (Социоллингвистический аспект). Ташкент: Фан, 1991.
8. Алимов З.И. Араб тилидаги манбаларда Тошкент воҳаси тарихий географияси (IX-XIII асрлар) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Тошкент – 2020. – Б.6-7
9. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII в. Ташкент, 1996.
10. Камалиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. –Т.: Шарқ, 2006;
11. Муҳаммаджонов А. Қанғ - қадимги Тошкент ва тошкентликлар. –Т.: Шарқ. 2009.
12. Филинович М. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. Ташкент, «Ўзбекистан». 2010
13. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. –Т.: Ўзбекистон. 1997;
14. Бўриев О. Марказий Осиё тарихий географиясидан лавҳалар. –Т.: «Тафаккур». 2015.
15. Саидбобоев З.А. Тарихий география. –Т.: Ношир, 2008.

16. Крахмаль К.А., Хасанова С.М., Аметова Ф.И. Древнейшая история народов долины Сырдарьи. –Т.: Тамаддун. 2013.
17. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Дисс. ... к. филол. н. СПб., 2004.
18. Зеймаль 1987 – Зеймаль Е.В. К периодизации древней истории Средней Азии (середина I тысячелетия до н.э. – середина I тысячелетия н.э.) // Центральная Азия. Новые памятники письменности и искусства. М., 1987. С. 149 – 157.
19. Winters C.A. The Dravido-Harappan Colonization of Central Asia // CAJ, vol. 34: 1990, p. 120 – 144.
20. Новгородова Э.А. Центральная Азия и карасукская проблема. М.: Наука, 1970.
21. Дульзон А.П. Кетско-тюркские параллели в области склонения // СТ. Баку, 1971, № 1. С. 25 – 28.
22. Умурзаков С.У. К исторической топонимии Киргизии// Ономастика Средней Азии. М., 1978. С. 53 – 57.
23. Хромов А.Л. Некоторые особенности формирования топонимики Средней Азии в IX–XIII вв. // Ономастика Востока. М., 1980. С. 132 – 138.
24. Худайберганов Р.Т. Истахрийнинг «Китаб ал-масалик вал-мамалик» асари (илмий-изоҳли таржима ва тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, –Т.: – 2020 – Б. 13-16.
25. الاصطخرى. كتاب مسالك الممالك. – ص. 179.
26. Scheicho Abu-Ishako el-Faresi vulgo el-Isstachri. Liber Climatum. – P. 319.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В 1991-2001 ГГ.

Каноатова Феруза Бобокуловна,

Доцент Шахрисабзского государственного педагогического института,

Доктор философии по истории (PhD)

e-mail: fkanoatova@yandex.ru.

<https://orcid.org/0009-0003-2396-4128>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: В статье развитие женского частного предпринимательства в Узбекистане в 1991-2001 годах и его особенности, механизмы реализации политики государственной поддержки развития женского предпринимательства, повышения их экономической и социальной активности, неправительственных организаций, в том числе изучалась практическая деятельность районных, партийных и различных других объединений.

Ключевые слова: бизнес, социальная политика, частное предпринимательство, социально-экономическая деятельность, государство, неправительственные организации, общественные объединения, кредитные льготы, женская занятость.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda 1991-2001 yillarda xotin-qizlar xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va uning o'ziga xos tomonlari, ayollar ishbilarmonligini rivojlantirishining hukumat tomonidan qo'llab — quvvatlash siyosatini amalga oshirish mexanizmlari, ularni iqtisodiy, ijtimoiy faolligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida nodavlat tashkilotlari, jumladan, mahalla, partiya va boshqa turli uyushmalarning olib borayotgan amaliy ishlari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlari: biznes, ijtimoiy siyosat, xususiy tadbirkorlik, ijtimoiy — iqtisodiy faollik, davlat, nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, kredit imtiyozlari, ayollar bandligi.

Abstract: The article discusses the development of women's private entrepreneurship in Uzbekistan in 1991-2001 and its features, mechanisms for

implementing the policy of state support for the development of women's entrepreneurship, increasing their economic and social activity, non-governmental organizations, including the practical activities of district, party and various other associations.

Keywords: business, social policy, private entrepreneurship, socio-economic activity, state, non-governmental organizations, public associations, credit benefits, women's employment.

ВВЕДЕНИЕ. В наше время доказано, что важнейшим драйвером экономической динамики социально-экономического развития любой страны является предпринимательство и его гарантия, основной способ обеспечения личной свободы, благополучия личности и общества. Сравнительно высокое участие граждан, особенно женщин, в предпринимательстве в развитых странах обусловлено всесторонней поддержкой этой деятельности. Основные цели Программы устойчивого развития до 2030 года, принятой Генеральной Ассамблеей ООН, ориентированы на достижение гендерного равенства и повышение активности женщин в сфере предпринимательства как важного фактора улучшения образа жизни населения. В связи с этим наблюдается интерес к развитию женского предпринимательства и изучению тенденции гендерного равенства. Эти процессы свидетельствуют о том, что изучение данной темы сегодня актуально в мировой историографии.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУР И МЕТОДИКА. Стоит отметить, что вопросы места и роли женского предпринимательства широко

изучаются в философском, экономическом, социологическом и правовом аспектах мировой науки. В частности, это отражено в исследованиях, проводимых Программой развития ООН, Азиатским банком развития, а также в рамках Программы развития тысячелетия. В этих работах рассматриваются реформы в сфере предпринимательства, реализуемые в республиках Центральной Азии, включая Узбекистан («Бизнес-отчет Казахстана, Туркменистана и Узбекистана»). Например, немецкие учёные Давид Смолбон, Фридерика Вельтер и Форман Фридер не рассматривали Узбекистан как отдельный объект исследования, а изучали ситуацию в странах Средней Азии, бывших республиках СССР, в период перехода к рыночной экономике. В их работах концептуально анализировалось женское предпринимательство, а также социальные возможности женщин - предпринимателей в смягчении растущей безработицы. Они отмечали, что в этот период большинство женщин были исключены из оплачиваемой работы и системы социального обеспечения, что препятствовало их потенциальному вкладу в экономические и социальные изменения на таком «начальном этапе».

А также, вопрос женского предпринимательства широко рассматривается научными центрами и университетскими учеными в экономическом и социологическом аспектах в таких странах, как Великобритания, Норвегия, США, Россия, Германия и Индия.

С начала 60-х годов XX века изучение женского предпринимательства стало основным объектом исследований в зарубежных научных кругах, охватывая области экономики, социологии и права. В этом контексте женское предпринимательство рассматривалось в двух основных направлениях: во-первых, с социологической точки зрения, оценивается степень участия женщин в различных социальных процессах и основных направлениях бизнес-

деятельности с гендерной перспективы; во-вторых, с экономической точки зрения, исследуются проблемы предпринимательства, инициатива и расхождение женского бизнеса в целом, а также уровень развития предпринимательства среди женщин[1;20].

XXI век стал эпохой современных деловых женщин. Хотя женщины ведут предпринимательскую деятельность в секторах, отличных от тех, где преобладают мужчины - таких как торговля, сфера услуг, здравоохранение, образование и социальные услуги - все еще сохраняются проблемы гендерного неравенства и различий в заработной плате. Согласно данным, в период с 2001 по 2019 год неравенство в оплате труда мужчин и женщин оставалось актуальной проблемой. Например, по данным Forbes за 2016 год, женщины, работающие полный рабочий день в течение всего года, зарабатывают лишь 80% от заработка своих коллег-мужчин. Это приводит к тому, что женщины предпочитают индивидуальное предпринимательство, так как оно позволяет им быть начальниками сами себе, устанавливать свои ставки и получать соответствующее вознаграждение. Такая независимость стимулирует их к исследованию, созданию и развитию новых областей знаний.

Американские эксперты по женскому предпринимательству утверждают, что в XXI веке женское предпринимательство стало ключевым фактором экономического роста по всему миру, включая Ближний Восток и Африку. Несмотря на значительное число образованных женщин-предпринимателей с собственными бизнес-идеями, начало предпринимательской деятельности для них часто сопряжено с трудностями. Гендерные особенности и экономическая ситуация подчеркивают необходимость повышения роли женщин в бизнесе и расширения возможностей для женщин-предпринимателей[2;218].

Феномен женского предпринимательства тесно связан с

общим феноменом предпринимательства и основывается на нем. Некоторые эксперты считают, что в бизнесе нет отдельного гендерного измерения - независимо от пола участников, ведение бизнеса остается универсальным процессом. Однако женское предпринимательство, по нашему мнению, возникло как особое явление в рамках социально-экономического развития.

Таким образом, в нашем определении женского предпринимательства как отдельного социального явления, которое мы предлагаем, основное внимание уделяется двум ключевым компонентам. Первый - это способ самореализации личности, а второй - выполнение работы самостоятельно и ответственно.

ОБСУЖДЕНИЕ. Исследование показывает, что в начале этого 1991–2001 периода женское предпринимательство в Узбекистане преимущественно связано с розничной торговлей и предоставлением бытовых услуг. Женщины были недостаточно представлены в крупных отраслях бизнеса, таких как банковское дело, добыча и переработка нефти и другие высокодоходные сферы.

Женщины-предприниматели чаще всего находятся в возрастной группе 25 -34 лет и находятся на ранних стадиях ведения бизнеса, что наблюдается в мировом масштабе. В Узбекистане этот показатель смещается к возрасту 35-40 лет. Исследование показало, что большинство женщин-предпринимателей начинают свой бизнес до 45 лет. Лишь немногим более 5% начинают заниматься предпринимательством после 45 лет, и ни одна из них не проявила инициативу в этом направлении ближе к пенсионному возрасту.

Одним из важных факторов становления и развития женского бизнеса является уровень образования и внимание к бизнес-образованию. Конкуренция и готовность к риску, а также «эгоистические мотивы» делают работу предпринимателя более гибкой, мобильной и динамичной, что позволяет

предпринимателю адаптировать свою жизнь в соответствии с личными экономическими целями.

Традиционно женщины более осторожны в оценке своих возможностей занять руководящие должности в организациях, что связано с гендерными стереотипами и личным нежеланием занимать эти позиции. Несмотря на то, что женское предпринимательство является одним из самых быстрорастущих сегментов в мировом бизнесе, вклад женщин в самозанятость и предпринимательство остается значительно ниже, чем у мужчин. Это приводит к выводу о недостаточной представленности женщин среди предпринимателей.

Изучение проблемы женского предпринимательства в Узбекистане показывает, что женщин - предпринимателей отличает высокая чувствительность к потребностям других людей и стремление к справедливости. 92% женщин-предпринимателей никогда не ставили перед собой задачу превзойти других предпринимателей. Это может быть связано с влиянием восточного менталитета и гендерных факторов на образ мышления узбекских женщин. Однако правда заключается в том, что конкуренция пока еще не оказала значительного влияния на поведение женщин-предпринимателей в нашей стране. Гендерные различия также проявляются в том, что большая часть женщин-предпринимателей тратит на свои обязанности 50–65 часов в неделю. Если учитывать и работу в качестве домохозяйки, общий объем работы увеличивается вдвое.

На начало 1991 года доля женщин в постоянном населении Республики Узбекистан составляла 50,6%. Проведенные в 1991 году рыночные реформы значительно нарушили существующую структуру занятости с точки зрения гендерного аспекта, укрепив традиционализм в социально-экономических отношениях в отношении

женской занятости. Таким образом, в этот период только 6% женщин и 8% мужчин были самозанятыми[5].

Указы Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по поддержке деятельности Комитета женщин и девушек Узбекистана» и «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин», а также Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по поддержке деятельности Комитета женщин и девушек Узбекистана» стали важной правовой основой для развития женского предпринимательства в стране[4]. Эти документы определяют ключевые меры по поддержке женского предпринимательства и содействию его развитию.

О женщинах, занимавшихся предпринимательской деятельностью в социально - экономической жизни республики в регионах в 1991-1996 годах, можно привести следующие сравнительные аналитические данные:

Андижан: 291/400; Бухара: 1401/1495; Навои: 438/516; Самарканд: 2068/2345; Сырдарья: 1021/1124; Сурхандарьинская: 145/195; Кашкадарья: 1573/2019; Джизак: 144/192; Ташкент: 696/540; Хорезм: 500/1662; Фергана: 410/503; Наманган: 496/608; Республика Каракалпакстан 2978 из них 3317 женщин[6]. К 2000 году число женщин-предпринимателей увеличилось до 20 тысяч, что составило 8% от общего числа предпринимателей. Тем не менее, рост предпринимательского потенциала женщин и девушек в республике был обусловлен их активностью в стремлении достичь экономической независимости. Примеры успешных женщин-предпринимателей включают: М. Азимова (Компания «Файз Холдинг»), М. Акрамова (СП «Файз-Барака ММЛ»), К. Джумамуратова (АО «Хоразм-Феруз»), мастерица М. Исмаилова из Маргилана, М. Юсурова (образовательный центр «Машхура»), Л. Муротова (фермерское хозяйство «Нурли обод»), С. Маманова (фермерское хозяйство «Али-бобо»), К.

Бекмуродова (фермерское хозяйство «Хумор»), К. Баратова («Мукаддас – бунедкор - траст»), Кулмуратова Л. и др[2].

Эти хозяйствующие субъекты активно действуют в республике, способствуя развитию женского предпринимательства и экономической активности.

За исследуемые 1991-2001 годы в Республике Узбекистан наблюдается значительный рост числа малых предприятий и микрофирм под управлением женщин-руководителей. Однако при анализе по регионам наблюдаются значительные различия в количестве зарегистрированных субъектов семейного бизнеса. В некоторых регионах все еще встречаются граждане, занимающиеся незаконной предпринимательской деятельностью без соответствующей регистрации.

В исследуемый период особое внимание уделялось увеличению доходов семей за счет создания благоприятных условий для развития домашнего хозяйства среди женщин и девушек. Домашнее хозяйство (household - англ. housework) включает работу ремесленников, нанятых на основе трудовых договоров на дому, производство или обслуживание по месту жительства. В Узбекистане особенно удобно заниматься домашними ремеслами, такими как шитье, вышивка, изготовление мебели и другие виды рукоделия. Развитие женского домоводства на основе традиционных ремесел анализировалось с учетом особенностей каждого региона, включая этнотерриториальные особенности.

Например, в Сурхандарьинской области есть ковроткацкое предприятие «Астана Артисан» в Термезском районе, малое предприятие «Турон» в городе Термез, колхоз «Работ» в Байсуне, «Дилафроз» в Шерабадском районе и ремесленное предприятие «Шоим» в Сариосийском районе. На частном предприятии «Дилафруз» начата переработка шерсти, предприятие производит 264 тонны высококачественной шерстяной пряжи и поставляет ее малым текстильным

предприятиям. Также традиционными ремеслами занимаются ковровщица из Кашкадарьи А. Шарипова, вышивальщицы из Бухары З. Облобердиева и О. Розиева. Однако, несмотря на возможности для надомного фермерства в различных отраслях экономики, этот вопрос игнорируется некоторыми руководителями компаний.

Известно, что в нашей стране на протяжении многих лет основное внимание уделялось выращиванию хлопка в сельском хозяйстве. Хлопковое сырьё и зерно, производимые в стране, на 100% поступают от фермеров, и можно особо отметить вклад фермерских женщин. В частности, в хозяйстве, начавшем свою деятельность в 1994 году в Шахрисабзе, Кашкадарьинской области, под руководством главного подрядчика Н. Худойкуловой трудоустроены 41 женщина. Для сравнения, если на начало 1994 года в системе сельского хозяйства действовало 14 825 крестьянских фермерских хозяйств (КФХ), то к 2001 году их число превысило 115 000, из которых более 5 000 были женщинами - фермерами.

Если рассмотреть динамику роста числа женщин, занимающихся предпринимательской деятельностью в южных регионах Узбекистана, таких как Кашкадарьинская и Сурхандарьинская области, то в 1995 году в Кашкадарьинской области их число составило 1573, а в Сурхандарьинской области - 145. К 1996 году наблюдается значительный рост этого показателя: в Кашкадарьинской области он достиг 1950 человек, в то время как в Сурхандарьинской области - 195 человек. Примечательно, что количество женщин-предпринимателей в Кашкадарьинской области увеличилось на 446 человек за год, тогда как в Сурхандарьинской области - на 50 человек. Это свидетельствует о том, что в эти годы в Сурхандарьинской области как объективные и субъективные факторы продолжали оказывать существенное влияние на развитие женского предпринимательства[9].

Особое внимание заслуживает деятельность таких женщин-предпринимателей, как Г. Пиримкулова из Карши, Н. Шодмонова из Карши, Х. Бекмуродова и Ш. Турсунова из Каршинского района, Одилова Г. из Шахрисабза, Буранова З. и З.Хаитова из Кумкурганского района, Джовлиева из Термезского района, Р. Панджиева из Олтинсойского района, Г. Дилмухаммедова из Кизирикского района, Д. Ёлдашева из Деновского района, Б. Сойипова из Бойсунского района и М. Пошшаева[8].

Согласно «Программе социальной защиты женского труда» на 1996-1997 годы, принятой Комитетом женщин 22 марта 1996 года, в целях профилактики в Хорезмской области из 5065 трудоустроенных женщин на квотных рабочих местах более 63% были трудоустроены на новые рабочие места, из которых 57%, то есть более 13 тысяч, составляют женщины. В Бухарской области было создано 3617 рабочих мест, из них 2267 предназначены для женщин[7].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. В стране было уделено государственное внимание женскому предпринимательству, разработаны его правовые основы, и оно признано важной частью мировой развитой экономики и исторического опыта. Несмотря на возникновение множества проблем в сфере женского предпринимательства, в период с 1991 по 2001 годы были созданы широкие возможности для обеспечения занятости женщин, формирования достойных рабочих мест и обеспечения внутреннего и внешнего рынков продукцией, что способствовало развитию семейного предпринимательства и ремесел. На основе анализа исторических источников, экономических исследований и научной литературы были сделаны следующие выводы:

- в 1995 году женщины-предприниматели составили 4,3%;
- в некоторых странах компании под руководством женщин составляют 50-60%

валового внутреннего продукта. Однако в нашей стране этот показатель составляет 29%. [12] В течение многих лет женщины, оставшиеся без работы или занимающиеся уходом за детьми, возвращающиеся из-за границы или оставшиеся без работы из-за пандемии, были привлечены к постоянной работе и семейному предпринимательству, а также получили поддержку в

предпринимательской деятельности.

- Несмотря на возникновение множества проблем в сфере женского предпринимательства, в период с 1991 по 2001 годы были созданы широкие возможности для обеспечения занятости женщин, развития семейного предпринимательства, ремесел и художественных промыслов.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Агеев А.И. Предпринимательство. 4-е издание – М.; Институт экономических стратегий “Рубин”, 2016 стр.20
2. Wohrmann Frieder. Economic Discourse in Uzbekistan: The Perception of Economic Change Between Market Principles and Social Traditions. – Bochum, 2000. — 278 p. (Экономический дискурс в Узбекистане: восприятие экономических изменений между рыночными принципами и социальными традициями). — Bochum, 2000. — 278 p
3. F.Qanoatova O‘zbekistonda ayollar oilaviy tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi. // Sohibqiron. — Qarshi № 4.-2022
4. <https://lex.uz>
5. Mamlakatimiz doimiy aholisi tarkibida ayollar ulushining o‘zgarishi- O‘zb. RSA sayti - <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi>
6. Узбекский национальный архив (o‘z ma): фонд: m-37, опись: 1,дело: 2559, лист: 133
7. Архив комитета по делам женщин Узбекистана. Информация по текущему архиву за 2001 год.
8. ТАКО (АКО), 829-й фонд, 15-й опись, 66-е дело, 3-4 страницы.
9. Архив комитета по делам женщин Сурхандарьнского вилоята. Информация по текущему архиву за 2001 -2018 гг.
10. Douglas, Ann. The feminization of American culture: Free Download, Borrow, and Streaming: Internet Archive (Энн Дуглас (1988). Феминизация американской культуры) - <https://archive.org/details>
11. Предпринимательство в конце XX века. Дынкин А.А., Стерлин А.Р., Тулин И.В.и др. - М.;1992.- <https://allfind.kpfu.ru>
12. Xotin-qizlar qo‘mitasining Prezident farmoni ijrosi bo‘yicha hisoboti — O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi. 2019 - yil arxiv materiallari

СУРХОН ВОҲАСИДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШНИНГ БОРИШИ (ЛЕНИН БАЙРОҒИ ГАЗЕТАСИ МИСОЛИДА)

Исаев Ойбек Ахмед ўғли,

*Термиз давлат Педагогика институти Тарих кафедраси мудири,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

<https://orcid.org/0009-0002-0033-0609>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Мақолада 1960 йилларидаги Сурхон воҳаси саноатини ва давлат режаларини бажарилишида гўшт, сут, дон, тухум, маҳсулотларини вилоят газеталарида эълон қилинган мақолаларнинг ўзига хос ижобий ва салбий ҳолатларнинг гувоҳи бўлишингиз мумкин. КПСС Марказий Комитетининг Март Пленуми қарорининг бажарилиши пленумда кўрсатиб ўтилган маълумотлар қонун даражасида бажарилишини ҳам кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: «Ленин байроғи», «Партиянинг XIX съездида», дон, гўшт, сут, тухум ферма, центнер, ташвиқот, колхоз.

Аннотация: В статье можно стать свидетелем конкретной положительной и отрицательной ситуации в промышленности Сурханского оазиса в 1960-е годы и реализации государственных планов по мясу, молоку, зерну, яйцам и продуктам, опубликованным в региональных газетах. Выполнение решения мартовского Пленума ЦК КПСС также свидетельствовало о том, что информация, указанная в пленуме, будет реализована на уровне закона.

Ключевые слова: «Ленинский флаг», «XIX съезд партии», зерно, мясо, молоко, яичная ферма, центнер, пропаганда, колхоз.

Abstract: The article presents the positive and negative aspects of the implementation of the Surkhan oasis industry and state plans in the 1960s, as well as the specific positive and negative aspects of the articles published in regional newspapers. The implementation of the resolution of the March Plenum of the Central Committee of the CPSU, the

implementation of the information specified in the plenum at the level of law, is also shown.

Keywords: "Lenin's flag", "At the 19th Congress of the Party", grain, meat, milk, eggs, farm, centner, propaganda, collective farm.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUSTION). 1960-1962 йилларида Сурхон воҳаси саноатида ўзига хос ижобий ва салбий ҳолатларнинг гувоҳи бўлишингиз мумкин. Ўзбекистон Компартияси Сурхондарё вилояти ва Термиз шаҳар комитетлари меҳнаткашлари депутатлари Термиз шаҳар кенгашларининг «Ленин байроғи» газетаси материаллари хужжатлари муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Воҳанинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлари тарихини ўрганишда вилояти давлат матбуот органлари маълумотларидан кенг фойдаланиш зарурияти пайдо бўлади. 1960 йили вилоятда қора молларнинг сони умумий ҳисобда 6 млн 300 минг бош шу жумладан сигирлар сони 1.500.000 бош кўпайди. Бир йил ичида чўчқаларнинг сони 7.900.000, бош ва қўйларнинг сони 4.100.000 кўпайди. Бу рақам шуни кўрсатадики, бир қанча туманларда қорамолларни сўйиш тўхтатиб турганлиги давлатга гўшт сотиш ҳисобидан кўпайтирилди. Натижада қорамоллар сони кўпайди-ю бозор расталарида гўшт етишмаслик ҳолати яққол сезилиб қолди.

Мамлакатимизда дон, гўшт, сут ва бошқа маҳсулотларни етиштириш ва тайёрлаш кейинги 7-8 йил ичида

кўпайганлигини кўрсатувчи рақамлар айтиш мумкин. Партиянинг XIX съездида Маленков дон муаммоси ҳал этилди деган эди. Съездан кейин эса Марказий Комитетга хатлар кела бошлади одамлар: дон муаммоси ҳал этилган экан у ҳолда нима учун Омукта нон сотилади? Деб савол кетидан саволлар ёғилди. Ўша вақтда Иосеф Сталин Марказий Комитет Президиумининг мажлисини чақириб кўп ходимларни сал бўлмаса зараркунандачиликда айблаб кўрқитган ва нима учун нон етишмайди деган саволга жавоб беришни талаб қилган эди. У сотиладиган бошқа нарса йўқлигини билмас сотилаётган нон эса аралаш-

№	Етиштирилган маҳсулотлар	1953 йил	1961 йил
1	Гўшт ва гўшт маҳсулотлари	1.757.000	4.033.000
2	Сут ва сут маҳсулотлари	1.980.000	9.393.000
3	Мол ёғи	330.000	632.000
4	Қанд шакар	2.410.000	4.550.000

КПСС Марказий Комитетининг Март Пленуми қарорини бажаришда 1962 йил 20 май ҳолати бўйича «Ленин» номли колхоз чорвадорлари арзон гўшт деб номланган «чўчқачилик» соҳасини ривожлантиришга алоҳида эътибор бериб бошлади. Ўша давр сиёсатида беш йиллик ва етти йиллик давлат режалари тасдиқланган мана шу режага мувофиқ гўшт маҳсулотлари сифатида «чўчқа» гўштини кенг тарғиб қилиш давлат сиёсати даражасига айлантирилган. Шундан келиб чиқиб, мазкур колхозда «чўчқачилик» фермаси фаолият олиб борди. Фермада 25 та она «чўчқа»дан 800 бош чўчқа боласини олишга режалаштириб унинг уддасидан чиқишди, ҳозирда 200 та чўчқа боласи олиниб, парвариш қилиб ўстирилмоқда дейди мақола газета муаллиф. Давлатга «чўчқа» сотиш йил сайин кўпайиши натижасида 1962 йилда колхоз «чўчқа»ларининг 450 центнери семиз ва арзон гўшт етиштириш учун 172 бош «чўчқа»ларни бўрдоқига боқиш йўлга қўйилган. Лекин шуни ҳам таъкидлаш жоизки, кўп ҳолларда «чўчқа» боқиш уларга қарашда маҳаллий аҳоли камчиликлари ташкил қилган. Чунки,

куралаш нон эканлигидан беҳабар эди. Умуман СССРда 1953 йилдан кейин аҳоли 29 млн киши миқдорида кўпайди шу жумладан, шаҳар аҳолиси 28 млн кишига ортди. Бу ўсиш Швеция, Норвегия, Голландия ва Дания мамлакатларининг ҳаммасидаги аҳолисидан кўпдир. Фақат кейинги 3 йилнинг ўзида Совет иттифоқининг аҳолиси 11 млн кишига кўпайди. Одамлар озиқ-овқат маҳсулотлари сотиб олишмоқда. Давлат савдоси орқали озиқ-овқат маҳсулотларининг 1953 йилда қанча сотилганлиги аниқ маълумотлар аҳолига сотилган озиқ-овқат маҳсулотларини кўришингиз мумкин[2].

маҳаллий аҳоли «чўчқа» гўштини истеъмол қилишмаган уни ҳаром деб билганлар. Мана шунинг учун «чўчқа»ларнинг парваришида европа миллатига мансуб кишиларга маҳаллий миллат вакили ҳамроҳлик қилишган. Биз кўрсатиб ўтаётган «чўчқа»чилик фермасида ҳам худди шундай ходимларидан Ҳазраткул Абдиев билан бирга Михаил Павлович Чертаковлар «чўчқа»лар парваришини олиб боришган[3].

Чорвачиликдаги энг муҳим нарса нима? Энг муҳим нарса бу ем-хашак деган эди Н.С.Хрушчев КПСС Марказий Комитети март Пленумида қилган маърузасида ем-хашак бўлса, чорва маҳсулотларидан гўшт ва сут ҳам мўл бўлади. Чорвачиликни тез юксалтиришда маккажўхори, қандлавлаг, дуккакли экинлар экишга киришишни таъкидлаган[4]. Сурхондарё вилояти чорвадорлари мазкур маърузадан сўнг етти йиллик режанинг 4-йилида чорвалар сонини кўпайтириш ҳисобида давлатга 34 минг тонна гўшт 64 минг тонна сут 21 млн дона тухум ва бошқа чорвачилик маҳсулотларини сотишга эришдилар.

Мана шулардан келиб чиқиб қуйидаги

жадвалга эътиборингизни қаратамиз 1962 тухумнинг тақдим этилиши[4].
туман хўжаликларида гўшт, сут ва

№	Туманлар ва колхозлар	Гўшт тонна хисобида	Сут тонна хисобида	Тухум дон хисобида
1	Ангор	78	69	126
	Карл Маркс			
2	Куйбишев	77	54	115
3	Ленин	37	117	81
4	Қизил юлдуз	31	75	73
5	Бешкент	65	37	30
	«III интерноционал»			
6	Ленин	68	53	58
7	Коммунизм	63	81	106
8	Москва	48	34	111
5	Хрушчев	22	8	120
6	Ўзгор	62	38	91
	Карл Маркс			
7	Ленин	43	33	81
8	Денов	110	52	128
	Генерал Рахимов			
9	8 март	30	57	43
10	Хрушчев	43	66	90
11	Ленинизм	69	96	90
12	Жданов	62	102	86
13	Калинин	52	54	42
14	Энгельс	17	2	34
15	Социализм	41	42	21
16	Карл Маркс	6	21	17
17	Қизил октябр	-	17	6
18	Москва	63	35	13
19	Ленин	6	100	68
20	Коммунизм	68	98	112
21	Ленин байроғи	73	62	70
22	Дехқонобод	70	43	22
	Крупская			
23	1 май	14	33	58
24	Ленинизм	42	56	61
25	Жарқўрғон	59	34	107
	Жданов			
26	Қизил октябр	59	47	81
27	Коммунизм	71	89	112
28	Ленин	72	37	55
29	Меҳнат роҳат	61	73	202

30	Социализм	86	106	110
31	Партия XXII съезди	73	72	111
32	Қамаши	20	36	70
	Партия XXII съезди			
33	Коммунизм йўли	39	47	146
34	Ленин	37	51	102
35	Карл Маркс	21	69	28
36	Энгельс	43	66	28
37	Фрунзе	45	23	52
38	Қарши	62	47	102
	Карл Маркс			
39	Энгельс	86	75	109
40	Ленинизм	55	57	114
41	Коммунизм	33	68	38
42	Китоб	64	26	111
	Ленин			
43	Қизил шарқ	46	15	55
44	Куйбишев	27	27	44
45	Коммунизм	38	22	32
46	Энгельс	56	79	41
47	Партия XIX съезди	44	28	32
48	Свердлов	64	24	88
49	Қизил юлдуз	90	22	138

Етти йиллик режанинг контрол рақамларида кўрсатган топшириқлар қандай бажарилаётганлиги тўғрисида асосий рақамлар.

№	Етти йиллик ҳақида	Режага мувофиқ	Яширилган
1.	Дон млрд пуд ҳисобида	9,4	8,4
2	Гўшт сўйилган вазнда млн тонна ҳисобида	11,8	8,8
3	Сут млн тонна ҳисобида	78,4	62,5

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, 1961 йил етти йиллик мажбурий режанинг белгиланган топшириққа нисбатан дон 1 млрд пуд кам етиштирилди. Дон етиштиришни 1980 йилда 18-19 млрд. пудга ва дон тайёрлашни 7 млрд пудга етказиш вазифаси қўйилган. Шу етти йилликнинг охирига бориб колхозлар ва совхозлар тахминан 12 млрд. пуд дон

етиштириб беришлари давлатга эса 4 млрд. 500 млн пуд дон сотишлари лозим.

Россия Федерацияси Украина, Қозоғистон мамлакатларида товар ғалла етиштириб борадиган асосий районлардир. Шу Республикалар ҳар қайсиси дон етиштиришни кўпайтириш режасини амалга оширишга ҳисса қўшмоғи лозим.

№		Етиштирилиши керак	Тайёрлаш керак
1	Россия федерацияси	12	4-5
2	Украина	8,8	1,5

3	Қозоғистон	3,5	2
---	------------	-----	---

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, 1960 йилларда давлатга гўшт маҳсулотларини тайёрлашда маҳаллий миллат вакилларига ёт бўлган гўшт маҳсулотларидан «чўчка» гўштини арзон ва тез тайёр бўлиш маҳсулоти деб билди ва уни тайёрланишини давлат сиёсати даражасига олиб чиқди. «Чўчкачиликни» ривожлантиришда давлат раҳбарларининг ўзлари ҳайрихоҳ бўлиб турилди. Эътиборлиси шундаки тадқиқ қилинаётган йилларда гўшт маҳсулотларини тайёрланишида қишлоқ хўжалигида омухта ем-ҳашакларни тайёрлашларни ҳам давлат режаларига киритган ва уни амалга оширишга ҳаракатларни доимий тарзда олиб боришган.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА/REFERENCES):

1. Исаев Ойбек Ахмед ўғли. Сурхон воҳасидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар (1925-1941 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Термиз – 2020. 195 б.
2. Ленин байроғи. – 1962. – 6 март.
3. Ленин байроғи. – 1962. – 20 май.
4. Ленин байроғи. – 1962. – 13 апрел.

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR (BUXORO AMIRLIGI HAMDA CHOR ROSSIIYASI MISOLIDA)

Xasanova Nodira Ibragimovna,

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Tarix va falsafa"
kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

e-mail: nodira74xasanova@gmail.com

ORCID 0009-0004-5344-5182

UDK: 9:433:908

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida tibbiyot tizimining tarixiy rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida viloyatda zamonaviy tibbiyotning yo'qligi sababli aholi sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatgan omillar ko'rib chiqilgan. Buxoro amirligi va Chor Rossiyasi davrida sog'liqni saqlash tizimi deyarli rivojlanmagan bo'lsa, sovet davrida bu sohada tub o'zgarishlar amalga oshirilgan. Tadqiqotda tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va statistik ma'lumotlarga tayanilgan bo'lib, tibbiyotning mahalliy aholining turmush tarzi va salomatligiga ta'siri o'rganilgan. Maqola viloyatdagi tibbiy xizmatlarning rivojlanish bosqichlari, muammolari va yutuqlariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: tibbiyot tarixi, Chor Rossiyasi, sovet davri, xalq tabiblari, zamonaviy tibbiyot, sog'liqni saqlash tizimi, epidemiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar.

Abstract: This article analyzes the historical development of the medical system in the Surkhandarya region. Factors that severely impacted the population's health due to the absence of modern medicine in the late 19th and early 20th centuries are examined. While the healthcare system remained underdeveloped during the periods of the Bukhara Emirate and Tsarist Russia, significant reforms were implemented during the Soviet era. The study relies on historical documents, archival materials, and statistical data to explore the impact of medicine on the lifestyle and health of the local population. The article is dedicated to the stages, challenges, and achievements in the development of medical services in the region.

Keywords: history of medicine, Tsarist Russia, Soviet era, folk healers, modern

medicine, healthcare system, epidemics, socio-economic conditions.

Аннотация: В данной статье анализируются исторические процессы развития медицинской системы в Сурхандарьинской области. Рассмотрены факторы, оказывавшие серьезное влияние на здоровье населения из-за отсутствия современной медицины в конце XIX и начале XX века. Если в период Бухарского эмирата и Царской России система здравоохранения была практически неразвита, то в советский период произошли кардинальные изменения в этой области. Исследование основано на исторических документах, архивных материалах и статистических данных, а также изучается влияние медицины на образ жизни и здоровье местного населения. Статья посвящена этапам развития, проблемам и достижениям медицинских услуг в регионе.

Ключевые слова: история медицины, Царская Россия, советский период, народные целители, современная медицина, система здравоохранения, эпидемии, социально-экономические условия.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Surxondaryo viloyati o'zining iqlimi, geografik joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan o'ziga xos hudud hisoblanadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida viloyatda zamonaviy tibbiyot tizimining yo'qligi aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Buxoro amirligi davrida tibbiy xizmatlar deyarli rivojlanmagan, ko'pgina hududlarda emchilar, xalq tabiblari va azayimxonlar yagona davolash vositasi

hisoblangan. Amirlik va chor Rossiyasi hukmronligi davrida sogʻliqni saqlash davlat siyosatining asosiy yoʻnalishiga aylanmagan. Faqat 1902-yildan boshlab Termizda birinchi tibbiy muassasa tashkil etilgan, lekin u ham faqat harbiylar uchun xizmat koʻrsatgan. Tarixiy oʻtmish turmush tarzini xalq hayoti bilan manbalar asosida xolisona tanqidiy oʻrganish jarayonida izlanishning mazmunida Buxoro amirligi davrida Surxon vohasida shifoxonalar boʻlmagan. Tibbiyot muassasalari yoʻqligidan aholi kasalliklarni davolashda emchilar, tabiblar, azayimxon mullalarga murojaat qilishga majbur edi[1:73]. Tibbiyot sohasi davlat tomonidan rivojlantirilmaganligi bois, mahalliy tabiblar oʻz bilganlaricha xalqni davolab kelganlar. Tabiblar bemorlarga shifo berish maqsadida tinimsiz izlanishlar va tadqiqotlar olib borganlar. Ular ishlatadigan dori-darmonlar mahalliy giyohlardan tayyorlanib, bemorlarni davolash boʻyicha turli usullardan foydalanishgan. Taʼkidlash kerakki, amirlik davrida bemorni uning uyida yoki tabib xonadonida davolash odat boʻlib kelgan. Boysunlik xalq tabiblari singan, chiqqan joylarni davolash, ayrim kasalliklarni emlash orqali kasallarni davolashgan. Ana shunday tabiblardan biri Ariqusti qishlogʻidan Joʻrayev Yusuf (laqabi Yusuf giddi bobo) asosan dorivor oʻsimliklar bilan bemorlarni davolagan. Bundan tashqari, kuydirgi, zotiljam, qizamiq va boshqa kasalliklarni ham davolagan. Yuz yoshida vafot etgan. Yana biri Toʻda qishlogʻida yashovchi tabib Botir bobo Xushmurodov singan-chiqqan qoʻl, oyoq, qovurgʻa, belni davolab xalq hurmatiga sazovor boʻlgan. Ushbu tadqiqot viloyatda tibbiyot tizimining rivojlanish bosqichlarini oʻrganishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tadqiqotda tarixiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy manbalar, arxiv materiallari hamda ilmiy maqolalardan foydalanildi. Shuningdek, 1902–1940 yillarda viloyatning sogʻliqni saqlash tizimi rivojlanishiga oid statistik maʼlumotlar, davr hujjatlari va voqealar tahlili asosiy manbalar sifatida olingan. Etnografik

va tarixiy-qiyosiy metodlar yordamida mahalliy aholining davolanish odatlari va zamonaviy tibbiyotga oʻtish jarayonlari oʻrganildi.

Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida tibbiyotning rivojlanish tarixiy jarayonini bir necha bosqichga boʻlish imkonini beradi:

1. Amirlik davrida tibbiyotning yoʻqligi (XIX asr oxiri)

Buxoro amirligi tarkibidagi hududlarda tibbiy xizmat koʻrsatish tizimi tashkil qilinmagan edi. Aholi kasalliklarni xalq tabiblari, emchilar va mullalarning azayimxonlik usullari orqali davolagan. Bunda malakali davolash emas, balki diniy marosimlar va xalqona usullar ustuvor boʻlgan. Epidemiyalar keng tarqalgan boʻlib, ular asosan suv orqali yuqadigan kasalliklardan iborat edi (masalan, ich terlama va oʻlat).

2. Chor Rossiyasi davrida dastlabki muassasalar (1902–1917).

1902-yilda Termizda birinchi tibbiy qabulxona tashkil etildi. Bu muassasa asosan harbiylar va Rossiyadan kelgan maʼmurlar uchun xizmat qilgan. Mahalliy aholi orasida tibbiyot xizmatlaridan foydalanish darajasi juda past boʻlgan. Sababi:

moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi; mahalliy xalq orasida tibbiy xizmatlarga ishonchsizlik.

1910-yillarda Yurchi va Denovda kichik tibbiy punktlar faoliyat koʻrsatgan boʻlsa-da, ularda vrachlar yetishmovchiligi mavjud edi.

3. Sovet davrida tub burilish (1917–1940)

1920-yillarda tibbiyot tizimida sezilarli islohotlar boshlandi. Mahalliy aholi orasida tibbiy xizmatlarga boʻlgan ehtiyojning ortishi natijasida yangi ambulatoriyalar ochildi. 1925- yilda Termizda birinchi statsionar kasalxona qurildi. Unga mahalliy aholiga xizmat koʻrsatish vazifasi yuklatildi.

1930-yillarga kelib:

Viloyatda 5 ta katta shifoxona faoliyat koʻrsatdi. Mahalliy tibbiyot xodimlari tayyorlash uchun kurslar tashkil etildi. Tibbiyotning asosiy yoʻnalishlari (pediatriya, terapiya, jarrohlik) boʻyicha maxsus boʻlimlar tashkil qilindi. 1940-yilga kelib Surxondaryo viloyatida 220 oʻrinli kasalxonalar, tez

yordam punktlari va laboratoriyalar faoliyat ko'rsatgan.

1941 yilda Boysunda 4 ta davolash vrachlik uchastkalari tashkil etildi. Bular:

1. Boysun shahrida – Dehqonobod, Yangiobod qishloq kengashlari hududi;
2. Darbandda – Darband, Sho'rob, Sayrob, Xo'jabulg'on qishloq kengashlari hududi;
3. Kofrunda – Kofrun, Inkabod qishloq kengashlari hududi;
4. Pulhokimda – Pulhokim, Hovuz qishloq kengashlari hududi[2:176].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Surxondaryo viloyatida tibbiyotning rivojlanishi mahalliy aholining yashash sharoitlari va sog'lig'ini yaxshilashda muhim rol o'ynadi. Buxoro amirligi davridagi sog'liqni saqlash tizimidagi jiddiy bo'shliqlar sovet davri islohotlari bilan qoplanib, zamonaviy shifoxonalar tarmog'ini shakllantirish imkonini berdi. Shunga qaramay, 1940-yillarda ham vrachlar va zamonaviy uskunalar yetishmovchiligi saqlanib qoldi[3:44]. Termiz garnizoni boshlig'i general-mayor Baranovskiyning 1902-yil 29-avgustda Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligi nomiga yozgan raporti bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Tanqidiy ruhda yozilgan bu raportda quyidagilar yozilgan edi: «Termiz shahrida... sanitariya nazorati yo'q, davolash muassasalari yo'q, yaqinda qoramollar o'rtasida o'lat kasalligi tarqaldi. Harbiy meditsina inspektori 1902-yil 13-iyundayoq uch veterinar vrachning Termizga safarga jo'natilishini xabar qilgan edi. Lekin avgust oyi oxirlab qolishiga qaramay, veterinarlardan birontasi Termizga yetib kelmadi. O'lat kasali bo'lsa, ularning kelishini kutmasdan, o'ladigan mollar qirilib bo'lgach, o'zidan-o'zi tugab qoldi, grajdanlar behuda qirilib ketayotirlar. Tub yerlik aholi uchun xususiy ambulatoriya bor, amir bu ambulatoriya uchun uch yuz so'm ajratish haqida farmon bergan. Ammo, Buxoro hukumati, Siz janobi oliylari talab qilishingizga qaramay, o'z amirining farmonini bajarishni istamaydi»[1:75].

Nihoyat, qattiq tanqidiy fikrlar va aholining talabi bilan amir o'sha yili Termizda jamoat hammomini barpo ettirishga

majbur bo'ladi. Ushbu hammom hozir ham mavjud bo'lib, ilgarilari 2-sonli hammom nomi bilan shuhrat qozongan edi. Chor hukumati ham qarab turmadi. 1904 -yilda sog'liqni saqlash ishlariga Termizning mahalliy byudjetidan 210 rubl ajratadi. 1909-yilda lazaretdagi boqimandani qoplash hamda ambulatoriya mablag'ini oshirish uchun 600 rubl mablag' ajratilgan. 1909-yilda harbiy vrachlar Nelinder hamda Topilskiyning bevosita ishtiroki bilan Termizda ilk feldsherlar tayyorlab chiqarildi[4:225].

Ammo amir hukumati vohada sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga g'amxo'rlik ko'rsatmadi. 1911-yili Surxon vohasida vabo kasalligi tarqalganida Termizda rus bojxona vakili aholi va askarlar orasida yuqumli kasallik tarqalib ketmasligi uchun Buxoro amiridan moliyaviy yordam so'raydi. Uning maktubiga amir «Ajali yetganlar o'lar, Olloh umrini berganlar sog'ayib ketar. Buni oldindan bilish ham, biron chora bilan yordam berish ham hech kimning qo'lidan kelmaydi», deb javob bergan. Shu javobning o'zi Buxoro amirining o'z tasarrufidagi xalqiga qanday qaraganini yaqqol ko'rsatib turibdi[5:78].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tibbiyot sohasiga nisbatan bunday munosabat vohada sog'liqni saqlashishlarini yanada qiyinlashtirgan. Vrachlarning mashaqqatli mehnati qadrlanmasligi bu sohaga yangi kadrlarni jalb etishda muammolarni yuzaga chiqargan. Qolaversa, tibbiyotdagi og'ir ahvol ayrim malakali tibbiyot xodimlarini o'z kasbini o'zgartirishga majbur etgan. Masalan, 10 yillik tibbiy stajga ega bo'lgan tibbiyot xodimi Pleskovich Anna Sherobod tuman aloqa bo'limiga ishga o'tib ketgan[6:167]. Bunday holatlar ikkinchi jahon urushi arafasida viloyat tibbiyot sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, 1920-30 yillarda Surxon vohasiga zamonaviy tibbiyotning kirib kelishi ijtimoiy-madaniy hayotdagi eng muhim yutuqlardan biri bo'ldi. Voha shahar va qishloqlarida kasalxonalar, ambulatoriyalar, qishloq vrachlik uchastkalari tashkil qilindi. Yuqumli kasalliklarni oldini olish, emlash va

davolash bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, malakali mediklar yetishmovchiligi sezilib turdi. Bunga bir qator obyektiv va subyektiv sabablar bilan bir qatorda 1937-1939 yillardagi ommaviy

qatag'onliklar ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Qishloqlarning kasalxonalardan uzoqligi, transport vositalarining yetishmovchiligi tez tibbiy yordam ko'rsatishni qiyinlashtirdi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI **(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Халияров Х., Бычков Д., Блинников А. Сурхандарьинская область. –Ташкент, 1974
2. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. Toshkent: Akademnashr, 2011. –B. 560.
3. Tursunov S., Qobulov E., Murtazoyev B., Pardayev B., Umarov I. Termiz tarixi. – Toshkent: YANGI NASHR, 2019. – B. 292.
4. Халияров Х., и др. Сурхандарьинская область. –С. 73.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 77-fond, 2-ro'yxat, 18-ish.
6. Sherobod tuman davlat arxivi, S 42-fond, 1-ro'yxat, 371-ish.

МУСТАҚИЛЛИКНИНГ ДАСТЛАБКИ ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҲАДА МУЛКИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Ботирова Ҳалима Эшмаматовна,

"Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети "Гуманитар фанлар"

кафедраси доценти в.б., тарих

фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Мамадаминова Бахтигул Абдупаттаевна,

"Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети "Гуманитар фанлар"

кафедраси доценти в.б., тарих

фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

<https://orcid.org/0009-0003-3018-6987>

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Ушбу мақолада Республикамизнинг жанубий ҳудудларда қишлоқ хўжалик соҳасида мулкдорлар синфи шаклланиши, мулкчилик шаклидан қатъи назар, уларнинг дахлсизлиги таъминланганлиги кўрсатилиб берилган. Давлат тасарруфида бўлган қишлоқлардаги корхоналар ҳиссадорлик жамиятларига айлантирилган. Кўп укладли иктисодиётни ривожлантириш, унинг салмоқли қисмини қишлоқ шароитида хусусий мулк шаклига айлантиришга эътибор қаратилди. Бундан мақсад – қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ходимлар, энг аввало оддий қишлоқ фуқароси ҳақиқий мулк эгалари бўлиб шаклланиши учун шарт шароитлар яратилганлиги кўрсатиб берилган.

Таянч сўз ва иборалар: аграр соҳа мутахассислари, қишлоқда мулк эгалари шаклланди, қишлоқ хўжалиги, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари, фермер хўжаликлари, тадбиркорлик, ишбилармонлик.

Аннотация: В данной статье сформировался класс собственников в аграрном секторе южных регионов нашей Республики. Независимо от формы собственности обеспечивалась их неприкосновенность. Предприятия в казенных деревнях были преобразованы в акционерные общества. Уделялось внимание развитию многоотраслевого хозяйства, преобразованию значительной

его части в форму частной собственности в сельских условиях. Целью этого является создание необходимых условий для становления работников сферы сельского хозяйства, прежде всего простых жителей села, как владельцев недвижимости.

Ключевые слова и фразы: специалисты-аграрии, сельские собственники, сельское хозяйство, сельскохозяйственная продукция, фермерские хозяйства, предпринимательство, бизнес.

Abstract: This article describes the formation of a class of property owners in the agricultural sector in the southern regions of our Republic. Regardless of the form of ownership, their inviolability was ensured. State-owned enterprises in rural areas were transformed into joint-stock companies. Attention was paid to the development of a diversified economy, the transformation of a significant part of it into private property in rural areas. The goal is to create conditions for the formation of workers in the agricultural sector, primarily ordinary rural citizens, as real property owners.

Key words and phrases: specialists in the agricultural sector, property owners were formed in the countryside, agriculture, agricultural products, farms, entrepreneurship, business.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти

И.А.Каримов таъкидлаганидек, “қишлоқ аҳлини, ёшларни боқимандалик кайфиятидан халос этиш, уларда тадбиркорлик, ишбилармонлик иштиёқини уйғотиш, бошқача айтганда, уларга ана шу “касаллик”ни “юктириш” хусусида кетяпти.

Шу тарзда аста-секин қишлоқда мулк эгалари шаклланди. Мулкчилик шаклидан қатъи назар, уларнинг дахлсизлиги таъминланди. Давлат тасарруфида бўлган қишлоқлардаги корхоналар ҳиссадорлик жамиятларига айлантирилди. Бу эса оддий қишлоқ фуқароси ҳам мулк тақсимоотида тенг ҳуқуқли субъект сифатида қатнашиш ҳуқуқини берди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Республикада 1992-1994 йилларда 98 мингдан ортиқ давлатга тегишли жумладан, қишлоқларга тегишли иншоотлар хусусийлаштирилди ва очик турдаги акциядорлик жамиятлари сони уч ярим мингдан ошиб кетди.

Бундан мақсад – қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ходимлар, энг аввало оддий қишлоқ фуқароси ҳақиқий мулк эгалари бўлиб шакллана бошлади, қишлоқларни тараққий эттириш ва қишлоқ мутахассисларни билим даражасини миллий иқтисодий тизимга киритиш эди. Ислохотларни чуқурлаштиришнинг навбатдаги устувор йўналиши – кўп укладли иқтисодиётни ривожлантириш, унинг салмоқли қисмини қишлоқ шароитида хусусий мулк шаклига айлантиришдан иборатдир. Нега бундай йўл тутилди? Чунки қишлоқларда мулкчилик муносабатларини тубдан ўзгартмай туриб, чинакам иқтисодий манфаатлар курашини, яъни рақобат муҳитини яратиб янги – қишлоқ мутахассисларни жаҳон андозалари руҳида тарбиялаш, иш юритиш услубига мослаштириш бош омил эди.

Шу тарзда аста-секин қишлоқда мулк эгалари шаклланди. Мулкчилик шаклидан қатъий назар, уларнинг дахлсизлиги таъминланди. Давлат тасарруфида бўлган қишлоқлардаги корхоналар ҳиссадорлик жамиятларига айлантирилди. Бу эса оддий

қишлоқ фуқароси ҳам мулк тақсимоотида тенг ҳуқуқли субъект сифатида қатнашиш ҳуқуқини берди. Республикада 1992-1994 йилларда 98 мингдан ортиқ давлатга тегишли жумладан, қишлоқларга тегишли иншоотлар хусусийлаштирилди ва очик турдаги акциядорлик жамиятлари сони уч ярим мингдан ошиб кетди.

Бундан мақсад – қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ходимлар, энг аввало оддий қишлоқ фуқароси ҳақиқий мулк эгалари бўлиб шакллана бошлади, қишлоқларни тараққий эттириш ва қишлоқ мутахассисларни билим даражасини миллий иқтисодий тизимга изчиллик киритиш эди. Ислохотларни чуқурлаштиришнинг навбатдаги устувор йўналиши – кўп укладли иқтисодиётни ривожлантириш, унинг салмоқли қисмини қишлоқ шароитида хусусий мулк шаклига айлантиришдан иборатдир. Нега бундай йўл тутилди? Чунки қишлоқларда мулкчилик муносабатларини тубдан ўзгартмай туриб, чинакам иқтисодий манфаатлар курашини, яъни рақобат муҳитини яратиб янги – қишлоқ мутахассисларни жаҳон андозалари руҳида тарбиялаш, иш юритиш услубига мослаштириш бош омил эди.

Аграр тизим мутахассисларининг фақат бригада ва участка услубига асосланган бошқарув тизими 1991 йил 21 декабрда қабул қилинган «Дехқон фермер хўжаликларини янада мустақамлаш ва тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан қўллаб қувватлаш» тўғрисидаги фармонда ўзгартрилиб қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини замон талаблари асосида ташкил қилишда катта аҳамиятга эга бўлди.

Мустақилликнинг дастлабки давридан эътиборан, қишлоқ хўжалигида янги бошқарув тизими асосида, жамоа хўжалигида мулкга бўлган тушунча шакллантирилиб, дастлаб билимли, тажрибали қишлоқ мутахассисларига қонуний асосда ерни бериш, ер эгаси ёки жамоа раҳбари қишлоқ-хўжалиги соҳасида мутахассис бўлиши маъсулият сифатида қаралди. Чунки мустабид тузум шароит бундай имкониятлар берилмаган. Пай,

содда қилиб айтсак, маълум жамоа хўжалиги ишчисининг шу хўжалик мулкидаги ҳиссаси, улуши деганидир. Унинг ҳажми қанча бўлишига қараб жамоа хўжалиги ишчиси хўжаликнинг якуний фойдасидан бир қисмини, ўз фоизини, фойданинг ўзига тегишли қисмини олиши мумкин.

Деҳқон ҳақиқий маънода ер эгасига, мулк эгасига ўзи яратаётган бойликнинг хўжайинига айланмас экан унинг ишида самара бўлмаслиги аниқ.

Бундай интилиш, кайфият ва ҳаракатлар сўзсиз, аввало, халқимизнинг раҳбарларга бўлган ишончини йўқотишга олиб келиши табиийдир. Биринчи Президентимиз И.А.Каримов бу муаммоларни ечиш йўллари ҳақида тўхталиб, агар биз жамоат ташкилотларининг кучини бирлаштириб, давлат идоралари қонун чиқарувчи ва ижро ҳокимияти устидан жамоат назоратини ўрната олмас эканмиз юқорида тилга олинган иллатлар олға юришимизга ҳалақит бераверади».

Жамоат назоратининг моҳияти шундаки, барча ташкилотлари, маҳалла оқсоқоллари, халқ депутатлари, фаоллар, ҳамма бир ёқадан бош чиқариб, амалга оширилаётган ислохотларнинг изчиллигини, катта кичик раҳбарларнинг ишга муносабатини назорат қилиб, уларнинг камчиликларини рўй рост очиб ташлаш керак.

Биринчи Президентимиз Ислон Каримов бошчилигидаги Ўзбекистоннинг янги ҳукумати Марказ билан бўладиган муносабатларни ўзгартирмай туриб, ижобий силжишларга эришиб бўлмаслигини ва бунинг учун республиканинг тўлиқ мустақиллигини таъминлаш зарурлигини тушуниб етди. Президентимиз ташаббуси билан Ўзбекистон ҳукумати томонидан 1989 йил 15 августда “Колхозчилар, совхоз ишчилари, фуқароларнинг шахсий томорқа хўжаликлари ва индивидуал уй-жой қурилишини янада ривожлантириш тўғрисида” махсус қарор қабул қилинди.

Қишлоқ хўжалик соҳасида катта тажрибага эга Сурхондарёлик деҳқонлар ўз тажрибаларидан келиб чиқиб,

хўжаликлар ва фермерлар томонидан деҳқончилик экинларининг ўртача ҳосилдорлигини ошириш бўйича алоҳида самарали меҳнат қилиб, ерни агротехника ишловини ўз вақтида ўтказиш масаласида юқори тажриба мактабини яратдилар. Натижада, ҳосилдорлик йилдан-йилга ошиб борганлигини Шўрчи тумани мисолида қуйидаги рақамлардан билиш мумкин. Шўрчи туманида 1991 йил 34,4 ц/га дон, 1992 йил 28,0 ц/га до, 1993 йил 31,2 ц/га, 1994 йил 28,3 ц/га, 1995 йил 29,1 ц/га, 1996 34,0 ц/га, 1997 йил 32,6 ц/га, 1998 йил 29,8 ц/га, 1999 йил 18,5 ц/га, 2000 йил 21,3 ц/га, 2001 йил 37,5 ц/га, 2002 йил 43,5 ц/га дон тайёрланиб давлатга топширилди ва ортиқча донлар аҳолига етказиб берилди. Жумладан, қишлоқ мутахассисларини ижтимоий-турмуш тарзини тубдан ўзгартириш мақсадида Сурхондарё вилоятида шахсий томорқалар учун 1992-1995 йилларда 22 минг гектар ер ажратилиб, ерсиз ҳамда кам ерли деҳқонларга берилди. Энг муҳими шахсий томорқа учун ажратилган ернинг асосий қисми қишлоқдаги ёш оилаларга ажратилиб, уларга уй-жой, шахсий хўжаликни шакллантириш учун тақдим этилди. Кескин муаммони фақат кичик ва хусусий тадбиркорликни ҳар томонлама, кенг ривожлантириш ҳисобига ҳал эта оламиз. Шунинг диққат марказида тутишимиз лозимки, аҳолини, айниқса ортиқча ишчи кучи мавжуд бўлган қишлоқ жойлари ва ҳудудларда иш билан таъминлашдек, аҳолига берилган шахсий томорқаларнинг янада ривожланиши ва мустаҳкамланишига жиддий эътибор бериш даркор. Биз томорқага ички бозорни маҳсулотлар билан, энг аввало озиқ- овқат моллари билан тўлдиришнинг энг муҳим манбаларидан бири бўлган кичик, оилавий бизнес шакли деб қарашимиз керак”.

Ушбу ташландиқ ерларнинг шахсий томорқаларга ажратилиши туфайли деҳқонларнинг ерга бўлган муносабати ижобий ўзгариб, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари билан ўз хўжалиги таъминлаш ҳамда бозор учун қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етказиб бериш

имкониятини яратди.

Энг муҳими мустақиллик арафасида қишлоқ хўжалигини оғир танг аҳволдан олиб чиқиш жараёнида қишлоқ аҳолисини, энг муҳими ушбу соҳа мутахассисларни кайфиятини кўтариш учун шахсий томорқаларни бериш, шахсий мулк манфаатдорлигини шакллантириш Ўзбекистон ҳукуматининг асосий мақсадига айланди. Шахсий томорқасида ишловчиларга амалий ёрдам бериш, уларни керакли анжомлар, ихчам техника воситалари, минерал ўғит ва ем – ҳашак билан таъминлашнинг қатъий тартибини ишлаб чиқиш улар етиштирган маҳсулотларни сотиб олиш тизимини кескин ўзгартириш, амалда қайтадан яратиш зарур эди.

Дехқон хўжалигини эркинлаштириш Ўзбекистон мустақилликка эришгач иқтисодий ислохотларни дастлаб қишлоқ хўжалигини ривожлантиришдан бошлади. Ўзбекистоннинг иқтисодий жиҳатдан юксалишида қишлоқ хўжалиги соҳасини ривожланиши муҳим аҳамиятга эга эканлигини бугун жамиятимиз шуни англаб олдики, ҳаётимизни яхшилаш, аҳоли турмуш тарзини кўтариш, иқтисодиётимизнинг самарадорлигини ошириш, халқимизни боқиш, истиқболимизни режалаштириш, хуллас, қандай муаммо қандай масалани кўрмайлик, уларнинг аксарияти биринчи навбатда қишлоқ хўжалигига бориб тақалади. Халқимизни боқадиган озука берадиган-қишлоқ хўжалиги тармоғидир.

1990 йилда Ўзбекистон Биринчи Президенти И.А.Каримов ташаббуси билан республика қишлоқ аҳолисига 108.5 минг гектар ер деҳқонларга томорқа сифатида ажратиб берилди. Ушбу имкониятлардан Сурхондарёликлар ҳам баҳраманд бўлди. 1990 йилда вилоятда томорқага муҳтож бўлган 41401 оилага 7 минг гектарга яқин ер ажратиб берилди. 1991 йилда эса бу кўрсаткич 12 минг гектарни ташкил этди.

Қишлоқ аҳолисига томорқа бериш Денов туманда ҳам амалга оширилиб, 1991 йил 4478 кишига ер учун ариза берган

бўлса, улардан 2251 кишига 292 гектар ер берилди. Мустақилликнинг дастлабки йилларига қишлоқ аҳлига берилган томорқадан деҳқонлар унумли фойдаланиб, хўжасизликка барҳам берилиб, берилган томорқанинг ҳар қаричидан унумли фойдаландилар. Тупроқ ишланади, маҳаллий ўғит билан таъминланган ҳолда ер тизими яхшиланиб, ҳосилдорлик муттасил ошиб борди. Ўзбек халқининг ажралмас ҳукуки – ўз тақдирини ўзи белгилаш ҳукуки рўёбга чиқарилди.

1991 йилдан бошлаб 2-3 марта экин экилиб ҳосил кўтарилиши натижасида чорва учун ем, аҳоли учун гўшт, сут, тухум каби маҳсулотларнинг ошишига имконият яратиб, чорва зоти яхшиланиб, туёқлар сони кўпайди.

Денов халқининг меҳнаткашлиги, тиришқоклиги, ҳар қандай машаққатга бардош бериши алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, ердан фойдаланишда жамоа хўжалиги билан хусусий хўжалик ўртасида маҳсулот етказиб беришда фарқ анча сезилди. Бинобарин, Деновда кучли техника, жамоа меҳнати ва сув манбаларига эга бўлиш билан жамоа ва давлат хўжаликларида ҳар гектар ердан ўртача 2 минг сўм атрофидаги даромад олинса, қўл меҳнатига асосланган томорқаларда бу кўрсаткич 12 минг сўмга етди. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, Деновда аҳолига ер беришдан мақсад фақат қўшимча маҳсулот олиш эмас, аини чоғда ишсиз бўлиб қолган кишиларни ҳам кўпроқ иш билан таъминлаш ва турар жой қуришга имконият яратилди.

Ўзбекистон мустақилликка эришгач иқтисодий ислохотларни дастлаб қишлоқ хўжалигини ривожлантиришдан бошлади. Ўзбекистоннинг иқтисодий жиҳатдан юксалишида қишлоқ хўжалиги соҳасини ривожланиши муҳим аҳамиятга эгадир. Шуни англаб олдики, ҳаётимизни яхшилаш, аҳоли турмуш тарзини кўтариш, иқтисодиётимизнинг самарадорлигини ошириш, халқимизни боқиш, истиқболимизни режалаш-хуллас, қандай муаммо қандай масалани кўрмайлик, уларнинг аксарияти биринчи навбатда

кишлоқ хўжалигига бориб тақалади. Халқимизни боқадиган озуқа берадиган-кишлоқ хўжалиги тармоғидир.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Мустақилликнинг дастлабки йилларида республикада одамларга шахсий томорқа учун қўшимча равишда 550 минг гектар суғориладиган ер ажратилди ва шахсий томорқа учун берилган ер майдони 700 минг гектарга етди. 9 миллиондан ортиқ киши томорқа ер ҳосилидан фойдаланди. Сурхондарё вилоятида шахсий томорқалар учун 1992-1995 йилларда 22 минг гектар ер ажратилиб, ерсиз ҳамда кам ерли деҳқонларга берилди. Энг муҳими шахсий томорқа учун ажратилган ернинг асосий қисми қишлоқдаги ёш оилаларга ажратилиб, уларга уй-жой, шахсий хўжаликни шакллантириш учун тақдим этилди. Сурхондарё вилоятида шахсий томорқаларнинг 8 минг гектари асосан собиқ Совет ҳукумати даврида мавжуд бўлган совхозлардаги ерлар ҳисобидан берилди. Чунки совхозлардаги мавжуд ерларнинг эътиборсиз қолдирилиши

натijasида, ўзлаштирилган ерларнинг ташлаб қўйилиши туфайли ҳосилдор ерларнинг кўпчилиги шўрланиб, қамиш ва бутазорларга айланиб, ҳосилдорлик қувватига анча зарар етказилган эди. Ушбу ташландиқ ерларнинг шахсий томорқаларга ажратилиши туфайли деҳқонларнинг ерга бўлган муносабати ижобий ўзгариб, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари билан ўз хўжалиги таъминлаш ҳамда бозор учун қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етказиб бериш имкониятини яратди. Мустақилликнинг дастлабки йилларида қабул қилинган “Ер тўғрисида”ги, “Кооперация тўғрисида”ги, “Ижара тўғрисида”ги, “Деҳқон хўжаликлари тўғрисида”ги ва бошқа бир қатор қонун ва ҳужжатлар, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, ҳукумат қарорлари қишлоқда янги ҳуқуқий муносабатларни жорий этиш, кўп укладли иқтисодиётни шакллантириш, тадбиркорликни, фермер ва шахсий томорқа хўжаликларини ривожлантириш имконини яратди” деб баҳолаган эди.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Тошкент: Ўзбекистон. 1996. 121 бет.
2. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.: “Ўзбекистон”. 1996. 177 бет.
3. Сурхон тонги, 2000 йил, 24 март, 1 бет.
4. И.А.Каримов. Халқ билан ҳамнафас яшаш ва ишлаш - олий бурч. Халқ депутатлари Сурхондарё вилоят Кенгаши сессиясида сўзлаган нутқи. Маърифат. 2000. 25 март. 5 б.
5. Каримов И.А. Янги фикрлаш ва ишлаш-давр талаби”. Т.: “Ўзбекистон”. 1997. 369-370 бетлар.
6. Каримов И.А. Янги фикрлаш ва ишлаш-давр талаби”. Т.: “Ўзбекистон”. 1997.369.бет.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1 том. Тошкент: Ўзбекистон. 1996. 36 б.
9. Сурхондарё вилоят ҳокимлиги жорий архиви, 3-баённома., 5-ҳужжат 1995, 10 феврал, 11 бет.

ХАЛҚЛАРНИНГ ХИЛМА-ХИЛЛИГИ УЛАРНИНГ БИРЛИГИДАДИР

Алимухамедова Нодира Ядгаровна,

*"Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари
институту" Миллий тадқиқот университети "Гуманитар фанлар"*

кафедраси доценти в.б., тарих

фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Email: alimukhamedova.n@gmail.com

https://orcid.org/0009-0008-0110-4333

UDK: 94(575.1)

Аннотация: Мақолада глобаллашувнинг интеграция жараёнлари шароитида глобал, этник, миллий муаммоларнинг кескинлашуви кўриб чиқилади. Жамият ҳаётининг асосий соҳаларининг глобаллашуви анъанавий чегараларни аста-секин шаффофлашиб, интеграция жараёнлари маданиятларнинг қўшилишига олиб келмоқда, миллий ўзликни англашнинг ўсиши эса айнан шу вазиятдан ҳимояланиш воситаси сифатида бугунги куннинг энг муҳим масаласига айланди.

Калит сўзлар: этнос, миллат, миллий юксалиш, маданиятлар хилма-хиллиги, миллий идентификация, идентиклик, синергетика.

Аннотация: В статье рассматривается обострение глобальных, этнических, национальных проблем в контексте интеграционных процессов глобализации. Глобализация основных сфер жизни общества постепенно стирает традиционные границы, интеграционные процессы приводят к слиянию культур и рост национальной идентичности стала сегодня самым важным вопросом как средство защиты от этой самой ситуации.

Ключевые слова: этнос, нация, национальный прогресс, культурное разнообразие, идентификация, идентичность, национальная идентичность, синергетика.

Resume: The article deals with the aggravation of global, ethnic, national problems in the context of the integration processes of globalization. The globalization of the main spheres of society's life is gradually erasing traditional boundaries,

integration processes lead to the merging of cultures, and the growth of national identity has become the most important issue today as a means of protecting against this very situation.

Key words: ethnicity, nation, national progress, cultural diversity, identification, identity, national identity, synergetics.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUSTION). Бугунги кунда дунё ҳамжамияти ривожланишининг асосий тенденциялари глобаллашув нуқтаи назаридан таҳлил ва талқин қилинмоқда. Янги Ўзбекистон барпо этиш нуқтаи назаридан ўзгарувчан дунё ва янги ижтимоий воқеликка интеграциялашув, миллий идентиклик ва маданий ўзига хосликни сақлаш ҳамда ривожлантиришга қаратилган ҳаракатларининг стратегиясини оқилона шакллантиришга имкон беради. Дунёнинг барча халқлари билан яқин ҳамкорлик асосида «халқларнинг хилма-хиллиги уларнинг бирлигидадир» тамойилини ҳаётга тадбиқ этади. «Миллий ўзлик ва маънавий қадриятларларга қарши таҳдид ва хатарлар тобора ортиб бормоқда. Дунёдаги айрим сиёсий марказлар томонидан баъзи ҳудудларда сунъий равишда беқарор вазият юзага келтирилмоқда, норозилик кайфиятлари авж олдирилмоқда»[1]. Халқнинг, миллатнинг моҳияти, унинг инсоният тарихидаги ўрни, роли ва вазифалари, мавжудлигининг мукаммал шакллари идентикликда намоён бўлади. Шундай қилиб, миллий идентиклик ижтимоий ҳаётдаги трансформациялашув жараёнларида маълум маънода

ўзгаришларга учрайди. У жамиятда ривожланиб борар экан, миллий онг ва тафаккурнинг ментал хусусиятлар асосида юксалишига олиб келади.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Диёримизда қадимдан ўзига хос этномаданий жамият шаклланиган, асрлар давомида бу ҳудудда турли халқлар ва элатлар яшаб келган. Шу асосда шаклланиган ўзбек халқининг идентиклиги кўплаб маданиятлар қоришмаси, ассимиляцияси натижасида шаклланиган. Тарихга назар ташласак, олим В.Хан фикрича ўзбек идентиклигининг ривожланиш босқичлари хронологик жиҳатдан: а) иттифоқ истилоси даврида ўзбек идентиклигининг шаклланиши ва ривожланиши (XX асрнинг 20-80-йиллари); б) Мустақиллик Ўзбекистонда ўзбек идентиклигининг ривожланиши (XX асрнинг 90-йилларидан бугунга қадар); ўзбек идентиклигининг ривожланишида ўзбек этносининг яхлитлиги ва тузилиши нуқтаи назаридан алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин бўлган жараёнлар: консолидация (интеграция) ва тарқоқлик (дифференциация); анъана ва инновация қарама-қаршилиги нуқтаи назаридан ўзбек идентиклигидаги ўзгаришлар жараёни: анъанавий идентиклик элементларини сақлаш, модернизация қилиш, қайта тиклаш ва ўзгартириш[2] жараёнларини ажратиб кўрсатади ва уларнинг бир-бири билан узвий боғлиқлиги, ўзбек идентиклигининг кўп қатламли эканлигини таъкидлайди.

Тадқиқотчи М.Асқаров фикрича, XX аср охири XXI аср бошларидаги инглиз тилли хорижий тадқиқотларда ўзбек халқининг ўзлигини англаш масалалари ўрганилиб, ўзбек идентиклигининг ривожланиш босқичларини кўрсатиб ўтади. Олим фикрича, хронологик жиҳатдан ўзбек ўзлигининг шаклланиши ва ривожланишини уч катта босқичга бўлиш мумкин: 1) мустамлакачиликдан олдинги ва мустамлакачилик давридаги ўзбек идентиклиги (XIX-XX аср бошлари); 2) Ўзбекистон ССР давридаги ўзбек идентиклигининг шаклланиши (XX

асрнинг 20-80 йиллари); 3) Мустақил Ўзбекистон даврида миллий ўзбек идентиклигининг ривожланиши (XX асрнинг 90-йилларидан бугунга қадар)[3]. Тадқиқотчи фикрича, XIX-XX аср бошларида Марказий Осиёда яшовчи киши бошқа дин вакилларига нисбатан «мусулмон» сифатида; уруғ-қабилавий контекстда «Минг, Қўнғирот, Қангли, Қипчок»; ҳудудий жиҳатдан «бухоролик, фарғоналик, самарқандлик, тошкентлик»; турли ижтимоий қатламлар билан ўзаро алоқаларда «Хўжа, Тўра, Сайид, Хон»; иқтисодий ва маданий турмуш тарзига асосланган ҳолда «ўтроқ, кўчманчи ёки ярим кўчманчи» сифатида тан олинishi мумкин бўлган ва маҳаллий аҳолининг идентиклиги кўп жиҳатдан вазиятга боғлиқ эди. Бу маҳаллий хусусият кўпчилик хорижий тадқиқотчиларни чалкаштириб юборган ва бир ҳудуд бўйича маълумотларнинг қарама-қарши талқин қилинишига олиб келди[4]. Россиялик этнолог олим С.Абашин ҳам Марказий Осиё халқларининг асосий ва кундалик идентиклиги «мулкдорлик нуқтаи назаридан (оқ суяклар ва қоралар), диний, иқтисодий ва маданий турмуш тарзига кўра, минтақавий, уруғ-қабилавийларга бўлинган»[5]. Ўзбек идентиклиги шаклланиш жараёни ҳам маълум тарихий даврни ўз ичига олган ҳолда серқиррали ва мослашувчанлиги, нисбийлиги ва тугалланмаганлиги билан характерланувчи ижтимоий ҳодиса сифатида кечган ва узоқ давр мобайнида шаклланиб, сайқалланиб ривожланган.

Бугун миллий идентификация «...янги хусусият, иқтисодиёт, сиёсат билан бирга янги ҳаёт тарзини қайтадан бошлаган давлатлар фақатгина миллийлик нуқтаи назаридан давлат қизиқишларини ифода этиш эмас, балки одатдан ташқари жараёнга мослашиш ва сақланиб қолиш учун кураш вазиятида бутун тарихий, моддий ва маънавий қадриятлар нуқтаи назаридан ўз илдизларини, ўзлигини англаш, барча прогрессив ва иқтисодий силжишларга тўсқин бўлаётган, анъанавий дунёқарашга асосланган миллий тафаккур

таркибидаги камчиликларни қайтадан мушоҳада қилиш эвазига замонавий дунё тараққиётига интеграциялашувдир»[6]. Миллий идентикликнинг моҳияти, мазмуни, вазифалари, шакллари ва намоён бўлишини тушунтириш билан боғлиқ масалаларнинг назарий ривожланиши жамият ҳаётининг энг мураккаб соҳаси бўлган миллий муносабатларни ўрганишнинг илмий воситаларини яратиш, глобаллашаётган дунёга интеграллашувда идентикликнинг воқеликка мос мезонларини топиш, кўпмиллатли давлатимизда миллат, миллий давлатчилик ривожининг истиқболларини белгилаш бўйича бир қатор вазифалар қаторига киради. Миллий идентиклик «Мен-Бегона» муносабатига, «Ўзгани» тан олишга асосланади. Бу, айниқса, бугунги маданий плюрализм ва ранг-баранглик ҳолатига мос келади. Ҳар бир маданият ва ҳар бир халқнинг ўзига хослигини сақлаб қолиш ҳукуқини, шунингдек, маданий хилма-хилликни сақлаш учун жаҳон ҳамжамиятининг масъулиятини тан олиш ўзаро ҳамжиҳатлик ва мулоқот сиёсатининг асоси бўлиб, цивилизациянинг мавжуд бўлиш истиқболларини кенгайтиради. Миллий идентиклик – жамоавий ўзликни англаш, гуруҳ билан идентификация қилиш, унинг барқарор хусусиятлари ва асосий қадриятлар концепциясини, кучли ва заиф томонлари, ютуқ ва камчиликлар, тарихий тақдири ва ҳозирда мавжудлик шартлари, унинг мақсадлари, интилишлари, эртанги кундаги умидлари ва шу билан бирга маълум бир хатарлари, урф-одатлари ва анъаналари, бугунги муаммолари ва келажақтаги истиқболларини қабул этишдир.

Миллий идентиклик шаклланишининг асосини этник тарих ва этномаданият, дин ва миллий анъаналар, урф-одатлар асосидаги жамоавий идентиклик ташкил этади. Шу билан бир қаторда миллий идентиклик шаклланишида ҳукмрон мафкура ва тарихий хотира, ушба тизим элементларини ифодаловчи рамзлар катта эътиборга моликдир. Бизнинг фикримизча

миллатнинг мавжудлиги, миллий идентикликни тўхтовсиз шаклланишини таъминлашда синергетик ёндашувнинг парадигмал имкониятлари мавжуд. Тадқиқотимиз давомида қуйидаги хулосаларга келдик: биринчидан, жамият ва унинг элементи сифатида миллат ижтимоий диссепатив тизим сифатида мураккаб, беқарор ва ночизиқлик хусусиятига эга. Миллатнинг барча элементлари орасида ижтимоий муносабатлар жараёнларида ўзаро алмашинув амалга ошади, бу алмашинувлар ассиметрик бўлиб, «пассионар»лар кўп энергия, ахборот, модда таркатадилар. Демак, миллат тараққиётида алоҳида шахслар – «пассионар»ларнинг роли аҳамиятлидир; иккинчидан, миллат диссепатив тизим сифатида барқарорлик ва беқарорлик ҳолатларининг бирлигида доимий тарзда ўз-ўзини ташкиллаштирар экан, тараққиёт йўналишларининг бир неча варианты мавжудлиги, тизимнинг қуйи даражасидаги кичик, кўз илғамас ўзгаришлар, «капалак эффекти»ни бериши, яъни миллат келажагига таъсир этиши, катта ўзгаришларга сабаб бўлиши мумкин; учинчидан, беқарорлик ҳолатидаги энтропия, флуктуацияни – хаосни иерархиянинг юқори даражасидаги тартиб параметрлари – ахлоқ, миллий қадриятлар, маънавият ёрдамида бошқариш ва шу бирга қуйи даражадаги тартиб параметрларини ўзаро алоқадаги элементларни ижтимоийлашув жараёнидаги индивид ўзлаштириши лозим меъёрлар, қоидалар, қадриятлар ва тамойиллар, таълим–тарбия маскани бўлмиш оила, таълим даргоҳларининг барча босқичларида тўғри йўналтирилиши ва юқори тартиб параметрларига «бўйсунлигини» таъминлаши даркор; тўртинчидан, тизимнинг беқарорлик ва барқарорлик ҳолатларининг ўзаро нисбати этнос ва миллатлар тараққиётининг узлуксизлигини таъминлайди. Синергетик таълимот нуқтаи назаридан этнос ва миллатларнинг мувозанат ҳолатида, яъни тизим «ёпиқ»лигида кириш ва чиқиш

оқимлари бўлмагани учун энтропия кучайиб, тизим тузилмаси соддалашишига олиб келади. Миллат изоляция ҳолатига тушиб қолиши мумкин, чизиқлилик хусусияти эса ташқи муҳитдан келган таъсир кучига пропорционал жавоб реакцияси вужудга келишига шароит яратади. Ташқи муҳитдан келган кучли таъсир натижасида худди шундай кучли жавоб реакцияси сифатида тизимни барбод бўлишини кузатиш мумкин. Шунинг учун ҳам этнос ва миллатлар синергетик тизим сифатида ташқи муҳит билан модда, энергия ва ахборот алмашиши унинг умрбоқийлиги ва тараққиётининг шартидир. Энг муҳими, флуктуация натижасида беқарорлик ҳолати кучайганда бифуркациянинг мақбул варианты танланиши керакки, ортга қайтмас ўзгаришлар натижасида шаклланган тизимнинг янги тузилмаси, янги сифатий босқич миллатни, унинг маданияти, ўзига хослигини сақлаган ҳолда миллий идентикликни қайта ва қайта шакллантириши, миллат тараққиётига хизмат қилиши керак; бешинчидан, глобаллашув чақириқларига жавобан миллатлар ўз-ўзини ташкиллаштириш стратегияси ва тараққиётнинг янги тартиб параметрларига эга бўлиши зарур. Ўз ўрнида янги тартиб параметрлари тизимнинг иерархик тузилмасидаги барча даражалардаги ўзаро боғлиқлик асосида ўз-ўзини ташкиллаштириш, барқарорликка

интилиш жараёнларида бифуркация нуктасида тўғри танловни амалга ошириш имконини яратади.

Глобаллашув таъсирида идентиклик ижтимоий ҳодиса сифатида мураккаблашиб, хилма-хиллик, серқирралилик, мослашувчан, яшовчанлик, динамик, нисбийлик, етуклик ва номукамаллик каби хусусиятлар касб этиб, тугалланмаганлиги билан характерланувчи ижтимоий ҳодиса сифатида намоён бўлмоқда.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Идентикликнинг ажралмас қисми бўлмиш миллий идентиклик миллат борлиги ва ривожининг манбаи, миллий давлатчиликнинг асоси, йўналтириш ва сафарбар қилиш қобиляти жамият тараққиётида ижтимоий манба бўлиб, фуқаролар идентиклигини шакллантириш давлат яхлитлиги ва жамият барқарорлигини сақлаш шартидир. Одамлар хулқ-атворини йўналтириш ва тартибга солиш учун дастуриламал бўлиб хизмат қиладиган янги кадрият мўлжални, миллий ғурурни шакллантирувчи, миллий идентикликни қайта ва қайта яратишга қодир миллий идеаллар, ғоялар ва мафкурани ривожлантириш борасида алоҳида тадқиқотлар олиб борилишини глобал интеграция даври талабига айланмоқда.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент, Ўзбекистон, 2021. – Б. 295.
2. Хан В. К вопросу о методологических принципов изучения узбекской идентичности. Civilizations and cultures of Central Asia in unity and diversity. Proceedings of the international Conference, 7-8 September, 2009, – Samarkand-Tashkent: ICCAS, SMI-ASIA, 2010. P. 292.
3. Асқаров М.М. Англоязычная антропология о природе узбекской идентичности в конце XIX – начале XX вв.// Вестник антропологии, 2020. № 1 (49). С. 239.
4. Там же. С. 240.
5. Абашин С.Н. Национализм в Средней Азии: в поисках идентичностей. Москва. 2007. С. 39.
6. Мадаева Ш.О. Идентиклик антропологияси. Тошкент, “NOSHIR”, 2015. – Б.41-73.

SURXONDARYO VILOYATI MAHALLALARINING UMUMIY TAVSIFI, TASNIFI VA ETNOHUDUDIY XUSUSIYATLARI

Muminov Ulmas Ravshanqulovich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail:umuminov1989@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-7144-7298>

UDK: 9:433:908

Annotatsiya: O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvida mahallaning an'anaviy ijtimoiy tuzilma sifatidagi rolini oshirish borasida talay islohotlar amalga oshirilib, uni dunyoda o'xshashi yo'q o'zini-o'zi boshqarish tuzilmasi darajasiga ko'tarish borasida samarali ishlar qilindi. Ayniqsa o'zini-o'zi boshqarish organlarida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni kuchli ijtimoiy himoyalash, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy choralar ko'rish huquqiga ega tuzilma darajasiga ko'tarish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa aholiga mahalliy boshqaruv jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniyatini bermoqda.

Kalit so'zlar: Mahalla, jamiyat, davlat, islohot, fuqaro, rais, ijtimoiy, yoshlar, oila, ayollar

Аннотация: В Узбекистане реализовано множество реформ, направленных на повышение роли микрорайона как традиционной социальной структуры в государственном и местном управлении, предприняты эффективные усилия по поднятию его на уровень структуры самоуправления, не имеющей аналогов в Узбекистане. мир. Особое внимание уделено вопросу повышения общественно-политической активности граждан в органах самоуправления, поднятия их на уровень структуры с правом принятия практических мер по обеспечению сильной социальной защиты, занятости женщин и молодежи. будучи направленным. Это дает жителям возможность активно участвовать в процессах местного управления.

Ключевые слова: Махалла, община,

государство, реформа, гражданин, председатель, социальный, молодежь, семья, женщины

Abstract: In Uzbekistan, many reforms have been implemented to increase the role of the neighborhood as a traditional social structure in state and community management, and effective efforts have been made to raise it to the level of a self-management structure that has no analogues in the world. Particular attention is paid to the issue of increasing the socio-political activity of citizens in the self-governing bodies, raising them to the level of a structure with the right to take practical measures to ensure strong social protection, employment of women and youth. being directed. This gives residents the opportunity to actively participate in local governance processes.

Key words: Mahalla, community, state, reform, citizen, chairman, social, youth, family, women

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning ko'plab milliy modellari ishlab chiqilgan bo'lib, bunday tuzilmalar davlatlarning hududiy tuzilishi, siyosiy rejimi, aholi turmush tarzini tashkil etish kabi yo'nalishlarga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa ilg'or Yevropa mamlakatlarida o'zini-o'zi boshqarish organlari ya'ni, munitsipal hokimiyat organlari davlat hokimiyati organlari bilan birdek vakolatlarga ega ekanligi xarakterlidir. O'zini-o'zi boshqarish organlari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi muvofiqlikka asosan fuqarolar mahalliy doirada o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish

kabi imkoniyatlariga ega ekanligi, ushbu tuzilmalarning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolatdir. Shu boisdan o'zini-o'zi boshqarish tizimi har qanday demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatlar ijtimoiy hayotining o'ziga xos atributi hisoblanganligi bois, turli shart sharoitlar va taraqqiyot darajasidagi davlatlarda o'ziga xos milliy boshqaruv modellarini va strategiyasini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijdagi nufuzli ilmiy tadqiqot muassasalarida mahalliy boshqaruv organlari va munitsipalitetlarining boshqaruv modellarini nomarkazlashtirish, ular avtonomiyasini konstitutsiyaviy tartibga solishga yo'naltirilgan huquqiy normalarni shakllantirish, mahalliy tuzilmalarning alohida ijtimoiy institut sifatidagi nufuzini oshirish, tuzilmalar faoliyati uchun zarur subsidiyalar ajratishga oid masalalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, zamonaviy ijtimoiy rivojlanishning asosiy tendensiyasi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda hududlarning mas'uliyatini oshirish, joylarda o'zini o'zi boshqarishning eng samarali shakllarini joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga davlat boshqaruvi va mahalliy boshqaruvning o'zaro kombinatsiyasini yuzaga chiqarish, mahalliy boshqaruv tuzilmalarining hududiy vakillik organi sifatidagi rolini oshirish, davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi o'zaro integratsiyani ta'minlash masalalari dolzarb ilmiy muammolar sifatida tadqiq etilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tadqiqot olib borish jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil (*comparative analysis*), taqqoslash, tizimli tahlil, davriy izchillik, obyektivlik, og'zaki tarix kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida mahallaning keng qamrovli faoliyati turli yo'nalishlarda chop etilgan asarlar, ilmiy

maqolalar va ayrim tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Jumladan, G.Umarova, Z.Arifxanova, V. Ishquvvatov, F.Tolipov, B. Eshov, O. Bo'riyev, A. Tursunov, X. Sharopov, Ochilov A, I. Bobojonov, X. Raxmonov kabi tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarni kiritish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda o'zini-o'zi boshqarish organlari, xususan mahallaning o'tmishda va bugungi kundagi keng qamrovli faoliyati tarixiy va tarixiy-etnografik yo'nalishda tadqiq etilgan. Ammo ularda O'zbekistonning janubiy viloyatlari, xususan Surxondaryo viloyati mahallalariga oid ayrim ma'lumotlar uchrasada, mahallaning mustaqillik yillaridagi keng qamrovli faoliyati tarixiy aspektda alohida olib o'rganilmagan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Dunyo tarixiy tajribasidan ma'lumki, har doim jamiyatni modernizatsiyalash masalasi zamonaviy ijtimoiy fanlarning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan. Jamiyatdagi o'zgarishlar va ularning holati qay darajada ekanligi hozirgi ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, ularning muqarrarligi ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy o'zgarishlar, doimiy harakatda bo'lgan, qaytarib bo'lmaydigan jarayonlar va yana ko'plab omillar bilan bog'liq tarzda rivojlanadi. Ijtimoiy o'zgarishlar faqat bitta kontekstda rivojlanmaydi, zero inson, aqlli mavjudot sifatida, yuksak texnologiyalar tufayli dunyoni yaxshilashga harakat qiladi, jamiyatda ma'lum bir qarama-qarshilik paydo bo'ladi. O'tgan yillar tajribasidan farqli o'laroq, ma'lum texnologik o'zgarishlar bir necha asrlar davomida o'zini namoyon qiladi, ko'pgina texnologik o'zgarishlar sodir bo'ladi[1].

Bu borada ijtimoiy, iqtisodiy, texnik va texnologik nuqtayi nazardan turlicha qarashlar mavjud bo'lib, bu xususda o'z fikrini bildirgan sotsiolog V.Mur jamiyatni modernizatsiyalashning va ijtimoiy o'zgarishlarning o'nta modelini ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, ular o'z yo'nalishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi: 1) bosqichma-bosqich va uzluksiz o'sish; 2)

bosqichma-bosqich evolyutsion o'sish; 3) evolyutsiyaning nomutanosib sur'atlari tamoyiliga asoslangan notekis rivojlanish; 4) siklik o'sish; 5) tarmoqlangan, ko'p chiziqli dinamik o'sish; 6) siklik vektorsiz dinamika; 7) logistik o'sishi; 8) logistik egri chiziqqa mos ravishda pasayish; 9) eksponensial o'sish; 10) kamayib boruvchi eksponensial tarzda pasayish[2].

Umuman, qisqacha aytganda shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi globallashuv davrida har bir jabhada o'zgarishlar, yangilanishlar sodir bo'lmoqda. Xususan, O'zbekistonda ham jamiyat hayotining turli sohalarida kechayotgan jarayonlar mahalla tizimini ham chetlab o'tgani yo'q. Ya'ni, dunyoda o'xshashi yo'q bo'lgan tuzilma mahalla tizimi va uning faoliyatida ham ulkan yangilash hamda modernizatsiya jarayonlari kechmoqda. Bunda fuqarolarning jamiyatda va mahallada o'z o'rnini bo'lishi kerakligini, ya'ni, tezkor, shiddatli davrda mahallaning har bir fuqarosi o'z mahallasida faollik bilan mehnat qilishi, axborotlashgan dunyoda yangicha dunyoqarash, streotiplar, farazlarga asoslangan holda yashashi va o'z faoliyatini amaliyotga joriy etmog'i lozim. Shundagina inson bugungi yangilanayotgan jamiyatning bir bo'lagi bo'la oladi. Ushbu zaminda uni to'ldirib turuvchi inson sifatida munosib o'rin va pozitsiyaga ega bo'ladi. Bu esa mahalla uyushmasining bugungi kundagi holati, rivojlanishi, kishilar turmush tarzi va dunyoqarashidagi o'zgarishlar bilan bog'liq tarzda ularning munosib faoliyati uchun o'ta ahamiyatlidir.

Endi ilmiy tadqiqot ishining asosiy masalasi bo'lgan Surxondaryo viloyati mahallalarining umumiy tavsifi va etnohududiy xususiyatlariga umumiy ta'rif berib o'tamiz. Ya'ni, bu borada olib borilgan tadqiqotlar shuni anglatmoqdaki, qadimdan O'zbekistonda o'zini-o'zi boshqarishning alohida, o'ziga xos uyushmasi mahalla tizimi shakllanib kelgan. Ushbu tuzilma o'z mohiyati, mazmuni va funksiyalariga ko'ra an'anaviy boshqaruv tizimi hisoblanadi. Mahalla o'zbeklarga xos jamoa bo'lib yashash tarzining o'ziga xos shakli bo'lib, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida

shakllangan va aholi turmush tarzining etnik xususiyatlarini o'zida aks ettirgan.

Bu borada B. Eshovning yozishicha, antik davrda Shimoliy Baqtriyaning ko'hna shaharlarida kulolchilikka ixtisoslashgan mahallalar mavjud bo'lib, ularda bir vaqtning o'zida bir nechta xumdonlar ishlab turgan. Ulardagi idishlarni pishirish xonalarida bir pishirishda yuzdan ortiq idishlar sig'dirilgan. Kulolchilik xumdonlarining qishloqlarda bo'lmaganligi yoki kamligi shundan dalolat beradiki, kulollar o'z mahsulotlari bilan nafaqat shahar, balki, qishloq aholisining ham talab-ehtiyojlarini qondirgan. Ko'hna shaharlarda temirni qayta ishlaydigan hunarmandchilik ustaxonalari ham bo'lgan. Ular temirdan har xil buyumlar tayyorlaganlar. Termizdan temirchilar mahallasi aniqlangan. Temir va misni qayta ishlash hunarmandchiligining qoldiqlari Sho'rtepedan ham aniqlangan[3].

Shahar va qishloqlarda hunarmandchilikning ko'plab sohaları – kulolchilik, temirchilik, teriga ishlov berish, zargarlik, tosh-taroshlik, to'qimachilik kabi o'nlab turlari rivojlangan edi. Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, yirik shaharlarda hunarmandchilikning ma'lum sohasiga ixtisoslashgan ustalarning mahallalari mavjud bo'lgan. Demak, mahalla tuzilmasining ilk kurtaklari antik davrlardayoq shaharlarda aholining ma'lum kasb-kori bo'yicha joylashishi va yashash tarzini aks ettirgan.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy viloyati hisoblanib, bu yerda ham o'zini o'zi boshqarishning alohida, o'ziga xos uyushmasi mahalla tizimi mavjud. Yuqorida qayd etilganidek, ushbu tuzilma o'z mohiyati, mazmuni va funksiyalariga ko'ra dunyoning boshqa mamlakatlarida uchramaydigan mahalliy boshqaruv tizimi hisoblanadi. Mahalla o'zbeklarga xos jamoa bo'lib yashash tarzining o'ziga xos shakli bo'lib, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va aholi turmush tarzining etnik xususiyatlarini o'zida aks ettirgan. Ayniqsa mustaqillikka erishgan O'zbekistonda barcha tuzilmalar qatori mahallaga ham alohida e'tibor qaratilib, uning faoliyatini

takomillashtirishga hamda vakolat doirasini yanada kengaytirishga katta ahamiyat berila boshlandi.

Bir soʻz bilan aytganda, mamlakatimizda mahalla faoliyatini samarali tashkil etish ishini yanada takomillashtirish, uning huquqiy maqomini yanada kengaytirish, xalqimiz turmush tarzi bilan bogʻliq anʼanalari va tarixiy tajribasini oʻrganish muhim oʻrin tutadi. Mahallada yoshlarning ongiga maʼnaviyatimizni, milliy gʻoyani chuqur singdirish, doimiy asosda kelajak yosh avlodning maʼnaviy kamolotini aqliy salohiyati bilan teng ravishda rivojlantirib borish muhim oʻrin tutmoqda. Shu oʻrinda oila, mahalla, ishlab chiqarish muassasalari va taʼlim muassasalari faoliyatini barkamol avlod tarbiyasi masalasida yangi bosqichga koʻtarish dolzarb vazifalardan hisoblanadi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Uning huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi[4].

Oʻzbekiston geografik joylashuvi, etnodemografik holati, geosiyosiy va geoiqtisodiy omillariga koʻra mintaqaning boshqa davlatlaridan birmuncha farq qilgani bois, uning hududida joylashgan shahar va qishloqlar, yaʼni mahallalar ham bir-biridan maʼlum xususiyatlariga koʻra farqlanadi. Surxondaryo viloyati ana shunday geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti, etnodemografik holatiga koʻra ajralib turuvchi janubiy viloyatdir.

Tadqiqot obyekti hisoblangan Surxondaryo viloyati — 1941-yilda tashkil etilgan boʻlib, 13 ta tuman va 1 ta Termiz shaharni oʻz ichiga oladi. Umumiy yer maydoni 20,1 ming km. Yaqin oʻtmishga murojaat qilinsa, 2010-yilgacha 8 shahar — Boysun, Denov, Jarqoʻrgʻon, Termiz, Shargʻun, Sherobod, Shoʻrchi, Qumqoʻrgʻon, 7 shaharcha Angor, Doʻstlik, Kakaydi, Sariosiyo, Sariq, Elbayon bekati, Hurriyat aholi punkti boʻlgan. Aholisi 2110412 ming nafar jumladan shahar aholisi 782852 ming nafar kishini tashkil etgan[5].

2020 yil yakuniga koʻra esa viloyatda aholi soni 2 mln. 654 ming 794 nafarni tashkil etgan boʻlsa, 2022-yil 1-avgustgacha viloyat aholisi 2 million 743 ming 196 nafar kishini tashkil etgan. Ularda 461 ming 317 ta xonadon va 628 ming 959 ta oila mavjud.

Shundan, 1 mln. 329 ming 223 nafari xotin-qizlardir[6]. Hozirgi kunda viloyatda jami 721 ta mahalla fuqarolar yigʻinlari mavjud boʻlib, shundan 51 tasi chegara mahallalar va 2 ta mahalla jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi[7].

Demak viloyat aholisi demografik statistikaga koʻra yildan- yilga oʻsib borgan va ular hududning tabiiy-geografik sharoiti, iqlim xususiyatlariga bogʻliq tarzda koʻpayib borgan va oʻzgarib turgan. Bunda mahallalarning joylashuv xususiyatlari ham muhim rol oʻynagan.

Mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish tuzilmalarida faoliyat yurituvchi xodimlar soni va uning oʻsishi boʻyicha demografik statistikaga koʻra esa 2020-yil viloyat mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash boshqarmasi tashkil etilgan boʻlib, u yerdagi xodimlarning jami soni 26 nafardan (5 nafari ayollar) iborat boʻlib barchasi oliy maʼlumotga ega. Shulardan 13 nafari (52 %) tizimda avvaldan ishlagan xodimlarni tashkil etadi. Shuningdek, shahar va tumanlar boʻlimlarida 165 nafar (43 nafari ayollar) xodimlar ham shakllantirilgan. Ulardan 141 nafari (85,4 %) oliy maʼlumotli, 24 nafari (14,6 %) oʻrta-maxsus maʼlumotga ega..

Surxondaryo viloyati Oʻzbekistonning janubiy qismida joylashganligi tufayli viloyatdagi barcha 721 ta fuqarolar yigʻinlari aholi soni, mahallalardagi ijtimoiy-maʼnaviy muhit va hududiy geografik joylashuvi boʻyicha toifalarga ajratilgan va ularda maʼlum dinamik oʻzgarishlar sodir boʻlgan. Mintaqadagi 51 ta mahalla qoʻshni davlatlar bilan chegaradoshdir.

2020-yilning iyun oyida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-apreldagi 302-sonli qaroriga koʻra Jarqoʻrgʻon tumandagi “Bobur” mahallasi hududida joylashgan Kakaydi harbiy garnizonidagi harbiy shaharchada “Janub qalqonlari” nomli yangi mahalla fuqarolar yigʻini tashkil etilgan. Kakaydi harbiy garnizonidagi yangi tashkil etilgan “Janub qalqonlari” mahalla fuqarolar yigʻinida 2019-yil 18-iyul kuni Oliy Majlis Senati Kengashi tomonidan 2019-yil 15-fevralda “Fuqarolar yigʻinlari raislari (oqsoqollari) sayloviga tayyorgarlik koʻrish

va uni o'tkazish to'g'risida"gi 507-III-sonli qarori asosida mahalla fuqarolar yig'ini raisi saylovi tashkil etilgan. Surxondaryo viloyatida 2019-yil iyul oyiga qadar 718 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lgan bo'lsa, "Janub qalqonlari" mahalla fuqarolar yig'ini tashkil topganligi sababli 2021-yilda mahallalar soni 721 taga yetgan[8]. Bundan tashqari chegara hududlarda 2020-yil holatiga ko'ra 51 ta mahalla joylashgan bo'lsa, anklav hududda joylashgan fuqarolar yig'inlari mavjud emas.

Mahallalarga umumiy tavsif berar ekanmiz ularning hududiy joylashuv xususiyatlari ham e'tiborni tortadi. Masalan, viloyat hududidagi 21 ta mahalla (Qumqo'rg'on tumanida "Yangi qishloq", "G'alaba", "Yangi yer", "Tayfang", "Bo'ston", Sariosiyo tumanida "Ehtirom", "Chosh", "Shohqishloq", Boysun tumanida "Chor chinor", "Pulhokim", "Mehrobod", Oltinsoy tumanida "Mo'minqul", Jarqo'rg'on tumanida "Beshbuloq", "Bobur", "Ismoil tepa", Denov tumanida "Bobotog'", "Ibn sino", Sherobod tumanida "Galaguzar", Sho'rchi tumanida "Qora ariq" mahalla fuqarolar yig'inlari tuman markazlaridan uzoqda joylashgan. Bu esa mazkur mahallalar bilan ishini tashkil etish, ularni nazorat qilish borasida birmuncha qiyinchiliklar tug'dirish shubhasiz. E'tiborli tomoni shundaki, viloyatda mahallalar faoliyatini takomillashtirish borasida bosqichma-bosqich olib borilayotgan islohotlar o'z amaliy natijasini bermoqda. Xususan, fuqarolar yig'inlari orasida jamoatchilik asosidagi faoliyat olib borgan mahallalar soniga e'tibor qaratsa, ular 2020-yilda 54 tani tashkil etgan bo'lib, asosan Surxondaryo, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2021-yil holatiga ko'ra ularning soni 44 taga kamayib, bugungi kunda 10 tani tashkil etmoqda. Respublika bo'yicha mavjud 10 ta fuqarolar yig'ini davlat byudjetidan moliyalashtirilmagan holda jamoatchilik asosida (oylik ish haqisiz) faoliyat yuritib kelmoqda, shulardan 2 tasi Surxondaryo viloyatiga to'g'ri keladi.

Agar boshqa viloyatlar bilan taqqoslansa, shunday mahallalar Andijonda – 1 ta, Samarqandda – 2 ta Toshkent viloyatida – 5

ta bo'lib, davlat byudjetidan moliyalashtirilmagan holda (oylik ish haqisiz) faoliyat yuritib kelmoqda. Bundan tashqari, chegara va anklav hududda joylashgan fuqarolar yig'inlari soni respublika miqyosida 2016-yilga (552 ta) nisbatan 22 taga ko'payib, 2021-yilda 574 tani tashkil etgan. Eng ko'p chegara va anklav hududda joylashgan fuqarolar yig'inlari Farg'ona (97 ta) va Toshkent (90 ta) viloyatiga, eng kami esa Navoiy (8 ta) viloyatiga to'g'ri keladi[9].

Viloyatning geografik joylashuvi hamda hududiy xususiyatlari, etnoijtimoiy xususiyatlari va ularning o'ziga xosligi, viloyat hududida yangidan aholi manzilgohlari va yashash joylarining tashkil topishi, o'z navbatida mahallalar sonining o'sishiga, yangi mahallalarni tashkil topishiga turtki bermoqda. Agar buni respublika miqyosida olinsa, xususan, 2016-yilda respublikada 8973 ta fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2021-yilning dastlabki choragida ular soni 9199 tani tashkil etgan. Tadqiqotlarga ko'ra 2019 – 2021-yillar davomida Surxondaryo viloyatida ham yangi mahallalar tashkil etilgan. Xususan, mazkur yillar davomida Oltinsoy tumanida "Sohibkor" va Uzun tumanida "Saxovat" mahallalari tashkil etilgan.

Surxondaryo viloyati tabiiy sharoiti birmuncha qulay, shu bilan birga xom ashyo va mehnat resurslari yetarli hududlar qatoriga kiradi. Bugungi kunda Surxondaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ayrim xususiyatlari bilan farqlanadi. Buni quyidagi mahalliy omillar ham tasdiqlaydi:

1) *Etnik tarkibi xilma xil bo'lgan mahalla fuqarolar yig'inlari* (Termiz shahri, Angor, Sherobod, Qiziriq, Sariosiyo, Uzun, Bandixon, Qiziriq, Boysun tumanlari);

2) *Shahar va tuman markazidan uzoqda, tog' va tog'oldi hududlarida joylashgan mahallalar* (Boysun, Bandixon, Sariosiyo, Uzun, Denov tumanlari);

3) *Qo'shni davlatlar bilan chegaradosh mahallalar* (Qumqo'rg'on, Sho'rchi, Sariosiyo, Termiz, Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Angor tumanlari) kabi turlarga bo'lish mumkin.

Bunday bo'linish viloyatning nafaqat hududiy, balki, geografik, etnik va etnodemografik xususiyatlarini aks ettirganligi tadqiqotchilar uchun ham qiziqarlidir. Mahallalar aholisining ijtimoiy-demografik tavsifiga ko'ra agar o'tmishga nazar tashlansa, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Surxondaryo hududidagi jami aholining 5, 0 foizi shaharlarda, 6,6 foizi shaharchalar va tuman markazlarida, 6,3 foizi faqat qishloqlarda istiqomat qilgan. Jumladan, Boysun tumani jami aholisining 13,5 foizi shaharlarda, 6,1 foizi shaharchalar va tuman markazlarida, 5,2 foizi faqat qishloqlarda, Sherobod tumani aholisining jami 4,0 foizi shaharlarda, shaharcha va tuman markazlarida 7,6 foizi, faqat qishloqlarda 7,3 foizi yashaganligi qayd etiladi. Endi mahalla fuqarolar yig'ini raislarining ish faoliyatlari va ularning ijtimoiy va jinsiy tarkibiga e'tibor qaratilsa, viloyatda 2020-yil yakuniga 20 ta mahalla fuqarolar yig'ini raisi lavozimi vakant bo'lib, 701 nafar MFY raisi amalda faoliyat olib bormoqda. Shundan, raislar orasida ayollar 59 nafarni tashkil etadi.

Viloyat aholisining ko'payishi tarixan shakllangan mahalliy an'analar ta'sirida va aholining doimiy migratsiyasi tufayli sodir bo'lgan. Bunday vaziyat mahallalarda istiqomat qiluvchi aholining etnik-ijtimoiy tarkibiga ta'sir qilmasdan qolmagan. Bu holat bugungi kunda ham o'z aksini topmoqda. Masalan, 2004-yildan boshlab Surxondaryo viloyati aholisining o'sish sur'atlari oldingi davrlarga qaraganda keskin orta boshlagan. Respublika miqyosida aholi sonining nisbatan tez o'sishi mamlakat mintaqalari o'rtasida eng ko'p Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hissasiga to'g'ri kelishi ham bejiz emas (15,0 %).

Aholining o'sish tendensiyalari asosida D. Tashmuhammedova va boshqalar tomonidan taqdim etilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2019-yilgacha Surxondaryo viloyati demografiya integral indeksi tahlili natijalarida Angor va Sariosiyo tumanlari eng past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, Angor tumanida onalar va go'daklar o'limi ko'pligi va Sariosiyo tumanida ajrashishlar va erta nikohlarning yuqoriligi bilan, salomatlik

integral indeksi tahlili natijalarida Denov va Muzrabot tumanlari eng past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, Denov tumanida bolalikdan miya falaji kasallanishi va erta tug'ruqlar yuqoriligi va Muzrabot tumanida abortlar soni yuqoriligi bilan izohlanadi. Bandlik va farovonlik integral indeksi tahlili natijalarida Uzun va Denov tumanlarida eng past ko'rsatkichlar aniqlangan. Uzun tumanida bandlik darajasi pastligi va kam ta'minlangan oilalar yuqoriligi, Denov tumanida esa bandlik darajasi va aholining uy-joy bilan ta'minlanishi past darajada bo'lgan.

Qishloq aholisi masalasiga kelsak, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida O'zbekiston qishloq aholisining 1/5 qismi yashaydi. Ammo qishloq aholisining soni bo'yicha hamon Samarqand viloyati oldinda, ularning har birida respublika qishloq aholisining 12,8 va 12,3 foizi istiqomat qiladi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlari qishloq aholisining o'sish koeffitsiyenti 1991,1995, 2000, 2005, 2012 -yillarda respublikada eng yuqori darajaga chiqqan.


Ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning demografik taraqqiyotida qishloq aholisi soni muntazam ravishda o'sib borib, 1991-yilda 59,5 foiz, 2006-yilda 63,8 foiz, 2010-yilda 48,8 foiz, 2016-yilda 49,4 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, qishloqlar shahar posyolkalariga aylantirilishi natijasida qishloq aholisi soni jami aholi soniga nisbatan kamayib borganligini ham ko'rish mumkin.

Bu borada viloyat mahallalari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 392,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 % ni) va Qumqo'rg'on 238,7 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on 222,1 ming nafar kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 76,5 ming nafar kishi (2,9 %) tashkil etdi. Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan Termiz shahri 1,8 % ni, Denov tumani 2,0 % ni va Sariosiyo 1,8 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qiziriq tumanida -1,6 % ni tashkil etgan.

Shu o'rinda viloyat mahallalarida

yoshlarning oʻrni va nufuzi hamda ularga eʼtibor xususida. Jumladan, viloyatda profilaktik hisobda turgan 154 nafar yoshlar mavjud. Umuman, biz

quyidagi jadvalda viloyatda yoshlarning salmogʻiga oid statistik maʼlumotlarni taqdim etamiz:



Mahallalarda aholi bandligini taʼminlash, taʼlim-tarbiya jarayonlarini yoʻlga solish uchun maktabgacha taʼlim muassasalari, oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim muassasalarining oʻrni katta. Xususan, viloyat markazidan uzoq boʻlgan Boysun tumanida Vazirlar Mahkamasining “2019 — 2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qaroriga muvofiq “Obi”, “Ketmonchi”, “Mehriobod”, “Kosiblar”, “Pasurxi”, “Temir darvoza”, “Koʻlqamish”, “Hunarmandlar”, “Inkaobod”, “Shoʻrsoy” mahallalarida Davlat-xususiy sherikchiligi asosida maktabgacha taʼlim muassasalari tashkil etish moʻljallangan. Bu ham mahallalarda bogʻcha yoshidagi bolalar qamrovini oshishiga olib keldi va aholi bandligini taʼminlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Bu esa mahallalarning turli hududiy mintaqalarda joylashganligi ularning daromadida ham oʻz aksini topadi. Yaʼni, mahallalarda aholining daromadi oʻz oʻrnida turlichadir. Masalan, 90 yillar boshida viloyat mahallalarida shaxsiy tomorqa xoʻjaliklarining kengayishi hisobiga oilaviy tadbirkorlik oziq-ovqat mahsulotlarining salmoqli qismini bergan va oilalar daromadini maʼlum maʼnoda taʼminlagan. Jumladan, 1996-yil maʼlumotlariga koʻra, oilaviy

tadbirkorlikdan bir oilaga toʻgʻri keladigan daromad viloyat oilalarida 100,5 soʻmni tashkil etgan.

Endi mahallalarning xizmat binolari bilan taʼminlanishi, ularning holati masalasiga eʼtibor qaratilsa, viloyatdagi 721 ta MFY larning 541 tasi oʻz xizmat binosiga ega, qolgan 180 ta mahalla fuqarolar yigʻinlaridan 87 tasi taʼlim va tibbiyot muassasalari hamda 93 tasi boshqa korxona tashkilotlar binolarida faoliyat yuritib kelmoqda. Viloyatning 721 ta MFYlarda 449 ming 296 ta xonadonlarning jami 49 ming 472,3 gektar tomorqa yer maydonlari mavjud shundan tomorqasi mavjud hovlilar soni 481811tani tashkil etadi. Surxondaryo viloyatida mazkur qaror ijrosini taʼminlash maqsadida 2020-2022-yillarga moʻljallangan Dastur ishlab chiqilgan boʻlib, Dasturga asosan 2020-yilda 80 ta, 2021-yilda 69 ta, 2022-yilda 64 ta jami 213 ta mahalla fuqarolar yigʻinlari binolarini qurish rejalashtirilgan. (shundan 125 tasi Davlat xususiy sherikchilik asosida 88 tasi esa mahalliy byudjet hisobidan). Maxsus binolar ajratish boʻyicha, viloyatda 2020-yil 80 ta mahalla fuqarolar yigʻinlari dasturga kiritilgan boʻlib, shundan; 21 ta (Qumqoʻrgʻon tumanida “Yangi qishloq”, “Gʻalaba”, “Yangi yer”, “Tayfang”, “Boʻston”, Sariosiyo tumanida “Ehtirom”, “Chosh”, “Shohqishloq”, Boysun tumanida

“Chor chinor”, “Pulhokim”, “Mehrobod”, Oltinsoy tumanida “Mo‘minqul”, Jarqo‘rg‘on tumanida “Beshbuloq”, “Bobur”, “Ismoil tepa”, Denov tumanida “Bobotog‘”, “Ibn sino”, Sherobod tumanida “Galaguzar”, Sho‘rchi tumanida “Qora ariq”, Muzrabot tumanida “Al Hakim At-Termiziy”, Termiz tumanida “Xalqobod”) mahalla fuqarolar yig‘inlari binolari yangi qurilib foydalanishga topshirildi hamda 4 ta (Termiz shaharda “Ma‘rifat”, “Temir yo‘lchi”, Oltinsoy tumanida “Sohibkor”, Uzun tumanida “Madaniy turmush”) mahalla fuqarolar yig‘inlari balansiga bino olib berilgan[10].

Viloyat mahallalarida aholining ijtimoiy-siyosiy faolligiga e‘tibor qaratilsa, 1991-2020-yillarda turli Davlat mukofotlari va ko‘krak nishonlariga sazovor bo‘lgan xotin-qizlar, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining Faxriy unvonlari 62 ta, O‘zbekiston Respublikasining ordenlari 110 ta, O‘zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig‘i 22 ta, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari 28 ta, “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni sovrindorlari 35 ta, “Mahalla iftixori” ko‘krak nishoni sovrindorlari 8 tani tashkil etganligi e‘tiborga molikdir. Viloyatda 2010-yilda ijtimoiy ko‘makka muhtoj bo‘lgan jami 23 nafar (xususan Angor tumanida 4 nafar, Denov tumanida 6 nafar, Qiziriq tumanida 1 nafar, Sariosiyo tumanida 1 nafar, Uzun tumanida 2 nafar, Sherobod tumanida 2 nafar hamda Termiz shahrida 7 nafar) xotin-qizlarni sog‘lom hayotga qaytarish bo‘yicha ishlar olib borilgan.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan 2021-yildan mahalla instituti tizimida faoliyat olib borayotgan 20 ming nafardan ortiq xodimlarni o‘qitish, ularga dolzarb masalalarni o‘sha joyida hal etish bo‘yicha vazifalar berilgan edi. Bu esa ushbu tuzilma faoliyatida o‘ziga xos o‘rin tutgan, o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalari obro‘sini ko‘tarishda alohida xizmat ko‘rsatgan xodimlarning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy hamda madaniy jihatdan bilim va ko‘nikmalarini oshirish va tuzilma faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim o‘rin tutdi. Shundan kelib chiqib viloyatda o‘zini o‘zi boshqarish organlarini faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida soha

xodimlarini muntazam malakasini oshirib, ularga doimiy o‘quv seminarlari tashkil etib borish yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada 2018-yil 1-apreligacha Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika “Jamoatchilik nazorati ishchi guruhi” vakillari mahallalarda ijtimoiy holatni o‘rganish maqsadida Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on va Sariosiyo tumanlarida bo‘lishib, aholini qiynayotgan va “Xalq qabulxona”lariga kelib tushayotgan shikoyatlar yechimi yuzasidan sayyor reydlar uyushtirilib ko‘pgina muammolar o‘sha yerlarning o‘zida hal etishgan[11].

Surxondaryo viloyatining Boysun, Uzun, Sariosiyo, Bandixon tumanlarida fuqarolar yig‘inlaridan ayrimlarining tuman markazlaridan 40 km va undan uzoq tog‘li, chegara hududlarda joylashganligi o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligiga, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy holatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Masalan, viloyat va tuman markazlaridan olis masofada joylashgan fuqarolar yig‘inlarida mobil aloqa va internet tizimidagi muammolar markaziy va mahalliy tashkilotlardan beriladigan topshiriqlarning bajarilishiga, ovullar orasidagi masofaning uzoqligi esa joylardagi mavjud muammolarni o‘rganish va bartaraf etishda salbiy ta‘sirini o‘tkazadi. Shundan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan respublika bo‘yicha viloyat va tuman markazlaridan olis masofada joylashgan fuqarolar yig‘inlari rais (oqsoqol)larining ehtiyojidan kelib chiqib, avtomashina bilan ta‘minlash uchun imtiyozli kreditlar berish tartibini joriy etish, uzoq masofada joylashgan fuqarolar yig‘inlari rais (oqsoqol) lari ish samaradorligiga ijobiy ta‘sirini o‘tkazadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlar asosida bugungi kunda viloyatdagi mahallalarning barcha faoliyatini etnik tarkibi xilma xil bo‘lgan mahalla fuqarolar yig‘inlari, geografik joylashuviga, aholi soni, joylashuviga ko‘ra shahar va tuman markazida va markazdan uzoqda, tog‘ va tog‘oldi hududlarida joylashgan mahallalar, joylashuviga ko‘ra viloyat markazida hamda qo‘shni davlatlar bilan chegara hududlarda

joylashgan mahallalarga bo'lgan holda tahlil etish mumkinligi tasdiqladi. Surxondaryo viloyati tabiiy sharoiti birmuncha qulay, ammo xom ashyo va mehnat resurslari yetarli hududlar qatoriga kirganligi bois, ushbu viloyatda aholining turmush sharoiti, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, an'anaviy hunarmandchilik hamda kasanachilikning etnohududiy xususiyatlari ajralib turishiga guvoh bo'ldik. Bu esa bugungi kunda Surxondaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ayrim xususiyatlari bilan farqlanishini tasdiqlaydi.

Surxondaryo mahallalari ham tarixan ijtimoiy-hududiy maskan sifatida shakllanib,

aholi ijtimoiy kelib chiqishi, millati, ijtimoiy statusi va yoshi turli bo'lgan odamlardan tashkil topganligini tasdiqladi. Mahalla oilaviy ahillikni saqlashni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida, oila va mahallada sog'lom muhit yaratishga xizmat qilib, har tomonlama sog'lom, barkamol inson shakllantirishga asos bo'ldi. Viloyat mahallalari hayotidagi o'zgarishlar, mahallada ijtimoiy institut sifatida jamiyat barqarorligi uchun muhim bo'lgan ijtimoiy me'yor va qadriyatlar saqlanib qolganligini ko'rsatdi. Bu mahallaning ijtimoiy institut sifatida moslashish salohiyatiga bog'liq holda ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim rol o'ynashini tasdiqladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Побережников И.В. Теория модернизации: от классической к современной версии // Северный регион: наука, образование, культура. Сургут, 2000. № 2. С. 75-80.
2. Moore W.E. Social Change. Englewood Cliffs, N.Y.: Prentice-Hall, 1974. P. 34-46; Takje sm.: Vago S. Social Change. Englewood Cliffs, New Jersey: Prentice-Hall, 1989. P. 75-79; Штомпка П. Социология социальных изменений. М.: Аспект Пресс, 1996. С. 31-37.
3. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. // Darslik. - Toshkent. 2012.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-dekabrdagi "Mahalla" ma'rifiy teleradiokanalini tashkil etish va raqamli teleko'rsatuvlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2014. 51-son, 603-modda; 2017. 2-son, 25-modda. – B. 9-11.
5. Surxondaryo viloyati hokimligi iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi. 2010-yil. – B. 73.
6. <https://sputniknews-uz.com/20220117/qaysi-viloyatda-doimiy-aholi-eng-kop-22222001.html>
7. Surxondaryo viloyati Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasining 2019-2020-yillar yakunlari bo'yicha Hisoboti va 2021-yilda amalga oshirilishi mo'ljallangan rejasi ma'lumotlari.
8. O'zbekiston mahallalari: tarix va hozirgi zamon. // Monografiya. -Toshkent. 2021. –B 323.
9. Raxmonov X. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy institutlar faoliyati tarixi (Navoiy viloyati misolida). 07.00.01 – O'zbekiston tarixi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent., 2021-B. 63.
10. Surxondaryo viloyati Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasining 2019-2020-yillar yakunlari bo'yicha Hisoboti va 2021-yilda amalga oshirilishi mo'ljallangan rejasi ma'lumotlaridan olindi.
11. Ishquvvatov V. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarining rivojlanish tarixi (1991-2020 yy). Tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent. 2022.-B 156.

QO'NG'IROTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARINING YO'LGA QO'YILISHI

Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich,

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

e-mail: abduvali4111104@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-6958-0605>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligining tashqi diplomatik va savdo aloqalari haqida ayrim ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiya bilan amalga oshirgan elchilik aloqalari, savdo-sotiq, o'zaro bordi-keldi masalalari jamlangan holda maxsus ilmiy tahlil qilingan. Mavzuga doir tadqiqot va tadqiqotchi olimlar fikrlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Antony Jenkinson, Pyotr I, Eron, Hindiston, Afg'oniston, Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi, D.Gladishev va M.Muravin ekspeditsiyasi.

Анотация: В этой статье представлена некоторая информация о внешних дипломатических и торговых отношениях Хивинского ханства. В частности, был проведен специальный научный анализ по вопросам отношений посольств, торговли, взаимоотношений с Бухарским, Кокандским ханствами, Ираном, Индией, Афганистаном и Россией. Мнения исследователей и исследователей по этому вопросу были изучены.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Энтони Дженкинсон, Петр I, Иран, Индия, Афганистан, Бекович-Черкасская экспедиция, экспедиция Д.Гладышева и М. Муравина.

Annotation: This article provides some information about the Khiva Khanate's foreign diplomatic and trade relations. In particular, a special scientific analysis was made on the issues of embassy relations, trade, mutual relations with Bukhara, Kokand khanates, Iran, India, Afghanistan and Russia. The opinions of researchers and research scholars on the subject were studied.

Keywords: Khiva Khanate, Anthony Jenkinson, Peter I, Iran, India, Afghanistan, Bekovich - Cherkassky Expedition, D.Gladishev and M.Muravin expedition.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishganligi o'zbek xalqi hayotida buyuk tarixiy voqea bo'ldi. Totalitar tuzumga asoslangan sobiq ittifoqning parchalanib ketganligi, O'zbekistonning suvereniteti va davlat mustaqilligining e'lon qilinishi-o'tgan ajdodlarimizning bir yarim asr davomida ushalmay kelgan asriy orzulari, ko'pgina avlodlarning istiqlool yo'lida to'kkan qutlug' qonlarining natijasi, ularning haq yo'lidagi kurashining tantanasi bo'ldi.

Mustaqillik sharofati bilan bu holatga barham berildi. Istiqlool yillarida o'tmishda qolgan «kamchiliklar»ning salbiy ta'siri bartaraf etildi. Mustaqil O'zbekiston jahonning nufuzli xalqaro tashkilotlari va mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy madaniy aloqalarni o'rnatdi. Respublikamizning tashqi aloqalarini ta'minlaydigan davlat organlari tashkil etildi. Tashqi siyosat va diplomatiya sohasida juda ko'p ishlar amalga oshirildiki, bu O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va o'z munosib o'rnini topishi, nufuzini ortib borishiga qulay imkoniyat tug'dirdi.

O'zbek milliy diplomatiyasi tarixi O'zbekiston tarixining o'ta muhim va ajralmas tarkibiy qismidir. Hozirda mazkur masalani ilmiy asosda, xolisona yoritish respublikamiz tarixchi olimlarining dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, o'zbek milliy diplomatiyasining qadimgi davrlardan tortib to keyingi xonliklar davrlarida erishgan yutuq

va kamchiliklarini xolis o'rganish va tahlil etish asosida zarur saboqlar, nazariy xulosalar chiqarish nafaqat ilmiy, balkim muhim amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Mavzuning bugungi holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'rilayotgan davrda Xiva xonligining qo'shni davlatlar bilan o'zaro olib borgan elchilik, savdo-sotiq va madaniy sohalardagi aloqalari tarixini qisman o'z ichiga olgan ilmiy ishlar, adabiyotlar va maqolalar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Hozirgi kunda davlatchilik tariximizning turli davrlarida faoliyat ko'rsatgan davlat uyushmalarining tashqi aloqalari va diplomatik munosabatlarini o'zida aks ettiruvchi kitoblar va maqolalar mavjud. Diplomatika tariximizning ma'naviy asoslarini o'rganishda Mannopov B. ning maqolasi ham muhimdir. Xonliklar va Chor Rossiyasi bosqinidan keyingi davridagi elchilik aloqalari va savdo-sotiq masalalari 2000-yilda nashr etilgan «O'zbekistonning yangi tarixi» [1] birinchi kitobida keng va atroflicha berilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligining Rossiya davlati bilan diplomatik, o'zaro savdo-sotiq aloqalari tarixiga doir bir qator ilmiy ishlar e'lon qilingan.[2] Bu ilmiy tadqiqot ishlarida mualliflar Rossiya davlati bilan Turkiston xalqlarining, jumladan Xiva xonligining diplomatik aloqalari tarixini qadimgi davrlardan tortib to 1917-yilgacha bo'lgan davrlarini bir muncha xolisona yoritib, ana shu aloqalar tarixini ilmiy jihatdan o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Mazkur asarlarda Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari, madaniy aloqalar, diplomatik aloqalar va ularning o'ziga xos tomonlari ham keng atroflicha yoritilgan. Biroq, bu asarlarda alohida holda Xiva xonligining Rossiya bilan olib borgan o'zaro aloqalari tarixi maxsus tadqiq qilinmaydi. Shuningdek, ko'rilayotgan davrda Xiva xonligining boshqa qo'shni davlatlar Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston va Afg'onistondagi mavjud davlatlar bilan olib borgan o'zaro

aloqalarining ayrim tomonlariga doir bir qator ilmiy ishlar e'lon qilingan.[3] Ushbu asarlarda o'zaro aloqalarning ayrim jihatlari ochib berilgan. Tadqiqotlarning taxmin va tavsifi shundan guvohlik beradiki, Vatanimiz tarixshunosligida Xiva xonligining qo'shni davlat Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiya davlati bilan olib borgan o'zaro elchilik, savdo-sotiq, madaniy sohalardagi hamkorliklariga doir yaratilgan asarlar, maqolalar va arxiv hujjatlarini jamlagan holdagi yagona tadqiqot hozircha yo'q.

Mavzuning ilmiy yangiligi shundan iboratki, tadqiqot uchun tanlab olingan mavzu, uning tarkibiga kirgan qator muammolar to'liq, yaxlit holda maxsus tadqiq qilinmagan. Shu bois maqolamda ana shu holat hisobga olinib hozirga qadar mavjud adabiyotlar, maqolalar, qo'lyozma asarlar, sayyohlar yozib qoldirgan mavzuga oid esdaliklar asosida tadqiq etilayotgan davr ichida Xiva xonligining qo'shni davlatlar jumladan Buxoro, Qo'qon xonliklari, Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiya bilan amalga oshirgan elchilik aloqalari, savdo-sotiq, o'zaro bordikeldi masalalari jamlangan holda maxsus ilmiy tahlil qilinmoqda. Mavzuga doir materiallar jamlangan holda o'rganilmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tadqiqotda tadqiq etilayotgan muammo- Xiva xonligining qo'shni davlatlar bilan o'zaro munosabatlarining XVIII – asrning ikkinchi yarmi XIX asrdagi tarixi davrimizning yuksak, yangi talablari va mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yoritishga va tahlil etishga harakat qilindi. Muallifning bu sa'y-harakati O'zbekistonimizning xonliklar davri tarixini yaratishda ozmi-ko'pmi hissasi bo'lib qo'shilishi mumkin. Ayni vaqtda mazkur tadqiqot o'quv predmeti sifatida O'zbekiston tarixining mazmunini boyitishga ham yordam beradi. O'zbek milliy diplomatiyasining xonliklar davrida ham to'plagan tajribalarini jumladan Xiva xonligida umumlashtirish birmuncha hozirgi kun uchun amaliy ahamiyati ham egadir. Chunki mustaqil O'zbekistonning bugungi kundagi diplomatik aloqalarida qadimgi sharq jumladan

o'zimizning qadimda bu sohada to'plagan boy tajribalardan unumli foydalanish joiz. Shuningdek ushbu maqolamiz materiallaridan mutasaddi tashkilotlar va xodimlar o'zlarining g'oyaviy tarbiyaviy, ma'rifiy va targ'ibot ishlarida elchilik aloqalari, savdo-sotiq munosabatlari tarixini yoritishda ham keng foydalanish mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston tarixining qator dolzarb masalalarini o'rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi muhim bo'lib bormoqda. Ayniqsa, o'zbek davlatchiligi, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish, tarixiy manbalardagi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish maqsadida tadqiqotlar olib borish shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ta'kidlash joizki, o'zbek xonliklaridan biri bo'lgan Xiva xonligi – O'rta Osiyo tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalqaro munosabatlarida katta iz qoldirgan davlat bo'lib, uning har bir hukmdori yuritgan ichki va tashqi siyosat hamda uning oqibatlarini o'rganish alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo qiladi.

Shu bilan birga XVIII – XIX asrlarda Xiva xonligi muayyan dinamik taraqqiyot bosqichiga erishdi. Qo'shni Buxoro amirligi, Qozoq juzlari va bebosh turkman urug'larining murakkab sharoitida bo'lishiga qaramay, xonlikda ba'zi barqaror holatlar kuzatiladi. Shu davrda Xiva xonligi o'zining tashqi savdo munosabatlariga ham katta ahamiyat bera boshlagan. Lekin tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xonlik o'zining tashqi iqtisodiy munosabatlari ko'proq Rossiya va u orqali G'arb mamlakatlari tomon intiladi. O'z navbatida G'arb mamlakatlarining ham, xususan, Angliyaning Xiva xonligiga qiziqishi va u orqali Eronga chiqish istagi bor edi. Aslida bu istak XVI asrdan boshlab kuzatiladi.

Jumladan, Angliyaning Moskvada tashkil etilgan savdo kompaniyasi Ivan Grozniy yorlig'i bilan A.Jenkinson rahbarligidagi savdo ekspeditsiyasi shakllangan.

Rus podshosi Pyotr I ham xonlik bilan munosabatlarni yaxshilashga harakat qiladi. U nafaqat O'rta Osiyo bilan, balki Eron hamda Shimoliy Hindiston bilan ham savdo

aloqalarini o'rnatishga uringan. Biroq, O'rta Osiyo xonliklaridagi Rossiya elchiligi ko'pincha fojia bilan yakunlangan.

Rus amaldorlarining O'rta Osiyo xonliklariga yuborgan elchi va savdogarlari tomonidan to'plangan ma'lumotlari o'z davrida Buxoro va Xiva xonliklarining tabiiy va boshqa boyliklari Rossiyaning qiziqishiga sababchi bo'lgan edi. Shunday moyillik xonliklar tomonidan yuborilgan elchilik aloqalarida ham kuzatiladi. Xususan, 1726-yilda Peterburgga xivalik elchi Subxonqulibek kelgan. U rus hukumati oldiga Rossiya bilan Xiva o'rtasida savdo munosabatlarini qaytadan yurgizish masalasini qo'yadi. 1726-yil 17-sentyabrda Oliy maxfiy kengash Rossiyadan Xivaga savdogarlarni jo'natish xivaliklar uchun ham, Xivadagi rossiyaliklar uchun ham foyda keltiradi, axir savdoning taqiqlanishidan ham xazina, ham savdogarlar zarar ko'rmoqda, degan xulosaga kelgan edi.

Subxonqulibek elchilik missiyasiga javoban, Rossiya Oliy maxfiy kengashi Xiva bilan savdo munosabatlari o'rnatish to'g'risida maxsus qaror chiqargan va Astraxandagi tayanch punktidan foydalanib, o'sha paytlarda Rossiya bilan savdo aloqalarida mashhur bo'lgan samarqandlik Yodgor Alimov rahbarligida Xivaga rus savdo karvonini jo'natadi.

1728-yilda Xivaga jo'natilgan ushbu karvon boshlig'i Yodgor Alimovga Rossiya savdo aloqalari uchun nafaqat Xiva haqida, balki Buxoro, Samarqand, Balx, Qoshg'ar, Toshkent, hatto Boburiylar Hindistonining Kobul va Lahor shaharlarigacha qanday imkoniyatlar borligini o'rganish vazifasi topshiriladi. Ushbu savdo karvonini himoya qilish uchun Yoyiq kazaklaridan tuzilgan otliq askarlar ajratilgan. Yuqoridagi Oliy maxfiy kengash qarorida Astraxanda va Rossiyaning boshqa shaharlarida Xiva va Buxorodan keltirilgan mollar bilan savdo qilishga ruxsat berilgan edi.

Tadqiqotchilardan O'rta Osiyodagi agrar masalalar bilan shug'ullangan E. Zelkina o'rta asrlar boshlarida Yevropa bilan Hindiston o'rtasidagi savdo aloqalarda O'rta Osiyo xalqlarini, jumladan Xiva xonligining

ishtirokiga alohida urg'u berib o'tadi. Bu davrda savdo-sotiq juda ham gullab yashnaganligi, ammo, XVI-XVII asrlarda bu savdo bir oz sekinlashgan bo'lsa, XVIII asrda yana jonlanish sezilganligini ta'kidlaydi. Muallif o'rta asr bozorlaridagi qul savdosiga ham e'tiborini qaratgan. Qulchilik bozori ko'proq Xivada bo'lganligi ehtimol. Unga ko'ra, Xivaning katta bozorlarida 200 tagacha qullar bo'lgan, O'rta Osiyoda qullar mehnati samarasiz bo'lib, ular asosan uy ishlarida va dalalarda ishlatilgan. Shuningdek, Xiva va Buxoroning Eron bilan chit, movut va qullar orqali qizg'in savdo qilganligini ham ta'kidlab o'tadi.[4-20- bet].

Ma'lumki XVIII asrning 40-yillari oxirlaridan Erondagi ichki vaziyatning og'irligi va g'alayonlar hind savdosiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Eronda xonavayron bo'lgan hind savdogarlari endilikda e'tiborlarini O'rta Osiyo savdosiga qaratishga majbur bo'lgan. Avvallari unchalik rivojlanmagan hind savdosi, XVIII asrning ikkinchi yarimida muntazam davom etadigan va keng miqyosda olib boriladigan bo'ldi.

Shu o'rinda xulosa chiqarish mumkinki, birinchidan, Xiva xonligi Eron bilan savdo aloqalari o'rnatgan bo'lgan, ikkinchidan Xiva tovarlari hind savdogarlari qo'li bilan Rossiyaga olib borilgan, uchinchidan hindlar Eron orqali Xiva-Rossiya savdosida vositachi rolini bajargan.

XVIII-XIX asrlarda Xiva xonligi muayyan dinamik taraqqiyot bosqichiga erishgan edi. Qo'shni Buxoro amirligi, Qozoq juzlari va bebosh turkman urug'larining murakkab o'rovi sharoitida bo'lishiga qaramay, xonlikda ba'zi ravon holatlar kuzatiladi. Shu davrda Xiva o'zining tashqi savdo munosabatlariga ham katta ahamiyat bergan. Lekin ayrim ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Xivaning tashqi iqtisodiy munosabatlari ko'proq Rossiya va u orqali g'arb mamlakatlari tomon intilgan. Xuddi shuningdek, G'arb mamlakatlarining, xususan, Angliyaning Xivaga qiziqishi va u orqali Eronga chiqish istagi paydo bo'lgan. Aslida esa bu intilish XVI asrdan boshlab kuzatiladi. Masalan, Angliyaning Moskvada tashkil etilgan savdo kompaniyasi Ivan Grozniy yorlig'i bilan

A.Jenkinson rahbarligidagi savdo ekspeditsiyasiga sabab bo'lgan.

Bu o'rinda Xivaning sharq mamlakatlari bilan savdo munosabatlari qanday kechgani masalasi yetarli darajada ma'lumotlar bilan ta'minlangan emas. Bu haqda XVI-XIX asrlar orasida Xivaga kelgan ko'plab savdo karvon ekspeditsiyalari tomonidan berilgan hisobotlardagi ma'lumotlargagina tayanilishi mumkin. Shu bilan birga Xivaga jo'natilgan G'arb mamlakatlarining, xususan, Rossiya va Angliyaning XVIII-XIX asrlar davomidagi savdo ekspeditsiyalari ma'lumotlariga ham alohida to'xtalish mumkin. Jumladan, 1726-yilda Xivadan Subxonqulixon boshliq elchilik missiyasi Peterburgga kelib Yekaterina saroyida qabul qilingan. Elchilikning maqsadi Petr I davrida Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati tufayli uzilib qolgan savdo-iqtisodiy munosabatlarni tiklash edi. Holbuki, Xiva tomonidan Petr I ga qadar Rossiya bilan aloqalar o'rnatish maqsadida 1585-yilda Xo'ja Muhammad boshchiligidagi, 1641-yilda Muhammad Amin Bahodir, 1646-yilda Nazar Nodirqulov, shu yilning o'zida Shohbobo rahbarligidagi bir qancha elchilik missiyalari va nihoyat Petr I ning o'zi davrida Shohniyozxon elchiligi amalga oshirilganligi yuqorida ta'kidlab o'tildi. XVIII asrning 20 – 40 yillari Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan aloqalarida biroz sustkashlik seziladi. Bu holat Bekovich – Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati tufayli 1716-yildagi Rossiya bilan Xiva o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarining to'xtatilishi bilan bog'liq edi.

Bu davrda Rossiyadan O'rta Osiyo xonliklariga, Xivaga keltirilayotgan mahsulotlar orasida mis, temir, po'lat, alyuminiy va boshqa turli metallar, metaldan yasalgan turli uskunalar asosiy o'rin egallagan. O'rta Osiyodan paxta, jun, quritilgan meva, gilam va boshqa mahsulotlar Rossiyaga jo'natilgan.

XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyodan Rossiya bozorlariga har yili 4 mln. so'mlik mahsulotlar chiqarilgan. Rossiyadan esa 3 mln. so'mlik mahsulotlar keltirilgan. Nijniy Novgorod, Qozon, Astraxan va Orenburg shaharlari Xiva va O'rta Osiyo

savdogarlarining juda serqatnov shaharlari bo'lib qoldi. XVIII asr o'rtalarida va XIX asr boshlariga kelib, O'rta Osiyo masalasida Rossiya va Angliya munosabatlari ancha keskinlashib qoldi. Angliya hukumati o'zining Hindistondagi hukmronligini mustahkamlab olgach, O'rta Osiyo xonliklarini ham o'z ta'sir doirasiga olish niyatida edi. Rossiya ham xuddi shunday niyatni ko'zlayotgan edi. Natijada O'rta Osiyo masalasida Angliya bilan Rossiya manfaatlari to'qnashib qoldi. O'rta Osiyo Rossiyaga xom ashyo manbai sifatida juda ham zarur edi. Ammo uni qurol kuchi ishlatib darhol bosib olish uchun hali Rossiya tayyor emas edi. Shuning uchun Rossiya O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiqni yanada kengaytirish, o'zaro munosabatlarni yaxshilash, Xiva va Buxoro xonliklari haqida yanada ko'proq ma'lumotlar to'plash yo'lini tutdi. Shu maqsadda Xivaga 1740-1741-yillarda Dmitriy Gladishev va Ivan Muravin boshchiligida ekspeditsiyalar uyushtirildi. Ular Orol dengizining chap tomonida geografik va harbiy topografik tekshirish ishlari olib bordilar. D.Gladishev va M.Muravin ekspeditsiyasi Sirdaryo havzasida ham tekshirishlar o'tkazib, bu yerda harbiy istehkom qurish joyini aniqladi. Xuddi o'sha vaqtda, tijorat bahonasi bilan, Xivada sayohat qilgan Gokk va Tomson boshchiligidagi ingliz razvedkasi ham Orolning G'arbiy tomonida qidiruv ishlari bilan shug'ullanar edi.

O'rta Osiyo uchun Angliya va Rossiya o'rtasidagi raqobat XIX asrning 70-yillarigacha davom etdi. 1819-yilda Xivaga elchi sifatida N.Muravyov keldi. U Xiva xoni bilan muzokaralar olib bordi. Bu muzokaralar, asosan, ikkala mamlakat o'rtasidagi savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash, bir-birlarining chegaralariga xavf tug'dirmaslik haqida kelishib olishga bag'ishlangan edi. N.Muravyov o'zining Xiva safari haqida yozib qoldirgan hisobotida Xiva Rossiya munosabatlari hamisha ham bir tekis bo'lmagan. Ular o'rtasida kelishmovchiliklar, hatto to'qnashuvlar ham bo'lib turgan. Ma'lumki, Rossiya XIX asrning 30-yillariga kelib, qozoq dashtlarini shimoliy qismini o'z

tasarrufiga o'tkazishni nihoyasiga yetkazgan edi. Biroq Sirdaryoning quyi oqimi bilan Orenburgning shimoliy qismidagi maydonlar hamda Urol daryosi bilan Kaspiyning shimoliy-sharqiy sohillari oralig'idagi keng hududlar hali na Xiva xonligi, na Rossiyaga qarashli edi. Ana shu maydonlarda Rossiya va Xiva ta'siridagi qozoqlar ko'chib yurar va chorvasini boqardi. Ikkala tomon ham ana shu hududlarni o'z tasarrufiga olish niyatida edi. 1834-yilda Rossiya hukumati topshirig'i bilan Mang'ishloqda Novoaleksandrovska harbiy istehkomi qurildi. Bu qo'rg'on rus qo'shinlarining O'rta Osiyoga keyingi yurishlarida tayanch vazifasini bajaradi. Novoaleksandrovska qal'asining qurilishi Xiva xonligining keskin noroziligi sabab bo'ldi. Shundan keyin Xiva-Rossiya munosabatlari keskin tus oldi. Rossiya hukumati Xiva xonligini qurol kuchi bilan o'z talablariga bo'ysundirish maqsadida, 1739-1740-yillar oralig'ida Orenburg gubernatori general V.A.Perovskiy boshchiligida Xivaga yurish boshladi. Bu yurish ham tabiiy ofatlarga duch kelib, muvaffaqiyatsiz tugadi.

Xiva xoni Olloqulixon Rossiya bilan munosabatlarini yumshatmasa, ahvol urushga olib kelishini payqab, 1840-yilda Peterburgga maxsus elchilar yuboradi. 1741-yilda esa Rossiya hukumati tinchlik muzokaralarini davom qildirish uchun Xivaga kapitan G.I.Danilevskiy boshchiligida o'z vakillarini jo'natdi. Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasidagi avvalgi savdo sotiq, diplomatik munosabatlar yana qayta tiklandi. Lekin Rossiya hukumati o'zining qora niyatlaridan qaytmadi. U Xiva xonligining ichki ishlariga aralashish, xonlik haqida harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plash ishini to'xtatmadi. 1846-yilda Xiva xonligi hududida, Mang'ishloqda Orol dengizi va Sirdaryo atroflarida M.Ivanin boshchiligida bir guruh harbiy mutaxassislar ish olib bordi. Ular Xorazm vohasi va Orolbo'yining harbiy topografik xaritasini tayyorladilar. Bu ishni 1848-yilda kelgan kapitan A.Butakov davom ettirib, u ham Xorazm vohasining ancha mukammal harbiy topografik xaritasini yaratdi.

A.Butakov ekspeditsiyasi 1853-yilda ham

Xorazm vohasida ish olib bordi. Uning ekspeditsiyasi Amu va Sirdaryoda rus kemasozligining yo'lg'a qo'yish imkoniyatlarini har taraflama asoslab berdi. 1858-yilda Xivaga yuborilgan polkovnik Ignatev boshchiligidagi maxsus komissiya Xiva va Buxoro xonlarini Amudaryoda rus kemalarining erkin suzishiga ko'ndirdi. Shunday qilib, Rossiya hukumati XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmi davomida O'rta Osiyo, jumladan, Xiva xonliklari bilan savdosotiq, diplomatik aloqalarni rivojlantirib, elchilar hamda turli ekspeditsiyalar yordamida bu xonliklarni kelgusida bosib olish uchun barcha zarur ma'lumotlarni to'plab olishga muvaffaq bo'ldi.

XIX asrning 30-40-yillarida Xiva xonligida hunarmandchilik sohasidagi ahvoli yoki uning imkoniyatlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud edi. Jumladan: Xiva, Hazorasp, Xonqa, Yangi Urganch, Karmana, Qo'shko'pir, G'azovot, Shovvot, Chig'atoy, Ambar, Kat, Toshovuz, Gurlan, Xitoy, Manng'it, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Bag'dod, Bo'ldimsoy, Ilyali, Eshonqipchoq, Qilich Niyozboy, Qo'xna Urganch, Pitnak, Porsu, Shohobod, Mari, Penja va Saraxs degan joylar muhim o'rin egallagan edi. O'sha vaqtda Xiva shahri ikki qavat devor bilan o'rab olingan: birinchi devorning uzunligi 2 chaqirim, kengligi 200 sarjin bo'lib, uning burchaklarida to'rtta gumbaz qorovulxona qurilgan. Shaharga kirish uchun sharq tomonda Abdanbobo darvozasi, shimolda-Bachki darvozasi va g'arbda — Shermuhammadota darvozasi bo'lgan. 1842-yilda Olloqulixon shaharni kengaytiradi. Shahar atrofidagi devorning aylanma uzunligi 6 chaqirimga yetkaziladi. Shaharga kirish uchun yangi devorga 12 darvoza o'rnatiladi. Natijada Xiva shahrining maydoni 10 desyatinaga, aholining soni 10000 kishiga etadi. Xiva diniy va ilmiy markaz bo'lib, bunda 17 machit, 22 madrasa va xon saroyi o'rnatilgan edi.[5:119-bet]

Shuningdek, Shaharliklar Polvon ota arig'i suvidan foydalanar edilar. Lekin ariqlardan oqadigan suvlarning ifloslanishi sababli turli kasalliklar, ayniqsa rishta kasali tarqalar edi. Xivada va uning atrofidagi yerlarda qishloq

xo'jaligi ishlari, ayniqsa bog'dorchilik bilan shug'ullanilar edi. Shaharda 260 do'kon, bir qancha karvon saroylar bor edi. Yana savdogarlar uchun cheti devorli katta va uzun timlar mavjud edi.[3:121-bet] Paxta, ip, ipak, gilam, kigiz, sholcha, arqon, mis, temir, yog'och, o'tin, non bozorlari bo'lar edi. Yoki kavushdo'zlar, temirchilar, zargarlar, miskarlar, duradgorlar, egarchilar, attorlar, bazzozlar, idish-tovoqlar, choy, sovun-sham, pichoq, charm va shunga o'xshashlar bilan savdo qiladigan alohida-alohida rastalar ham bo'lgan. Turli meva rastalari ham mavjud edi.

Xonlik shaharlaridan Qo'ng'iro't, Gurlan, ko'hna Urganch, Yangi Urganch, Hazorasp, Toshhovuz, Mari ham katta imkoniyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bu yerda 315 savdo do'koni, 7 machit, hammom, karvon saroy va shu kabi pishiq g'ishtdan qurilgan uylar bo'lgan. Shahar atrofida yaxshi mevazor bog'lar bor edi.[5:118-bet] Gurlan shahrida esa 300 dan ortiq har xil do'konlar ishlab turgan. Xonlikning eng eski shaharlaridan ko'hna Urganch o'sha davrda xaroba holda bo'lsa ham, lekin o'zining qadimgi yodgorliklari bilan O'rta Osiyoda va butun Sharqda mashhur edi. Ko'xna Urganchdan bir chaqirim chetda, xon arig'i bo'yida shaharcha vujudga keldi. Uning atrofi devor bilan o'rab olindi. U obodlasha bordi. Yangi Urganch 15-20 machit va 2 madrasani, 320 do'kon va bir qancha karvon saroylarni o'z ichiga olgan edi.[5:120-bet] Eng qadimgi shaharlardan Hazorasp Xivadan 57 chaqirim sharq tomonda joylashgan bo'lib, atrofi devor bilan o'ralgan. Shaharda 10 machit, Inoqning arki, pishiq g'ishtdan qurilgan madrasa, 150 do'kon mavjud edi; bu erda ham savdo va hunarmandchilik ancha taraqqiy qilgan edi.[5:121-bet] Xivadan 61 chaqirim shimolig'arbdagi Toshhovuz Xorazm xoni-Rahimxonning asosiy dam olish joylaridan biri hisoblanardi. Bu erda, katta shaharlardagi kabi, haftada chorshanba va shanba kunlari bozor bo'lib savdogarlar ko'chmanchi aholi bilan savdo qilishga kelar edilar. Ayniqsa, turkman gilamlari, qo'y, jun va shu kabilar ko'p sotilar edi. Shaharning o'zida esa 180 do'kon bo'lgan. XIX asr o'rtalarida Mari ichki va tashqi savdoda katta rol o'ynab kelar

edi. Bu shahar turkmanlar, Eron, Afgʻoniston, hindlar va Buxoro bilan savdo aloqalarida muhim ahamiyatga ega edi. Savdo-sotiqda paxta va tamaki asosiy oʻrin tutardi. Barcha bozorlarda hunarmandlar ishlab chiqargan olacha, qalami, boʻz, chit, doka, koʻchmanchi aholi tomonidan tayyorlangan chakmonlik, kigiz, sholcha, qop, arqon, gilam va boshqa narsalar sotilgan.

XIX asrning 30-50 yillarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi oʻrtasidagi savdo ancha qizgʻin edi. Buxorodan Xivaga koʻk choy, tamaki, chinni idishlar, ip va shoyidan toʻqilgan kiyimliklar, har xil toʻnlar, qorakoʻl teri va shu kabi mollar olib borib sotilardi. Xivadan Buxoro bozorlariga shoyi va ip gazlama, olma, kunjit, ot terisi, Rossiyadan keltirilgan temir va choʻyan asboblari, temir, choʻyan va shunga oʻxshash mollar keltirilardi. Xiva bilan Buxoro oʻrtasidagi savdoda har yili 1000-1500 tuya karvon qatnar edi.[7:71-bet] Xivaning Qoʻqon bilan savdo aloqalari sust edi. Xivadan Buxoroga borgan savdogarlar Qoʻqondan kelgan mollarni, Qoʻqon savdogarlari esa Xiva mollari sotib olar edilar. Xiva bilan Qoʻqonning oʻzaro savdosi Sirdaryoning quyi tomonidan, ayniqsa Oqmachitda, 1814-yildan keyin esa Qoʻqon xonligi harbiy baza va chegara shaharchalari sifatida qurdirgan Qoʻshqoʻrgʻon, Chimqoʻrgʻon, Yangiqoʻrgʻon tomonlarida boʻlar edi. Xiva xonligidagi katta shaharlarda, jumladan, Xivada ham hind va yahudiy sudxoʻrlari bor edi. XIX asr oʻrtalarida ayrim sudxoʻrlar 60 ming soʻmgacha kumush pulga ega edi.[7:81-bet] Ular xonning davlat apparatida, uning ichki va tashqi siyosatida katta rol oʻynar edilar. Hunarmandchilik sanoatining koʻp qismi, katta bogʻ va er maydonlari shular qoʻlida toʻplangan edi. Sudxoʻrlar pullarini savdogar, hunarmand va dehqonlarga ijaraga berib, juda katta foyda olishar edi. Ular ichki va tashqi savdoda ham hukmronlik qilar edilar. Xiva xonlari xazinada pul tugab qolgan paytlarda shu sudxoʻrlardan qarz olib turar edilar. Bunday puldorlarning bir qismi xonning harbiy boshliqlari va uning mansabdorlari boʻlib olgan edi. Xiva xonligida Qoʻngʻirot, Xiva, Urganch

shaharlari savdo-sotiq ishlarida markaziy shaharlar hisoblanar edi. Xonlikning markazi Xiva 17-18 chaqirim aylanma uzunlikdagi devor bilan oʻralgan boʻlib, uning 12 ta darvozasi bor edi. Shaharda xon saroyi, 9 karvon saroyi, 6 hammom, 12 madrasa va 400 machit mavjud edi.[8:74-bet] Toʻrtta katta karvon saroy, asosan chet ellardan, ayniqsa Rossiya, Hindiston, Tibet, Qoshgʻar, Afgʻoniston, Eron kabi mamlakatlardan kelgan savdogarlarga xizmat koʻrsatar edi.

Urganch shahri 1842-1845-yillarda 15 chaqirim uzunlikdagi aylanma devor bilan oʻralgan boʻlib, uning bozori Xiva bozoriga nisbatan ancha katta edi. Xonlikning butun tashqi savdosi markazlashgan shaharlardan biri Qoʻngʻirotida amalga oshirilgan. Qoʻngʻirot qadimgi shaharlardan boʻlib, uning atrofi 27-28 chaqirim uzunlikdagi devor bilan qurshalgan. Ushbu devor asosan mudofaa vazifasini bajargan boʻlib, ayni paytda shaharni koʻrkiga koʻrk ham qoʻshib turgan edi. Qoʻngʻirotni bu darajada katta mavqega ega boʻlishi, savdo yoʻlida joylashganida edi. Qoʻngʻirot ichki va tashqi savdoning asosiy markazlaridan hisoblanardi. Bu yerda pishiq gʻishtdan qilingan 13 ta ikki qavatli katta karvon saroy boʻlganligi maʼlumdir. Bu yerga xonlik tasarrufidagi boshqa shaharlardan paxta, ipak, mevalar, tuz, qurilish yogʻochlari, boʻz, kanop, jun mahsulotlari, charm-teri, boʻyoqlar va boshqalar keltirilar edi.[9:442-bet]

Qoʻngʻirot shahri orqali poytaxt Xivaga Buxoro, Rossiya, Xitoy, Eron va Hindistondan keltirilgan mollar ham olib kelinar edi. Jumladan, Qoʻngʻirot orqali Xivaga Buxorodan olib kelingan hindlarning baqqollik mollari, Qobul belbogʻlari va sallalari keltirilgan. Bu savdo turi bilan xonlik poytaxtida yashovchi afgʻonlar, qobulliklar va hindlar shugʻullanganlar.

Xonlikning tashqi va ichki savdosida boshqa shaharlar ham muhim ahamiyatga ega edi. Ushbu shaharlar savdogarlari tashqi savdoda Xitoy, Qoshgʻar yeri bilan olib borilgan savdoda oʻz faolliklari bilan ajralib turardilar. Koʻrilayotgan davrda Xiva xonligi va Buxoro amirligi oʻrtasidagi savdo ancha qizgʻin edi. Xivadan Buxoro bozorlariga ipak,

shoyi kiyimliklar, ayniqsa Xiva gilamlari, choy, xar xil chinni idishlar, turli xil quruq mevalar olib borilardi. Yana shuningdek, Xiva xonligidan, xususan Qo'ng'irotdan Buxoroga Rossiya mollari: temir, po'lat va cho'yan asboblari olib borilgan. Qo'ng'irotdan savdogarlari Buxoro bozorlariga olib borgan bu mollarni ko'proq Hisor, Badaxshon, Maymana va boshqa joylardan kelgan savdogarlarga sotar edilar. Buxorodan Xivaga, paxta, doka, qorako'l teri, qand, baqqollik mollari, temir va cho'yan asboblari va shunga o'xshash narsalar keltirilar edi.[8:75-bet] Missionerlarning da'vati ham, diplomatik kelishuvlar ham, qurol kuchi bilan bo'ysundirishlar ham xalqlarni hayotiy ehtiyoj va foyda almashinuvi, ya'ni savdo-sotiq singari birlashtira olmaydi.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda paxtachilik rivojlangach, gazlama va kiyim-kechak ichki va tashqi savdoning muhim tovarlari hisoblangan. Rossiyada o'zbek tovarlariga, xususan, gazlama va kiyim-kechaklariga talab katta bo'lib, faqat markaziy joylarida emas, balki Volgadan tortib, to Yeniseygacha bo'lgan yerlarda sotilgan. O'zbek xonliklari gazlamalari tashqi ko'rinishidan dag'alroq bo'lsa-da, lekin arzonligi va pishiqligi tufayli oddiy kishilarga juda qo'l kelgan. Oq bo'z, chit, olacha, zandoni kabi gazlama turlari Orenburg va Troisk orqali Rossiyaning ko'p joylariga tarqalgan. 1840-1849-yillarda Orenburgga ko'proq oq bo'z Buxorodan keltirilib, 10 yil mobaynida 399620 to'p (176503 so'mlik) sotilgan. Xiva xonligidan 381613 to'p (187279 so'mlik) oq bo'z olib kelinib, sifati nisbatan yaxshiroq bo'lgani bois narxi birmuncha baland yurgan.[10:275-bet]

O'zbek gazlamalaridan biri zandoni Rossiyada juda ko'p xarid qilingan. Chunonchi, Orenburgga 1840-1849 yillar oralig'ida Buxorodan 227768 to'p (94447 so'mlik) va Xivadan 316701 to'p (131986 so'mlik) zandoni olib kelingan. Bu borada Xiva salmoqli o'rinni egallagan. XIX asr o'rtalariga kelib Xivadan Rossiyaga chiqariladigan mol xillarining ko'payib borishi tufayli mollarning umumiy summasi ham osha bordi. Masalan, 1848-1850 yillarda birgina Orenburgga yuborilgan mollarning

summasi 1 million 400 ming so'mni tashkil qilgan edi.[7:130-131-bet]

XIX asrning 40-yillarida Nijegorod yarmarkasi o'zbek xonliklari bilan rus davlati o'rtasidagi savdoda muhim rol o'ynagan. 1842-yilda Xivadan bu yarmarkaga 657 ming 745 so'mlik mol yuborilganligi ma'lumdir. O'sha yili Xivadan Rossiyaga chiqarilgan mollarning 60 foizidan ortiqrog'i Nijegorod yarmarkasiga yuborilgan edi. Rossiyaga chiqarilgan 181 ming 725 so'mlik 29383 pud paxtaning hammasi shu yarmarkada sotilgan edi.[7:133-bet]

XIX asrning 40-50 yillarida O'rta Osiyo savdogarlari Nijegorod, Irbit va Korenni yarmarkalaridan tashqari, yana har yili 5 dekabrda 25 yanvargacha davom etadigan Obdorskiy yarmarkasida, Moskva va boshqa markaziy shaharlarda ham savdo qilar edilar. Rossiyadan xonliklarga keltirilgan mollar orasida Buxoroga keltirilgan rus mollari summasining miqdori Xiva va Qo'qon xonliklariga olib kelingan mollar miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lardi. 1836-yilda Rossiyadan Xivaga 405 ming 37 so'mlik, Qo'qonga 327 ming 926 so'mlik mol keltirilgan bo'lsa, Buxoroga 1 million 81 ming 360 so'mlik mol olib kelingan. Edi. Shuningdek, 1833-1838 yillarda Rossiyadan xonliklarga yuborilgan 15 million 200 ming so'mlik mollardan Buxoro amirligiga olib kelingan qismi 7 million so'mni tashkil qilgan edi.

XIX asr 50 yillarining oxiriga kelib rus mollari O'rta Osiyodan ingliz mollarining siqib chiqarishi bilan birga, Angliya hukmronlik qilayotgan Ost-Indiya yerlariga ham tarqalib, ingliz mollari bilan raqobat qila boshlagan edi. XIX asrning 50 yillarida Rossiyadan Turkiston yerlariga keltiriladigan rus mollarining turlari ham ko'paya bordi.

Rossiyadan temir va har xil temir asboblari ham keltirilar edi. Jumladan Xiva xonligiga 1840-1849-yillarda 54 ming 630 so'mlik temir va 124 ming 199 so'mlik temir idish-asboblari keltirilgan.

Shu bilan birga ko'plab ip-gazlamalar ham keltirilardi. Yuqorida ko'rsatilgan 10 yil mobaynida Rossiyadan Xiva xonligiga hammasi bo'lib, 3 million 784 ming 901

soʻmlik ip gazlama keltirilgan.[11:141-bet] Bu gazlamalar yaxshi sifatli, chiroyli va arzon boʻlishi tufayli mahalliy gazlamalar tobora kasod boʻlib qolgan. Rossiyadan Xivaga turli movut ham olib kelingan. Bulgʻori charm yil sayin koʻproq keltirilgan. 1840-1849-yillar davomida Rossiyadan Xiva xonligiga 237 ming 889 soʻmlik bulgʻori charm yuborilgan edi.

XIX asrning ikkinchi choragida Rossiyadan Xiva xonligiga keltirilgan mollarga nisbatan chiqarilgan mollar summasi bir yarim baravar ortiq edi. Rossiya bilan xonlik oʻrtasidagi savdo-sotiq xivalik savdogarlar muhim oʻrin egallagan edilar. Rus savdogarlarining oz qismigina Turkistonga jumladan, Xivaga oʻzlari qatnardi, XIX asrning 60-yillarida esa Oʻrta Osiyoga keluvchi savdogarlarning soni yanada kengayib ketgan edi. Chunki yoʻlning uzoqligi va qiyin boʻlishi, yoʻl qaroqchilarining savdogarlarni talashi, karvon yoʻllarida Xiva bilan Qoʻqon xonlari va amaldorlari tomonidan savdogarlardan gʻayriqonuniy boj olish xatti-harakatlarining kuchayib borishi bilan bir qatorda Rossiya Oʻrta Osiyo xonliklarini bosib olishga kirishishi oʻrtadagi teng oʻzaro savdo-sotiqning rivojiga gʻov boʻldi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xiva xonligi koʻrilayotgan davrda qoʻshni Sharq mamlakatlari Xitoy, Eron, Hindiston, Turkiya va Afgʻoniston singari davlatlar bilan oʻzaro iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq va elchilik aloqalarini kengaytirishga harakat qilib, har bir davlat bilan ikki tomonlama teng huquqli boʻlgan

aloqalarni yoʻlga qoʻyishga intilgan. Bu ayniqsa oʻzaro savdo-sotiq aloqalarining keng koʻlamda olib borilishida koʻrinadi. Bunday savdo aloqalari xonlik ichki va tashqi bozorining kengashiga olib keladi.

Xiva xonligining qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro munosabatlarini XVIII –asrning ikkinchi yarmi XIX asrdagi tahlili shundan dalolat beradiki, xonlikning qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro iqtisodiy, madaniy savdo-sotiq va elchilik aloqalari Shergʻoziyxon, Olloqulixon, Muhammad Rahimxon II lar hukmronligi davrida katta muvaffaqiyatlarga erishilgan.

Oʻrganilayotgan davrda Xiva xonligining Rossiya davlati bilan savdo-sotiq va elchilik aloqalari goh yuksalib, goh dushmanlik kayfiyatida davom etgan. Rossiya oʻzining imperiyachilik tazyiqini xonlikka oʻtkazishga harakat qilgan boʻlsa-da xonlik savdogarlari va elchilarning uddaburonligi orqasida muayyan yutuqlarga ham erishilgan. Xiva xonligi oʻzining yon qoʻshnilari Buxoro va Qoʻqon davlatlari bilan ham oʻzaro iqtisodiy, madaniy va savdo-sotiq aloqalarini olib bordi. Biroq, bu aloqalar u qadar rivoj topib ketmadi.

Xiva xonligi Qoʻqon xonligi bilan aloqalari orqali Xitoy bilan savdoni kuchaytirishga intilgan edi. Xiva xonligi Eron, Hindiston va Turkiya bilan olib borilgan oʻzaro aloqalarda katta muvaffaqiyatlarga erishganki, bu tajribalarda bugungi yosh Oʻzbekiston tashqi aloqalarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biroq, qoʻshni davlatlar bilan olib borilgan ikki tomonlama teng huquqli asosdagi iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq va elchilik aloqalariga Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida chek qoʻyildi.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ўзбекистон янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустанлакачилиги даврида.-Т.: «Шарк» 2000.
2. Зиёев Ҳ.З. Сибирлик ўзбеклар (XVI аср XX асрнинг бошлари) –Т. : 1958; Ўша муаллиф Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI-XIX асрлар)-Т., 1962; Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (во второй половины XIX столетия до первой мировой войны). – Т.: 1959; Мухаммаджонов А, Неъматов Т.Н Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.: 1967; Неъматов Т. Хива ва Россия муносабатлари тарихидан (XIX асрнинг 20-50 йиллари), Т.: 1959; Халфин Н.А. Россия и

ханства Средней Азии (первие половине XIX века) М.: 1974: Гулямов Х. Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством в XVIII веке-Т., 1992; С. Хошимов Туркистоннинг дипломатик алоқалари тарихидан “Фан турмуш”, 1998. 2-сон, 22-23 бетлар.

3. Хаджаева Б.С.Сборник документов по истории Средней Азии XVI-XIX вв. Общественные науки в Узбекистане. 1993: №6 Стр 26-29.; Норкулов Н., Жўраев. Ў. Ўзбекистон тарихи. (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми)-Т., «Шарк» 2001; Аллаева Н. Хива хонлигининг Эрон билан савдо алоқалари тарихидан. (XVI-XVIII асрлар). Ўзбекистон тарихи. 2007: 1-сон. 67,73,121-бетлар.

4. Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. М.: 1930 г. 20 с.

5. Норкулов Н., Жўраев Ў. Ўзбекистон тарихи (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми). Т., «Шарк» 2001 й. 118,119,120,121-бетлар.

6. Ўзбекистон тарихи. Т., «Университет». 1997.

7. Муҳаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Т., «Фан». 1957 й. 71,81,130,131,133-бетлар.

8. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. М., «Наука» 1968 г. 74-75 с.

9. Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине // Военный сборник. 1876 г. 442 с.

10. Ҳамид Зиёев. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари) Т., «Шарк». 2006 йил. 275-бет.

11. Зиёев Ҳ. Ўрта Осиё ва Сибирь XVI-XIX асрлар. Т., 1968 й. 141-бет.

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI QISHLOQ IJTIMOY-MAISHIY INFRATUZILMASIDAGI O'ZGARISHLARNING TARIXIY TAHLILI

Tursunov Anvar Saypullayevich,

*Termiz davlat pedagogika instituti Tarix va uni o'qitish metodikasi kafedrası
katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

avar061484@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-3517-1305>

Norboyev Temur Rustamovich,

*Termiz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix)
mutaxassisligi magistranti*

UO'K 325.111 (575.1) (091)

Annotatsiya: O'zbekistonda so'nggi yillarda qishloqning o'rne va mavqeyiga yangicha qarash paydo bo'lib, qishloq aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini rivojlantirish, bu borada ta'sirchan va samarali sanalgan ilg'or mexanizmlarni yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maqolada Surxondaryo viloyati misolida mustaqillik yillarida O'zbekistonda qishloq infratuzilmasidagi o'zgarishlarning tarixiy tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, qishloq, ijtimoiy-maishiy infratuzilma, uy-joy qurilishi, ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik, ijtimoiy obyektlar.

Аннотация: В последние годы в Узбекистане появился новый взгляд на роль и положение села, последовательная мера по развитию социально-экономической и культурной жизни сельских жителей, по созданию эффективных и действенных передовых механизмов в этом направлении. В статье представлен исторический анализ изменений сельской инфраструктуры Узбекистана за годы независимости на примере Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, село, социально-бытовая инфраструктура, жилищное строительство, питьевое водоснабжение, социальные объекты.

Abstract: In recent years, a new view of the role and status of the village has emerged in Uzbekistan, and consistent measures are being taken to develop the socio-economic

and cultural life of the rural population, to create advanced mechanisms that are considered effective and efficient in this regard. The article presents a historical analysis of changes in rural infrastructure in Uzbekistan during the years of independence using the example of Surkhandarya region.

Keywords: Surkhandarya region, village, social and household infrastructure, housing construction, drinking water supply, social facilities.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Qishloqlar umumiy bir markazga - qishloq fuqarolik yig'inlariga ega bo'lgan, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bir-biriga uzviy bog'langan kichik aholi manzilgohlariga ham bo'linishi mumkin. Ular O'zbekistonda mahallalarga ajraladi.

Infratuzilma so'zi lotincha "infrastructure" so'zidan olingan bo'lib, "infra" - quyi, asos va "structure" - tuzilish, joylashish kabi ma'nolarni anglatadi. Infratuzilma xizmat ko'rsatish sohasiga ko'ra ishlab chiqarish infratuzilmasi (ishlab chiqarish ga xizmat ko'rsatuvchi sohalar - yuk tashish transporti, elektr va issiqlik ta'minoti, yo'l xo'jaligi, suv xo'jaligi, ombor xo'jaligi, ilmiy konstruktorlik xizmati, axborot xizmati va boshqalar) va ijtimoiy-maishiy infratuzilma (aholiga xizmat ko'rsatib, uning ehtiyojini qondiruvchi sohalar - maorif, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, maishiy xizmat va boshqalar) ga ajraladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mamlakat taraqqiyotida tutgan o'rne va ahamiyati beqiyos bo'lgan

qishloq aholining hayotini zamonaviy mezonlarga javob beradigan darajaga ko'tarish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uy-joy qurilishi, kommunal xizmat ko'rsatish va maishiy xizmatni yaxshilash muhim ahamiyatga egadir. Bu yo'nalishdagi muhim vazifa "Yangi O'zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta'minlash-barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun va mohiyatini tashkil etadi[1:206]", – deb ta'kidlagan edi Sh.M.Mirziyoyev. Bunda qishloq aholisi turar-joy sharoitlarini yaxshilash, ularga ko'rsatilayotgan kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish ishini rivojlantirish davlatning doimiy ravishda diqqat markazidagi masalalardan biriga aylandi.

Respublika va mahalliy byudjetning asosiy qismi aholi turar-joy qurilishi va kommunal xizmatlarini yaxshilash uchun ajratib borildi.

Aholi turmush sharoitini yaxshilashning asosiy omillaridan biri qishloq xonadonlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va gazlashtirish bo'ldi. Masalan, 1992-yildayoq Vazirlar Mahkamasining "Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan viloyatimizda ham qator tadbirlar ishlab chiqildi.

Vazirlar Mahkamasining "2000-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi qishloq ijtimoiy infrastrukturasi rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi Qaroriga (1996-yil 21-may)[2] muvofiq, qishloq joylarida 1996–2000-yillarda uy-joy qurilishini rivojlantirish Dasturi qabul qilinib, respublika qishloq joylarida ana yillar davomida 31602 ming kv.m. uy-joy qurilishi rejalashtirildi (Jumladan, Surxondaryoda 3678 ming kv.m.)[3]. Qarorda respublika qishloq joylarida 1996–2000-yillarda ichimlik suvi va gaz tarmoqlarini rivojlantirish dasturlari ham ilova qilindi. Dasturga muvofiq, 1996–2000-yillarda respublika bo'yicha qishloq joylarida 9550 km.li, Surxondaryoda 960 km.li ichimlik suvi

quvurlari o'tkazilishi lozim edi. Shuningdek, 1996–2000-yillar mobaynida respublika qishloqlarida 18530 km., Surxondaryo viloyati qishloqlarida 1896 km. gaz quvuri o'tkazilishi rejalashtirildi[3]. Davlat dasturlarida kommunal xizmat ko'rsatish ishiga alohida ahamiyat berilib, joylarda ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan eng zarur choralar ko'rildi.

1997-yilning "Inson manfaatlari yili" Davlat Dasturida ham uy-joy, kommunal xo'jaligi ishlarini yaxshilash yuzasidan tadbirlar belgilandi. Ushbu dasturga muvofiq, Surxondaryo viloyati qishloq joylarida 410,7 ming kv. metrli uy-joy qurildi. Ammo qishloqlarda turli korxonalar hisobidan uy-joy qurish ishi talab darajasida bo'lmadi[8]. Bu kabi holatlar rahbarlarning o'z vazifalariga sovuqqonlik bilan yondashganligi hamda qo'yilayotgan rejalarda vazifalarning aniq belgilanmaganligi tufayli yuzaga keldi.

1997 -yili Termiz tumanida 8 ta qishloq vrachlik punktlari, 2 ta yangi maktab, tuman markazida 4 qavatli shifoxona, 2 ta kollej, 4 mahalla guzarlari qurilib foydalanishga topshirildi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash 89% ni, ichimlik suv bilan ta'minlash esa 84 % ni tashkil etdi.

O'zbekiston aholisini uy-joy bilan ta'minlashda 1999-yilda shahar aholisining har biriga 14,4 kv.m joy to'g'ri kelsa, qishloq aholisiga 13,1 kv.m joy to'g'ri keldi[4:192]. Biroq uylarni kommunal-maishiy qulayliklar, ya'ni vodoprovod, kanalizatsiya, tabiiy gaz, vanna, markaziy isitish tizimi bilan ta'minlanish bo'yicha mustaqillik yillarida ancha ishlar qilinganligiga qaramay, haligacha qishloqlarda ahvol talab darajasida bo'lmadi.

2002-yilda Surxondaryo viloyati qishloqlarida xonadonlarni gazlashtirish darajasi 51 foizni tashkil etdi[6:29]. Bu ko'rsatkich respublika miqyosidagi eng past ko'rsatkich bo'ldi.

Mustaqillik yillarida aholini kuchli tibbiy himoyalash davlat siyosatining bosh, ustuvor yo'nalishiga aylandi. 1996–2005-yillar davomida 149 ta qishloq vrachlik punktlari hamda 1 ta shahar kasalxonasi barpo etildi[10]. Shulardan 97 tasi yangi qurilish va

53 tasi mavjud davolash-profilaktika muassasalarini qayta ta'mirlash hisobiga bunyod etildi[11]. Mazkur davlat dasturi rejasiga binoan 2005-yili viloyatda 11 ta qishloq vrachlik punktlarini barpo etish uchun davlat tomonidan 278 million so'm mablag' ajratilib, ularni qurilish ishlariga 296 million 500 ming so'm mablag' sarflandi. Shundan 7 million 500 ming so'mi asbob-uskunalar, qattiq va yumshoq jihozlar sotib olish uchun sarflandi, bundan tashqari «Aktet» Xalqaro tashkiloti tomonidan 18 million 100 ming so'mlik ta'mirlash ishlari ham amalga oshirildi. Masalan, Angor tumanidagi «Mustaqillik» qishloq vrachlik punktida 6 million 200 ming so'mlik, Sherobod tumanining Poshxo'rt qishloq vrachlik uchastka shifoxonasida esa 4 million 700 ming so'mlik ta'mirlash ishlari bajarildi. Shu davrda viloyat aholisiga 85 ta shifoxona xizmat ko'rsatdi, mazkur shifoxonalarda o'rinlar soni 8625 tani tashkil etdi[12]. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish barobarida aholi salomatligini muhofaza qilish va o'rtacha umr ko'rishini uzaytirish yuzasidan ham ma'lum yutuqlarga erishildi.

Olib borilgan ishlar natijasida Surxondaryo viloyatida aholini tibbiy himoya qilish tizimi takomillashib bordi, kishilar turmush sharoiti yaxshilana bordi. Tibbiy xizmatni yaxshilash uchun aholiga toza ichimlik suv muammolarini hal etishda muayyan yutuqlarga erishildi. Masalan, Surxondaryo viloyatida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida respublika va mahalliy byudjetdan 2006-yili 3,9 milliard so'm mablag' ajratildi. Ushbu mablag'lar hisobiga yangi suv quduqlarini qazish, ishlamay turgan suv quduqlarini ishga tushirish, ichimlik suv tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, yangilarini ishga tushirish ishlari bajarildi.

Natijada viloyat hududida 113 ta qishloq vrachlik punktlari homiyar tomonidan ajratilgan 504,2 mln. so'm mablag' hisobidan ta'mirlandi, ishga tushirildi. 2007-yilda esa mazkur maqsadlar uchun ajratilgan 450 million so'm hisobiga 75 ta qishloq vrachlik punktida 23 ta yangi suv qudug'i qurildi, 26 ta suv qudug'i ta'mirlandi, 121 kilometr uzunlikdagi suv tarmoqlari qurish ishlari

amalga oshirildi. Bunday chora-tadbirlar tufayli 115 ming aholining toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoji qondirildi[13].

Ta'lim tizimining taraqqiyoti jamiyatning barcha sohalaridagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'zbekistonda o'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklariga qaramay, ta'lim tizimi moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib bordi. Qishloq o'quvchilarini maktab binolari bilan ta'minlash eng jiddiy masalalardan biriga aylandi. Umumta'lim maktab binolarini qish mavsumiga tayyorlash borasida ham ba'zi qiyinchiliklarga duch kelindi. Xususan, 2003–2004-yillarda Surxondaryo viloyati xalq ta'limi muassasalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishidagi kamchiliklar viloyat faollari yig'ilishida bir necha bor muhokama qilindi. Umumta'lim maktablarini ta'mirlash, ular uchun ajratilgan mablag'larni o'zlashtirish masalalarida ham kamchiliklar bo'ldi. Masalan, Uzun tumanida 61 ta maktabdan 4 tasi (6 %), 24 ta maktabgacha ta'lim muassasalaridan 1 tasi (4 %)ni ta'mirlashga 28,5 mln so'm rejalashtirilgan bo'lib, amalda 22,4 mln so'mlik ta'mirlash ishlari bajarildi[14]. Viloyatning Sho'rchi tumanida esa 57 ta maktabdan 5 tasi (8 %) ni mukammal ta'mirlash uchun rejalashtirilgan 26,5 mln so'm mablag'dan, 21,2 mln so'mi moliyalashtirildi. Umumta'lim maktablari nafaqat turlicha rivojlanish ko'rsatkichlariga, balki hududiy taqsimlanishi bilan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular ayniqsa qishloq maktablarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki, qishloq joylarda ta'lim sohasining hududiy tarkibiga, eng avvalo, bu joylarning demografik salohiyati, aholi joylashuvi tizimlarining rivojlanganligi katta ta'sir ko'rsatdi.

Boysun tumanida 2004 yilda 200 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan Qo'rg'oncha qishloq yig'inidagi 18-sonli maktab binosi, Sayrob qishloq yig'inidagi 270 o'quvchisiga mo'ljallangan 13-sonli maktab binosi, Rabot qishloq yig'inidagi 33-sonli maktabning Sarigiyoz qishlog'ida 120 o'quvchiga mo'ljallangan binosi, Machay qishloq yig'inidagi 16-sonli maktabning 60 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan filiali qurib foydalanishga topshirildi. Ta'lim sohasini

tubdan yaxshilash, moddiy texnik bazani mustahkamlash, o'quvchilarning ta'lim olishi uchun ayniqsa maktablarning ko'rkamligi, obodonchiligiga alohida e'tibor berildi.

Sho'rchi tumanida 2003-2004 o'quv yilida 58 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida 43 ming 445 nafar o'g'il-qiz ta'lim olib, shu jumladan, 35 ta o'rta, 23 ta tayanch maktabi faoliyat ko'rsatib, 46 ta maktab zamonaviy, 12 ta maktab moslashtirilgan binolarga joylashgan. 51 maktab suv, 26 maktab telefon aloqasi, 13 maktab tabiiy gaz bilan ta'minlangan, 10 maktab ixtiyorida tajriba uchastkasi, 38 maktabda oshxona, 22 maktabda sport zali, 47 maktabda futbol maydonlari bor. 2005 yilda 37-o'rta maktab qoshida zamonaviy sport majmuasi foydalanishga topshirilib, tumandagi maktablarning darslik fondi 121 million 804 ming so'mni, kutubxonalardagi adabiyotlar 65 ming 810 nusxani tashkil etdi. 2003 yilda 3864 bola 9-sinfni, 2364 yigit-qiz 10-sinfni bitirib, shundan 115 yigit-qiz oliy o'quv yurtiga, 151 nafari maxsus o'rta bilim yurtiga, 201 nafari har xil o'quv kurslariga kirdi, 1444 nafari ishga joylashtirildi. Tuman bo'yicha 3286 o'qituvchidan 1994 nafari oliy, 157 nafari to'liqsiz oliy, 1135 nafari maxsus o'rta ma'lumotlidir.

Qishloq ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida 2009-yil O'zbekistonda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qilindi. Natijada hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish maqsadida Davlat dasturi qabul qilindi. Dasturda qishloq qiyofasini sifat jihatdan yaxshilash, qishloqdagi turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari namunaviy loyihalar bo'yicha barpo etish, ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish asosida qishloqdagi turmush sifatini oshirish, qishloqni mavjud energiya va gaz ta'minoti obyektlarini rekonstruksiya qilish va shunday yangi obyektlar qurish hisobiga zarur energetika resurslari bilan uzluksiz va kafolatli ta'minlash bo'yicha shart-sharoitlar yaratish kabi bir qator masalalar belgilandi.

2009-yil 3-avgustdagi Prezidentimizning "Qishloq joylarda uy-joy qurilishi, ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-

tadbirlari to'g'risida" gi qarori asosida belgilangan, qulay va barcha kommunal xizmat sharoitlariga ega bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylar qurish borasidagi harakat endilikda ommaviy tus oldi[7]. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tavsiyasi bilan yakka tartibda qurilayotgan uy-joylar loyihalarining qulaylik nuqtai nazaridan qaytadan ko'rib chiqilib, ajratiladigan yer uchastkalari maydonini olti sotix qilib belgilash to'g'risida qaror qabul qilingach, bunday uylarga qiziquvchilar soni yanada ortib bormoqda. 2010-yili mamlakatimizda 159 ta tumandagi 223 ta qishloq massivida 6800 ta ana shunday uy-joy barpo etilib egalariga topshirildi[7]. Ushbu maqsadlarga qariyb 430 milliard so'm miqdoridagi kapital qo'yilmalar, jumladan 250 milliard so'mdan ortiq uzoq muddatli imtiyozli kreditlar yo'naltirildi. Bu mablag' 2009-yildagiga nisbatan 9 barobar ko'p bo'ldi[8]. Qishloqlarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishi Dasturi doirasida so'nggi besh yilda (2009-2014 yy) mamlakatimizning 159 qishloq tumanida 900 dan ziyod yangi qishloq uy-joy massivlari barpo etilib, namunaviy loyihalar asosida maydoni 4.5 million kvadrat metr bo'lgan 33,5 mingdan ortiq yakka tartibdagi uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, qishloq joylarda barpo etilgan yangi massivlarda 760 kilometr avtomobil yo'llari, uzunligi 1,6 ming km dan ziyod ichimlik suvi quvurlari, 1,2 ming km elektr va gaz ta'minoti tarmoqlari, 800 dan ortiq ijtimoiy, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi obyektlari qurildi[9].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlanish davlat dasturining amalga oshirilishi natijasida bu sohada vaziyat tubdan yaxshilanib bordi.

Yangi qishloq massivlarining barpo etilishi ijtimoiy obyektlar, jumladan zamonaviy maktablar, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, bolalar sport maydonlari va boshqa inshootlar qurish, umuman, infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Qishloq vrachlik punktlari faoliyatini tubdan yaxshilash va moddiy-texnik bazasini

mustahkamlash borasida tabdirlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati qishloqlarida ta'lim-tarbiyaga davlat ahamiyatiga molik birinchi darajali masala

sifatida qaralib, uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yish, soha rivojini ta'minlaydigan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan qator tadbirlar ishlab chiqildi va ijobiy natijalar qo'lga kiritildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021. – B. 206.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. 1996. – № 182. – B. 50-52.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. 1996. – № 182. – B. 58.
4. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – Toshkent, 2002. – B. 192.
5. Norqobilov A. Alimov Ch. Yurtparvarlar yurti: Qiziriq tumani hayotidan lavhalar. – T. "G'G'ulom," 2010 yil. 38 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining nashri. Xabarnoma. 2002. – №1. – B. 29
7. O'zbekiston ovozi. 2011 yil, 23 iyun, 75-son, 3 b.
8. Xalq so'zi. 2011 yil. 14 iyun. 116-son. 2 b.
9. Xalq so'zi. 2014 yil. 24 iyun. 121-son. 1 b.
10. Surxondaryo viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 2006 yil 133-yig'ma jild. 36-varaq
11. Surxondaryo viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 2006 yil 138-yig'ma jild. 78-varaq
12. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. -T.; «Sharq». 2004. – B 584.
13. Xalq yo'li. 2009 yil, 15 yanvar.
14. Surxondaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 143-fond, 14- ro'yxat, 41-yig'majild, 2-30-varaqlar.

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KASANACHILIKNING O'RNI

Mamarajabov G'ayrat Abdulxakimovich,

*Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

mamarajabovg@tersu.uz

<https://orcid.org/0009-0001-6486-898X>

UO'K: 94:745(575.1)"1991/2020"

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining kichik va xususiy shakllarini rivojlantirish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda kamroq mehnat va dastlabki bosqichlarda nisbatan kam kapital qo'yilmalar talab qilishligi bilan izohlanadi. Unga xo'jalik yuritishning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslashuvi, boshqaruv tizimining yengilligi, bozor konstruksiyasidagi o'zgarishlarga javob sifatida faoliyat turini o'zgartirishga sezgirliigi, ayrim bozorda u yoki bu xizmatga talabning darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kasanachilik, xizmat ko'rsatish, faoliyat turi, ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy, marketing, axborot, yuridik, korxona, mikrofirma, servis.

Аннотация. В статье рассматривается развитие малых и частных форм предпринимательства в сфере услуг, которое, в отличие от других секторов экономики, требует меньших трудозатрат и сравнительно небольших капиталовложений на начальных этапах. Характеризуется быстрой адаптацией к изменяющимся условиям ведения бизнеса, гибкостью системы управления, чувствительностью к изменению вида деятельности в ответ на изменение рыночной конъюнктуры, а также информацией об уровне спроса на ту или иную услугу на определенных рынках.

Ключевые слова: домашнее хозяйство, услуга, вид деятельности, социальный, экономический, технический, маркетинговый, информационный, юридический, предприятие, микрофирма, услуги.

Abstract. This article explains the development of small and private forms of

entrepreneurship in the service sector, which, unlike other sectors of the economy, require less labor and relatively low capital investments at the initial stages. It highlights the rapid adaptation of the business to changing conditions, the flexibility of the management system, the sensitivity to changing the type of activity in response to changes in market conditions, and the level of demand for a particular service in certain markets.

Key words: home economics, service, type of activity, social, economic, technical, marketing, information, legal, enterprise, micro-firm, services.

Zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishining hozirgi bosqichdagi muhim xususiyatlaridan biri xizmat ko'rsatish sohasining dinamik ravishda rivojlanishi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari milliy iqtisodiyoti uchun xarakterli bo'lgan umumjahon tendensiyasiga aylanganligi hisoblanadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili O'zbekiston Respublikasida ham xuddi shunday tendensiyalar kuzatilayotganligini aniqlashga imkon berdi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Respublikada xizmatlar sohasini tez sur'atlar bilan rivojlantirish 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1].

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning maxsus Davlat dasturi "2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish Davlat dasturi" qabul qilingan va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. O'tkazilgan tizim

islohotlarning samarasi o'laroq, mamlakatimiz YAIMi tarkibida «1990-2019 yillar mobaynida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 33,8 foizdan 37,8 foizgacha ko'payganligi, shuningdek iqtisodiyotda band bo'lgan aholining umumiy sonida xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi ulushining 35,6 foizdan 50,5 foizgacha oshganligi» [2] diqqatga sazovor. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining «...aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish» [3] kabi o'ta dolzarb vazifalarni hal qilishda roli beqiyos.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi tadbirkorlar hamjamiyatining ushbu sohaga qiziqishining qonuniy o'sib borishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida ham xizmatlar sohasi tadbirkorlik salohiyatini qo'llashning ustuvor obyektiga aylanmoqda, bu yangi iqtisodiy subyekt – servis tadbirkorligining paydo bo'lishi haqida gapirishga imkon beradi. Servis sohasi tadbirkori, ijodiy qobiliyatlarga, o'ziga xos tafakkurga va yuqori mahoratga amal qilgan va xaridorlarning konkret maqsadli guruhiga mo'ljallangan holda, noyob xizmatlar ko'rsatishga qodirdir. Malakali yondashuvda taklif etiluvchi xizmatlarning turlicha ko'rinishlari jamiyatning o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadida jamiyat resurslaridan samarali va tejimli foydalanishni anglatadi. Umuman olganda, xizmatlar sohasi korxonalarining samarali ishlashi turmush sifatining oshishiga, mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lishiga, o'rta sinfning shakllanishiga yordam beradi.

Xizmatlar sohasi bozor omillari va vaziyatlarining turlichaligi va dinamikasini hisobga oluvchi ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy, marketing, axborot, yuridik va boshqa xarakterdagi xizmat turlarining jamlanmasi sifatida talqin etiladi.

Servis industriyasidagi tadbirkorlik faoliyati turli shakllarida bo'lishi mumkin. Ular, ko'p hollarda, quyidagilardan iborat bo'ladi: bozor infrastrukturasi

o'zgarishlariga mos keladigan yangi formatdagi korxonalar yaratish, yangi biznes–modellar, xizmatlar yoki mahsulotlarni yaratish, xaridorlarga xizmat ko'rsatishning o'ziga xos shakllarini taklif etish, mehnat bozori rivojlanishining strategiyasini aniqlash, yangi marketing texnologiyalarini yaratish va boshqalar.

Xizmat ko'rsatish sohasi turli tarmoqlar va yo'nalishlarni qamrab olib, ularning soni xizmatlarning yangi turlari paydo bo'lganligi sababli jadallik bilan o'sib bormoqda. Shuningdek, barcha tashkiliy–huquqiy shakllardagi tadbirkorlik subyektlarining soni ko'paymoqda: individual va xususiy korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, shu jumladan, ochiq va yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari, notijorat tashkilotlari, davlat tashkilotlari, ta'lim va madaniyat muassasalari [4].

Hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohasida yuz berayotgan o'zgarishlardan biri — sohada kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining son jihatidan ko'payishi va faoliyat turlari jihatidan kengayishi hisoblanadi. Buning sababi, bir tomondan, xizmat ko'rsatish sohasi obyektiv va subyektiv omillar ta'siridan kelib chiqqan holda, kichik va xususiy biznes faoliyati uchun juda jozibador bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, respublikamizda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi va shu sababli yuqori sur'atlarda rivojlanishi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasida kichik va xususiy tadbirkorlikning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sohada raqobatning kuchayishiga, xizmatlar turlarining ko'payishi va sifatining yaxshilanishiga va eng muhimi — xizmatlar narxining pasayishiga va ularga talabning oshishiga hamda keng xalq ommasining xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari oshishiga va nihoyat, xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati samaradorligining oshishiga yordam beradi. Kichik korxonalar bozordagi talab o'zgarishlariga tez moslasha oladi, xizmat turlarini tez o'zgartirish, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni qisqa muddatda va katta yo'qotishlarsiz o'zgartirish

imkoniga ega bo'ladi.

Kichik tadbirkorlikning ushbu afzalliklaridan foydalangan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari moddiy ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan ko'proq raqobatbardosh hisoblanadilar. Kichik tadbirkorlikning rivojlanganligi xizmat ko'rsatish sohasi yuqori daromadlilikining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida 2019 yilda xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida 121 mingdan ortiq kichik korxonalar va mikrofirmalar mavjud. Ular barcha kichik korxonalar va mikrofirmalarning 44,1 foizga yaqinini tashkil etadi [5.43].

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish doirasida, tadbirkorlik subyektlariga, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yangi tashkil etiladigan korxonalarni texnologik jihozlash uchun katta miqdordagi imtiyozli kreditlar taqdim etilishi natijasida, kichik tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 2005 yildagi 38,2 foizdan 2019 yilda 56,5 foizga ko'paydi. Bozor xizmatlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi 2019 yilda 52,1 foizni tashkil etdi [6].

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirmasdan turib, respublikaning iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida bu masalaga ham alohida e'tibor berilgan. Dastur doirasida amalga oshirilgan tadbirlar esa ushbu sektorda biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada qulaylashtirishga qaratilgan [7].

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida, 2010–2016 yillarda bozor xizmatlari hajmi 2,7 marta oshib, 92,5 trln. so'mgacha ko'paydi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi mazkur davrda 2,3 martaga o'sdi va 2,9 mln. so'mni tashkil etdi. [8]

Xizmat ko'rsatish sohasi uchun tadbirkorlik faoliyatining subyektlari g'oyatda o'ziga xosdir, ular ijtimoiy–xayriya, madaniy–ta'lim va boshqa ijtimoiy foydali

ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan notijorat faoliyatlarini ham olib borish bilan shug'ullanadilar.

Shu o'rinda xizmat ko'rsatish sifatiga ta'rif berishda iste'molchilarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ehtiyojlarini ham qondirishga e'tibor qaratish lozim. Agar ushbu nazariy xulosadan kelib chiqadigan bo'lsak, xizmat sifatiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Servis sifati deganda jamiyatning (odamlar, korxonalar va davlatning) xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini to'laigicha yuqori saviyada qondirishga qaratilgan va ularga kam xarajatlar bilan tegishli darajada moddiy va ma'naviy jihatdan naf keltiradigan nuqsonsiz xizmatlar majmuasi tushuniladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy munosabatlarning umumiy tizimiga kiradi va umumiy iqtisodiy qonunlarga bo'ysunadi. Lekin shu bilan birgalikda, xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining amal qilishi, ularda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, uning pirovard natijalarini iste'molchilarga yetkazib berish va boshqa jihatlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bizningcha, ushbu xususiyatlar sohada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda o'zining yaqqol aksini topadi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlikning xususiyatlari shundan iboratki, bunda iste'molchi asosiy rol o'ynaydi, servis tadbirkorining barcha xizmatlar ishlab chiqarishi iste'molchiga yo'naltiriladi, chunki servis korxonalari ishining samaradorligi (tovar ishlab chiqarishdan farqli holda), avvalo, tashqi samaradorlik mezonlari – konkret iste'molchini tegishli joyda, tegishli vaqtda va zaruriy hajmda va xizmatlar to'plamida, zarur sifat darajasida qondirish talablari bilan belgilanadi.

Shunday qilib, xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlikning quyidagi xususiyatlarini ajratish mumkin, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, xizmat ko'rsatish sohasi, moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan taqqoslanganda, xom ashyo va asosiy materiallarga unchalik bog'liq emas. Shu

bilan bir vaqtda uning katta ishlab chiqarish fondlari (uy-joy va kommunal xo'jalik, turizm va sanatoriya – kurort davolanishi) keng miqyosda tabiat resurslaridan foydalanishga mo'ljallangan.

Ikkinchidan, xizmatlar turlarining xilma-xilligi va ularga ilmiy–texnika taraqqiyoti turlicha ta'sir etishi bilan xarakterlanuvchi turlichalik kuzatiladi (sartarosh, ofitsiant, massajistning xizmatlariga texnika taraqqiyoti unchalik e'tiborli ta'sir etmaydi va yuz yillar davomida o'zgarmasdan qolmoqda).

Uchinchidan, xizmatlar xarakteri ko'pincha ishlab chiqaruvchi va iste'molchining shaxsiy aloqasiga asoslanadi, ya'ni xizmat ko'rsatish jarayonida inson bevosita insonga ta'sir ko'rsatadi [9].

Bu bevosita mehnat resurslarining yuqori sifatli bo'lishining muhimligi va zarurligini belgilaydi. Xizmatlar ko'rsatuvchi ko'pchilik tarmoqlarda xodimlarning yuqori ma'lumoti va kasbiy, malakaviy darajasi, mehnatining ijodiy, intellektual mazmuni bilan belgilanadi.

To'rtinchidan, xizmatlarning buyurtmachilari bo'lgani holda, ko'pincha iste'molchilarning o'zlari resurs bazasini tashkil etadilar, chunki, xizmatlar ishlab chiqarish jarayonining bevosita ishtirokchilari sifatida chiqadilar. Masalan, tibbiy xizmatlarni olishda iste'molchi kerakli axborotni taqdim etishi, muammoni shakllantirishi lozim, bir qator holatlarda mutaxassislar bilan yechimlarning ehtimoliy variantlarini muhokama qiladi, va nihoyat, bevosita qo'llash va natija olinishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, xizmatlar taklifiga ta'sir ko'rsatish va o'zgaruvchan talabga moslashish maqsadida, sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun, servis xizmatining resurs salohiyatini boshqarish, servis korxonasining qo'shimcha sifatida iste'molchilarning rolini ham nazarda tutadi (o'z–o'ziga xizmat ko'rsatishni kiritish).

Beshinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida resurs funksiyasining muhim xususiyati tadbirkorlik kapitali aylanishining yuqori tezligi hisoblanadi [10.39].

Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining yo'nalishlarini aniqlash maqsadida, hozirgi bosqichda uning sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar guruhini aniqlash va tasniflash juda muhimdir. Xizmatlar sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, axborot–texnik va boshqalar kiradi. Bu omillar iqtisodiy muhitni o'zgartirishni taqozo etadi va korxona, tarmoq hamda umuman iqtisodiyot uchun tadbirkorlik tashabbuslarining yo'nalishlari va imkoniyatlarini aniqlaydi. Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida tegishli qonunlarning ta'siriga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik rivojlanishining xususiyatlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining kichik va o'rta shakllarini rivojlantirish zaruriyatining milliy iqtisodiyotimiz uchun ahamiyatli bo'lgan yo'nalishlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил 6-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 18 апрелдаги “Ўзбекистон Республикасида 2006-2010 йилларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантиришни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-325-сон Қарори. — Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 йил, 16-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 9 апрелдаги “Хусусий тadbirkorlik, кичик бизнесни ривожлантиришни янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-1987-сонли Фармони. — <https://lex.uz/docs/276275>

4. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитасининг расмий сайти. www.stat.uz.
5. Мухаммедов М.М. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари.—Самарқанд: Zarafshon, 2017. -Б. 43.
6. Ходиев Б.Ю., Қосимова М.С., Самадов А.Н. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик. Т.: ТДИУ, 2010.
7. Қудратов Ғ.Ҳ., Пардаев М.Қ., Шодиева Г.М. Касаначилик – аҳолининг бандлиги ва фаровонлигини ошириш омили. Тарғиботчилар учун услубий кўрсатма. Самарқанд. СамИСИ, 2007.
8. Турсунов С., Қобилов Э., Муртазоев Б. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Тошкент.: Шарқ, 2001.
9. Тўхтаев А. Хунармандчиликнинг Термиз шаҳри иқтисодиётида тутган ўрни / Термиз Университети газетаси. 2001 йил. 17 ноябр.
10. Турдиев У., Карабаев Ф. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик – ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг асоси // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы № 9, 2011. – Б. 39.

MUSTAQILLIK YILLARIDA TERMIZ DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI FAOLIYATI TARIXI

Zulfikarov Baxtiyor Xurramovich,
“Termiz” davlat muzey-qo'riqxonasi direktori
<https://orcid.org/0009-0002-9876-102X>
 UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: O'zbek xalqi boy moddiy va ma'naviy merosga ega xalq, uning tarixi jahon sivilizatsiya taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan bo'lib, ajdod-avlodlarmiz o'zlarining yuksak madaniy saviyasi bilan hamisha jahon madaniyatiga munosib o'rnak bo'lib kelganlar. Ayniqsa, Surxon vohasi o'zining ilk o'zbek davlatchiligiga asos solganligi, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarning dastlabki makoni sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan makon hisoblanadi. Ana shunday buyuk imkoniyatlarni o'zida mujassam etgan xalq tarixni aniqlash, qayta tiklash va kelajak avlodga taqdim etish asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mardlik, jasurlik va oliyjanoblikni o'zida namoyon qila oladigan manbalarni aks ettirgan muzeylarning ahamiyati cheksiz hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Termiz davlat muzey-qo'riqxonasi, Termiz Arxeologiya muzeyi, fond, Surxondaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi, eksponat.

Аннотация: Узбекский народ – народ с богатым материальным и духовным наследием, его история внесла достойный вклад в развитие мировой цивилизации, а наши предки своим высоким культурным уровнем всегда были достойным образцом мировой культуры. В частности, Сурханский оазис является местом особой значимости как фундамент первой узбекской государственности, обычаев, традиций и ценностей. Значение музеев, отражающих истоки патриотизма, гуманизма, трудолюбия, отваги, отваги и благородства, основанных на выявлении, восстановлении и представлении истории нации, воплощающей в себе такие огромные возможности, считается бесконечной.

Ключевые слова: Термезский

государственный музей-заповедник, Термезский археологический музей, фонд, Сурхандарьинский областной историко-краеведческий музей, экспонат.

Abstract: The Uzbek people are a people with a rich material and spiritual heritage, whose history has made a worthy contribution to the development of world civilization, and our ancestors have always been a worthy example of world culture with their high cultural level. In particular, the Surkhan oasis is considered a place of special importance as the place where the first Uzbek statehood was founded, as the original place of customs, traditions and values. The importance of museums that reflect the sources that can reveal patriotism, humanity, hard work, courage, bravery and nobility in the people, based on identifying, restoring and presenting history to future generations, is unlimited.

Keywords: Termez State Museum-Reserve, Termez Archaeological Museum, fund, Surkhandarya Regional Museum of Local Lore, exhibit.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tarix o'tmish avlodlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy qarashlarni davr bosqichlariga bo'lib, har bir davrni o'ziga xos xususiyatlarni aniq manbalar hamda so'z va raqamlar vositasida yoritib beradi. Har bir millatning avlod-ajdodlari bosib o'tgan madaniy hayot tasvirlaydigan arxivlar, kutubxonalar, tarixiy-badiiy qo'l yozmalar, risola, monografiyalar, kitoblar, ilmiy maqolalar hamda jurnallar, gazetalar, shuningdek boshqa matbuot vositalar mavjud. Ajdodlar tarixiga oid manbalarni, ular yaratgan moddiy-ma'naviy ashyolarni, arxeologik-etnografik topilmalarni o'zida aks ettirgan muzeylarning ahamiyati alohida muhim masaladir. Muhtaram

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tarixni anglash, moziyga qarab ish tutish, xalqimizning boy moddiy va ma'naviy tarixni ilmiy xolisona o'rganish tufayli davlatchilik tarixini mukammal yaratish to'g'risidagi ko'rsatmalari asosida muzeylarga alohida e'tibor berilmoqda. Muhtaram Yurtboshimizning bevosita rahbarligida O'zbekistondagi muzey ishlarni moddiy va ma'naviy jihatdan jahon andozalar asosida ta'mirlash, yangi zamonaviy muzeylarni qurish, muzey fondlarni boyitish, mavjud osori-atiqalarni saqlash uchun texnik vositalari bilan ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatida mustaqillik yillarida muzeylarga e'tibor kuchayib, Termiz Arxeologiya Muzeyi tubdan jahon andozalariga mos holda yangidan qurildi. Eng muhimi uzoq yillardan orzuqib kutilgan Surxondaryo viloyat tarixi va madaniyati muzeyining yangi zamonaviy binoga ko'chishi va uni ish boshlanishi butun Surxon vohasi ahliga Muhtaram Prezidentimizning munosib sovg'alari bo'ldi. Muzey nafaqat xalqimiz balki xalqaro turizmning yuksak rivoj topishiga ham mo'ljallangan bo'lib, jahon andozalariga mos holda tashkil qilindi.

MUHOAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilingach, juda katta imkoniyatlar tug'ildi. Avvalo, butun mamlakatimizda bo'lgani kabi Surxondaryo hududidagi tarixiy obidalaridan chiqqan osori-atiqalarning talon-taroj qilinishiga, xorijga olib ketilishiga chek qo'yildi. Holbuki, avvallari Eski Termiz, Ayritom, Qoratepa va boshqa arxeologik yodgorliklardan chiqqan topildilar Leningrad Ermitaji, Moskvadagi Sharq muzeyi va ilmiy-tadqiqot institutlari fondiga so'rab o'tirmasdan ham olib ketilaverardi. Respublika hududlarida bojxona nazoratining o'rnatilishi bilan turli mamlakat fuqarolarining qadimiy ashyolarni, hunarmandchilik buyumlari, eski kitoblar, tangalar, bezak va taqinchoq buyumlari, nodir liboslarni olib chiqib ketishga chek qo'yildi. Bojxona orqali har yili viloyat o'lkashunoslik muzeyiga juda ko'plab eksponatlarning kirib

kelishiga yo'l ochdi.

Xorijlik ilmiy-tadqiqotchilar respublika Fanlar Akademiyasi va viloyat o'lkashunoslik muzeyi bilan hamkorlikdagina, shartnoma asosida tarixiy obidalar qazish ishlarini olib boradigan bo'ldi. Endilikda madaniy muassasalarni qurish uchun Moskvaning rejasiga kiritilishini kutib o'tirishga hojat qolmadi. 2001-yilda Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan qurilgan, Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan Termiz Arxeologiya muzeyini ham Mustaqillikning mevasi sifatida baholash mumkin.

Istiqlol tufayli viloyat o'lkashunoslik muzeyida ham jonlanish, o'zgarishlar ro'y berdi. Chunonchi, 1991-yilda birinchi marta muzeyning yillik rejasini o'zbek tilida tayyorlandi. Ana shu rejada ilmiy-tadqiqot va fondni boyitish ishlarini kuchaytirish, Kampirtepa, G'ozlar-tepa va Munchoq-tepa kabi tarixiy yodgorliklarda qazishmalar o'tkazish, viloyat tashkil etilganligining 50 yilligiga bag'ishlanib ko'rgazma ochish va boshqa shu kabi tadbirlar belgilandi. Mustaqillikning ilk yilida muzeyda 45 shtat birligi mavjud bo'lib, shundan ilmiy xodimlar soni 15 kishini tashkil etardi.

1993-yilning sentyabr oyida Viloyat O'lkashunoslik muzeyi tashkil etilganligining 60 yilligi katta tantanalar bilan nishonlandi. Shu munosabat bilan 20 nafar muzey xodimi unvonlar va hukumat orden-medallariga, faxriy yorliqlariga tavsiya etildi. G.V.Parfyonov, V.A.Kozlovskiy, S.M.Meyliboyevlar "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" degan faxriy unvonga sazovor bo'lishdi.

Albatta, o'tgan 30 yildan ortiq vaqt mobaynida Viloyat O'lkashunoslik muzeyi katta yutuqlarga erishdi. Agar 1933-yilda muzey fondida atigi 111 ta eksponat bo'lsa, 1993-yilda ularning soni 72 mingtagacha yetgan edi. Muzey tashkil etilgan yili unda bor-yo'g'i 5 nafar xodim faoliyat ko'rsatib, uning ham ikki nafari qorovul bo'lsa, yubiley yilida unda 42 nafar xodim mehnat qilar, uning 18 nafari ilmiy xodim edi. 2 nafari esa fan nomzodi edi.

Muzey tomoshabinlari sonining ham

yilma-yil oshib borganligini kuzatish mumkin. 1933-yilda 6834 kishi kirgan bo'lsa, 1992-yilga kelib, ular soni 80 ming kishidan oshib ketgan edi.

Afsuski, binoning eskiligi, poydevori mustahkam emasligi ishga pand berdi. 1994-yilning 1-mayida ro'y bergan kuchli zilzila tufayli muzey binosi qattiq zararlandi. Xonalar yorilib, qulash holatiga kelib qoldi. Natijada, Surxondaryo viloyat hokimligining zilzila oqibatlarini tugatish komissiyasi tomonidan 1994-yil 17 mayda o'tkazilgan tekshirishda 6-son qaror qabul qilindi. Unga ko'ra muzey binosi va zallaridan foydalanish tomoshabinlar uchun xavfli deb topildi, u yopib qo'yildi. 1994-yildan boshlab muzeyning ma'muriy-xo'jalik, kutubxona va ilmiy xodimlar uchun mo'ljallangan xonalardagina ish faoliyati davom ettirildi, xolos.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrda "Respublika muzeylar faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan viloyat hokimligi ham 1995-yilning 6-martida 72-sonli qaror qabul qildi.

Unga ko'ra muzeyning yangi binosi quriladigan bo'ldi. Ammo barcha shart-sharoitlarni, muzeyning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi bino qurish katta mablag' talab qilardi.

Buning ustiga, bunday muzeyning loyihasmeta hujjatlarini tayyorlash, muzey fondlari, ko'rgazma zallar, osori-atiqalarni qo'yish, ular ekspozitsiyasini tashkil etish uchun joylar tashkil etish uchun muzey shart-sharoitlarini yaxshi biladigan, barcha iker-chikirlargacha hisobga oladigan me'mor-muhandis kerak edi. Ana shunday muammolar tufayli muzey binosi qurilmasdan qoldi. Buning ustiga, 1996-yilda uning direktori H.Saidov ishdan ketib, o'rniga Pardaxol Jo'rayeva tayinlandi. Albatta, yangi muzey binosi qurilishiga turtki berish uchun juda katta tashkilotchilik, g'ayrat-shijoat lozim bo'lardi. Afsuski, yangi rahbariyatda ana shu xislatlar yetarlicha ko'rinmadi. Shuning uchun 1998-yil 5-martda muzey direktorligiga tarix fanlari nomzodi, tashkilotchi va tajribali mutaxassis

I.T.Botirov tayinlandi.

Respublika hukumati mamlakat mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab, tarixiy obidalarini ta'mirlash, muzeylar faoliyatini yaxshilash masalalariga e'tiborini qaratdi. 1998-yil 12-yanvarda "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonining e'lon qilinishi, 1998-yil 5-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 98-sonli "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi qarori buning yaqqol dalilidir.

Viloyat o'lkashunoslik muzeyi uchun yangi bino qurdirish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Muzey fondidagi 72 mingga yaqin eksponatni avaylab-asrash, 1996-yildan buyon Eski Termiz xarobalarida arxeologik qazishma ishlarini olib borayotgan o'zbek-fransuz Baqtriya qo'shma ekspeditsiyasida ishtirok etish, turli tadbirlar o'tkazish muassasa jamoatchiligining asosiy ishlaridan edi.

Ta'kidlash joizki, muzeyning vaqtincha yopib qo'yilishi keyingi yillarda muassasa jamoasining nisbatan sust faoliyati tufayli xodimlar soni qisqarib, 1993-yildagi 42 o'rniga 1998-yilga kelib, teng yarmiga 21 nafarga tushib qolgan edi. Ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli jami xodimlar bir yilda 28 kishiga yetdi. 1998-yilda muzeyda bor-yo'g'i 6 nafar oliy ma'lumotli xodim qolgan bo'lsa, 1999-yilda oliy ma'lumotlilar soni 15 nafarga yetdi. Ularning 9 nafari tarixchi, 2 nafari tabiatshunos edi.

Ismoil Botirov rahbar sifatida katta tashkilotchilik ishlarini olib bordi. U muzey fondlarida saqlanayotgan nodir eksponatlarning o'rganilishi, ilmiy-tadqiqot etilish zaruriyatidan kelib chiqqan holda Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilaridan bir qanchasini o'rindoshlik asosida muzeyga ishga taklif etdi.

Tarix fanlari nomzodlari, dotsentlar Yusuf Valiqulov, Jaloliddin Mirzayev, Zokir Xoliqov, Bekmurod Tilovov, filologiya fanlari nomzodi Narzulla Oripovlar shular jumlasidan edi.

Muzey jamoasi bir qancha muhim tadbirlarni amalga oshirdi.

Jumladan, Yaponiyalik arxeolog, Sona universiteti professori Kyudzo Kato bilan 1999-yilning aprel oyida uchrashuv o'tkazildi. Muzei ilmiy xodimlari Eski Termiz va Muzrabot tumanidagi Sopollitepa arxeologik yodgorliklari bo'yicha o'tkazilgan ekspeditsiyalar ma'lumotlarini to'plab, muzei ilmiy arxiviga topshirdilar.

1999-yilda muzeydagi eksponatlar soni 71.222 taga yetdi. 2000-yilda muzei hayotida yana bir muhim voqea ro'y berdi, fevral oyida uning salohiyati, fondidagi eksponatlarning noyobligi va xilma-xilligi e'tiborga olinib, O'zbekiston Milliy muzeylar Kengashi orqali Xalqaro muzeylar kengashiga a'zo bo'ldi.

Muzeyning boshqa mamlakatlar olimlari bilan hamkorligi kuchaydi. Masalan, 2000-yilning mart oyida Yaponiyaning O'zbekistondagi elchixonasi uchinchi kotibi Esixaro muzeyga tashrif buyurdi. Uchrashuvda o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi. O'sha yilning may oyida esa Yaponiyalik olimi Sodaka Kuidda "O'zbek ayollarining milliy liboslari" mavzuidagi doktorlik yuzasidan muzei fondida bo'ldi. Unga muzei xodimlari amaliy yordam ko'rsatdilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-dekabrda "Termiz shahrining 2500 yilligini xalqaro miqyosida keng nishonlash to'g'risida" gi qaroridan keyin boshqa jabhalar qatori viloyat o'lkashunoslik muzeyiga ham e'tibor oshdi.

2000 yil 14-avgust kuni Termiz shahar hokimining 965-sonli qarori chiqib, unda muzei fondlarida saqlanayotgan eksponatlar 7383-sonli harbiy qism joylashgan rus chorizm tarixiy qal'asi (bu qal'a 2015-yil buzib yuborildi) xonalariga vaqtincha ko'chirish belgilandi. Qal'adagi muzei eksponatlari uchun ajratilgan xonalar Termiz shahar hokimligining yordami bilan qayta ta'mirlandi va xonalar deraza va eshiklariga maxsus temir panjaralar, ogohlantirish moslamalari o'rnatildi.

Viloyat o'lkashunoslik fondida saqlanayotgan 71 mingdan ortiq eksponat 2000-yilning sentyabr oyidan 2001-yilning martiga qadar ajratilgan texnika vositasida ko'chirildi.

Muzei fondidagi qimmatbaho metall buyumlar: o'rta asrlarga oid 10 ta arab tilla tangasi, 1-P asrlarga taalluqli tilla tasma baldog'i, kumush uzuklar, sirg'alar, turli xil qurollarning har biri ro'yxat qilinib, viloyat milliy bankining alohida xonalariga qo'yildi. Hozirga qadar ular ana shu bankda saqlanmoqda.

2002-yil 2-aprelda Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi nishonlandi. Ana shu munosabat bilan Markaziy Osiyoda yagona Arxeologiya muzeyining jahon andozalari talablariga javob beruvchi yangi binosi ishga tushdi. Natijada, viloyat o'lkashunoslik muzeyi eksponatlari qal'adan Termiz Arxeologiya muzeyining shart-sharoitlar mavjud zaxira fondi xonalariga ko'chib keltirildi.

Ma'lumki, Termiz Arxeologiya muzeyi ishga tushgach, muzei direktori I.T.Botirov shu muassasaga direktor bo'lib o'tdi.

Ta'kidlash joizki, 2002-yil aprelda Termiz Arxeologiya muzeyi Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyidan ajralib chiqqanda, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, uning negizida tashkil etilganida, muzeyning asosiy eng noyob eksponatlari o'tkazildi.

Viloyat o'lkashunoslik muzeyi 2010-yilning 10-noyabridan buyon Termiz shahri F.Xo'jayev ko'chasidagi harbiy qal'ada faoliyat yuritib kelayotgan, bu yerda arxeologiya, etnografiya, tasviriy san'at va tabiat bo'limlariga oid 460 eksponatdan iborat doimiy ko'rgazma tashkil etilgan edi.

Biroq, Surxondaryo viloyat hokimligining 2014-yil 23-apreldagi 74-sonli qaroriga asosan Termiz shahrining Barkamol avlod va At Termiziy shoh ko'chalari kesishuvida joylashgan, 1895-1905 yillarda chor Rossiyasi tomonidan qurilgan harbiy qal'a moddiy-madaniy meros obyektlari ro'yxatidan chiqarilib, buzildi. Natijada, Surxondaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyi vaqtincha viloyat xo'jalik sudining eski binosiga ko'chirildi. Viloyat o'lkashunoslik muzeyi birinchi toifali bo'lib, 36 shtat birligiga ega bo'lgan.

Muzei xodimlari ma'lumotlar to'plash, muzei fondini boyitish va ularni ommaga

tanishtirish maqsadida 2015 yilda Boysun tumanidagi Chilonzor qishlog'i, Termiz tumanidagi "Gulbahor" jamoa xo'jaligiga, Paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo viloyati filialiga, Termiz tumani "Namuna" jamoa xo'jaligi hududidagi "Xonqizi-Namuna" shu'ba-korxonasiga qarashli laboratoriyada, Termiz tumani "Jo'yijangal" mahallasi hududidagi — Surxon daryosi bo'yidagi to'qayzorda, Termiz hayvonot bog'iga ekspeditsiyalarni amalga oshirishdi. Shu asosida ma'lumotlar tayyorlandi va muzey arxiviga topshirildi.

Muzeyning etnografiya bo'limi xodimlari muzey fondini boyitish, etnografik ma'lumotlar to'plash maqsadida Boysun tumanidagi Darband va Sayrob, Muzrabot tumanidagi Pari, Jarqo'rg'on tumani Minor qishlog'idagi shu nomdagi muzeyga, Denov tumanidagi Hazarbog' qishlog'i va Janubiy Surxon suv omboriga ekspeditsiyalar tashkil etishdi. Natijada, ana shu qishloqlar, muzey va suv ombori tarixi yaratildi va muzey arxiviga qo'yildi.

Yil davomida o'tov, voha hunarmandchiligi, xalq amaliy san'ati, voha xalqi urf-odatlar, voha ayollari milliy liboslari va boshqalar xususida bukletlar tayyorlandi.

2015-yilda muzey fondiga 30 ta eksponat qo'shildi. Muzeyning kichik ilmiy xodimi O'g'ilshod Abduvaliyeva joriy yilning noyabr oyida Oltinsoy tumaniga borib, 10 ta noyob osori-atika to'plab, olib kelib muzey fondiga topshirdi.

Agar 2014-yilda muzey jamoasi tomonidan joylarda 25 ta ko'chma ko'rgazma tashkil etilib, ularda 874 ta eksponat namoyish etilgan bo'lsa, 2015-yilda 32 ta ko'chma ko'rgazmaga 958 ta eksponat qo'yildi.

Muzey jamoasi shonli sanalar, Navro'z, Ro'za, Qurbon hayitlari, bolalarni himoya qilish kuni, shoir va yozuvchilar yubileylari, tavallud kunlari munosabati bilan o'tkazilgan turli tadbirlarda faol ishtirok etdilar. Yozgi ta'til paytida 6 ta bolalar yozgi oromgohlarida 6 ta ko'chma ko'rgazma tashkil qilib, 236 ta eksponat namoyish etildi.

Ammo olib borilgan ishlar talab darajasida

emas edi. Birorta olim rahbarligida ilmiy ish qilinmagan.

Ekspeditsiyalar, viloyat tarixini o'rganish, ilmiy fond ustida ishlash, asarlar yaratish kabi ishlar mutlaqo bo'lmagan. Vaqtincha binolarda ishlash evaziga muzeyda faoliyat ko'rsatish, nomiga bo'lib qolgan.

Muzeylar faoliyatini namunali tashkil etish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli "2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi qarorlari muzeylar faoliyatini rivojlantirishning 10 yilga mo'ljallangan dasturi bo'ldi. Boshqa viloyatlardagi kabi bizning o'lkashunoslik muzeyimiz ham Surxondaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi deb nomlandi. Qarorda 2018-2027 yillarda davlat muzeylari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlashning manzilli dasturi ishlab chiqildi. Shu dastur asosida Surxondaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining ham 2018-yilning avgust oyida qurib bitkazilishi belgilab qo'yilgan. Endilikda bizning muzey ham respublika byudjeti ta'minotida faoliyat yuritadi.

Yuqoridagi muhim qaror asosida shaxsan viloyat hokimining tashabbusi bilan shahardagi Tadbirkorlar markazi binosi muzey uchun moslashtirilib, rekonstruksiya qilish ishlari bajarildi. Natijada, muzey moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, muzey fondini yangi eksponatlar bilan to'ldirish, qayta ro'yxatdan o'tkazish milliy-davlat muzey fondi-katalogini yaratish uchun zarur bo'lgan texnika vositalari bilan ta'minlash imkoniyatlari paydo bo'ldi. Eng muhimi, muzey xodimlarining astoydil

mehnat qilishi, muzeyning to‘laqonli faoliyat yuritishi, xalqimizning asrlar mobaynida saqlanib kelgan osori-atiqalardan bahramand bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Bugungi kunda mustaqillik sharofati tufayli muzey sharoiti yanada yaxshilanish, ko‘tarilish davriga yuz tutmoqda.

Muzey jahon andozalariga mos zamonaviy binoga ega bo‘ldi, to‘liq qayta jihozlandi, xalqimizning moddiy-ma‘naviy madaniyatni chinakam aks ettiradigan noyob ilmiy va tarixiy tadqiqotlar markaziga aylandi. Xalqimizning hamda xorijiy sayyohlarni sevimli maskaniga aylandi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 975-sonli “2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori.
3. Saodat Inoyatova. Surxondaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi — moziy ko‘zgusi (lavhalar). “Surxon-Nashr” nashriyoti 2019. 90 b.
4. I.T.Botirov. Surxondaryo viloyati o‘lkashunoslik muzeyi tarixi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent -2011. 120 b.
5. Muzeyni tomosha qiluvchilarga yo‘llanma. Surxondaryo viloyat o‘lkashunoslik muzeyi 60 yilligi. Termiz shahri. 1993 yil.
6. Surxondaryo viloyat o‘lkashunoslik muzeyining 2010-2018 yillardagi ish faoliyati to‘g‘risidag hisobotlar.
7. <https://surxon-turizm.uz>

ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISDA SURXONDARYODAGI MUQADDAS QADAMJOLARNING TARIXIY AHAMIYATI

Normamatova Pardaxol Ochildiyevna,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0002-9876-102X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlanish istiqbollari yuqori bo'lib, bu sohaning rivojlanishi hudud iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi va u bir qancha ijobiy samaralari, Viloyatda turizm industriyasi talablaridan kelib chiqib, har tomonlama shakllangan, mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo'yiladigan malakaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yilganligi aytib o'tilgan.

Mustaqillik yillarida xalqimizning moddiy ma'naviy merosini saqlash va targ'ib qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, tarix, san'at, fan, estetika, madaniyat, etnologiya yoki antropologiya nuqtai nazaridan har tomonlama beqiyos qiymatga ega bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlarini konservatsiyalash, ta'mirlash va hozirgi zamonga foydalanishga moslashtirish orasida ulkan ishlar amalga oshirilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qirg'iz, Zurmala, Abu Iso at-Termiziy, Hakim at-Termiziy, So'fi Olloyor, "Alpomish".

Аннотация: В данной статье отмечены высокие перспективы развития туризма в Сурхандарьинской области в годы независимости, развитие данной отрасли приобрело существенное значение в экономической и социальной жизни региона, имеет ряд положительных эффектов. отметил, что начата подготовка кадров, соответствующих необходимым квалификационным требованиям.

В годы независимости сохранение и популяризация материального и духовного наследия нашего народа стало одной из приоритетных задач. В частности, подчёркивалось, что проведены большие работы в области консервации, ремонта и

приспособления материальных объектов культурного наследия, несравненных во всех аспектах с точки зрения истории, искусства, науки, эстетики, культуры, этнология или антропология.

Ключевые слова: кыргызы, Зурмала, Абу Иса ат-Тирмизи, Хаким ат-Тирмизи, суфий Оллояр, «Алпомиш».

Abstract: This article has high prospects for the development of tourism in the Surkhandarya region during the years of independence, the development of this sector has gained significant importance in the economic and social life of the region, and it has several positive effects. it was mentioned that the training of personnel meeting the required qualification requirements has been started.

During the years of independence, preservation and promotion of the material and spiritual heritage of our nation became one of the priority tasks. In particular, it was highlighted that great works have been carried out in the field of conservation, repair and adaptation of material cultural heritage objects, which are incomparable in all aspects from the point of view of history, art, science, aesthetics, culture, ethnology or anthropology.

Key words: Kyrgyz, Zurmala, Abu Isa at-Tirmizi, Hakim at-Tirmizi, Sufi Olloyor, "Alpomish".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Moddiy madaniy meros obyektlarida muzey qo'riqxonalar tashkil etish, mavjud obyektlarni saqlash, boshqarish, mahalliy va xorijiy miqyosda keng targ'ib etish, turizmni rivojlantirish, aholining keng qatlami, ayniqsa yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bebaho tarixiy va madaniy merosga hurmat, Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalashda yuqori samara

bermoqda. Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda Surxondaryo viloyatidagi muqaddas qadamjolar va turizmni rivojlantirish istiqbollari, sohada bartaraf etilishi zarur bo'lgan muammolarga oid birlamchi hujjatlar tahliliga tayangan holda atroflicha tadqiq etildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Har bir davlatning rivojlanishida o'zining tarixiy, madaniy-ma'naviy merosi negizlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu xalqni ma'naviy yuksalishining yangi bosqichiga olib chiqadi. Mustaqillik yillarida xalqimizning moddiy ma'naviy merosini saqlash vatarg'ib qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, tarix, san'at, fan, estetika, etnologiya yoki antropologiya nuqtai-nazaridan har tomonlama beqiyos qiymatga ega bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlarini konservatsiyalash, ta'mirlash va hozirgi zamonga foydalanishga moslashtirish orasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Moddiy madaniy meros obyektlarida muzey qo'riqxonalar tashkil etish, mavjud obyektlarni saqlash, boshqarish, mahalliy va xorijiy miqyosda keng targ'ib etish, turizmni rivojlantirish, aholining keng qatlami, ayniqsa yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bebaho tarixiy va madaniy merosga hurmat, Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalashda yuqori samara

bermoqda. Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan.

Surxondaryo viloyati turli madaniyatlarni birlashtirgan maskan sifatida o'ziga xos o'ringa ega. Vohadagi Kushonlar davriga oid arxeologik yodgorliklar nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Mintaqada saqlanib qolgan asosiy yodgorliklar qatoriga Qirg'iz saroyi, Hakim at-Termiziy arxitektura yodgorligi, Sulton Saodat majmuasi, Termiz hukmdorlari saroyi, Qoratepa ibodatxonasi va Fayoztepa ibodatxonasi kabi bir qancha obyektlarni misol keltirish mumkin. Shu bilan boshlangan. Viloyatda islom olamidagi mashhur bo'lgan ulug' muhaddis olim Abu Iso at-Termiziy, Buyuk olim Hakim at-Termiziy, Bahovuddin Naqshband ta'limotini hududda targ'ib qilgan Xoja Alovuddin Attor, mashhur so'fiy shoir So'fi Olloyor maqbaralari, qadamjolari mavjud bo'lib, ularda ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Viloyatda turizmni rivojlantirish bo'yicha idoralararo Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan 1996-yil 2-dekabrda 14-22/183-sonli xatida viloyatda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Turizmni rivojlantirish bo'yicha idoralararo kengash" majlisining 1995-yil 19-avgust, 1996-yil 24-may va 1996-yil 16-avgust bayonnomalarini bajarilishi yuzasidan chora-tadbirlar belgilangan. Viloyatda Hakim at-Termiziy, Iso at-Termiziy, Sulton Saodat,

Jarqo'rg'on, Dalvarzintepa, Qoratepa, Zarautsoy, Xolchayon kabi yodgorliklarda obodonlashtirish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Viloyat tarixini o'rganishga doir madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Shu maqsadda "Jahon xalqlarining pedagogika taraqqiyoti va Zarautsoy maktabi", "Qadimgi Baqtriya – Toxaristonning shahar madaniyati" mavzusidagi xalqaro simpoziumlar o'tkazildi. Viloyat tarixiy obidalarini haqida buklet va jurnallar turli tillarda tayyorlanib, London va Leypsig shaharlarida bo'lib o'tadigan yarmarkalarga jo'natildi. Natijada viloyatga tashrif buyuradigan sayyohlar soni oshib bormoqda. 1996-yil davomida xorijdan tashrif buyurgan sayyohlar soni 600 dan oshdi. Viloyatda turizmni rivojlantirish maqsadida Termiz shahrining markazidan "Surxon sayyoh" jamoa korxonasiga 100 o'rinli zamonaviy mehmonxona qurish uchun yer maydoni ajratilgan. 25.860 nafar kishiga ekskursiya xizmati ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-yanvardagi 13-sonli qaroriga asosan 1999-yilda "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini Respublika miqyosida nishonlash bo'yicha qarori chiqdi. Shu munosabat bilan Surxondaryo viloyatining Termiz va Boysun shaharlarida zamonaviy dam olish inshootlariga va kichik sport maydonlariga ega bo'lgan "Alpomish" bog'lari tashkil qilindi. 1999-yilda "Sharq" nashriyot matbaa konserni "Alpomish" dostonining to'la nashrini o'zbek va rus tillarida chop etdi. O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi "Alpomish" dostonining tanlanma to'plamlarini, jumladan, dostonning qoraqalpoq tilidagi variantini, doston haqidagi tadqiqotlar va ilmiy ommabop risolalarni nashr qildirdi. Alpomishning Vatan va xalqi uchun qilgan katta xizmatlarini keyingi avlodga namuna sifatida yetkazish va merosini o'rganish muhim hisoblanadi.

Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi davlat matbuot qo'mitasi bilan birgalikda 100 jildlik "O'zbek folklori yodgorliklari" to'plamlari nashrga tayyorlanib,

2001-yilda nashr etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-apreldagi 112-son qaroriga asosan "Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan milliy kurash bo'yicha xalqaro turnirni tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida 1995- va 1997-yillarda Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan milliy kurash bo'yicha 2- va 3-xalqaro milliy kurash turnirlari tashkil etildi. 2000-2001 yillarda Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish davrida Hakim at-Termiziy maqbarasi, Qirg'iz qal'asi, Sulton Saodat majmuasi, Kokildor ota xonaqosi mohir ustalar tomonidan qayta ta'mirlandi. Ushbu maqsadlarga respublika byudjetidan 348.0 mln. so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Hakim at-Termiziy dunyoviy ilmlar va jahon ijtimoiy falsafiy fikrlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan zabardast mutafakkir olimdir. Alloma 400 ga yaqin asarlar yozgan bo'lib, shulardan 60 ga yaqini bizgacha yetib kelgan va ingliz, fransuz, nemis, fors, arab va boshqa tillarga tarjima qilingan hamda jahon olimlari tomonidan o'rganilmoqda. Allomaning 1250 yillik yubileyini jahon miqyosida nishonlash uchun YUNESKOning 2002 va 2003-yillardagi yubileylari ro'yxatiga kiritish bo'yicha amaliy harakatlar qilindi. Yubileyga atab 1250 raqami bilan o'zbek, rus ingliz tillarida albom, kalendar, otkritkalar va xar xil esdalik sovg'alar, suvenirlar tayyorlangan, filmlar yaratilib, allomaning asarlari chop etilgan. Zamonaviy shahar madaniyati taraqqiyotida turizm sohasi alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 27-maydagi 332-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida turizm infrastrukturasi rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi PF-5181-sonli "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan

foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi farmoyishi, asosan tarixiy obidalarni asrab qolish hamda hududlarning rivojlanishida foydalanish umuminsoniy muammo sifatida qaralmoqda. Termiz hududida 2021-yilda "Sulton Saodat" yodgorliklar majmuasi, "Kokildor ota" va "Qirq qiz" kabi madaniy meros yodgorliklarini restavratsiya qilish maqsadida investitsiya dasturlariga tushirildi. Jumladan, hukumat qaroriga muvofiq "Sulton Saodat" majmuasini qayta rekonstruksiya qilish, masjid, maishiy xizmat shoxobchalari, kutubxona qurish, ziyoratgohni Termiz aeroporti va Hakim Termiziy majmuasi bilan bog'lovchi yangi yo'llarning qurilishi amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-sonli "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham Surxondaryo viloyati tarixiy yodgorliklariga e'tibor qaratilgan. 2018-yil 2-3-iyun kunlari Termiz shahrida hududning investitsiya, eksport va turizm salohiyatiga bag'ishlangan "Ochiq Janub" deb nomlangan xalqaro biznes forumi bo'lib o'tdi. Unda Rossiya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Indoneziya, Hindiston, Quvayt, Eron, Afg'oniston va Tojikiston kabi yigirmaga yaqin davlatlardan 160 nafardan ortiq ishbilarmon doira vakillari, xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi elchilari hamda chet el vakolatxonalari xodimlari qatnashdi.

Surxondaryo viloyatida turizm sohasida ba'zi muammolar mavjud bo'lib, tashrifchilar nafaqat tarixiy obidalarni ko'rishlari, balki hordiq chiqarish, vohaning go'zal tabiatidan bahramand bo'lish imkoniyatlari ham bor. Biroq, bu jihatdan hududda ekoturizm imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi. O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan, hukumat tomonidan mazkur sohada qonunlar ishlab chiqilgan va ular amaliyotga joriy etilmoqda. Bu jarayonda mahalliy aholi va viloyat rahbarlarining tashabbuskorligi hamda yaratuvchanligi talab etiladi. Shuni unutmasligimiz kerakki, respublikamizning kelgusi tarixi va iqtisodini turizmsiz tasavvur

qilish qiyin. Faqat uni aql idrok bilan rivojlantirish lozim. Jahon turizmida ishtirok etish talabi bilan, milliy tariximizni, qadriyatlarini oyoq osti qilib qo'ymaslik talab qilinadi. Ming yillar mobaynida shakllangan madaniyatimizni jahon bozoriga to'g'ri va maqsadli, xalqimizning an'ana va tarixiy qadriyatlarini saqlab qolgan holda olib chiqishimiz kerak. Bunda mavjud ziyoratgoh va tarixiy joylarni o'rganish, ularni madaniy ma'naviy merosimiz sifatida yosh avlodga tushuntirish, madaniy meros obyektlarining musulmon olamidagi mavqeyini oshirish, mahalliy va xorijiy ziyoratchilarni ko'proq jalb etish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan "kichik haj" dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim. Albatta mazkur fikrlar o'rinli, biroq Surxondaryo viloyatidagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar masalasi davlat e'tiboridan chetda qolmoqda. Hududda 4 mingdan ziyod turli davrlarga tegishli san'at, arxitektura asarlari va yodgorliklari saqlanmoqda. Mazkur yodgorliklar xilma xilligi va tarixiyliги bilan boshqa hudud madaniy me'ros obyektlaridan ajralib turadi. Bu jarayonda respublika miqyosida Surxondaryo viloyatining o'рни va mavqeyi bor. Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida turizm sohasi keng rivojlanib, mazkur sohada ko'plab zamonaviy infratuzilma obyektlari bunyod etildi va xizmat ko'rsatish sohalarining sifati yaxshilandi.

Yaqin yillargacha viloyatning turizm infratuzilmasi rivoji, xorijlik va mahalliy turistlarning tashrifi bo'yicha respublikamizda quyi o'rinlarni egallar edi.

So'ngi yillarda viloyatda turizm infratuzilmasining rivoji, targ'ibot ishlari natijasida chet ellik sayyohlar oqimi keskin ko'paydi. 2015-yilda viloyatga 7.462 nafar xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2019-yilda 114 ta davlatlardan 119.756 nafar xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan bo'lib, bu

2018-yilga nisbatan 3,7 baravarga o'sdi. Ichki sayyohlar soni esa 501,8 ming nafarni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida viloyatda uchta kichik ekoturizm zonasi tashkil qilindi.

Viloyatda turizm industriyasi talablaridan kelib chiqib, har tomonlama shakllangan, mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo'yiladigan malakaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida 2010-yilda Termiz turizm kolleji tashkil etildi. 2017-yildan boshlab esa Termiz davlat universitetida "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" fakulteti ochilib, turizm va biznes ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlash ishi boshlandi.

Koronavirus pandemiyasining ta'siri mamlakatimiz turizmiga salbiy ta'siri sababli, 2020-yilning birgina yanvar-may oylari oralig'ida jahon turizm industriyasi 320 milliard dollar daromadni yo'qotgan. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) hisobotiga asosan bu ko'rsatkich 2009-yildagi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz natijasida soha tomonidan ko'rilgan zararlardan uch baravar ko'pdir. Dunyo bo'ylab parvozlarning bekor qilinishi, mamlakatlar chegaralarining yopilishi, butun dunyo bo'yicha karantin qoidalarining joriy qilinishi natijasida xorijiy turistlar oqimi keskin tushib ketdi. Natijada, 2020-yilda jami 1 mln. 504 ming turist tashrif buyurdi va 261 million AQSh dollari miqdorida turizm xizmatlari ko'rsatildi. Koronavirus pandemiyasi sabab, Turizm sohasida bunday og'ir inqiroz ikkinchi Jahon urushidan beri kuzatilmagan. Shunday sharoitga qaramasdan, 2021-yilda Termizga tashrif buyurgan sayyohlar soni 225113 nafar, shundan 33195 nafari xorijiy davlatlardan kelgan va 191918 nafari mahalliy sayyohlarni tashkil etgan bo'lsa, 2022 -yilda ularning sonini 30 foizga oshirish rejalashtirilgan. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar natijasida turizm sohasi asta-sekin o'z mavqeyini tiklab bormoqda.

Bugungi kunda, pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida mamlakatimizning yirik turistik salohiyati va imkoniyatlaridan foydalangan holda turizm sohasining alohida turlari va yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq qilish, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilash lozim bo'lmoqda. Xususan, hududlardagi ziyorat turizmi, ekoturizm va rekreatsion turizm turlarini rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Zamonaviy shahar madaniyati taraqqiyotida turizm sohasi alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 27-maydagi 332-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida turizm infrastrukturasini rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, Termiz Transport vazirligi va Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan ishlab chiqilgan "Oltin uchburchak" loyihasining markaziga aylanadi. Viloyat investitsion loyihalarni amalga oshirish, eksport ko'lamini kengaytirish, turizm sohasini yanada kengaytirish uchun o'ziga xos potensialga ega. "Open south International Business Forum" xalqaro biznes-forumining tashkil etilishi viloyatning ayni jihatlarini yana bir bor namoyish etdi

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Termiz tumanidagi Qirqqiz, Zurmala, Muzrabot tumanidagi Kampirtepa, Sherobod tumanidagi Jarqo'ton yodgorliklarida keng ko'lamli ta'mirlash, konservatsiyalash va bu obidalarni kelajakda xalqaro sayyohlik manzillariga kiritish borasida faoliyatlar yetarli emas. Shuningdek, yodgorliklar atrofini bir xil ko'rinishda, milliylik an'analarini saqlab qolgan holda obodonlashtirish va binolar holatini tartibga keltirish, shu hududda istiqomat qiladigan aholiga yodgorliklarning saqlanishi yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish talab etiladi. Obyektlarda umumta'lim maktab o'quvchilarini ichki turizm yo'nalishidagi

tashrifini uyushtirish, o'lkani tarixi bilan tanishishlarida va yodgorliklarni saqlashda ahamiyatga ega. Shuningdek, xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, ustaxonalar, an'anaviy milliy buyumlar, ichki va xalqaro turizm bozorida raqobat bardosh turli mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash va respublikamizning jahon turizm bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida marketing tadqiqotlarini takomillashtirish vazifalari ham mavjud.

Biz yashayotgan dunyoda texnologiyalashtirish va sifrovizatsiyalash

jarayonlari ketayotgan bir davrda, turistlar internet yordamida yoki turli ijtimoiy tarmoqlar yordamida axborot olish, joy tanlash, safar biletlarini erkin tanlash imkoniyatlarini yaratish juda muhim hisoblanadi. Boshqa tomondan, vohaga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar uchun ichki transport infratuzilmasining rivojlanganligi, shuningdek, pul almashtirish shaxobchalari mavjudligi, ovqatlanish va mehmonxona xizmatlaridan internet orqali oldindan belgilab qo'yilishi kabi masalalar ham muhim hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.05.2020 y., 09/20/332/0693-son.
2. Новая программа развития городов. 71/256. Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей 23 декабря 2016 года. 38 с.
3. Termiz shahar hokimligi arxivi. Termiz shahar hokimligi boshqaruvi. Yig'majild № 01-15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari. 2021-yil dekabr.45-bet.
4. Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. <https://lex.uz/docs/4832412>
5. "Surxon tongi". 2019 yil 9 aprel. №22(17525).
6. Ochildiyevna N. P. (2023). The Role of International Relations in Improving the Quality of Higher Education (On the Example of Activities of).
7. Рузиев III., Расулов X. Оценка туристического потенциала туризма республики Узбекистан // February, 2022. Multidisciplinary Scientific Journal. - С. 617-629.

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VILOYAT MUSIQALI DRAMA TEATRI FAOLİYATI

G'aniyev Bobur,

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0000-6349-3197>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri faoliyati haqida fikr yuritilgan. Teatr binosining yangidan ta'mirlanishi, yaratilgan shart-sharoitlar, teatr aktyorlari tomonidan sahnalashtirilgan asarlar, jamoaning turli gastrol va festivallardagi ishtiroki xususida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: "O'zbek teatr", Tohir va Zuhra», «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Yoriltosh», «Ravshan va Zulxumor», «Xolisxon», «Nurxon», «Ezop», «Suqrot», «Tristan va Izolda», «Arshin mol-olon», «Ayajonlarim», «Toshbolta oshiq», «Oltin devor», «G'ariblar».

Аннотация. В данной статье рассматривается деятельность Кашкадарьинского областного музыкально-драматического театра в годы независимости. Была дана информация о недавней реконструкции здания театра, созданных условиях, работах, поставленных актерами театра, участии коллектива в различных гастролях и фестивалях.

Ключевые слова: «Узбекский театр», «Тахир и Зухра», «Лайли и Меджнун», «Фарход и Ширин», «Ёрилташ», «Равшан и Зулхумор», «Холисан», «Нурхан», «Эзоп», «Сукрот», «Тристан и Изольда», «Аршин Мол-Олон», «Аяжонларим», «Любовник камня», «Золотая стена», «Чужие».

Abstract. This article discusses the activities of the Kashkadarya regional musical drama theater during the years of independence. Information was given about the recent renovation of the theater building, the created conditions, the works staged by the theater actors, the team's participation in various tours and festivals.

Keywords: "Uzbek Theater", Takhir and

Zuhra", "Layli and Majnun", "Farkhod and Shirin", "Yoriltash", "Ravshan and Zulxumor", "Kholishon", "Nurkhan", "Aesop", "Sukrot", "Tristan and Izolda", "Arshin Mol-Olon", "Ayajonlarim", "Stone Lover", "Golden Wall", "Strangers".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillardan boshlab teatr san'atida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Davlatimiz tomonidan respublika hududidagi teatrlar rivojiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 28-oktyabrda "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilindi. Mazkur qaror asosida mavjud teatrlarning moddiy texnika bazasi mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 26-martdagi "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi[1]. Ushbu farmonda O'zbekistonda asrlar osha yashab kelayotgan tomosha san'ati an'alarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnik negizini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda teatr arboblarning faol ishtirokini ta'minlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlari yaratish, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'laroq qondirish masalalari ko'rsatib o'tildi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Moliya

vazirligi birgalikda Toshkent davlat san'at institutining drama, musiqali teatr, qo'g'irchoq teatri, kino, teleradio, sahna rassomligi, san'at menejmenti bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash doirasini kengaytirish, o'qitish uslubini jahon andozalari darajasiga ko'tarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, respublika teatr tashkilotlarining, ayniqsa, viloyatlardagi teatr muassasalarining malakali dramaturg va rejissyorlarga bo'lgan katta ehtiyojini hisobga olib, oliy ma'lumotli, iqtidorli yoshlardan dramaturg va rejissyorlar tayyorlovchi ikki yillik oliy kurslar tashkil etish, ushbu kurslar davlat buyurtmasi va shartnoma asosida faoliyat yuritishi kabi masalar farmonda belgilab qo'yildi[2]. Mazkur yilda madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida "O'zbek teatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma, teatr jamoalariga xalqimizning boy ma'naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi spektakllar yaratishda, iste'dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilish kabi vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi[3].

O'tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri ham o'zining ijodiy va tashkiliy faoliyatini yangi davr talablari asosida shakllantirishga e'tibor qaratdi. Xususan, shu davrda teatrning repertuari rang-barang mavzudagi va yangi janrdagi dramatik asarlar bilan boyitildi. Teatr jamoasi o'z ijodiy faoliyati davomida ijro etilayotgan sahna asarlarining ko'proq milliy, xalqning ruhiyatiga orzu-istaklariga hamohang bo'lishiga harakat qildi. Juda katta ijodiy kuchni o'z bag'riga olgan teatr jamoasi o'z repertuarini voha ijodkorlarining asarlarini sahnaga olib chiqish orqali ancha boyitib bordi.

2016-yil 29-iyuldagi 246-sonli qarorga muvofiq Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatridan M.Toshmuhammedov nomi olib tashlandi va Qashqadaryo viloyat musiqali

drama teatri deb yuritila boshlandi[4]. Respublikamizda musiqali teatr san'atining rivojlanishida Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrining o'rni beqiyosdir. Mashhur san'at ustalari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arboblari Raimjon Komiljonov, Sadriddin Salimov, O'zbekiston xalq artistlari Farog'at Raxmatova, Ikroma Boltayeva, Sharif Qobilov, Sur'at Po'latov, Muxtarama Nosirova, Omon Beganjiyev, Xusan Amirqulov, Mirza Azizov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Baxrom Kamolov, Jamil Ashurov, Majit Mamatov, Xayit Mustafaqulov, Hamida Ibragimova, Nazira Voxidova, Lola Xoliqova, Yoqub Rajabov, Aliqul Tulayev, Muxiddin Majidov, Tojiddin Murodov, Haqberdi Amirqulov, Odiljon Ismoilov hamda Muxarram Fayzullaeva, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Gulchexra Axmedova, ustoz san'atkorlar Zaynab Samiyeva, Ashirali Xoliqov, Tolib Jalilova, Hazratqul Amirqulov, Baxtiyor Elmurodov, Baxodir Mustafoyev, Salohiddin A'zamov, Elmurod Rasulov, Halima Isroilova, Mamatqul Jalilov, Xol Rajabov, Fayzullo Ochilov, Mustafo Madaliyev, Turdi Jumayev, Toshpo'lat Axmedov, Aziza Bobomurodova Sabo Jalilova, Saygul Gulmurodova, Odiljon Ismoilov, Muxarram Fayzullayeva kabi san'atkorlar aynan mazkur teatrdagi ijod qilgan ustoz san'atkorlar hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek san'atida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, Baxodir Yo'ldoshev teatr repertuaridagi "Nodirabegim" spektaklini sahnalashtirib, juda katta muvaffaqiyat qozonadi. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida O'zbekiston Respublikasi san'at arboblari Olimjon Salimov, Karim Yo'ldoshev, Mansur Ravshanov, Isoq To'rayev kabi yetuk rejissyorlar teatr repertuaridagi eng sara spektakllarni sahnalashtirib kelmoqda. Xalqimizning sevimli san'atkori O'zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonova ham o'z ijod faoliyatini aynan shu teatrdan boshlagan. Teatr sahnasida «Tohir va Zuhra», «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Yoriltosh», «Ravshan

va Zulxumor», «Xolisxon», «Nurxon», «Ezop», «Suqrot», «Tristan va Izolda», «Arshin mol-olon», «Ayajonlarim», «Toshbolta oshiq», «Oltin devor», «Gʻariblar», «Hiylai shaʼriy», «Mullatoʻychi», «Oqibat», «Jannatga yoʻl», «Sohibqiron», «Bir oʻlib koʻraychi», «Chimildiq», «Devona», «Ruhlar isyoni», «Qaytarmikan umr bahori?...» kabi yuzlab oʻzbek va chet el mumtoz asarlari sahnalashtirildi.

2017-yilda Oʻzbek Milliy akademik drama teatrining rejissyori A.Xolmoʻminov tomonidan A.Avloniyning “Advokatlik osonmu..?” spektakli sahnalashtirildi. Mazkur spektakl Toshkent shahrida ijodiy gastrol safarida boʻldi. Shuningdek teatr jamoasi Qoraqalpogʻiston respublikasi Moʻynoq tumanida boʻlib oʻtgan “Orol baliqlaridan 99 turdagi taomlar” gastronomik festivalida, “Orol va Moʻynoqning qayta tiklanishi” ekofestivalida hamda Berdaq va Ajiniyoz ijodiga bagʻishlangan sheʼriy-musiqiy xalqaro festivalida E.Aʼzamning “Orol bobo” spektakli bilan ijodiy gastrol safarida boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan 2018-yil 5-yanvardagi “2018-2022 yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrini taʼmirlash uchun 7 milliard 800 million soʻm ajratildi. Teatrning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish maqsadida koʻpgina amaliy va moddiy yordam koʻrsatildi. Jumladan, 829 million soʻmga katta monitor, 378 million

soʻmga teatr sahnasi uchun parda olib berildi. Zarur mebel va jihozlar olish uchun teatr hisobiga 2 milliard soʻm moddiy mablagʻ ajratib berildi.

2018-yil 13-14 noyabr kunlari Oʻzbekiston xalq shoiri, Oʻzbekiston qahramoni A.Oripovning “Jannatga yoʻl” spektakli bilan Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida ijodiy gastrol safarida boʻldi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan anʼanaviy “Ehtirom-2018” taqdimot marosimida ishtirok etdi. Mazkur tadbirda Ch.Aytmatovning “Oq kema” spektakli “Yilning eng yaxshi spektakli” nominatsiyasi va qimmatbaho sovgʻalar bilan taqdirlandi. 2019-yilda “Seni kuylaymiz zamondosh” Respublika 5 teatr festivalida T.Murod asarlari asosidagi O.Salimovning “Xush vaqt” spektakli bilan ishtirok etdi. Ushbu festivalda Momosuluv obrazini yaratgan Sojida Ashirova “Eng yaxshi ayol obrazi” nominatsiyasini qoʻlga kiritdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xullas, mustaqillik yillarida Oʻzbekiston hududida faoliyat koʻrsatayotgan teatrlar faoliyatini tubdan yaxshilash maqsadida bir nechta qonun va qarorlar qabul qilindi. Qashqadaryo viloyat teatri faoliyatida ham tub oʻzgarishlar sodir boʻldi. Teatr binosini yangidan taʼmirlandi. Uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari koʻrildi. Teatr aktyorlari tomonidan yangi asarlar sahnalashtirildi va turli xildagi gastrol va festivallarda ishtirok etib, yaxshi natijalarga erishdi.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. <https://lex.uz/docs/211910>
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – Тошкент, 1998. 4-сон. 61-модда.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995-йил 28-октябрдаги “Ўзбекистонда театр ва мусиқа санъатини янада ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 415-сон қарори.
4. Худойназарова Ш. Улкан ютуқларнинг мустаҳкам пойдевори.// Қашқадарё. 2024 йил 19 август.

BO'LAJAK TARIX FANI O'QITUVCHILARINI TESTOLOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDAGI MUAMMOLARNI ANIQLASH

Xamidova Rislig'oy Faraxadovna,

Andijon davlat pedagogika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

e-mail.ru hamidovarisligoy@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-6302-5615>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda o'quvchilar bilimini obyektiv baholash, bunda bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini test sinovlariga tayyorlashda o'quv jarayoni sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir qator muammolar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, baholash, testologiya, muammo, nazariy bilim, amaliy ko'nikma, test.

Аннотация: В данной статье выделена объективная оценка знаний учащихся в сов-ременном образовании, которая может негативно повлиять на качество образовательного процесса при подготовке будущих учителей истории к проверочным работам.

Ключевые слова: Обучение, оценка, тестология. проблема, теоретические знания, практические навыки, тест.

Annotatsion: In this article, objective assessment of students' knowledge modern education, which can negatively affect the quality of the educational process in the preparation of future history teachers for tests, is highlighted.

Key words: Education, evaluation, testology. problem, theoretical knowledge, practical skills, test.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban tadqiqot ishimizni samarali va amaliyotga joriy etishda natijaviylikka e'tibor qaratishimiz zarur.[1]

Zamonaviy ta'limda o'quvchilar bilimini

obyektiv baholash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Testologiya ta'lim yutuqlarini o'lchash va tahlil qilish vositasi sifatida o'quv amaliyotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Biroq, bo'lajak tarix o'qituvchilarini test sinovlariga tayyorlashda o'quv jarayoni sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Bo'lajak o'qituvchilarni testologik faoliyatga tayyorlashdagi muammolarni aniqlash bo'yicha adabiyotlar tahlili, bu sohada mavjud nazariy va amaliy jihatlarni chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Ushbu sohadagi adabiyotlarni tahlil qilish bir qator muhim jihatlarni ko'rsatishi mumkin. Quyida bu borada foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar va ularning tahlili haqida ma'lumot keltirilgan:

Ta'lim metodikasi va didaktika:

- Adabiyotlar: "Didaktik asoslar" (O'zbekiston pedagogika instituti nashrlari) va "Ta'lim metodikasi" (turli mualliflar).

- Tahlil: Ushbu asarlar ta'lim jarayonida testologik faoliyatning o'rni va ahamiyatini yoritib beradi. O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va o'quvchilarni baholashdagi nazariy asoslar haqida ma'lumotlar taklif etiladi.

Testologiya va baholash tizimlari:

- Adabiyotlar: "Testologiya: nazariya va amaliyot" (X.L. Karimova), "Baholash tizimlari" (S. Akramova).

- Tahlil: Bu asarlar testlarni tayyorlash va baholashda yuzaga keladigan muammolarni aniqlashga yordam beradi. Mualliflar o'qituvchilarni testologik faoliyatga tayyorlashdagi qiyinchiliklar va innovatsion yondashuvlar haqida to'liq ma'lumotlar beradi.

Psixologik jihatlar:

- Adabiyotlar: "Ta'lim psixologiyasi" (N.E.

Makhmudov), "O'qituvchilarning psixologik tayyorgarligi" (A. R. Murodov).

- Tahlil: Bu asarlar o'qituvchilarning psixologik tayyorgarlik darajasini va ularning testologik faoliyatda o'quvchilarning psixologik holatini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. O'qituvchilarning psixologik tayyorgarlik darajasi ko'pincha testologik faoliyatni amalga oshirishni murakkablashtiradi.

Amaliy tadqiqotlar:

- Adabiyotlar: "O'qituvchilarni testologik faoliyatga tayyorlash jarayonidagi amaliy masalalar" (ilmiy maqolalar to'plami).

- Tahlil: Ushbu maqolalar o'qituvchilarni tayyorlashda duch kelinadigan muammolarni, ularni hal etish bo'yicha tavsiyalarni va amaldagi tajribalarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar:

- Adabiyotlar: "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" (F.B. Xasanov), "Innovatsion ta'lim metodlari" (N.M. Ilona).

- Tahlil: Bu adabiyotlar zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo'llash orqali testologik faoliyatni samarali tashkil etish mumkinligini ko'rsatadi. Bunda o'qituvchilarning tayyorgarligini oshirish va muammolarni hal etish uchun yangi yondashuvlar taklif etiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini test sinovlariga tayyorlashda bilim va ko'nikmalarni baholashning muhim vositasini samarali o'zlashtirishni qiyinlashtiradigan qator muammolar yuzaga keladi. Asosiy muammolar:

1. Nazariy bilimlarning etishmasligi :

✓ Testologiya asoslarini yomon tushunish: ko'pgina bo'lajak tarix o'qituvchilari testologiya tamoyillari, test turlari, ularning kuchli va zaif tomonlari haqida faqat yuzaki tushunchaga ega;

✓ Testlarning psixometrik xususiyatlariga yetarlicha e'tibor bermaslik: testlarning haqiqiyliigi, ishonchliligi va obyektivligi va ularning baholash sifatiga ta'sirining ahamiyatini tushunishning cheklanganligi;

✓ Pedagogik psixologiya va psixodiagnostikaga yetarlicha e'tibor

berilmaganligi: psixologik omillarning test natijalariga ta'siri va testlarni tuzishda ularni hisobga olish usullari to'g'risidagi bilimlar kam rivojlangan.

2. Amaliy ko'nikmalarning etishmasligi :

✓ Test topshiriqlarini yozish bo'yicha amaliyotning yo'qligi: ularda har xil turdagi javoblarga ega bo'lgan yuqori sifatli topshiriqlarni yaratishda yetarlicha ko'nikmalar yo'q;

✓ Natijalarni sinovdan o'tkazish va tahlil qilishning cheklangan amaliyoti: ular sinovni tashkil etish va olingan ma'lumotlarni sharhlashda yetarli tajribaga ega emasligi;

✓ Testni yaratish va o'tkazish uchun zamonaviy vositalarni bilmaslik: onlayn testlarni yaratish va o'tkazish uchun dasturiy ta'minotni yetarli darajada bilmaslik (masalan, Google Forms, Moodle).

3. Tarixning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berilmasligi :

✓ Tarixiy bilim va ko'nikmalarni baholash usullari haqida cheklangan bilim: tarixiy tushunchalarning konteksti va murakkabligini hisobga olgan holda tarix fanidan test topshiriqlarini tuzishning o'ziga xos xususiyatlariga yetarlicha e'tibor berilmaydi;

✓ Yuqori sifatli tarixiy testlar namunalarining yo'qligi: yaxshi tarixiy testlar misollari va ularni tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalarga ega bo'lgan manbalarga kirishning etishmasligi.

4. Motivatsiya va qiziqishning etishmasligi:

✓ Testologiyani kasbiy faoliyat uchun ahamiyatini yomon tushunish: muvaffaqiyatli o'qituvchining karyerasidagi rolini tushunmaslik tufayli testologiya faoliyatini o'zlashtirish uchun motivatsiyaning yo'qligi;

✓ Nazariy bilim va amaliyot o'rtasidagi aloqaning yetarli emasligi: olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash va o'qitish jarayonida uning real samarasini ko'rish imkoniyatining yo'qligi.

5. Resurslarning etishmasligi:

✓ Testologiya bo'yicha zamonaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalarining etishmasligi: testologiyani mustaqil o'rganish va test yozish amaliyoti uchun sifatli materiallardan foydalanish cheklanganligi;

✓ Amaliy mashg'ulotlar uchun vaqt va resurslarning etishmasligi: o'quv rejasidagi amaliy soatlar sonining cheklanganligi va zamonaviy sinov uskunalari bilan ta'minlanmaganligi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlashda bir qancha muammolar mavjud. Ularni quyidagi asosiy jihatlar orqali ko'rib chiqish mumkin:

1. Ta'lim dasturlarining yetarli emasligi: O'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida testologik faoliyatga oid materiallar va metodologiyalar yetarli darajada kiritilmagan. Bu esa o'qituvchilarning test tayyorlash va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

2. Amaliyotning yetishmasligi: Bo'lajak o'qituvchilar ko'pincha nazariy bilimlarga ega bo'lishsa-da, amaliy tajriba yetishmaydi. Testologik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

3. Innovatsion metodlarning qo'llanilishi: Zamonaviy ta'limda innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Biroq, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida bu metodlarni o'rganish va qo'llashda muammolar mavjud.

4. Baholash tizimining noaniqligi: Testologik faoliyatni amalga oshirishda baholash mezonlari va tizimlarining noaniqligi o'qituvchilarning o'z ishini to'g'ri baholashiga to'sqinlik qiladi. Bu esa o'qituvchilarning bilimni baholashda adolatsizlikka olib kelishi mumkin.

5. Psixologik tayyorgarlik: O'qituvchilar testologik faoliyatda o'qituvchilarning psixologik holatini hisobga olishlari zarur.

Biroq, bu borada yetarli tayyorgarlik ko'rmaslik muammosi mavjud.

6. O'qituvchilarni doimiy ravishda qayta tayyorlash: Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va yangiliklarga mos ravishda o'qituvchilarni doimiy ravishda qayta tayyorlash zarur. Biroq, bu jarayon ko'pincha e'tibordan chetda qoladi[2].

Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta'lim dasturlarini takomillashtirish, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish, innovatsion metodlarni joriy etish va o'qituvchilarni doimiy ravishda qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu orqali bo'lajak tarix o'qituvchilarining testologik faoliyatga tayyorgarligini oshirish mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Testologik faoliyatga tayyorlashdagi muammolarni aniqlash bo'yicha adabiyotlar tahlili, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun muhim strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu tahlil natijalaridan foydalanib, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va o'qituvchilarning testologik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish mumkin.

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlash muammolarini aniqlash ularni hal etish yo'lidagi muhim qadamdir. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilariga tarix fanining o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy ta'lim talablarini hisobga olgan holda testologiya yo'nalishi bo'yicha yuqori sifatli nazariy va amaliy tayyorgarlik ko'rishlari uchun sharoit yaratish zarur.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti"- T: O'qituvchi, 2017.
3. Abdurahmonov S.M, Ibragimov Sh.M Ta'lim tizimida baholashning asosiy mezonlari va ahamiyati. FarDU Ilmiy xabarlar., 2022 №2. -349 b.
4. F.A.Akramova, G.Ochilova. Pedagogika. Psixologiya. T. TDIU., 2007
5. Azizxujayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.-T: TDPU, 2000. - 59 b.

BXSРDA MA'MURIY-HUDUDIIY O'ZGARISHLARNING AMALGA OSHIRILISH JARAYONLARI (JANUBIIY HUDUDLAR MISOLIDA)

Abdusalomov Muslimbek Yusufjon o'g'li,

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0005-6552-0083>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya. Mazkur maqolada, 1917-yilda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar, Buxoro amirligining ag'darilishi, sovet hokimiyatining o'rnatilishi, BXSР ning tashkil etilishi masalalari va shuningdek, mazkur davrda ma'muriy-hududiy bo'linish siyosati va uning janubiy hududlarda amalga oshirilishi holatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Inqilob, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, RSFSР Xalq Komissarlari Soveti, Turkkomissiya, Turkbyuro, revkom, Xalq Nozirlar Sho'rosi, Buxoro muvaqqat inqilobiy qo'mitasi, Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komiteti.

Аннотация. В данной статье рассматриваются политические изменения, произошедшие в 1917 году, свержение Бухарского эмирата, установление Советской власти, образование СССР, а также политика административно-территориального деления и ее реализация в южных регионах в этом году указан период.

Ключевые слова: Революции, ВЦИК, Совет Народных Комиссаров РСФСР, Турккомиссия, Туркбюро, Ревком, Совет народных наблюдателей, Временный революционный комитет Бухары, ЦК Бухарской компартии.

Abstract. This article discusses the political changes that occurred in 1917, the overthrow of the Bukhara Emirate, the establishment of Soviet power, the formation of the BSSR, as well as the policy of administrative-territorial division during this period and the circumstances of its implementation in the southern khussduds.

Keywords: Revolution, All-Russian Central Executive Committee, Soviet of People's Commissars of the RSFSР, Turkcommissia, Turkburo, Revkom, Council

of People's Supervisors, Provisional Revolutionary Committee of Bukhara, Central Committee of the Communist Party of Bukhara.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asrning dastlabki choragida vatanimiz tarixida muhim siyosiy voqea hodisalar yuz berdi. Bu paytda Rossiya imperiyasining yarim mustamlakachiligi sharoitida yashab kelayotgan Buxoro amirligi hududidagi aholi ozodlik va mustaqillik g'oyalari uchun kurash boshladi. Mazkur kurashga Turkiston taraqqiyparvarlari va jadidlar boshchilik qilishdi. Buxoro amirligi hududida yosh buxoroliklar partiyasi islohotlar o'tkazish uchun siyosiy kurash maydoniga kirdi.

MUHOКAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1917-yil fevral va oktyabr oylarida Petrogradda bo'lgan inqilobiy voqealar Turkiston o'lkasi va Buxoro amirligi siyosiy hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur yilning kuz oylariga kelib, avval Petrogradda keyin esa Moskvada, shuningdek, Toshkent, Samarqand va Turkiston o'lkasining boshqa shaharlarida hokimiyat zo'ravonlik bilan sovetlar tomonidan bosib olindi. Bu davrda Buxoro amirligida ham siyosiy vaziyat keskinlashdi. Toshkentda noqonuniy o'rnatilgan sovet hokimiyati hamda bolsheviklar 1918-yilning erta bahorida Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti raisi F.Kolesov Buxoroga harbiy hujum uyushtirdi[1]. Ammo ushbu hujum muvaffaqiyatsizlikka uchradi va shu yilning 25-martda Qiziltepa temir yo'l stansiyasida ikki o'rtada bitim imzolandi. Ammo, sovet hokimiyati Buxoroni bosib olish va amir hokimiyatini ag'darib tashlash rejasidan qaytmadi.

1920-yil avgust oyida Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi hamda RSFSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Turkiston ishlari bo'yicha komissiya (Turkkomissiya) hamda RKP(b) Markaziy Komiteti Turkiston byurosi (Turkbyuro) Buxoro amirligini bosib olish rejasini tuzdi[2]. Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunze Samarqand shahridan turib harbiy harakatlarga rahbarlik qildi. Mazkur davrda Qashqadaryo vohasi Buxoro amirligi tarkibida bo'lib, amirlik hududiga uyushtirilgan sovet qo'shinining hujumidan voha aholisi katta talofat ko'rdi.

1920-yil 28-avgustda sovetlarning 1-sonli Turkiston otliq diviziyasi qizil askarlari, Taxti Qoracha dovonidan o'tib, amir sarbozlari bilan jangga kirishadi. Kitob va Shahrisabz shaharlari qizil armiya qo'shinlari tomonidan bosib olinadi. Shuningdek, Yakkabog', Chiroqchi, G'uzor va Qarshi hududlari ham dushman qo'liga o'tadi. Navbatdagi yurishda Buxoro shahri bosib olinishi, Amir Olimxonni asirga tushirish va Arki oliydagi xazinani egallashi kerak edi". Mazkur yilning 2-sentyabrda M.Frunze boshchiligidagi qizil armiya qo'shinlari tomonidan amirlikning poytaxti bo'lgan Buxoro shahri bosib olindi. Buxoro amiri Amir Olimxon taxtdan ag'darildi va hududda sovet hokimiyati o'rnatildi. Buxoro Muvaqqat inqilobiy qo'mitasi (revkom) amirlik tuzumi ag'darib tashlanganligi va mustaqil Buxoro Xalq Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi.

1920-yil 14-sentyabrda Xalq Nozirlar Sho'rosi, Buxoro muvaqqat inqilobiy qo'mitasi va Buxoro Kompartiyasi MK ning umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Abduqodir Muhiddinov raisligida Butunbuxoro inqilobiy qo'mitasi va Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi respublika hukumati – Xalq Nozirlar Sho'rosi tuzildi. Shu yilning 6–8 oktabr kunlari Buxoroda Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyi bo'lib o'tdi[4]. Unda Buxoro Xalq Sovet respublikasi (BXSR) tashkil topganligi tantanali ravishda e'lon qilindi.

Buxoro amirligi davrida mamlakat 32 ta (ba'zi manbalarda 27 ta) beklikka, bu bekliklar esa o'z vaqtida amloklarga bo'linib,

idora qilinardi. Mamlakat poytaxti — Buxoro shahri atrofidagi hudud 8 ta tumanga ajratilib, bu tumanlarni va Buxoro shahrini amir nomidan qo'shbegi — bosh vazir boshqargan [5]. Bu ma'muriy bo'linish fuqaroga yaxshiroq xizmat ko'rsatish manfaatini ham, boshqarishning qulay bo'lishi manfaatlarini ham unchalik qondirmas edi.

1920-yilning kuzida Buxoro Xalq Sovet Respublikasida dastlabki ma'muriy — hududiy bo'linish o'tkazildi. BXSR viloyatlar, tumanlar, kentlar va qishloqlarga ajratildi. Bu davrda respublika hududida 15 ta viloyat, 55 ta tuman va kentlardan iborat bo'lgan. Jumladan hozirgi Qashqadaryo vohasida bu davrda Qarshi, Shahrisabz, G'uzor viloyatlari tashkil etildi. Qarshi viloyati tarkibida Beshkent, Koson, Chim, G'uzor viloyatiga G'uzor, Tangatushar, Yangi, Qamashi, Shahrisabz viloyatiga Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog' kabi tuman va kentlar kiritilgan. Respublikaning poytaxti Buxoro shahri muhim siyosiy-ma'muriy markaz hisoblangan. Buxoro shahrida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotini iqtisodiy va madaniy rivojlanishini boshqaruvchi tashkilot va muassasalar joylashgan edi.

1920-1924 yillarda Buxoro Respublikada ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatga qarab tez-tez o'zgarib turganligini va bir necha bor o'tkazilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, respublika tarkibida 1922- yilda 2 ta, 1923-yilda 8 ta, 1924-yilda 15 viloyatga bo'linganligini ko'rishimiz mumkin[6].

Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qarori bilan 1924-yil 1- oktyabrda Buxoro Respublikasida ma'muriy-hududiy bo'linish qayta o'tkazilib, viloyatlar o'rniga 6 ta okrug (Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Turkman [Amudaryo], Sharqiy Buxoro) tuziladi. Qishloqlarda boshqaruvning tarixan shakllangan oqsoqollik boshqaruvi rad etilib, qishloq sovetlari (selsovetlar) tuzishga kirishildi[7]. Zarafshon okrugi 3 ta viloyat (Buxoro, Karmana, Nurota), 8 ta tuman (Qorako'l, Bahouddin, Vobkent, G'ijduvon, Karmana, Ziyovuddin, Xatirchi, Nurota) va 2202 ta qishloq, Qashqadaryo okrugi 2 ta viloyat (Qarshi, Shahrisabz), 9 ta tuman (Qarshi, Koson, Beshkent, Shahrisabz, Kitob,

Yakkabogʻ, Chiroqchi, Gʻuzor, Chim), Surxondaryo okrugi 6 ta tuman (Sherobod, Termiz, Boysun, Qarluq, Qabodiyon, Qoʻrgʻontepa), Turkman (Amudaryo) okrugi 2 ta viloyat (Karki, Chorjoʻy) va 608 ta qishloq, Sharqiy Buxoro 6 ta viloyat (Koʻlob, Boysun, Sariosiyo, Gʻarm, Dushanbe, Qoʻrgʻontepa) va 3646 ta qishloqqa ajratilgan.

Mahalliy hokimiyat organlari viloyat, tuman, kent xalq shoʻrolarining kengashlari va ularning ijroiya qoʻmitalaridan tashkil topgan. BXSr da mavjud boʻlgan qishloq va ovul doirasidagi mahalliy hokimiyat qishloq va ovul aholisining umumiy yigʻilishi orqali amalga oshirilgan. U oqsoqol tomonidan chaqirilgan hamda oqsoqol qishloq, ovul aholisi yigʻilishi tomonidan bir yil muddatga saylangan.

BXSrning hududi 182,2 ming km² boʻlib, 1920-yilda aholisi qariyb 3-3,5 mln, 1922-yilda 2,8 mln. kishi boʻlgan. Buxoro Respublikasida asosan oʻzbeklar (65%), shuningdek tojiklar (14%), qozoqlar (9%), turkmanlar (7%), forslar (1,1%) va boshqa xalqlar yashashgan[8].

1924-yilda bolsheviklarning “boʻlib tashla, hukmronlik qil” shiori ostida oʻtkazilgan milliy-davlat chegaralanishi natijasida Buxoro respublikasi tugatildi. Oʻzbekiston SSR tashkil topdi. Mazkur davrda viloyatlar okruglarga, tumanlar rayonlarga aylantiriladi, kentlar esa, umuman, tugatiladi. Uning tarkibida bir qator viloyatlar shu jumladan, Qashqadaryo oblasti (1924-yil 1-noyabr)

tashkil topdi. Qarshi shahri viloyat markazi sifatida tasdiqlandi. Oblastda 3 ta Qarshi, Gʻuzor, Shahrisabz uyezdleri tuzildi. Qarshi uyezdi 6 volostdan iborat boʻlib, Koson qishlogʻi, uyezdning markazi etib tasdiqlandi. Shuningdek, Gʻuzor uyezdida 3 ta, Shahrisabz uyezdida 4 ta volost tashkil etildi. Bu shaklda maʼmuriy boʻlinish va hududlarning uyezd, volost shaklida nomlanishi bilan vohada yangicha boshqaruv tizimi shakllandi.

Oʻzbekiston SSR Revkomining 1925-yil 29-yanvardagi qaroriga koʻra yangi tuzilayotgan respublikaning maʼmuriy tuzilishi quyidagicha boʻlgan: OʻzSSR 7 ta viloyat va alohida Nurota uyezdiga boʻlingan. Viloyatlar 32 ta uyezd, uyezdlar esa 312 ta volostga boʻlingan.

1926-yilning sentyabrida viloyatda Beshkent, Koson, Kitob, Shahrisabz, Yakkabogʻ, Chiroqchi, Gʻuzor, Dehqonobod singari tumanlar tashkil etildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xullas, qizil armiya qoʻshinlari tomonidan Buxoro amirligi agʻdarildi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etildi. BXSr yillarida bir necha marta maʼmuriy-hududiy boʻlinishi tadbirlari amalga oshirildi. Qashqadaryo vohasi hududida Qarshi, Shahrisabz, Gʻuzor viloyatlari tashkil etildi. Ularning tarkibida tumanlar va kentlar tashkil etildi. 1924-yilga kelib Oʻrta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish siyosati oʻtkazildi va Qashqadaryo oblasti tashkil etildi.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. -Тошкент: Маънавият, 2000.
2. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 й.). — Тошкент: Маънавият, 2002.
3. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
4. История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик. - Москва: «Наука», 1971.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, Шарқ. 2000.
6. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. - Тошкент, Янги аср авлоди, 2019.
7. Ражабов Қ, Қандов Б, Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги давлардан бугун-ги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган олтинчи нашр. –

Тошкент: “O‘zbekiston”, 2015.

8. Ўзбекистон миллий архиви, 47-фонд, 1-рўйхат, 429-иш, 92-96-варақлар.

SURXONDARYO OKRUGIDA OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH TIZIMNI YO'LGA QO'YISH BORASIDAGI TADBIRLARI

Rasulova Muhayyo Mirzamurot qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0006-6501-221X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi. Maqolada Sovet hukumati davrida Surxondaryo okrugida oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash tizimni yo'lga qo'yish borasidagi tadbirlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Okrug, monografiya, likbez, pedagogika, professor, paxtachilik, dehqon, tadqiqot, islohot.

Аннотация: Развитие науки, техники, производства и технологий приводит к фундаментальным изменениям в системе образования. Модернизация системы образования происходит исходя из потребностей государства и общества в квалифицированных кадрах, а также потребностей личности в качественном образовании. В статье говорится о мерах, принятых советским правительством по созданию системы подготовки специалистов в системе высшего и среднего специального образования в Сурхандарьинском районе.

Ключевые слова: округ, монография, ликбез, педагогика, профессор, хлопководство, фермер, исследования, реформа.

Abstract: The development of science, technology, production and technology leads to fundamental changes in the education system. The modernization of the education system occurs based on the needs of the state and society for qualified personnel, and the individual for quality education. The article discusses the measures taken by the Soviet

government to establish a system of training specialists in higher and secondary specialized education in the Surkhandarya district.

Keywords: District, monograph, educational program, pedagogy, professor, cotton growing, farmer, research, reform.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Surxondaryo okrugida mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. "Okrugda dastlab qisqa muddatli kurslar tashkil etilib, ularda dehqonlarga paxtachilikning ilg'or usullari o'rgatilgan"[1]. Keyinchalik esa o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari tarmog'i shakllantirila boshlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Surxondaryo hududida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalasi ko'plab mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, tarix fanlari doktori R.X. Murtazoyeva o'zining "O'zbekistonda xalq ta'limi tarixi (1917-1941)" nomli monografiyasida ushbu davrda mintaqada amalga oshirilgan ta'lim sohasidagi islohotlarni chuqur tahlil qilgan. Olimaning fikricha, 1920-yillarning boshlarida Surxondaryo okrugida dastlabki pedagogik kurslar tashkil etilishi mahalliy aholi uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirdi va malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimining poydevorini yaratdi"[2].

Surxondaryo okrugida mutaxassislar tayyorlash masalasi bo'yicha qator tadqiqotchilar, jumladan D.A.Alimova, Q.Rajabov va N.E.Karimovlarning ilmiy ishlarida chuqur tahlil qilingan. Xususan,

D.A.Alimova o'zining "Surxondaryo viloyati tarixi" nomli monografiyasida okrugdagi ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlarini batafsil yoritgan.

Tadqiqotchi O.A. Qodirov[3] esa o'z ishlarida Surxondaryo viloyatida xalq ta'limi tizimining shakllanish jarayonlarini o'rganib, 1920-yillarda mintaqada savodxonlik darajasi nihoyatda past bo'lganligini va bu muammoni hal etish uchun maxsus savodsizlikni tugatish maktablari — "likbez"(rus tilidagi "likvidatsiya bezgramotnosti" so'zining qisqartmasi bo'lib, "savodsizlikni tugatish" degan ma'noni anglatadi)lar tashkil etilganligini ta'kidlaydi. Bu maktablarda nafaqat yosh bolalar, balki katta yoshdagi aholi ham ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Professor M.M. Ergashev[4] o'zining ilmiy tadqiqotlarida Surxondaryo okrugida 1920-yillarda amalga oshirilgan ta'lim sohasidagi islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini o'rgangan. Uning fikricha, bu davrda pedagogik kurslarning tashkil etilishi va xalq ta'limi tizimining shakllanishi mintaqaning keyingi rivojlanishi uchun muhim zamin yaratdi.

МУНУКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1920-yillarning boshlarida Surxondaryo okrugida ta'lim tizimini rivojlantirish borasida dastlabki qadamlar qo'yildi. Bu davrda mintaqada umumta'lim maktablari tarmog'i kengaytirildi, dastlabki pedagogik kurslar tashkil etildi va savodsizlikni tugatish maktablari ochildi. Bu jarayonda mahalliy aholining savodxonlik darajasini oshirish va malakali pedagog kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Okrugda pedagogik kurslarning tashkil etilishi mahalliy aholi uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu kurslarda o'qituvchilik kasbining asoslari o'rgatilib, kelajakda maktablarda dars beradigan pedagoglar tayyorlana boshlandi. Kurslarda ta'lim olgan o'qituvchilar keyinchalik mintaqadagi maktablarda faoliyat yuritib, mahalliy aholining savodxonlik darajasini oshirishga hissa qo'shdilar.

Xalq ta'limi tizimining shakllanishi jarayonida umumta'lim maktablari tarmog'i kengaytirildi. Yangi maktab binolari qurildi, mavjud maktablar ta'mirlandi va zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlandi. Maktablarda ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'quv dasturlari takomillashtirildi, darsliklar va o'quv qo'llanmalari nashr etildi.

Savodsizlikni tugatish maktablarining ochilishi mintaqada savodxonlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu maktablarda nafaqat bolalar, balki katta yoshdagi aholi ham ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. "Likbez" maktablarida o'qish-yozish ko'nikmalari o'rgatilib, aholining umumiy madaniy saviyasi oshirildi.

1920-yillarning o'rtalarida Surxondaryo okrugida ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar yanada rivojlantirildi. Pedagogik kurslar faoliyati takomillashtirildi, yangi o'quv dasturlari joriy etildi va o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu davrda mintaqada ta'lim olayotgan o'quvchilar soni sezilarli darajada oshdi.

Xalq ta'limi tizimining rivojlanishi natijasida maktablarda ta'lim sifati yaxshilandi. O'qituvchilarning pedagogik mahorati oshdi, dars berish usullari takomillashdi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi. Maktablarda fanlarni o'qitish sifati yaxshilanib, o'quvchilarning bilim darajasi oshdi.

1920-yillarning oxiriga kelib, Surxondaryo okrugida ta'lim tizimi yanada rivojlandi. Pedagogik kurslar bazasida pedagogika texnikumlari tashkil etildi, kasb-hunar ta'limi yo'lga qo'yildi va katta yoshdagilar uchun kechki ta'lim maktablari ochildi. Bu davrda mintaqada malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimi takomillashdi.

Pedagogika texnikumlarining ochilishi malakali o'qituvchilar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Texnikumlarda o'qituvchilik kasbining nazariy va amaliy asoslari chuqur o'rgatilib, zamonaviy pedagogik bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlana boshlandi. Texnikumlarni bitirgan o'qituvchilar mintaqadagi maktablarda faoliyat yuritib, ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shdilar.

Kasb-hunar ta'limining yo'lga qo'yilishi mintaqada malakali ishchi kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini yaratdi. Kasb-hunar maktablarida turli sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlana boshlandi. Bu esa mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Katta yoshdagilar uchun kechki ta'lim maktablarining ochilishi aholining keng qatlamlari uchun ta'lim olish imkoniyatlarini yaratdi. Bu maktablarda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish imkoniyati yaratildi. Natijada, mintaqada malakali mutaxassislar soni oshdi.

1930-yillarning boshlariga kelib, Surxondaryo okrugida ta'lim tizimi yangi bosqichga ko'tarildi. Pedagogika texnikumlari faoliyati takomillashdi, kasb-hunar ta'limi rivojlandi va malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu davrda mintaqada ta'lim sifatini oshirish borasida muhim yutuqlarga erishildi.

"1930 yilda Termiz shahrida paxtachilik texnikumi ochildi. Bu texnikum okrugda birinchi o'rta maxsus o'quv yurti edi"[5]. Texnikumda o'quv jarayoni amaliy bilimlarga asoslangan holda tashkil etildi. Talabalar nazariy bilimlar bilan bir qatorda paxtachilik xo'jaliklarida amaliyot o'tashdi.

Pedagogika texnikumlarida o'qitish sifati yaxshilandi. Yangi o'quv dasturlari joriy etildi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanila boshlandi va o'qituvchilarning malakasi oshirildi. Texnikumlarni bitirgan mutaxassislar mintaqadagi maktablarda samarali faoliyat yurita boshladilar.

Kasb-hunar ta'limi sohasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Yangi kasb-hunar maktablari ochildi, o'quv-moddiy baza mustahkamlandi va o'qitish sifati yaxshilandi. Bu maktablarda tayyorlangan malakali ishchi kadrlar mintaqaning turli sohalarida faoliyat yurita boshladilar.

Malaka oshirish tizimining yo'lga qo'yilishi pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. O'qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etildi, seminarlar o'tkazildi va ilg'or pedagogik tajriba almashinuvi yo'lga qo'yildi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qildi.

1930-yillarning o'rtalarida Surxondaryo okrugida ta'lim tizimi yanada rivojlandi. Pedagogika texnikumlari bazasida yangi mutaxassisliklar ochildi, kasb-hunar ta'limi tarmog'i kengaytirildi va malaka oshirish tizimi takomillashdi. Bu davrda mintaqada malakali mutaxassislar tayyorlash borasida muhim yutuqlarga erishildi.

Pedagogika texnikumlarida yangi mutaxassisliklarning ochilishi malakali pedagog kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Texnikumlarda turli fanlar bo'yicha o'qituvchilar tayyorlana boshlandi. Bu esa mintaqadagi maktablarda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qildi.

Kasb-hunar ta'limi tarmog'ining kengayishi natijasida yangi kasb-hunar maktablari ochildi. Bu maktablarda turli sohalar bo'yicha malakali ishchi kadrlar tayyorlana boshlandi. Natijada, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mutaxassislar yetishtirildi.

Malaka oshirish tizimining takomillashuvi pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. O'qituvchilar uchun yangi malaka oshirish kurslari tashkil etildi, ilmiy-metodik seminarlar o'tkazildi va ilg'or pedagogik tajriba almashinuvi yo'lga qo'yildi.

1930-yillarning oxiriga kelib, Surxondaryo okrugida ta'lim tizimi yanada rivojlandi. Pedagogika texnikumlari faoliyati takomillashdi, kasb-hunar ta'limi tarmog'i kengaydi va malaka oshirish tizimi mustahkamlandi. Bu davrda mintaqada malakali mutaxassislar tayyorlash borasida sezilarli yutuqlarga erishildi.

Pedagogika texnikumlarida o'qitish sifati yanada yaxshilandi. Yangi o'quv dasturlari joriy etildi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanila boshlandi va o'qituvchilarning malakasi muntazam ravishda oshirildi. Texnikumlarni bitirgan mutaxassislar mintaqadagi ta'lim muassasalarida samarali faoliyat yurita boshladilar.

Kasb-hunar ta'limi tarmog'ining kengayishi natijasida yangi kasb-hunar maktablari ochildi. Bu maktablarda turli sohalar bo'yicha malakali ishchi kadrlar

tayyorlana boshlandi. Natijada, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mutaxassislar yetishtirildi.

Surxondaryo viloyatida 1930-1940 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi masalasi bir qator mahalliy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, tarix fanlari doktori A.S.Sagdullayev[6] o'zining "O'zbekistonda pedagogik ta'lim tarixi (1928-1945)" nomli fundamental tadqiqotida viloyatda pedagogika texnikumlarining tashkil etilishi va rivojlanishi jarayonlarini batafsil tahlil qilgan.

Professor B.X.Doniyorov[7] esa o'z ilmiy ishlarida Surxondaryo hududida o'qituvchilar malakasini oshirish tizimining shakllanish jarayonlarini tadqiq etgan. Olimning fikricha, 1930-yillarda mintaqada pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarining tashkil etilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarixchi olim K.K.Rajabov[8] tomonidan Surxondaryo viloyatida kasb-hunar ta'limining rivojlanish tarixi o'rganilgan. Uning tadqiqotlarida 1930-yillarda mintaqada kasb-hunar maktablarining ochilishi va ularning faoliyati yoritib berilgan.

1930-yillarning boshlarida Surxondaryo okrugida ta'lim tizimini rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Bu davrda mintaqada dastlabki pedagogika texnikumlari ochildi, o'qituvchilar malakasini oshirish kurslari tashkil etildi va kasb-hunar maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu jarayonda malakali pedagog kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Pedagogika texnikumlarining ochilishi mintaqada malakali o'qituvchilar tayyorlash tizimini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. Texnikumlarda o'qituvchilik kasbining nazariy va amaliy asoslari chuqur o'rgatilib, zamonaviy pedagogik bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlana boshlandi. Pedagogika texnikumlarida o'quv jarayoni ilmiy asosda tashkil etildi, zamonaviy o'quv dasturlari joriy qilindi va o'quv-metodik baza mustahkamlandi.

Texnikumlarda ta'lim olayotgan talabalar soni yildan-yilga oshib bordi. Talabalar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi, o'quv

binolari ta'mirlandi va zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlandi. Texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning malakasi muntazam ravishda oshirilib borildi.

Pedagogika texnikumlarida ta'lim sifatini oshirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalar joriy etildi. Dars berish usullari takomillashtirildi, o'quv-metodik qo'llanmalar yaratildi va amaliy mashg'ulotlar samaradorligi oshirildi. Talabalarning pedagogik amaliyoti tizimli ravishda tashkil etildi.

1930-yillarning o'rtalariga kelib, pedagogika texnikumlari faoliyati yanada takomillashdi. Yangi mutaxassisliklar ochildi, o'quv dasturlari takomillashtirildi va o'qituvchilar tarkibi malakali mutaxassislar bilan to'ldirildi. Texnikumlarni bitirgan o'qituvchilar mintaqadagi maktablarda samarali faoliyat yurita boshladilar.

O'qituvchilar malakasini oshirish kurslarining tashkil etilishi pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Kurslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'rgatildi, ilg'or pedagogik tajriba o'rganildi va metodik tavsiyalar berildi. Malaka oshirish kurslarida mintaqadagi barcha umumta'lim maktablari o'qituvchilari qamrab olindi.

Kurslarda ta'lim jarayoni nazariy va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligida olib borildi. Nazariy mashg'ulotlarda pedagogika va psixologiya fanlarining yangi yutuqlari o'rganildi, zamonaviy ta'lim metodlari o'rgatildi va fan o'qitish metodikasi takomillashtirildi. Amaliy mashg'ulotlarda esa o'qituvchilar o'z tajribalarini o'rtoqlashdilar va yangi pedagogik usullarni amalda qo'llash ko'nikmalarini egalladilar.

Malaka oshirish kurslarida o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari inobatga olindi. Turli fanlar bo'yicha maxsus kurslar tashkil etildi, metodik seminarlar o'tkazildi va ochiq darslar tashkil etildi. Kurslarni tamomlagan o'qituvchilar o'z maktablarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy eta boshladilar.

1930-yillarning ikkinchi yarmida malaka oshirish tizimi yanada takomillashdi. Yangi o'quv dasturlari ishlab chiqildi, o'qitish

metodlari takomillashtirildi va kurslarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Malaka oshirish kurslarida ta'lim sifatini baholash tizimi joriy etildi.

Kasb-hunar maktablarining faoliyati yo'lga qo'yilishi mintaqada malakali ishchi kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini yaratdi. Bu maktablarda turli sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlana boshlandi. Kasb-hunar maktablarida o'quv jarayoni nazariy va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligida olib borildi.

Maktablarda zamonaviy o'quv ustaxonalari tashkil etildi, zarur jihozlar bilan ta'minlandi va ishlab chiqarish amaliyoti yo'lga qo'yildi. O'quvchilar nazariy bilimlarni egallash bilan birga, amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirib bordilar. Kasb-hunar maktablarida malakali ustalar rahbarligida o'quvchilarga kasb sirlari o'rgatildi.

1930-yillarning oxiriga kelib, kasb-hunar ta'limi tizimi yanada rivojlandi. Yangi kasb-hunar maktablari ochildi, mavjud maktablarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi va o'qitish sifati yaxshilandi. Kasb-hunar maktablarini bitirgan mutaxassislar mintaqaning turli sohalarida faoliyat yurita boshladilar.

Bu davrda kasb-hunar maktablarida yangi mutaxassisliklar ochildi. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, turli kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Kasb-hunar maktablarida o'qitish sifatini oshirish maqsadida yangi o'quv dasturlari joriy etildi va zamonaviy o'qitish usullari qo'llanila boshlandi.

1940-yillarning boshlariga kelib, Surxondaryo okrugida ta'lim tizimi yangi bosqichga ko'tarildi. Pedagogika texnikumlari faoliyati takomillashdi, malaka oshirish tizimi rivojlandi va kasb-hunar ta'limi tarmog'i kengaydi. Bu davrda mintaqada malakali mutaxassislar tayyorlash borasida muhim yutuqlarga erishildi.

Pedagogika texnikumlarida o'qitish sifati yanada yaxshilandi. Yangi o'quv dasturlari joriy etildi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanila boshlandi va o'qituvchilarning malakasi muntazam

ravishda oshirildi. Texnikumlarni bitirgan mutaxassislar mintaqadagi ta'lim muassasalarida samarali faoliyat yurita boshladilar.

Malaka oshirish tizimi takomillashuvida yangi yo'nalishlar ochildi. O'qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etildi, ilmiy-metodik seminarlar o'tkazildi va ilg'or pedagogik tajriba almashinuvi yo'lga qo'yildi. Malaka oshirish kurslarida ta'lim sifatini baholash tizimi takomillashtirildi.

Kasb-hunar ta'limi tarmog'ining kengayishi natijasida yangi kasb-hunar maktablari ochildi. Bu maktablarda turli sohalar bo'yicha malakali ishchi kadrlar tayyorlana boshlandi. Kasb-hunar maktablarida o'qitish sifatini oshirish maqsadida yangi o'quv dasturlari joriy etildi va zamonaviy o'qitish usullari qo'llanila boshlandi.

Umuman olganda, 1930-1940 yillarda Surxondaryo okrugida ta'lim tizimini rivojlantirish borasida muhim yutuqlarga erishildi. Bu davrda malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimi takomillashdi, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi rivojlandi va kasb-hunar ta'limi tarmog'i kengaydi. Bu esa mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Surxondaryo viloyatida 1940-1950 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi bir qator mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Tarix fanlari doktori M.Q.Quronov[9] o'zining "O'zbekistonda pedagogik ta'lim tizimi (1940-1960)" nomli monografiyasida Termiz pedagogika bilim yurtining tashkil etilishi va uning mintaqada ta'lim tizimi rivojlanishidagi o'rnini chuqur tahlil qilgan.

Professor N.A.Egamberdiyeva[10] esa o'z tadqiqotlarida Surxondaryo viloyatida o'rta maxsus ta'lim tizimining shakllanish jarayonlarini o'rgangan. Olimaning fikricha, 1940-yillarda mintaqada o'rta maxsus ta'lim muassasalari tarmog'ining kengayishi malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirgan.

Tadqiqotchi S.R.Tursunov[11] tomonidan kechki ta'lim maktablarining tashkil etilishi va ularning faoliyati masalalari o'rganilgan. Uning ilmiy ishlarida 1940-yillarda

Surxondaryo viloyatida kechki ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari yoritib berilgan.

1940-yillarning boshlarida Surxondaryo viloyatida ta'lim tizimini rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Bu davrda Termiz shahrida pedagogika bilim yurti ochildi, o'rta maxsus ta'lim muassasalari soni oshdi va kechki ta'lim maktablari tashkil etildi. Bu jarayonda malakali pedagog kadrlar tayyorlash va aholining keng qatlamlari uchun ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Termiz pedagogika bilim yurtining ochilishi mintaqada malakali o'qituvchilar tayyorlash tizimini rivojlantirishda muhim voqea bo'ldi. Bilim yurtida boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlana boshlandi. Ta'lim

muassasasi uchun maxsus bino ajratildi, zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlandi va malakali pedagoglar jalb etildi.

Pedagogika bilim yurtida o'quv jarayoni ilmiy asosda tashkil etildi. Zamonaviy o'quv dasturlari joriy qilindi, o'quv-metodik baza mustahkamlandi va amaliy mashg'ulotlar tizimi yo'lga qo'yildi. Talabalar nazariy bilimlarni egallash bilan birga, pedagogik amaliyotni ham o'tadilar.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Bilim yurtida ta'lim olayotgan talabalar soni yildan-yilga oshib bordi. Talabalar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi, yotoqxona qurildi va kutubxona fondi boyitildi. Bilim yurtida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning malakasi muntazam ravishda oshirilib borildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro'yxat, 125-ish.
2. Murtazoyeva R.X. O'zbekistonda xalq ta'limi tarixi (1917-1941). -Toshkent, 2020.310 b.
3. Qodirov O.A. O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi shakllanishi va rivojlanishi. -Toshkent, 2020. 285 b.
4. Ergashev M.M. O'rta Osiyoda ta'lim tizimi tarixi. Toshkent, 2018. 340 b.
5. Qizil O'zbekiston. 1940 yil 12 aprel.
6. Sagdullayev A.S. O'zbekistonda pedagogik ta'lim tarixi (1928-1945). Toshkent, 2020. 295 b.
7. Doniyorov B.X. O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi rivojlanishi. Toshkent, 2018. 320 b.
8. Rajabov K.K. Surxondaryoda kasb-hunar ta'limi tarixi. Termiz, 2019. 185 b.
9. Quronov M.Q. O'zbekistonda pedagogik ta'lim tizimi (1940-1960). Toshkent, 2021. 264 b.
10. Egamberdiyeva N.A. O'rta maxsus ta'lim tizimi tarixi. Toshkent, 2019. 275 b.
11. Tursunov S.R. Surxondaryoda xalq ta'limi rivojlanishi. Termiz, 2020. 230 b.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Suyunov Ilyos Juma o'g'li,

Surxondaryo viloyati IIB xodimi, Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi.

e-mail: suyunovilyos89@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-4523-4678X>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: O'zbekiston demokratik fuqarolik jamiyatini qurish, har tomonlama rivojlangan erkin va farovon davlat barpo etish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Bunda jamiyatni yot illatlardan asrash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish, diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning har qanday shakl va ko'rinishiga qarshi muvofiqlik kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash ustuvor vazifalardan etib belgilangan. Ushbu vazifalarni ado etish uchun tizim isloh etildi va ayni maqolada shu islohotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar organlari, islohotlar, jamoat xavfsizligini ta'minlash, qonunchilik hujjatlari.

Аннотация: Узбекистан уверенно движется к построению демократического гражданского общества и построению всесторонне развитого свободного и процветающего государства. Приоритетными задачами определены защита общества от внешнего зла, борьба с преступностью и предотвращение нарушений, бескомпромиссная борьба с религиозным экстремизмом и терроризмом, любыми формами и проявлениями организованной преступности, обеспечение прав и свобод граждан, законных интересов. Для выполнения этих задач система была реформирована, и об этих реформах пойдет речь в данной статье.

Ключевые слова: органы внутренних дел, реформы, обеспечение общественной безопасности, законодательные документы.

Abstract: Uzbekistan is steadily moving towards building a democratic civil society, a comprehensively developed, free and

prosperous state. In this regard, the priority tasks are to protect society from foreign vices, combat crime and prevent violations, uncompromisingly fight against religious extremism and terrorism, organized crime in all its forms and manifestations, and ensure the rights and freedoms and legitimate interests of citizens. To fulfill these tasks, the system has been reformed, and this article will discuss these reforms.

Keywords: Internal affairs bodies, reforms, ensuring public safety, legislative documents.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan samarali tizim bu — ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi", degan purma'no fikrlari tizim faoliyatiga berilgan yuksak bahodir.

Bugungi kunda, mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev rahbarligida "Yangi O'zbekiston"ni barpo etishdek buyuk maqsad sari keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'tkazilayotgan barcha islohotlarning zahirida yurtimizni har tomonlama rivojlantirib, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta'minlash, huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularni rozi qilish yotadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlarni xronologik jihatdan uch bosqichga bo'lishimiz mumkin.

- Ichki ishlar organlaridagi dastlabki o'zgarishlar (1991-1998 yy.)

- Ichki ishlar organlarining

takomillashtirilishi (1999-2016 yy.)

- Bosh maqsad – xalq manfaatlariga xizmat qilish (2016 yildan hozirga qadar).

1. Ichki ishlar organlaridagi dastlabki o'zgarishlar (1991-2009 yy.)

Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va o'tish davrida ichki ishlar organlarining moddiy-texnik ahvolini yaxshilash, malakali milliy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etishga qaratilgan dastlabki o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1991-yil 25-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qarori asosida O'zbekiston SSR IIV – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi. Qaror bilan vazirlik Nizomi va strukturasi tasdiqlandi. Keyinchalik ushbu sana mamlakatimizda ichki ishlar organlari xodimlari kuni sifatida belgilandi.

Mazkur davrlarga hamohang ravishda, 1989-1990-yillar mobaynida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq juda og'ir bir davr hukm surardi. Har bir sohada bo'lgani kabi, ichki ishlar organlari tizimida ham keng qamrovli ishlar, ulkan vazifalar, yechimini kutayotgan muammolar mavjud edi. Bunday vaziyatdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga uringan ayrim kimsalarning noqonuniy qilmishlari natijasida giyohvandlik, diniy ekstremizm, bosqinchilik kabi og'ir jinoyat turlarining soni ko'payib ketdi.

Bundan esa, ayrim chet davlatlarda faoliyat yuritayotgan ekstremistik tashkilotlarning jirkanch maqsadli rahnamolari tomonidan foydalanishga urinib, respublikamiz hududida mavjud kriminogen vaziyatni izdan chiqarishga, aholini vahimaga solishga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga nisbatan ishonchsizlik uyg'otishga hamda ularni qo'rqitish va bo'ysundirishga bo'lgan amaliy harakatlar qilinardi.

Lekin shuni alohida qayd etish o'rinliki, mazkur og'ir sinovli davrlarning barchasida ham, ichki ishlar organlarining mard va jasur, yuragida o'ti bor, shijoatli xodimlari tomonidan Vatan himoyasi yo'lida o'z jonlarini ayamay, jinoyatchilikka qarshi mardonavor kurash olib borildi. Og'ir damlarda doimiy ravishda o'z xizmat

burchiga sodiqlikni, jonbozlikni, qat'iyatlilikni, matonatlilikni, fidoyilik xislatlarini namoyon etdilar. Bu haqdagi aniq faktlarni esa respublikamiz hududida 1989-2010 yillar davomida sodir etilgan terrorchilik, qo'poruvchilik hamda turli ommaviy tartibuzarliklarda ko'rishimiz mumkin. Mazkur xunrezliklarga qarshi ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan yuksak darajadagi mardlik va fidoyilik bilan kurash olib borilganligi natijasida ularning aksariyati mardlarcha halok bo'lganligiga guvohimiz.

Qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibi yetarli malakaga ega bo'lgan kadrlar bilan jamlandi, xodimlarning kasbiy va jangovar mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada mamlakatda jinoyatchilik sezilarli darajada kamayib, sodir etilgan jinoyatlarning qisqa fursatlarda ochilishiga erishildi.

Bundan tashqari, 1994 yilda O'zbekistonning Interpolga a'zo bo'lishi respublika huquq-tartibot organlariga xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlik qilish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkor davlatlarning kuch va vositalaridan foydalanish imkonini berdi.

XXI asr bo'sag'asida dunyoda yuz bergan o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining kuchayishi mamlakatimizda ham xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, turli tahdidlarga qarshi kurashishda yangicha yondashuvni ishlab chiqishni kun tartibiga qo'ydi. 1999 yil 16 fevral voqealari ichki ishlar organlari tizimida jiddiy kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Shu bois Toshkent shahrida jamoat tartibini va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi konsepsiya joriy qilinib, unga binoan, shahardagi avvaldan mavjud militsiya uchastka nozirlari o'rniga profilaktika inspektori shtat birliklari ta'sis etildi. "Mahalla posbonlari" va "Yarashtirish komissiyalari" jamoat tuzilmalari tashkil etildi. Bu tuzilmalar joylarda jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish, ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini kuchaytirishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 27 martdagi farmoni va uning ijrosini

ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan bir qancha qarorlar asosida ichki ishlar organlarining asosiy sohaviy xizmatlarida yangi islohotlar o'tkazilib, ularning faoliyati yanada takomillashtirildi.

Ushbu islohotlar va strukturaviy o'zgarishlar, avvalo, mamlakatdagi tinchlik-osoyishtalikni saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish, yurtimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarning bardavomligi va uzviyligini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, "kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini amalga oshirishga harakat qilindi.

Keyingi davrlar mobaynida respublikada fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilishiga alohida e'tibor qaratildi.

O'z vaqtida va uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan mazkur o'zgarishlar mustaqil davlatimizning oyoqqa turishi va dunyo mamlakatlari orasidan o'zining munosib o'rnini egallashida, atrofdagi ayrim mamlakatlarda keskinlik vaziyati saqlanib turgan bir paytda, mamlakatimizda doimiy barqarorlikning ta'minlanishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

2. Ichki ishlar organlarining takomillashtirilishi (2010-2016 yy.)

Mazkur davr ichida fuqarolar bilan muloqot jarayoni, aholining muammolarini hal etish borasida, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va profilaktikasi bo'yicha ayrim kamchiliklar kuzatildi. Bu borada o'tkazilgan tadqiqot va tahliliy ishlarining natijasi ichki ishlar organlari faoliyatida bir qator jiddiy kamchilik va muammolar to'planib qolganligini ko'rsatdi.

Jumladan:

- respublika, o'rta va quyi bo'g'indagi bo'linmalar o'rtasida asosiy vazifa va

funksiyalarning, shuningdek, amaldagi tashkiliy-shtat tuzilmalari kuch va vositalarining aniq taqsimlanmaganligi;

- II Olari mansabdor shaxslari, shu jumladan, profilaktika inspektorlarining aholi bilan muloqoti yo'lga qo'yilmaganligi, ularning aholi oldida hisobot berib borish amaliyoti yo'qligi, shuningdek, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratining samarali mexanizmlari joriy etilmaganligi, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikning yetarli emasligi;

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga nisbatan yuzaki yondashuvlar fuqarolarning noroziligini keltirib chiqarganligi;

- huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini tahlil qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli choralar ko'rilmaganligi;

- o'sib kelayotgan yosh avlodni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish amaliyotiga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi;

- II Olari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi zamon talablariga javob bermay qo'yg'anligi va boshqalar.

Albatta, ushbu ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, tizim faoliyatida amalga oshirilayotgan ishlar samarasiga salbiy ta'sirini kamaytirish, bu borada idoralararo hamkorlikni kuchaytirish ishlari amalga oshirib borildi. Lekin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, tizim faoliyatini tubdan takomillashtirish, uni hozirgi kun talablariga moslashtirishni zamonning o'zi taqozo etar edi.

3. Bosh maqsad – xalq manfaatlariga xizmat qilish (2016 yildan hozirga qadar). Mazkur davr – bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodim tomonidan «Xalq manfaatlariga xizmat qilish»ni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga

aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar davri bo‘ldi.

2016 yilda mustaqil O‘zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo‘nalish va tamoyillari belgilab berildi.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan isloh qilish bo‘yicha mutlaqo yangi davr boshlandi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan 5 ta ustuvor yo‘nalishning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, ikkinchi ustuvor yo‘nalish sifatida mamlakatda qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga qaratilgan ko‘plab vazifalar belgilab berildi.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida bosib o‘tilgan yo‘l va orttirilgan tajriba, erishilgan yutuqlar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni xolisona baholash, ayni vaqtda bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlarni tahlil qilish asnosida ichki ishlar organlari oldiga o‘z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo‘yicha yangi vazifalar qo‘yilmoqda.

O‘tgan qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asosi sifatida tizim samaradorligini oshirish bo‘yicha 6 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 dan ziyod farmon, qaror va farmoyishlari hamda 150 dan ortiq hukumat va idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli farmonida keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to‘planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar tahlil qilinishi barobarida, ularni bartaraf etish, ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlari hamda

mamlakatimiz tarixida ilk bor ichki ishlar organlari rahbarlarining parlament, deputatlar va keng jamoatchilik oldida o‘z vazifalarining bajarilishi yuzasidan hisobot berish tartibi belgilab berildi. Farmon bilan “Ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar dasturi” ham tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi qarori bilan Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Yuqoridagi farmon va qarorlar ijrosini ta‘minlash maqsadida qisqa davr ichida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bunda, eng avvalo, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga faqatgina ichki ishlar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi deb emas, balki barcha davlat organlari va aholi qatlamlarining vazifasi, ya‘ni umumdavlat va umumxalq ishi sifatida qarash, bu borada barcha davlat va nodavlat tashkilotlari va keng jamoatchilikning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik muhitini yaratish yo‘li bilan huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi va oldi olinishini ta‘minlashga e‘tibor qaratildi.

Ichki ishlar organlari faoliyatiga doir bo‘lgan boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida tizimda juda katta islohotlar amalga oshirildi. Xususan:

- ichki ishlar organlarining yagonalik prinsipini ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining bayrog‘i va emblemasi namunalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5602-son farmoni asosida IIVning bayroq va emblemasi tasdiqlandi;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2883-son qarori bilan tizimning boshqaruv apparati 70 foizga maqbullashtirib, tuman-shahar II Orlarining shtatlar soni to‘rt barobarga oshirildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2896-son qarori bilan mavjud profilaktika inspektorlari soni maqbullashtirildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlarini xizmat uy-joyi bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2906-son qarori bilan profilaktika inspektorlariga birlashtirilgan xizmat hududlarida ularga xizmat uylari va imtiyozli kreditlar asosida shaxsiy avtomashinalar ajratilish tizimi yo'lga qo'yildi;

- jinoyat ishlarining sifatli va qisqa muddatlarda tergov qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2898-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida nisbatan yangi surishtiruv instituti joriy etildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2940-son hamda 2017 yil 11 iyuldagi "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3127-son qarorlari bilan jamoat tartibini saqlash hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash samaradorligi yanada oshirilib, patrul-post va yo'l-patrul xizmatlari sohaga oid bo'lmagan bir qator vazifalardan ozod etildi;

- aholiga pasport xizmatlarini ko'rsatish borasida qo'shimcha qulayliklarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagi "Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish; sohasidagi

faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3126-son qarori bilan sohaga elektron navbat kabi zamonaviy axborot kommunikatsiyalari hamda xorijga chiqish zamonaviy "Biometrik" pasportlar bilan ta'minlash ishlari yo'lga qo'yildi;

- ozodlikdan mahrum etilgan fuqarolarni jamiyatga to'liq moslashuvini ta'minlash uchun ularni kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 avgustdagi "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3200-son qarori bilan jazoni ijro etish tizimi tubdan isloh qilinib, ularda ishlab chiqarish tizimi yo'lga qo'yildi;

- II O'lari uchun professional kadrlarni tayyorlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-son qarori bilan IIV Akademiyasida 7 ta yo'nalishlar bo'yicha o'qitish tizimi va 2 ta ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi hamda joylarda 14 ta akademik litseylar joriy etildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-son qarori talablari asosida kadrlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi joriy etilib, II O'ning "Intizom ustavi" va "Ichki xizmat nizomi" amaliyotga to'liq kiritildi, xodimlarni ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy ta'minlash ishlari tizimlashtirildi;

- Toshkent shahrida jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi modelini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevraldagi "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish

to'g'risida"gi PQ-3528-son qarori bilan poytaxt miqyosida ichki ishlar bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yildi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyundagi "Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3786-son qarori bilan poytaxtda jamoat tartibini saqlash uchun IIolari, Milliy gvardiya va jamoatchilik bilan birgalikda tashkil etilgan 3 smenali, kun-u tun patrullik xizmati faoliyati yo'lga qo'yildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 avgustdagi "Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3919-son qarori bilan IIOning yagona boshqaruv tizimi sifatida tashkiliy bo'linmalar, shuningdek, rahbar xodimlar zaxirasini tayyorlash maqsadida Malaka oshirish instituti tashkil etildi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrdagi "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4006-son qarori bilan Probatsiya xizmati hamda mahkumlarning huquqlarini to'liq kafolatlashga qaratilgan jinoyat-ijroiya qonunchiligini qayta ishlab chiqish ishlari tashkil etildi;

- joylardagi hokimlar tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini kunlik tashkil etish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni xalq deputatlari kengashida har oyda muhokama qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 dekabrdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4075-son qarori talablari asosida yo'lga qo'yildi;

- turizm va transport infratuzilmasi obyektlarida mamlakatimizga kelayotgan xorijiy sayyohlarning xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 martdagi "Transport va turizm obyektlarida

jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4229-son qarori talablari asosida yanada jadallashtirildi.

Yuqoridagilar bilan birga, jazoni o'tayotgan shaxslarning haq-huquqlarini ta'minlash borasida ham ulkan ishlar qilindi. Bu borada ularning jazo o'tash sharoitlari yaxshilandi.

Zamonga mos kelmaydigan eski koloniyalar o'rniga mahkumlar mehnat qilishlari uchun erkin iqtisod talablariga to'la javob beradigan ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, jamoatchilik o'rtasida salbiy nom qozongan "Jasliq" koloniyasi tugatildi. Ilg'or xorijiy tajribalarga mos ravishda, shuningdek, Konstitutsiyamiz talablari asosida mahkumlarga parlament va joylardagi xalq deputatlarini saylash imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, mahkumlarga qarindoshlari bilan qo'shimcha uchrashuvlar va telefon so'zlashuvlarini amalga oshirish, ularning ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minotini olish kabi huquqlari doirasi kengaytirildi.

Vazirlik sohaviy xizmatlari va hududiy bo'linmalarining vazifa va funksiyalarini maqbullashtirish bo'yicha institutsional yondashuv, shuningdek, tizimga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, xodimlarning ijtimoiy himoyasi va maishiy sharoitlarini yaxshilash kabi amaliy ishlar ularning o'z xizmat vazifalarini mukammal bajarishlari uchun munosib shart-sharoit yaratish imkonini bermogda.

Bugungi kunda rahbar xodimlarning o'z faoliyati yakunlari yuzasidan aholi oldida hisobot berish tartibi, tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga, shuningdek, xodimlarning mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Eng asosiysi, tizimdagi bu o'zgarishlar mamlakat rahbariyatining doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Yurtboshimizning mamlakat hududlari bo'ylab qilinayotgan safarlarida, albatta, u yerda xizmat olib borayotgan ichki ishlar organlari xodimlari, birinchi navbatda,

profilaktika inspektorlarining xizmat faoliyati, ularga yaratib berilayotgan sharoitlar bilan bevosita tanishayotganligi, qisqa vaqt ichida bu boradagi ishlarning ahvoli bir necha marta Prezident huzuridagi yig'ilishlarda keng muhokama etilayotganligi buning isbotidir.

2019 yilning 10 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham bu boradagi ishlar tanqidiy muhokama qilinib, Ichki ishlar vazirligiga vaziyatni tubdan yaxshilash, chuqur tahlil asosida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa tariqasida qayd

etish joizki, Istiqlol sharofati bilan yurtimizda boshqa sohalar kabi ichki ishlar organlariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu soha xalqimizning himoyachisi va ko'makchisiga, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ushbu tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodimi tomonidan "Xalq manfaatlariga xizmat qilish"ni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga imkon bermoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. "Ichki ishlar organlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni O'RQ-407-son Qonuni Qonuni / <https://lex.uz/docs/-3027843?otherlang=1>
2. Q.Qodirov. "Mustaqillik davrida O'zbekistonda ichki ishlar idoralarining faoliyati (1991-2011 yillar) mavzusidagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent – 2019. 158-bet.
3. X.K.Boymirzayev O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati, o'quv-uslubiy qo'llanma. Namangan, 2022. – 64 b.
4. Lex.uz

SOVET DAVRIDA SURXONDARYO VILOYATIDA XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY ISLOHOTLARDAGI ISHTIROKI

Boltayeva Gulnoza Raxmatullayevna,

*O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari
"Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi "Ijtimoiy-gumanitar fanlar"
kafedrasi tarix fani o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0006-3250-9663>
UDK: 94(575.1). "1939-1945"*

Annotatsiya: Ushbu maqola Sovet davrida Surxondaryo viloyatida xotin-qizlarning iqtisodiy islohotlardagi ishtirokini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Surxondaryo viloyatida 1920-1980-yillar oraligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va ularning xotin-qizlarga ta'siri tahlil qilinadi. Xotin-qizlarning mehnat faoliyati, kolxoz va sovxozlar, sanoat ishlab chiqarish, qishloq xojaligi va boshqa sohalarida ishtirokini o'rganish asosida, bu davrda xotin-qizlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotda orni qanday o'zgarganligi ko'rsatiladi. Maqola xotin-qizlar uchun Sovet davrida yaratilgan imkoniyatlar, ularning iqtisodiy hayotga qo'shgan hissasi va mavjud muammolarni yoritadi.

Kalit so'zlar: Sovet davri, Surxondaryo viloyati, Iqtisodiy islohotlar, Xotin-qizlar, Gender tengligi, Mehnat faoliyati, Kolxoz va sovxozlar, Sanoat, Ijtimoiy islohotlar

Abstract: This article is devoted to the organization of women's participation in economic reforms in the Surkhandarya region during the Soviet period. The article analyzes the economic reforms implemented in the Surkhandarya region between 1920 and 1980 and their impact on women. Based on the study of the participation of women in labor activities, collective farms and state farms, industrial production, agriculture and other fields, it will be shown how the role of women in economic and social life has changed during this period. The article sheds light on the opportunities created for women in the Soviet era, their contribution to economic life, and existing problems.

Key words: Soviet era, Surkhandarya region, Economic reforms, Women and girls, Gender equality, Labor activity, Collective

farm and state farms, Industry, Social reforms

Ключевые слова: Советская эпоха, Сурхандарьинская область, Экономические реформы, Женщины и девушки, Гендерное равенство, Трудовая деятельность, Колхозы и совхозы, Промышленность, Социальные реформы

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatidagi xotin-qizlarning iqtisodiy islohotlarga qo'shgan hissasini tahlil qilib, ularning jamiyatdagi rolini, yangi imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlarini va rivojlanish istiqbollarini ko'rsatadi. Sovet davri, ayniqsa 1920-1980-yillar orasida, O'zbekistonda, shu jumladan Surxondaryo viloyatida, iqtisodiy islohotlar va gender tengligi masalalari markaziy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda xotin-qizlarning jamiyatdagi roli sezilarli darajada o'zgardi. Surxondaryo viloyatida, boshqa hududlar singari, iqtisodiy islohotlar xotin-qizlarni nafaqat ishlab chiqarish sohasiga, balki jamiyat hayotining boshqa sohalariga ham jalb qilishni maqsad qilgan. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada Sovet davrida Surxondaryo viloyatida xotin-qizlarning iqtisodiy islohotlardagi ishtiroki, ularning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatdagi roli tahlil qilinadi. Sovet davrida, ayniqsa 1920-1930-yillarda, Surxondaryo viloyatida xotin-qizlarning iqtisodiy islohotlardagi o'rni muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu davrda Markaziy Osiyoda ijtimoiy va iqtisodiy tizimda katta islohotlar amalga oshirilgan, bunda xotin-qizlarning roli kuchaygan. Biroq, islohotlar hamma uchun teng imkoniyatlar yaratmagan, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi ayollar uchun

ba'zi qiyinchiliklar mavjud bo'ldi. Sovet hukumati 1930-yillardan boshlab agrar sohada kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirdi. Bu siyosatning amalga oshirilishi bilan, Surxondaryo viloyatidagi ko'plab qishloqlarda kolxozlar tashkil etildi. Kolxozlar yaratish orqali, xotin-qizlar ham iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etishga majbur bo'ldilar. Ayollar erlarning dala ishlarida, paxta terishda, o'rta va kichik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qatnashgan. Kolxozlarda ishlash uchun xotin-qizlarga ham yangi ma'lumotlar, texnik bilimlar va ishlash ko'nikmalari zarur edi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sovet davrida O'zbekistonda, xususan, Surxondaryo viloyatida, xotin-qizlar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga faol hissa qo'shishga majbur bo'lganlar. Ular qishloq xojaligida, sanoatda, kolxoz va sovxozlarda ishlashgan. Dastlabki yillarda xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatga jalb qilinishi faqatgina ularning iqtisodiy ehtiyojlariga javob berish maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik bu jarayon ijtimoiy o'zgarishlarga olib keldi. Sovet davrida qishloq xojaligi va kolxozlar rivojlanishi uchun xotin-qizlarning roli muhim bo'ldi. Surxondaryo viloyatida qishloq xojaligi sohasida xotin-qizlar, ayniqsa, yerlarni ishlov berish, ekinlar ekish, hosil yig'ish kabi ishlar bilan shug'ullandilar. Bu soha ular uchun nafaqat mehnat manbai, balki iqtisodiy va ijtimoiy erkinlikni ta'minlash imkoniyati bo'ldi. Qishloq xojaligidagi bu islohotlar xotin-qizlarga ozlarining iqtisodiy mustaqilliklarini oshirishga yordam berdi. Surxondaryo viloyatidagi kolxoz va sovxozlar xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu yerda ular ishchi kuchi sifatida faol qatnashdilar. Kolxoz va sovxozlarda mehnat qilish nafaqat ularning iqtisodiy holatini yaxshilash, balki jamiyatdagi orni va oz qadriyatlarini oshirishga olib keldi. Ayollar ishlab chiqarishning turli sohalarida, jumladan, hayvonchilik, paxta terimi, meva-sabzavot yetishtirish kabi ishlarda qatnashdilar. Sovet davrida, ayniqsa, 1950-yillardan boshlab, sanoat rivojlanishi davomida xotin-qizlar mehnat resurslari sifatida oz o'rnini topa

boshladi. Surxondaryo viloyatidagi sanoat tarmoqlarida, shu jumladan paxta-tozalash zavodlari, elektrotexnika va boshqa sanoat ishlab chiqarishida xotin-qizlar faol ishtirok etdilar. Bu jarayon xotin-qizlarga nafaqat iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, balki ijtimoiy faollikni ham oshirish imkoniyatini yaratdi. Sovet davrida xotin-qizlar faqat mehnat sohalarida emas, balki ijtimoiy va madaniy hayotda ham faol ishtirok etdilar. Xotin-qizlarning turli madaniy tadbirlarda, jamoat ishlarida ishtiroki ularning ijtimoiy mavqeyi va madaniy rivojlanishiga olib keldi. Ular oz faoliyatlarini ko'pincha paxta terimi, kolxozda ishlash bilan birlashtirib, jamiyatda mustahkam o'rin topdilar. Sovet davrida xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi roli muhim bo'lsa-da, ularning mehnat sharoitlari va gender tengligi masalalari ko'p hollarda e'tibordan chetda qolgan. Ayollar ko'pincha eng og'ir, kam maoshli va zararli ishlarda ishlaganlar. Bunga qaramay, ular ko'plab iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishiga hissa qo'shdilar. Sovet davrida ayollarni ta'lim olishga undash maqsadida ko'plab yangi maktablar va kurslar tashkil etildi. Surxondaryodagi ayollar uchun ham, maktablar va kasb-hunar o'quv yurtlarida bilim olish imkoniyatlari yaratildi. Bu ta'lim orqali ayollar ko'proq iqtisodiy mustaqillikka erishgan. Xotin-qizlar yangi kasblarni o'zlashtirib, qo'shni viloyatlarga nisbatan yuqori ijtimoiy-iqtisodiy holatga erishishga muvaffaq bo'lishdi. Shu bilan birga, paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ham ayollarning roli ortdi.

Sovet hukumati ayollarni barcha sohalarida, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa turdagi ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga undadi. Ayollar uchun maxsus ish joylari yaratildi, shu bilan birga, davlat tomonidan ular uchun barcha imkoniyatlar taqdim etildi. Surxondaryoda, xususan, qishloq joylarida, ayollar ko'pincha yerda ishlash bilan birga, paxta terimiga ham jalb qilindi. Paxta terimi, sovet davrida qishloq xo'jaligining asosiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, bu ishda ayollarning mehnati juda katta bo'ldi. Surxondaryoda xotin-qizlar ko'plab qishloq xo'jaligi ishlarida ishtirok etgan bo'lsa-da,

ular faqat kulinariya yoki uy-joy ishlariga cheklangan emas edi. Ayollar, ayniqsa, paxta terimi va yerda mehnat qilishda faol qatnashgan. 1930-1940 yillarda kollektivlashtirish va paxta sanoatining rivojlanishi bilan birga, xotin-qizlarning yer ishlari va ishlab chiqarishda roli yanada muhimroq bo'ldi. Bu davrda ayollarga iqtisodiy mustaqillikni oshirishga yordam berish maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirildi.

Sovet davridagi ayollarni Ijtimoiy himoya qilish. Sovet hukumatining ijtimoiy siyosatlarida ayollarning ijtimoiy himoya qilish ham o'rin olgan edi. Ayollarni ijtimoiy himoya qilish uchun bir qator qonunlar qabul qilindi, jumladan, ish va oilaviy hayotni muvozanatlash uchun yangi ish qonunlari o'rnatildi. Surxondaryodagi xotin-qizlar ham bu huquqlardan foydalanishga harakat qilganlar. Ammo, kolxozlar tizimida ko'p vaqtlarini mehnatga bag'ishlagan ayollar, hamon ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishgan.

Sovet davrida Surxondaryo viloyatida xotin-qizlar ko'p vaqtlarini qishloq xo'jaligida va sanoat sohalarida ishlashga bag'ishladilar. Biroq, bu jarayonda mehnat sharoitlari ko'pincha og'ir va noqulay bo'lishi mumkin edi. Paxta terimi va qishloq xo'jaligi ishlarida, ayollar ko'p hollarda uzoq soatlar davomida mehnat qilishga majbur bo'lishdi. Buning natijasida, ko'plab ayollar mehnat sharoitlari tufayli sog'lik muammolariga duch keldilar. Shuningdek, jamiyatdagi patriarxal tuzum xotin-qizlar uchun ijtimoiy va iqtisodiy to'siqlarni yaratishda davom etdi. Ayollar ko'plab hollarda o'z huquqlarini himoya qilishda, o'zini jamiyatda erkin ifoda etishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelganlar. Sovet davrining boshlanishida, ayniqsa, qishloq joylarida ayollarning o'z mehnatlari uchun adolatli to'lov olishlari va iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanishlari qiyin bo'lgan. Sovet hukumati ayollarni ijtimoiy himoya qilish va ularni iqtisodiy faoliyatga keng jalb qilish maqsadida bir qator qonunlar ishlab chiqdi. Ayollar uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash, ular uchun maxsus dam olish kunlari va ish joylarida qo'shimcha

imtiyozlar taqdim etildi. Sovet davrida ayollarga teng huquqlar berildi, ammo bu tenglik amalda barcha sohalarida o'z aksini topmagan. Surxondaryo viloyatida ham, ayollar uchun ijtimoiy himoya qiluvchi tizimlar yaratildi. Ayollar nafaqat paxta terimi yoki qishloq xo'jaligi sohalarida, balki davlat idoralari, tibbiyot, ta'lim va boshqa sohalarida ham mehnat qilishga kirishdilar. Biroq, ba'zi hollarda ayollar o'z huquqlaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishgan. Ayollarni mehnatga jalb qilishda ko'proq ko'nikmalarni va bilimlarni taqdim etish zarurati mavjud edi, ammo ba'zi ijtimoiy qatlamlarda ayollarning roli ba'zan cheklangan bo'lib qolgan. Sovet davri O'zbekistonning barcha viloyatlarida, jumladan, Surxondaryo viloyatida ham ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning katta ta'siriga sabab bo'ldi. Xotin-qizlar Sovet Ittifoqining iqtisodiy islohotlarida faol ishtirok etishga chaqirilgan, ularning iqtisodiy hayotdagi o'rnini, ayniqsa kolxozlar, paxta ishlab chiqarish va sanoatlashuv jarayonlarida sezilarli darajada o'zgardi. Bu davrda ayollar ko'plab yangi imkoniyatlarga ega bo'lishgan, lekin bir vaqtning o'zida ularning hayoti ham bir qator qiyinchiliklarga duch keldi. Sovet hukumati 1929-1930-yillarda kollektivlashtirishni boshlab, qishloq xo'jaligida davlat nazoratini kuchaytirdi. Surxondaryo viloyatida ham kollektivlashtirish jarayoni boshlangach, xotin-qizlar qishloq xo'jaligiga jalb qilindi. Paxta ekinini yetishtirish, unga ishlov berish va ishlab chiqarishning boshqa ko'plab sohalarida ayollar faol ishtirok eta boshladilar. Kolxozlar tashkil qilinishida, ayollar kolxozda ishlash uchun yerda va poliz ekinlari, paxta plantatsiyalarida ishlashga majbur bo'lishdi. Ayollarning kolxozlar, paxta terimi va yer ishlari bilan shug'ullanishi ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga olib keldi. Kolxozlashish jarayoni bilan birga, ayollar kolxozlarda mehnat qilish orqali yangi mehnat ko'nikmalarini o'zlashtira boshladilar. Biroq, ayollarga berilgan bu imkoniyatlar bilan bir qatorda, ularning o'zaro iqtisodiy va ijtimoiy tenglikka erishishlari oson bo'lmagan. Paxta terimi va boshqa qishloq xo'jaligi

ishlaridagi sharoitlar ko'pincha og'ir bo'lib, ayollar ko'p holatlarda uzoq vaqt davomida mehnat qilishga majbur bo'lishdi. Sovet hukumati xotin-qizlarni ta'lim olishga undash, ularni kasb-hunar o'rgatishga qaratilgan ko'plab islohotlarni amalga oshirdi. Ayollarga o'qish, bilim olish imkoniyatlari berilganidan so'ng, ko'plab ayollar o'z kasbini tanlab, yangi sohalarida ishlashga muvaffaq bo'lishdi. Bu, ayniqsa, Surxondaryo viloyatida ijtimoiy va iqtisodiy hayotda muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi. O'quv kurslari, texnikumlar va kasb-hunar maktablari ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilishda muhim vosita bo'ldi.

Ayollar paxta ishlab chiqarish va kolxoz ishlaridan tashqari, tibbiyot, ta'lim, sanoat, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarida ham ishlashni boshladilar. Bu, o'z navbatida, Surxondaryo viloyatidagi ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirdi va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamladi. Ta'lim olish, yangi kasblarni o'zlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlariga aralashish ayollarga iqtisodiy mustaqillikni oshirish imkonini berdi.

Sovet Ittifoqida sanoatlashuv siyosati iqtisodiy islohotlarning muhim qismi bo'lib, u xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Surxondaryo viloyatidagi sanoat rivoji hamda qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar ayollarni yangi ishlab chiqarish tarmoqlariga jalb qilishga olib keldi. Ayollar, ayniqsa, paxta sanoatiga tegishli zavodlar, fabrikalar va boshqa ishlab chiqarish korxonalarida ishlashdi. Ularning mehnati nafaqat qishloq xo'jaligi, balki sanoat sohalarida ham ahamiyat kasb etdi. Sanoatga jalb qilish, ayniqsa, ayollarni o'z kasblarini o'zgartirishga, yangi ijtimoiy mavqe va iqtisodiy mustaqillikka erishishga imkon yaratdi. Biroq, sanoat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, qishloq joylaridagi sanoat tarmoqlarining sust rivojlanishi, ayollar uchun ba'zi muammolarni keltirib

chiqardi. Sanoatning rivojlanishi bilan birga, ayollar ko'p holatlarda jismoniy mehnatga jalb qilindi, bu esa ularning shaxsiy hayotini va sog'lig'ini xavf ostiga qo'ygan. Sovet hukumati ayollarni ijtimoiy himoya qilish va ularni iqtisodiy faoliyatga keng jalb qilish maqsadida bir qator qonunlar ishlab chiqdi. Ayollar uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash, ular uchun maxsus dam olish kunlari va ish joylarida qo'shimcha imtiyozlar taqdim etildi. Sovet davrida ayollarga teng huquqlar berildi, ammo bu tenglik amalda barcha sohalarida o'z aksini topmagan. Surxondaryo viloyatida ham, ayollar uchun ijtimoiy himoya qiluvchi tizimlar yaratildi. Ayollar nafaqat paxta terimi yoki qishloq xo'jaligi sohalarida, balki davlat idoralari, tibbiyot, ta'lim va boshqa sohalarida ham mehnat qilishga kirishdilar. Biroq, ba'zi hollarda ayollar o'z huquqlaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishgan. Ayollarni mehnatga jalb qilishda ko'proq ko'nikmalarni va bilimlarni taqdim etish zarurati mavjud edi, ammo ba'zi ijtimoiy qatlamlarda ayollarning roli ba'zan cheklangan bo'lib qolgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Sovet davri Surxondaryo viloyatida xotin-qizlarning iqtisodiy islohotlardagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarish, kolxoz va sovxozlarda faol ishtiroki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda sezilarli rol o'ynadi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning gender tengligi masalalari, mehnat sharoitlari va ijtimoiy maqomi haqida muammolar mavjud edi. Biroq, Sovet davri xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratgan va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilgan davr bo'ldi. Ushbu maqola Sovet davrida Surxondaryo viloyatida xotin-qizlarning iqtisodiy islohotlardagi ishtirokini keng tahlil qilib, ular jamiyatda va iqtisodiy hayotda qanday o'ringa ega bo'lishganini o'rganadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdurazakov M. (2015). O'zbekiston tarixida xotin-qizlarning roli. Toshkent: Akademiya nashriyoti.

2. Azizova F. (2018). Surxondaryo viloyatida Sovet davrida iqtisodiy islohotlar: Xotin-qizlarning roli. Termiz: Surxondaryo Davlat Universiteti.
3. Iskandarov S. (2007). Sovet davrida O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy hayoti. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
4. Karimov I. (2010). Sovet davrida O'zbekistonda mehnat va iqtisodiy islohotlar. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Solihov R. (2012). Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va Sovet davridagi o'zgarishlar. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
6. Правда востока. 6 июля, 1941 года.
7. Ilg'or Surxon uchun. 1941-yil, 29-iyul.
8. Ilg'or Surxon uchun. 1941-yil, 9-oktyabr.
9. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1991. – B. 70.
10. Халиёров Х., и др. Сурхандарьинская область. – Ташкент, 1974. — С. 25. 2020. – В. 94.
11. Umarov I. Badash: tarix va an'ana. – Termiz: Surxonnashr, 2018. — 131 b.
12. Ilg'or Surxon uchun. 1941-yil, 4-noyabr.
13. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 62-ish, 18-19-varaqlar.

XVII — XIX ASRLARDA SURXON VOHASIDA ME'MORCHILIK

Muhammadiyev Omon Mamataliyevich,

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari

"Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi

omonmuxammadiyev19@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-0387-995X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: XVII — XIX asrlarda Surxon vohasi Buxoro xonligi va amirligi tarkibida edi. Bu davrda vohada me'morchilik sohasida muhim yutuqlarga erishilgan. Bu davrda bunyod etilgan yodgorliklar Buxoro me'moriy yodgorliklari qurilishining davomi bo'ldi. Maqolada ayni shu masalada so'z boradi.

Kalit so'zlar: So'fi Olloyor ziyoratgohi, islamiy naqsh, Bibi Zaynab maqbarasi, beton g'isht, me'morchilik.

Аннотация: В XVII — XIX веках Сурханский оазис входил в состав Бухарского ханства и Эмирата. В этот период в оазисе были достигнуты важные достижения в области архитектуры. Памятники, построенные в этот период, явились продолжением строительства архитектурных памятников Бухары. Статья посвящена этому вопросу.

Ключевые слова: суфийский храм Оллояр, исламский узор, мавзолей Биби Зейнаб, бетонный кирпич, архитектура.

Abstract: In the 17th — 19th centuries, the Surkhan oasis was part of the Bukhara Khanate and Emirate. During this period, significant achievements were made in the field of architecture in the oasis. The monuments built during this period were a continuation of the construction of Bukhara architectural monuments. The article deals with this issue.

Keywords: Sufi Alloyor shrine, Islamic pattern, Bibi Zaynab mausoleum, concrete brick, architecture.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XVII — XIX asrda O'rta Osiyo xonliklarida arxitektura inshootlari turlari yanada takomillashgan, ko'plab jamoat binolari va inshootlar qurila

boshlangan, monumental binolarning tarxi, qiyofasiga o'zgartishlar kiritilgan.

XVII — XIX asrlarda Buxoro amirligi, jumladan Surxon vohasi me'morchiligida, turar joylar arxitekturasida mahalliy uslublar shakllangan. Bu davrda monumental binolarning, ayniqsa ichki qismlarini koshin, tosh, ganch, yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan. Naqqoshlikda ayniqsa, islamiy naqshi rivoj topgan. O'ymakorlikda turli uslublar shakllangan.

АДАБИЙОТЛАР ТАHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). XVII — XIX asrlarda Surxon vohasida me'morchilik obyektlarini o'rganish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, S.Tursunov, T.Annayev, M.Jo'rayev, E.Qobilov, T.Pardayev, S.Jo'rayeva, J.Mirzayev, M.Azimov, J.Omonturdiyev, Sh.Pidayev, Ye.Nekrasova, P.Ravshanov kabi olimlarning risola va tadqiqotlarida masala yuzasidan ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

МУHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XVII — XIX asrda Termiz va Chag'oniyon me'morchiligi madrasa, masjid, xonaqoh, karvonsaroy, maqbara, bekliklar qo'rg'oni, ko'prik va tog'liklar qal'asi kabi turlarga bo'linadi. Me'morchilikda inshootlar bunyod etishda mahobatlikka intilish g'oyasi mavjud bo'lib, Kokildor xonaqohi va Said Otaliq madrasasining baland peshtoqli ko'rinishga ega ekanligi, Bandixonsoyda qurilgan qurilgan Iskandar ko'prigining Zarafshon vohasining Shayboniylar davri suv ayirgichlariga aynan o'xshashligi, Sulton Saodat majmuasining g'arbiy tarafdagi maqbarasi peshtoqida yulduzsimon jilokor Koshin va islamiy yozuvlarining qo'llanilganligi bundan dalolat beradi. Said

Otaliq madrasasi, Salovotda joylashgan Termiz jome masjidi, Yangiariqning O'rtaovul qishlog'idagi Katta masjid o'sha davrda keng tarqalgan ayvonli madrasalar uslubi Markaziy xonali gumbazsimon uslubda barpo etilgan. Bu davr me'morchilik yodgorliklari sarasiga bekliklar qo'rg'onlari ham kiradi. Beklik qarorgohlari hisoblangan bu qo'rg'onlar tabiiy tepaliklar, suv manbalariga serob joyda qurilgan. Shuningdek karvon saroylar, tog'li qal'alar me'morchiligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XVII — XIX asrlarda Buxoro amirligi me'morchiligida binolar konstruksiyalari yanada takomillashtirilgan. Jome masjidlari saroy tipida serhasham qilib barpo etilgan, guzar-mahalla masjidlari qishlik va yozlik katta ayvonli qilib qurilgan.

Sayyid otaliq madrasasi — «qo'sh» shaklida qurilgan. Arxitektura «qo'sh» deb, ikki bino fasadining bir-biriga qarama-qarshi qurilishiga aytiladi. Denovda madrasa va xonaqo fasadlari bir-biriga qarama-qarshi qurilgan, ularning ko'ndalang o'qi ikkala inshoot o'rtasidan o'tgan. O'rtadan o'tgan yo'l esa Denovbegi qo'rg'oniga eltar edi. XVI asrda Buxorodagi Abdullaxon va Modarixon, Ulug'bek (1420) va Abdulazizxon, Domla Tursunjon va Muhammadyor otaliq madrasa va xonaqolari bir-biriga qarama-qarshi qurilgan, ko'ndalang o'qlari ikki bino o'rtasidan o'tgan yo'l bo'lgan.

Yana bu shunisi bilan e'tiborliki, XVI—XVII asrlarda qurilgan binolar o'rtasidan o'tgan yo'l albatta biror e'tiborli yoki mo'tabar joyga olib borgan. Masalan, aytib o'tilgan Domla Tursunjon va Muhammadyor otaliq madrasasi va xonaqosi orasidan o'tgan yo'l Buxoro Arkiga, Xivadagi Qutlug'murod inoq va Olloqulixon madrasalari orasidan o'tgan yo'l mahobatli maydon tashkil etib, Xivaning Polvondarvozaga chiqish joyiga, Qo'qonda Madalixon va Sulton Murodbek madrasalari orasidan o'tgan yo'l g'isht ko'priikka olib chiqqan (bu inshootlar asosan XVIII—XIX asrlarda qurilgani tufayli «qo'sh usuli» XVI—XVII asrlardan keyin ham saqlanganini kuzatamiz). Denovdagi Sayyid otaliq madrasasi va xonaqosi orasidan o'tgan

yo'l Denov begi qo'rg'oniga olib borishi bu tarixiy obida XVI—XIX asrlar udumi asosida qurilganligidan dalolatdir.

Sayyid otaliq madrasasida avval sakkiz qirrali ustun bilan yopilgan ayvonga kirasiz, so'ngra chap va o'ng tarafda «P» shaklda yopilgan gumbazli masjid va miyonsaroy (darsxonaga) o'tasiz. 114 ta hujraning har birida o't yoqish uchun olovxona, ikkinchi qavatida har bir hujrada ko'chaga qaragan balkon va arkdan iborat bezak berilgan. Bunday holatni Buxorodagi Ko'kaldosh (1578 yil), Abdullaxon va Modarixon (1580-yillar), Bozori Go'sfand (1670-yillar), Xiva va Qo'qondagi madrasalar qurilishida ham uchratish mumkin.

Sayyid otaliq madrasasi XVII asrning boshlarida qurilganligini arxitektura nuqtai nazaridan isbotlovchi dalillar talaygina. XVI—XVII asrlarda qurilgan binolarga o'xshash tarixiy obidalar keyinchalik qurilmagan. Keyingi qurilgan tarixiy obidalar XVI—XVII asrlar obidalaridan sezilarli farq qiladi, ba'zilarida esa umuman o'xshashlik alomatlari yo'q. Yuqorida aytib o'tilganlarga asoslanib, Sayyid otaliq madrasasi 1612—1628 yillar davomida Tojiddin Xoja Hasan Jo'yboriy boshchiligida qurilgan deb ishonch bilan ayta olamiz. Jumladan, xonaqoni ham madrasani bunyod etgan usta barpo qilgan deyishimiz mumkin.

So'fi Olloyor ziyoratgohi (XVII-XVIII asrlar) Oltinsoy tumani Katta Vaxshuvor qishlog'ida joylashgan. Katta Vaxshuvor qishlog'ida So'fi Olloyor hayotligi davrida o'zi qurdirgan qadimgi masjid (XVIII asr) mavjud. Qadimshunos olim L.I. Rempel masjid ustunlaridan birining yozuvini o'qish orqali 1713-yili uni qurib bitkazilganini aniqladi. Masjidning shimoli-sharqiy qismi ikki ayvon, qo'shimcha xona va hovlidan iborat. Imorat to'g'ri burchak shaklida ikki yoqlama ayvon bilan tutashgan. Binoga kirishning janubi-sharqiy va shimoli-sharqiy yo'llari mavjud. Imorat sinchli paxsadan qurilib, ikki qavat devor bilan o'ralgan. Masjidning tashqi tarafida kulbalar bor, mehrob qismi juda tor bo'lib, to'rtta ustun qo'yilgan. Ayvonda yettita, zalda esa oltita baquvvat ustunlar bor. Ayvonning diametri

14,0x16,2 m zalning diametri esa 11,1x9,7 m tashkil etadi. Masjid binosi XIX asrda Fayzulla Oxund va XX asr boshida Qo‘qon eshoni tomonidan amalga oshirilgan. Ziyoratgohga kirishda darvoza va uning atrofida shoirning she‘rlari bitilgan g‘ishtin lavhlar bor. Tor va uzun yo‘lak qabristonga qadar cho‘zilgan. Yo‘lakka beton g‘ishtlar namozgohga qadar terilgan. So‘fi buvaning tepasida to‘rtta tug‘ turibdi.

Xoja Samandar at-Termiziy maqbarasi - XVII–XVIII asrga oid bo‘lib, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Qopto‘qay qishlog‘idagi daryo bo‘yida joylashgan. Keyinchalik maqbaraga daryo yaqinlashib qolgani bois, marhum kishining suyaklari yig‘ib olinib, qishloqdagi yuqoriroq tepalikka qayta dafn etilgan. Xojaning avlodlari bobokalonlari qabri ustiga maqbara bunyod etishib, tevarak-atrofni ziyoratchilar uchun qulay holga keltirganlar. Shu sababli bu yerda ikki obyektga ketma-ket ziyorat etish holatini kuzatishimiz mumkin.

Qurbon Soat maqbarasi -XVII asrda maqbara barpo etilgan. Bino atrofi tosh devor bilan o‘ralgan. Ziyoratgoh 1–1,5 gektar yerni egallaydi. Bu qadamjo juda qadimiydir. Informantlarning ma‘lumoticha, uning tarixi ming yilga borib taqaladi. Mahalliy aholi orasida keng tarqalgan rivoyatlarga binoan, qadamjo hududidagi tut daraxtining yoshi 150–200 yillar atrofida. Ziyoratgohning orqa tomonida kichik qabriston joylashgan. Unda ziyorat obyekti hisoblanadigan bir necha qabr mavjud. Birinchi qabr XVII asr o‘rtalarida yashagan islom ilmlari sohibi Qurbon o‘g‘li Soatga tegishli. Muqaddas joy mazkur mahalliy ulamo ismi bilan ataladi. Qabriston atrofi bir necha qavat paxsa devorlar bilan o‘ralgan. Hozirgi kunda devor qoldiqlarigina saqlangan. Muqaddas joyni obodonlashtirish va qayta ta‘mirlash 1970-yillarda amalga oshirilgan. Hozirgi kunda bu obyektga aholi ziyorat uchun tez-tez tashrif buyuradi.

Xo‘ja Muhammad Mavlono Zohid maqbarasi - XVII asrda bunyod etilgan. Mazkur ziyoratgoh Kichik Vaxshivor qishlog‘ida joylashgan. Bu joyning paydo bo‘lishi haqida quyidagi rivoyat mavjud: Mavlono Zohid olamdan o‘tgach, uning qabri ustiga yerli aholi maqbara qurgan. So‘fi

Olloyor bu maqbara haqida: «Mendan u kishi ulug‘, avval u kishini ziyorat qilib, keyin menga kelinglar», deb bashorat etgan. Ana shu sababdan bu ziyoratgohning ahamiyati mahalliy aholi uchun hozirgi kunda yuqori hisoblanadi.

Kiyik ota maqbarasi - XVIII–XIX asrlarga oid bo‘lib, Mirshodi qishlog‘ida, ikki tomoni adirlik, o‘rtasi katta soyning yoqasida joylashgan. Ziyoratgoh oddiy paxsa devor bilan o‘ralgan. Devor vaqt o‘tishi bilan nurab, yemirilgan, uning devor o‘rtasidagi qabr oddiy tuproq bilan baland qilib ko‘tarilgan. Tepasiga ikkita katta kiyik shoxi ilingan. Ziyoratgoh atrofiga boshqa shaxslar dafn etilmagan. Bu ziyoratgohning paydo bo‘lganiga taxminan 200–250 yillar bo‘lgan. Yovvoyi hayvon shoxlari yomon ruhlardan himoya qiladi, deb hisoblanadi.

Bibi Zaynab maqbarasi - XIX asrda barpo etilgan. Ziyoratgoh sayyid avlodlaridan bo‘lgan avliyo ayol Bibi Zaynab momoga atab qurilgan. Uning qabri oddiygina pishiq g‘ishtlar bilan o‘ralgan bo‘lib, qabr tepasiga biri musht, biri ochiq bo‘lgan qo‘llarning ramziy belgisi qo‘yilgan. Axborotchilarning tushuntirishlariga ko‘ra, bu musht «Kimki meni ziyorat qilib kelsa, kelayotgan balo-yu qazoni daf qilaman», degan ramziy ma‘noni anglatadi. Ochiq qo‘lning ma‘nosi, «Kelayotgan barcha ziyoratchilar uchun ko‘nglim ochiq, barcha kasalliklari shifo topishiga ko‘maklashaman», degan ma‘noni beradi. Ziyoratgohga Zaynab bibi avlodlari va mahalliy xalq vakillari dafn qilingan. Rivoyat ziyoratgoh vazifalarini belgilashda xizmat qiladi.

Mintaqaning Buxoro markazi bilan uzviy aloqalarini ko‘rsatuvchi obyekt – Yakka tut bobo ziyoratgohidir. U XVIII–XIX asrlarga oid bo‘lib, unda Buxorodan kelgan bir donishmand kishi dafn etilgan deb hisoblanadi. Ziyoratgohni yerli xalqlardan bo‘lgan Sadri Xalifa degan kishi qayta ta‘mirlab, atrofni paxsa devor bilan o‘rab, qabrni obod qilgan. Sadri Xalifa 93 yoshida vafot etganidan keyin yillar o‘tishi bilan devorlar nurab, tekis yerga aylanib, qabr ham yo‘qolib, uning o‘rnida tikanli o‘simliklar o‘sib chiqadi. Keyinchalik yerli aholi qabr

atrofini toshlar bilan o'rab, uni ziyoratgohga aylantirgan.

Qoraxon Eshon bobo maqbarasi - XIX–XX asrlarga oid. Uning ustiga gumbaz qurilgan. Mazkur mavzoley hozirgi kunda katta muqaddas ziyoratgohga aylangan. Chor atrofdan bu yerga ko'p kishilar ziyorat qilish uchun keladilar.

Xo'ja Hasan Ilg'oriy yoki Kaptarxona maqbarasi - XIX–XX asrlarga oid bo'lib, atrofi sharqona usulda bezalgan devorlar bilan o'ralgan. Uning hududida ikki qabr bor. Birinchi qabr Xo'ja Hasan Ilg'oriyniki bo'lib, uning o'lhami: bo'yi 3–4 metr, eni 2 metr, balandligi 1–1,5 metrni tashkil etadi. Qabrning aylanasi sement bilan suvalgan. Uning tepasiga tog' echkisi shoxi qo'yilgan. Ikki shox o'rtasida esa qora tosh joylashtirilgan. Qabr oldida kichkina eshikcha bo'lib, ostiga tuproq solingan. Bu predmetlar ziyoratchilarning amaliyoti obyekti hisoblanadi. Ikkinchi qabr Avval Xalifaga tegishli bo'lib, birinchisiga o'xshab o'rnatilgan. Hajm jihatidan birinchi qabrdan ancha kichik.

Murch bobo maqbarasi - So'fiylardan

bo'lgan Sayyid Abduvali Samarqandiy, laqabi Murch bobo bo'lgan kishining nomi bilan ataladigan muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi.

Maqbara XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qurilgan bo'lib, arxeologlar tomonidan hali o'rganilmagan. Maqbara mahalliy yuqori tabaqadan bo'lgan imom Aliboy tomonidan qurilib, xonaqoh kunbotar tarafga yonbosh holatda, kvadrat shaklida bunyod etilgan. Eshigi ham kunbotar tarafga qarab qurilgan bo'lib, eshikning ikki yoni ark va peshtoq shaklida ishlangan. Maqbara qurilishi arxitektura uslubida bo'lib, pishiq g'ishtlardan terilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xullas, XVII — XIX asrlarda Surxon vohasi me'morchilik sohasida muhim yutuqlarga erishilgan. Bu davrda bunyod etilgan yodgorliklar Buxoro me'moriy yodgorliklari qurilishining davomi bo'ldi. Asrlar davomida avaylab-asrab kelinayotgan bunday me'morchilik durdonalarining milliy-ma'naviyatimiz tarixida tutgan o'rnini ilmiy tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Tursunov S., Pardayev T., Payg'amov A., Narzullayeva N. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. – T.: Muharrir, 2013. — B. 324.
2. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. –Toshkent: Fan, 2009. –B. 501.
3. Avazov U.Yu. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining janubi-sharqiy bekliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. Tarix fan. nomz. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2005. – 28 b.
4. Djurayeva S.N. O'zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rni. Diss. doktor.nauk. – Toshkent, O'zMU, 2022. – B. 300.
5. <https://surxon-turizm.uz>

SURXON VOHASIDA SHAHARLAR TARAQQIYOTI (QADIMDA VA O'RTA ASRLAR MISOLIDA)

Safarov Nurali Chori o'g'li,
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
safarovnurali13@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0001-9913-6098>
UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: O'zbekistonning janubiy darvozasi sanalgan Surxon zamini ham o'zining qadim tarixi, bebaho moddiy va ma'naviy madaniyati bilan vatanimiz tarixida muhim o'rin tutadigan makon sanaladi. Chunki ushbu mintqa insoniyat tamadduning muhim makonlaridan biri sifatida muste davridayoq insoniyatga beshik bo'lgan yoki ilk tasviriy san'at, ilk yozuv, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligi, mintaqadagi ilk shaharsozlik ana shu zaminda qaror topgan, qolaversa jahon dinlari sanalgan buddaviylik va islom ta'limotining yuksalishida ham Surxon zaminining o'rni beqiyos. Mazkur maqolada qadimda va o'rta asrlarda Surxon vohasida shaharlar taraqqiyoti yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Dalvarzintepa, Toxariston, Chag'aniyon, Kushon imperiyasi, savdo-sotiq, rabot.

Аннотация: Сурханская земля, считающаяся южными воротами Узбекистана, также считается местом, занимающим важное место в истории нашей страны с ее древней историей, бесценной материальной и духовной культурой. Потому что этот регион, как одно из важнейших мест человеческой цивилизации, был колыбелью человечества в древности, или первым изобразительным искусством, первой письменностью, сельским хозяйством, основанным на искусственном орошении, первым городским планированием в регионе, основанным на эта земля, а кроме того, место Сурханской земли также сыграло роль в возникновении буддизма и ислама, которые считаются несравненными мировыми религиями. В данной статье описывается развитие городов Сурханского оазиса в древности и

средневековье.

Ключевые слова: Далварзинтепа, Тохаристан, Чаганиян, Кушанская империя, торговля, торговля.

Abstract: The Surkhan land, considered the southern gate of Uzbekistan, is also considered a place that occupies an important place in the history of our homeland with its ancient history, invaluable material and spiritual culture. Because this region, as one of the important places of human civilization, was the cradle of humanity in the Musta era, or the first fine arts, the first writing, the first agricultural economy based on artificial irrigation, the first urban planning in the region were established on this land, and the role of Surkhan land in the rise of Buddhism and Islam, which are considered world religions, is incomparable. This article highlights the development of cities in the Surkhan oasis in ancient and medieval times.

Keywords: Dalvarzintepa, Tokharistan, Chaganiyan, Kushan Empire, trade, cooperation.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION). Surxon vohasi o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan qadimiy madaniyat markazi bo'lib, Mirshodi, Xolchayon, Dalvarzinda olib borilgan arxeologik qazishmalardan topilgan manbalarga asoslanib, miloddan avvalgi II minginchi yillar o'rtalarida bu hudud aholisi o'troq holida yashaganligini ilmiy asosda isbotlandi. Bu davrda qadimiy qabilalarga xos moddiy madaniyat yodgorliklari, turar joylari va boshqa ashyolar dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanib kelganligiga oid topilgan manbalar[1:47-59,103-109]. Surxon vohasida o'troq mahalliy aholi yashaganligini hamda shaharlar o'ziga xos tarzda taraqqiy etib kelganligini to'la tasdiqlaydi. Miloddan avvalgi I-

minginchi yillarning oxirlarida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi bilan bu hududda Baqtriya quldorlik davlati shakllanib, Yunon-Baqtriya tanga pullari, san'at buyumlari, harbiy qurol bezaklarida va sanamlarning sur'atlari o'yilgan oltin tovoqlar va har xil toshlarga mahalliy aholini milliy qiyofasi, urf-odatlar, xo'jaligi, tashqi aloqalariga oid voqelik aks ettirilgan[2:108-109].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Miloddan avvalgi I-minginchi yillarning o'rtalarida Baqtriya davlati hududida qadimiy elatlardan baqtriyaliklar, sug'diylar yashab, dehqonchilik rivojlanishi tufayli xo'jalikning boshqa tarmoqlari, to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik rivojlanib mahsulotning ma'lum bir qismi shahar bozorlariga chiqarilgan. Bu mahsulotlarning talaygina qismini ko'chmanchi chorvadorlar xarid qilganlar yoki tovarga ayriboshlab olganlar. Shu tariqa savdo hamkorligi, o'troq aholida qishloq xo'jaligini, ko'chmanchilarda esa chorvachilikni yanada ham taraqqiy etishini rag'batlantirgan.

Yunon-Baqtriya davlati doirasida bo'lgan Surxon ko'chmanchi qabilalarining tinimsiz hujumi ta'sirida mahalliy aholini aralashuvi va qo'shiluvi kuchayib borgan[3:173-174]. Salavkiylar imperiyasi (miloddan avvalgi 312-250) davrida mahalliy aholining iqtisodiy va madaniy hayoti tubdan o'zgardi. Milodning boshlarida bu davlatni Yue-Chji (xitoy manbalarida shunday atalgan) qabilalari o'ziga bo'ysundirib, Kushon imperiyasi (miloddan avvalgi birinchi asrning oxirlaridan tortib milodning to'rtinchi asrining ikkinchi yarmigacha) tarkibida bo'lgan. Surxon hududlari ham siyosiy va madaniy jihatdan Kushon imperiyasi ixtiyorida bo'lib, hozirgi Dalvarzintepa hududlari mazkur davlatning markaziy shaharlaridan biri sanalgan[1:53,68].

Strabonning ma'lumotlariga qaraganda Yunon-Baqtriya davlatini ag'dargan qabilalar aseiyalar (assianlar), passianlar, toharlar, sakarouklar bo'lgan. Rim tarixchisi Yustin (milodiy II-III asr), Pompey Trogning (miloddan avvalgi I asr) ma'lumotlariga tayanib, Baqtriya va Sug'diyonani sakarouk va azianlar (assianlar bo'lishi kerak) bosib oladilar deb yozgan edi. Keyinchalik bu ko'chmanchi qabilalar ichidan

Toharlarni siyosiy birikuvi kuchayib Hukmron qabilaviy ittifoqqa ega bo'ldilar[4:181]. Toxarlar (yue-chji) Amudaryoning chap tomonidagi Baqtriya Hududidan tashqari shu daryoning o'ng tomonidagi, hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning janubidagi mintaqalarini ham egallagan edilar. Bu viloyatlar miloddan avvalgi II asrda Toxariston deb ataldi. Tarixiy manbalarda milodiy V asrning ikkinchi yarmida (aniqrog'i 468 yili) Toxaristonda hokimiyatni qo'lga olgan qabilalardan biri eftaliylar bo'lib, Xitoy manbalarida bular yeda (ieda, yeda) deb nomlangan[5:126].

Eftaliylar davrida (IV-VI asr o'rtalarida) Surxon vohasiga vaqti-vaqti bilan ko'chmanchi qabilalar kelib joylashib, o'zbek va tojik xalqlarining ajdodlari doimo ittifoq bo'lib, o'zaro iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqada bo'lib, shaharlar ham o'ziga xos tarzda rivojlanib kelgan. Bu davrga oid yodgorlik Denov tumanidagi Xolchayon tepaligidan topilgan shahar saroy arxitekturasi bo'lib, topilgan asosiy zalning uch devori 3 m balandlikda oq ganch bilan suvalgan, undan yuqori qismlarida mahobatli haykallar joylashtirilgan. To'rtinchi devorning to'q qizil fonida oq ganchdan barg, gul, bosh uzum tasvirlangan naqshi solingan. Saroyning asosiy zalidan chiqiladigan ayvondagi naqshlar ham saqlangan. Bundagi naqshlarda erkaklar surati ham bor; erkaklardan biri baqtriyalikka va yana biri mo'g'ulga o'xshaydi. Topilgan haykallar, ayniqsa ayol haykali, uning yuzi keng, oq dubulg'a tagidan hurpaygan sochlar ko'rinib turishi, tanasiga yopishgan kiyimi saqlanib, tagida to'q qizil rang ko'ylak ustidan beldan yuqori oq tasma bog'langan[6:43]. Bu ma'buda Afina haykali bo'lsa kerak. Bu haykallarni yunonlar olib kelgan. Qayd etish kerakki, yuqoridagi manbalar asosida mahalliy xalqning madaniyati, urf-odatlar, nihoyatda qadimiy bo'lib, o'z navbatida ko'chmanchi va kelgindi xalqlar aralashib muqim tub aholi shakllandi. Bu madaniy jarayon Baqtriya-Kushon yodgorliklarining yuksak san'atida ellin haykaltaroshligi bilan Parfiya san'atining an'analarida ko'rinadi. Xolchayon tepaligini tekshirgan G.A.Puganchenkova: «Xolchayon haykali hozirgacha noma'lum desa bo'ladigan antik Baqtriya san'atining allaqachonlar unutilib ketgan so'qmoq yo'lidagi yorqin izdir», deb baho

bergan. Tohariston g'oyat katta Kushon imperiyasining markaziy viloyatlaridan biri bo'lib, bu hududda yuksak madaniyat rivojlangan[1].

Mahalliy turkiyzabon aholini o'sishi tufayli VI-VIII asrlarda Surxon vohasi hududida ham etnohududlar vujudga kelib ijtimoiy hayotda ham o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda etnik guruhlardan qarluq, xalach, chigil qabilalari kelib o'rtnashib, Toxaristonda qarluq yabg'ulari hukmronlikni o'z qo'llariga oldilar. Arablar istilosi davrida Surxon aholisi qattiq talofat ko'rib, shahar va qo'rg'onlar yakson qilindi. Movarounnahr hududida mavjud bo'lgan Chag'oniyon o'zaro kurashlar va ichki nizolar bilan ovora bo'lib, o'z kuchlari bilan yerlarini bosqinchilardan himoya qilishga ojizlik qilgan. Chag'oniyon vohasida yashovchi turkiy xalqlar forsiy aholi bilan yelkama-yelka turib arab qo'shinlari bilan jang qilib, o'z yerlarini himoya qilib kelganlar. Bu holat VIII asr boshlarida keng tus olib, bu kurashga Abu Muzaxim rahbarlik qildi. Ilk o'rta asrlarda Chag'oniyonning etnik va madaniy taraqqiyotida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy hayot jihatdan shakllanishi kuchaydi. IX- X asrlarda Movarounnahrda bo'lganidek, Chag'aniyonda ham etnik tarkib bir xil bo'lmay, asosiy xalq qadimdan turg'un yashab, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelgan. Arab istilosidan keyin Chag'oniyonni janubiy (hozirgi Denov, Qumqo'rg'on) hududlarida arablar turg'un bo'lib joylashib, turkiyzabon aholiga singib bordi. Shimoliy Toxariston hududida IX-X asrlarda bir necha tarixiy hududlar mavjud bo'lib, eng nufuzlisi Chag'aniyon (Sag'aniyon) hisoblangan: uning markaziy shahri Chag'oniyon bo'lib, arab geograflarining asarlarida, Chag'aniyon shahri Shimoliy Toxariston o'lkasidagi eng yirik shahar hisoblangan. Ammo undagi aholi soni Termiz shahri aholisidan oz bo'lgan. O.G.Bolshakovning taxmin qilishicha, Chag'oniyon shahristonida 9-10 ming kishi yashagan[5:186,211,212]. Ammo uning rabotida qancha kishi yashaganligi aniqlanmagan. Muqaddasiyning axborotida Chag'oniyon viloyatida 16 ming qishloq mavjud bo'lganligi ta'kidlanadi. Chag'oniyondagi har bir qishloqda eng kamida 50 ming kishidan bo'lganda ham (so'zsiz bu taxminiy hisob) ba'zi qishloqlarda bir necha yuz kishi yashagan bo'lishi ham mumkin. Chag'oniyonning 16 ming

qishlog'ida 800 mingdan oshiq aholi yashagan bo'ladi. Shimoliy Toxaristonda yana bir hudud Chag'onrudning (Surxondaryo) yuqori oqimlarida joylashgan Axarum viloyati bo'lib, aholi sonini aniqlash qiyin bo'lsa-da aholi zich yashagan, shahar va qishloqlari nihoyatda ko'p bo'lgan.

O'zbek elati shakllanishi jarayonining oxirlanishi X-XII asrlarda Movarounnahrda va unga tutash mintaqalarga o'tadi. Uning tarkibiy qismi bo'lgan Surxonda yashovchi turk va tojik xalqlarining madaniy-iqtisodiy aloqalari ancha rivojlanadi[7:42-43]. Turg'un aholi bilan yarim ko'chmanchi va yarim o'troq chorvadorlar orasida o'zaro iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan. Savdo-sotiq tufayli dehqonchilik mahsulotlari, chorvachilik mahsulotlari bilan ayriboshlash keng yo'lga qo'yiladi. Viloyatning markaziy shahar bozorlarida, markaziy Chag'aniyonda qishloq xo'jalik (jumladan chorvachilik) mahsulotlari, hunarmandchilik tovarlari ko'plab bo'lgan. Markaziy bozordan tovarlar aholi va savdogarlar tomonidan sotib olinib, har tomonga tarqalar edi[7:44-45]. Bu davrda Chag'oniyonni siyosiy nufuzi oshdi.

Chag'oniyon amirligining Somoniylar saltanati (875-999) dagi nufuzi g'oyatda katta bo'lib, bu suloladan chiqqan amirlar aksar Xuroson noibligini bajargan. Chag'oniyalar sulolasining vakili Abu Bakr 930-939 yillari Chag'oniyonni boshqargan. Chag'oniyalar sulolasining asoschisi Muhtoj Chag'oniy hisoblanadi. Biroq uning amirlik davri sanasi aniqlanmas. Umuman, Chag'oniyon amirligi sarhadlari keng bo'lib, uning hududlariga g'arbdan Boysun, Darband, shimoldan Hisor-u Dushanbe, janubdan Jarqo'rg'ondan yuqoridagi tumanlar, sharqdan Bobotog' etaklarigacha cho'zilgan zaminlar kirgan. Butun voha Chag'oniyon nomi bilan yuritilgan. Qadimgi Surxon bo'lsa, Chag'onrud deyilgan. Chag'oniyon va Chag'onrud ko'hna sak elati nomi ila hamohangliklar kasb etadi, ya'ni daryo atamasi Sakonrud-Shakonrudning talaffuzidagi o'zgarishlari natijasidir. Bu esa Sakoniyon-Shakoniya yoxud Chag'on-Sakon-Shakon-Chakonga ham to'la- to'kis taalluqlidir. Zero, bu nom ayrimlar aytganidek, Chag'ona (qizil) so'ziga mutlaqo aloqador emas[9]. Saklarning Baqtriya bilan aloqasi qadimdan mavjud ekanligi ma'lum, chunonchi,

ahamoniylar davridanoq (balki, undan ham ilgariroq) sak va boxtar (Boxtariy)larning qo'shinlari yagona lashkarga birlashtirilib, Eron-Yunon urushlarida qatnashganini yaxshi bilamiz. Chag'oniyonning qadimgi markazi hozirda Qizilsuv (Sangardak)ning Surxonga quyiladigan chap sohilida xarobaga aylangan Budrachtepa o'rnida bo'lgan, keyinroq bu markaz Denovga ko'chgan, voha ham uning markazi ham Chag'oniyon deyilgan. Arab manbalarida

Chag'oniyon Sag'aniyon (goho Sakaniyon) tarzida bitiladi, bu esa arab tilida «ch» tovushining yo'qligi tufayli ro'y bergan hodisadir[8:10-14].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa, qilib aytganda Surxon vohasi qadimdan o'troq aholi yashab kelgan, shahar madaniyati o'ziga xos tarzda rivojlangan, jahon san'ati va madaniyatida o'z o'rniga ega bo'lgan o'lkalardan biri sanaladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусство Средней Азии. –М., 1982., с. 38, 47-59, 68, 103-109.
2. Толстов. С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта.-М., Изд. Вост. лит... 1962., с.108-109.
3. История Узбекистана в источниках. т.1. -Т., «Фан».1967., с. 173-174.
4. Умняков И.И. Тохарская проблема. // ВДИ, 1940. № 3-4. с. 181.
5. Shoniyozev K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. -Т., «Sharq». 2001., B. 126, 186, 211, 212.
6. Tursunov S.N. Surxondaryo viloyati tarixini o'rganish. -Т., «A.Qodiriy» nomidagi xalq merosi., 1997., B. 43.
7. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarix ko'zgusida. -Т.: «Sharq». 2001., B. 42-43, 44-45.
8. Qodirov B., Murtazoyev B. Chag'oniyon adabiyoti. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. –B. 10 –14.
9. Dala yozuvlari. 2021 yil. Denov tumani Chuqur qishlog'i.

MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXIY-MADANIY YODGORLIKKA BO'LGAN E'TIBOR (SURXONDARYO MISOLIDA)

Shamayev Umarali Turg'unboyevich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0003-4658-2019>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon Surxondaryodagi tarixiy va madaniy yodgorliklarning saqlanishi masalasi, islomiy yodgorliklar — Sulton Saodat majmuasi va Jarqo'rg'on minorasi kabi obidalar, xususan, YUNESKO bilan xalqaro hamkorlikning moliyaviy va texnik yordamdagi o'рни, Surxondaryoda turizm roli, iqtisodiy rivojlanish va merosni saqlash muvozanati, ushbu yodgorliklarning O'zbekistonning Markaziy Osiyo merosi bilan bog'liqligini aks ettiruvchi madaniy ramz sifatidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, O'zbekiston mustaqilligi, tarixiy va madaniy meros, yodgorliklarni saqlash, Sulton Saodat majmuasi, Jarqo'rg'on minorasi, YUNESKO hamkorligi, madaniy turizm.

Annotation: This article explores the issue of preservation of historical and cultural monuments in Surkhandarya since the independence of Uzbekistan, Islamic monuments — monuments such as the Sultan Saodat Complex and Jarkurgan Minaret, in particular, the role of international cooperation with UNESCO in financial and technical support, the role of tourism in Surkhandarya, the balance of economic development and preservation of heritage, the importance of these monuments as cultural symbols reflecting Uzbekistan's connection with Central Asian heritage is discussed.

Key words: Surkhandarya, independence of Uzbekistan, historical and cultural heritage, preservation of monuments, Sultan Saodat Complex, Jarkurgan Minaret, UNESCO cooperation, cultural tourism.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос сохранения памятников истории и культуры в

Сурхандарьинской области с момента обретения независимости Узбекистана, памятников ислама — таких памятников, как комплекс Султан Саодат, Джаркурганский минарет, в частности, роль международного сотрудничества с ЮНЕСКО в финансовой и технической сфере. поддержки, обсуждается роль туризма в Сурхандарьинской области, баланс экономического развития и сохранения наследия, значение этих памятников как культурных символов, отражающих связь Узбекистана с наследием Центральной Азии.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, независимость Узбекистана, историческое и культурное наследие, сохранение памятников, комплекс Султан Саодат, Джаркурганский минарет, сотрудничество с ЮНЕСКО, культурный туризм.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng o'zining tarixiy va madaniy merosini, xususan, mamlakat janubida joylashgan Surxondaryo viloyatini asrab-avaylash va targ'ib qilish borasida muhim qadamlar tashladi. Surxondaryo o'ziga xos madaniy va tarixiy obidalarga boy bo'lib, uning merosi turli sivilizatsiyalar, jumladan, fors, yunon va islom ta'sirida shakllangan. Bu ko'p qatlamli tarix Surxondaryoga minglab yillar davom etgan yodgorliklar va arxeologik obidalar bilan ta'minlangan bo'lib, qadimiy savdo yo'llari, ayniqsa, Ipak yo'li bo'ylab madaniy almashinuvning yorqin rekordini taqdim etadi. Biroq, bu obyektlar o'nlab yillar davomida resurslarning yetishmasligi va Sovet hokimiyati davrida saqlashga yetarlicha

e'tibor berilmagani uchun turli xil e'tibordan chetda edi. Mustaqillik O'zbekistonning tarixiy ildizlari bilan qaytadan bog'lanish va milliy o'zlikni qayta aniqlash istagidan kelib chiqqan holda ushbu madaniy merosni asrab-avaylashda yangi sur'at olib keldi.

Markaziy Osiyo madaniyati, ma'naviyati, jumladan, axloq, ma'rifat, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar xalq og'zaki adabiyotida, folklorda, turli xalq an'alarida ham o'z aksini topib kelgan. Go'ro'g'li, Alpomish, Rustam haqidagi dostonlarda xalqimizning qadimgi urf-odatlarini, ruhiyati, xulq-odoblarning ifodasini uchratishimiz mumkin. Bunday ma'lumotlar qadimgi sug'd, manixey, Xorazm, turkiy yozuvlar namunalarida saqlanib qolgan manbalarda ham uchraydi. VIII asrga kelib Markaziy Osiyoni arablar istilo qildilar va ular o'zlari bilan yangi din Islomni olib keldilar va bosib olingan xalqlar orasida turli yo'llar bilan bu dinni tarqata boshladilar.

Hukumatning Surxondaryo merosini asrab-avaylash borasidagi tashabbuslari milliy g'urur va tarixiy ongni targ'ib etishga katta e'tibor qaratuvchi kengroq madaniy strategiyani aks ettiradi. Mintaqadagi eng diqqatga sazovor joylar qatorida bir vaqtlar Buyuk Ipak yo'li bo'ylab yirik markaz sifatida rivojlangan Termiz shahrining qadimiy xarobalari bor. Termizda ko'plab buddizm, islom va zardushtiylik yodgorliklari joylashgan bo'lib, ularning har biri Markaziy Osiyoning tarixiy xilma-xilligini o'zida mujassam etgan. Qora-tepa va Fayoz-tepa kabi joylar mintaqada islom ta'siridan oldin bo'lgan boy buddist an'alaridan dalolat beradi. Stupalar, monastir kvartallari va boshqa inshootlarni o'z ichiga olgan bu majmualar nafaqat o'zining me'moriy va badiiy fazilatlarini bilan, balki Ipak yo'li bo'ylab buddizmning tarixiy tarqalishini tasvirlashdagi roli bilan ham e'tiborlidir. Ularni asrab-avaylash O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki bu mamlakatning turli madaniyatlar va diniy an'alar uyg'unlashgan tarixiy chorraha sifatidagi rolini ta'kidlaydi. Ushbu qadimiy qoldiqlarning nozik tabiati va ularni og'ir muhitda saqlash qiyinchiliklarini hisobga

olgan holda, ushbu saytlarni tiklash bo'yicha urinishlar katta tajriba va resurslarni talab qildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Surxondaryodagi islom yodgorliklari mintaqaning madaniy chuqurligini yanada ta'kidlaydi, Sulton Saodat majmuasi kabi inshootlar Markaziy Osiyoda islom me'morchiligi va ma'naviyati evolyutsiyasi haqida tushuncha beradi.

XI-XVII-asrlarda qurilgan Sulton Saodat majmuasi mintaqadagi taniqli so'fiylar oilasiga tegishli maqbaralar, masjidlar va boshqa muqaddas binolarni o'z ichiga olgan me'moriy ansamblidir. Bu majmua islom xalifaliklari davrida gullab-yashnagan ruhiy amaliyotlarni aks ettirgani uchun ulkan diniy va madaniy ahamiyatga ega. Uning restavratsiyasi islom merosini asrab-avaylash O'zbekistonda madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolish uchun muhim deb hisoblagan mahalliy hokimiyat organlarining diqqat markazida bo'ldi. Xuddi shunday, XII asrga oid Jarqo'rg'on minorasi ham Markaziy Osiyodagi eng qadimiy islom me'moriy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Minora o'zining noyob dizayni va murakkab g'isht ishlari bilan o'z davrining hunarmandchiligi va san'at yutuqlarini ifodalaydi. Minorani qayta tiklash eroziya va konstruktiv eskirish tufayli qiyinchiliklar tug'dirdi, ammo Surxondaryo islom merosining me'moriy va madaniy yutuqlaridan dalolat sifatida uni saqlab qolish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Surxondaryoning tarixiy obidalarini asrab-avaylashni kuchaytirishda xalqaro hamkorlik muhim rol o'ynadi. YUNESKO kabi tashkilotlar mahalliy tabiatni muhofaza qilish sa'y-harakatlarini rivojlantirishda muhim bo'lgan moliyaviy va texnik yordam ko'rsatdi. Bu hamkorlik nafaqat resurslarni yetkazib berdi, balki restavratsiya ishlari sifatini yaxshilagan bilim almashishga ham hissa qo'shdi. Xalqaro ekspertlar o'zbek tabiatshunoslari uchun o'quv mashg'ulotlarini o'tkazib, ularga ushbu qadimiy obidalar ehtiyojlariga mos keladigan zamonaviy texnikani o'zlashtirishga yordam berishdi. Bunday hamkorlik nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoning jahon tarixidagi rolini

kengroq tarixiy tushunish uchun ham qadrlil bo'lgan Surxondaryo madaniy merosining global ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu obidalarining xalqaro meros tashkilotlari tomonidan e'tirof etilishi Surxondaryo obidalarining mavqeyini oshirdi, mahalliy hamjamiyatlarda faxr-iftixor tuyg'usini uyg'otdi va mintaqaning madaniy qadriyati haqida jahon miqyosida xabardorlikni oshirdi.

Surxondaryo viloyatida joylashgan "Vaqf" fondi ro'yxatidagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarning soni 16 ta bo'lib, ular "Murch bobo" ziyoratgohi (Termiz shahri, Majnuntol MFY), "Kokildor ota xonaqohi" ziyoratgohi (Termiz tumani, Kokildor ota MFY), "Sulton Saodat" majmuasi (Termiz tumani, Namuna MFY), "Qirqqiz" ziyoratgohi (Termiz tumani, Kokildor ota MFY), "Samandar Termiziy" ziyoratgohi (Jarqo'rg'on tumani, Xo'ja qishloq MFY), "Xo'ja Abdulvarroq Termiziy" ziyoratgohi (Jarqo'rg'on tumani, Hayitobod MFY), "Sulton vali" ziyoratgohi (Boysun tumani, Inkobod MFY), "Kamari Aziz" ziyoratgohi (Boysun tumani, Inkobod MFY), "Xo'ja Mayxona" ziyoratgohi (Boysun tumani, Temir darvoza MFY), "Takiya ota" ziyoratgohi (Qiziriq tumani, Takiya MFY), "So'fi Olloyor" ziyoratgohi (Oltinsoy tumani, Katta Vaxshivor qishlog'i), "Mavlonoyi Zohid" ziyoratgohi (Oltinsoy tumani, Qo'sharcha MFY), "Shayx Attor Valiy" ziyoratgohi (Denov tumani, Namozgoh MFY), "Sulton Sanjar Moziy" ziyoratgohi (Denov tumani, Ostona MFY), "Sangardak sharshara" ziyoratgohi (Sariosiyo tumani, Sangardak MFY), "Oqostona bobo" ziyoratgohi (Uzun tumani, Oqostona MFY) tashkil etgan[7]. Tadqiqotchi olim S.Jo'rayeva ziyoratgohlar soni 92 ta ekanligini o'z ishida qayd etadi[8].

O'zbekiston Respublikasi 2005-yil 25-26-noyabr kunlari Toshkentda Tokio Xirayama nomidagi xalqaro karvonsaroyda "Markaziy Osiyo mintaqasida tarixiy madaniy merosni tiklash muammolari, rivojlantirishning asosiy tamoyili" deb nomlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Anjuman Fond Forum, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi YUNESKO, "Chegarasiz restavratolar" xalqaro tashkiloti hamkorligida o'tkazildi. Maqsad esa tarixiy-

madaniy merosni tiklash sohasida jahon tajribasini o'rganish, mazkur sohadagi yangi yo'nalishlarni kashf etish, Markaziy Osiyo hududida mintaqaviy restavratsiya markazini tashkil etish, shuningdek sohada hamkorlik aloqalarini rivojlantirish. Anjumanda jahonning turli mamlakatlaridan soha mutaxassisarlari, ular orasida Gretsiya, Turkiya, Fransiya, Bolgariya, Rossiya, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarning xalqaro tashkilotlari rahbarlari va olimlar ishtirok etishdi. Anjuman yakunlariga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasida restavratsiya markazini Toshkentda ochish bo'yicha deklaratsiyaga imzo chekildi.

Biz yashayotgan dunyoda texnologiyalarni rivojlantirish va raqamlashtirish jarayonlari ketayotgan bir davrda turistlar internet yordamida yoki turli ijtimoiy tarmoqlar yordamida axborot olish, joy tanlash, safar biletlarini erkin tanlash imkoniyatlarini yaratish juda muhim hisoblanadi. Boshqa tomondan, vohaga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar uchun ichki transport infratuzilmasining rivojlanganligi, shuningdek, pul almashtirish shoxobchalari mavjudligi, ovqatlanish va mehmonxona xizmatlari internet orqali oldindan belgilab qo'yilishi kabi masalalar ham muhim hisoblanadi. Surxondaryo viloyati qadimdan madaniyatlar va dinlar kesishgan hudud bo'lganligi bois, viloyatning turizm salohiyatini yanada oshirish uchun shu yo'nalishlarni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratilsa hududning turizm sohasida va iqtisodida katta yutuqlarga erishiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda milliy g'urur, madaniy o'ziga xoslik va iqtisodiy intilishlar uyg'unligidan kelib chiqqan holda Surxondaryodagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash va targ'ib qilishga e'tibor yana jonlandi. Bu sa'y-harakatlar O'zbekistonda o'z merosini qayta tiklash va nishonlash, mamlakatni Markaziy Osiyo tarixiy merosining muhim saqllovchisi sifatida ko'rsatish bo'yicha kengroq harakatni aks ettiradi. Surxondaryoning qadimiy buddaviy yodgorliklaridan tortib to islom

me'morchiligigacha bo'lgan obidalar mintaqaning rang-barang madaniy tarixining mikrokosmosini ifodalaydi va o'tmish va bugunni bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'taydi. Tabiatni muhofaza qilish, xalqaro hamkorlik va barqaror turizm amaliyotiga doimiy sodiqlik orqali O'zbekiston Surxondaryodagi

madaniy yodgorliklarning mamlakat merosining jonli timsoli bo'lib qolishini ta'minlash, mahalliy hamjamiyatlarni ham, Markaziy Osiyoning tarixiy ahamiyati haqidagi global tushunchani ham boyitish imkoniyatiga ega.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdullayev F. "O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi madaniy meros siyosati", 2020.
2. Yunusov Z. "O'zbekistonning tarixiy yodgorliklarini saqlash va tiklash ishlari", 2019.
3. Qosimov A., & Rahimov, R. "Surxondaryoning madaniy merosi: Saqlash va tiklash muammolari", 2018.
4. Karimov U. "Surxondaryoning me'moriy yodgorliklari: Madaniy meros va milliy g'urur", 2021.
5. YUNESCO O'zbekiston byurosi. "O'zbekistonning tarixiy merosini asrashda xalqaro hamkorlik", 2019.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi 708-F-sonli Farmoyishi ilovasidagi "Vaqt" xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida birlashtirib berilgan muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar ro'yxatidan.
7. Jo'rayeva S. Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi. Monografiya. – Toshkent: TURON IQBOL, 2021. – B. 300.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN 1991-YILGACHA BO'LGAN DAVRDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY-IJTIMOYIY HOLATI

Norbekov Ahmadjon Norbekovich,

Navoiy shahar 23-sonli umumta'lim maktabi o'quv ishlari bo'yicha

direktor o'rinbosari

e-mail: ahmad.norbekov92@gmail.com

ORCID: 0009-0002-8667-7714

UDK 323(575.1)-053.81

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushidan 1991-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy holati hamda ushbu davrdagi mavjud vaziyat yuzasidan vujudga kelgan muammolar hamda ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Qayta qurish, siyosat, madaniyat, demokratik kuchlar, Farg'ona voqealari, respublika.

Аннотация: в данной статье рассматривается политико-социальное положение Узбекистана в период от Второй мировой войны до 1991 года, а также проблемы, возникшие в связи с текущей ситуацией в этот период, и их решения.

Ключевые слова: Перестройка, политика, культура, демократические силы, Ферганские события, республика.

Abstract: in this article reflects on the political and social situation of Uzbekistan in the period from World War II to 1991, as well as the problems arising from the current situation in this period, as well as their solutions.

Key words: Reconstruction, politics, culture, Democratic Forces, Fergana events, Republic.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Urushdan keyingi og'ir vaziyat hamda Qayta qurish siyosati natijasida mamlakatda yalpi kommunistik senzura zaiflashdi va deyarli yo'q holiga keltirdi. Uzoq vaqtdan buyon kutib kelingan hurfiylik va matbuot erkinligi pallasi boshlandi. "Qayta qurishning eng birinchi natijasi "oshkoralik" bo'ldi. Oshkoralik tazyiqi ostida sotsialistik mafkura o'zining "jozibadorligini" tobora yo'qotib bordi.

Oshkoralik natijasida sovet jamiyatining ahvolini tahlil qilish va mamlakat oliy darajasidagi siyosiy rahbariyatning yo'l qo'ygan xatolariga birinchi bor ochiqchasiga baho berishga qo'l urildi. Lekin shu bilan birga, "oshkoralik" O'zbekiston uchun o'zining bir qator salbiy tomonlari bilan ham namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilinarkan, mazkur masala yuzasidan To'xliyev N. [2], Ziyoyev H.[3], Aminov B., Rasulov T. [4] hamda Jo'rayev N., Karimov Sh.[6] singari olimlar tadqiqot olib borishgan. Tadqiqot Ikkinchi jahon urushidan 1991-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy holatiga doir tadqiqotchi-olimlarning ilmiy materiallari hamda ushbu davr yuzasidan ochiq manbalariga joylashtirilgan ma'lumotlar asosida olib borilgan. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik, izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiylik va xolislik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

MUHOAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1983-yilda Markaz tomonidan ataylab o'ylab topilgan uydirma asosida O'zbekistonda paxtani terish va qayta ishlashdagi "o'g'irlik", "qo'shib yozish", moliyaviy buzilishlarni tergov qilish bilan markaziy prokuratura va ichki ishlar organlari maxsus shug'ullandi [1; 45-b.]. Buning natijasida respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va sovxoz direktorlarining 60%idan ko'prog'i, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxassislarining qariyb 45%i, har uch paxtachilik brigadasi boshlig'idan biri vazifasidan olib tashlandi (jami 40 mingga

yaqin fuqarolar tergov qilingan edi). Ularning aksariyat ko'pchiligi tergov izolyatorlarida bo'lishdi, turmalar va lagerlarga yuborildi. Agrosanoat xodimlariga nisbatan qilingan bu qatag'onlar O'zbekiston qishloq xo'jaligida kadrlar salohiyatini sezilarli ravishda zaiflashtirdi.

Boshqa respublikalarda ham katta "jinoyatlar" ochib tashlandi. Biroq "paxta ishi" eng shov-shuvli ish sifatida butun ittifoqqa namoyon qilindi. Bir qator Rossiya gazetalarining zo'r berishi tufayli "paxta ishi" "o'zbeklar ishi"ga aylantirildi. Matbuotdagi shovqin-suronli kampaniya ongli ravishda ataylab tashkil etilganligi yaqqol sezilib turardi, O'zbekiston aholisining qandaydir misli ko'rilmagan tarzda "boyib" ketganligi haqida afsonalar to'qib chiqarilgandi. "Paxta ishi"ni umumiy qoralashning salbiy ruhi butun o'zbek xalqiga nisbatan tatbiq etildi, bu o'z-o'zidan adolatsizlik edi. Bundan tashqari, yana shu narsa ham ma'lum ediki, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik ma'lum darajada sotsializmni "ko'z-ko'zlash" maqsadida butun mamlakat xalq xo'jaligi hisobotlariga xos oddiy voqealarga aylanib qolganligi hech kimga sir emasdi. O'zbekistonga va o'zbek xalqiga nisbatan qilingan bu adolatsizlik xalq ommasini sovetlar rejimiga nisbatan nafratini oshirdi, munosabatini o'zgartirdi.

"Qayta qurish" jarayoni avvalboshdan oq, asosan, siyosiy sohani qamrab oldi. Iqtisodiy islohotlar esa, oqibatda bo'ysunuvchan ahamiyat kasb etdi, u iqtisodiyot qonunlari asosida emas, balki mafkuraviy andozalar tarzida amalga oshirildi. Oradan ko'p vaqt o'tmay jadallashib borilayotgan siyosiy jarayonlar bilan sust rivojlanayotgan iqtisodiyot o'rtasida katta farq ko'zga tashlana boshladi.

SSSRning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston ham "Qayta qurish" girdobiga tortildi, uning "qonunlariga" amal qildi. Jamiyat har tomonlama demokratiyalashuvining e'lon qilinishi, eng avvalo, sotsialistik xalq hokimiyati va o'zini-o'zi boshqarish rivojlanishidan iborat deb tushunildi. Shuning uchun ham u, avvalo sovet, saylov tizimini takomillashtirish, deputatlikka nomzodlarning shaxsiy va

ishchanlik fazilatlarini erkin va har tomonlama muhokama qilishni ta'minlash orqali amalga oshirilishi lozim edi. Biroq, 1987-yil iyun oyida mahalliy sovetlarga bo'lib o'tgan saylov hali bu jarayon "demokratiyalashuvdan" ancha uzoq ekanligini ko'rsatdi. O'zbekistonda 1987-yil 21-iyunda bo'lib o'tgan saylovda mahalliy sovetlarga 106484 kishi saylangan bo'lib, ulardan 37709 nafari, ya'ni 35,7% ishchilar, 29209 nafari yoki 27,7% kolxozchilar edi. Taajjubligi shundaki, respublika ishchilari tarkibida mahalliy millat vakillarining ulushi doimo ozchilikni tashkil qilganligi ma'lum. 1985-yilda respublika ishchilari orasida o'zbeklar 45,7% bo'lsa, aholi tarkibida esa ular 70%dan ortiq edi. Demak, saylangan deputatlar orasida o'zbek millatiga mansub ishchilar ozchilikni tashkil qilgan. Yoki boshqa bir nisbatni olaylik: 1987-yilda saylangan deputatlardan 47046 nafari KPSS a'zolari va a'zolikka nomzodlar bo'lib, (44,6%), partiyasizlar esa, 58448 deputatdan iborat edi (55,4%). O'zbekiston kompartiyasining a'zolari soni 642 mingdan ortiq ekanligini hisobga oladigan bo'lsak [2; 24-27-b.], hokimiyat organlaridagi bunday nisbat partiyaning respublika aholisi orasidagi salmog'iga mutlaqo to'g'ri kelmasdi, ya'ni partiya a'zolari respublika aholisining 3,3%dan kamrog'ini tashkil qilgani holda deputatlarning asosiy qismini tashkil etardi. Aslida esa, O'zbekiston kompartiyasi ham butun ittifoqda bo'lganidek respublikada yagona hukmron partiya bo'lib, kommunist bo'lmaganlar uchun hokimiyatda qatnashish avvalgidek qattiq cheklangan edi.

O'zbekistonda saylov tizimini demokratiyalashtirish maqsadida 1990-yil fevral-aprelda Respublika Oliy Sovetiga ko'p mandatli okruglar bo'yicha eksperiment sifatida saylov o'tkazib ko'rildi. Biroq yakkapartiyaviylik tizimi sharoitida bu yangilik rasmiyatchilikdan nariga o'tmadi. Chunki bu saylovlar Oliy Sovet tarkibini demokratlashtirmadi, aksincha, avval ishlab turgan Oliy Sovetga nisbatan deputatlar orasida ishchilar, kolxozchilar, xotin-qizlar, yoshlar soni kamayib ketdi, avvalgidek davlat hokimiyatining oliy organi deyarli mutlaq

partiya a'zolaridan iborat bo'lib qoldi, deputatlarning qariyb 95 %i kommunistlar edi. Lekin, bu saylovda ko'pgina okruglarda birinchi bor deputatlik mandatiga bir nechtadan nomzodlar da'vogarlik qildi. Shunga qaramasdan, 500 okrugdan 174 tasida muqobil nomzodlar ko'rsatilmadi.

Shuningdek, deputatlik vakolatlarining to'xtatilishi va saylovchilarning deputatni chaqirib olishi to'g'risidagi masala ham deputatlikka nomzodlarni ko'rsatish tartibi kabi (nomzodlarni partiya qo'mitalari ko'rsatardi) avvalgidek partiya qo'mitalari tasarrufida qolaverdi. Lekin saylov tizimida "demokratiya"ga amal qilinayotganini ko'rsatish maqsadida matbuot sahifalarida faqat deputatlarni chaqirib olish xollarining o'sish dinamikasini namoyish qilish bilan cheklandi: 1985-yilda O'zbekistonda turli darajadagi sovetlar deputatlarining vakolatlari 1216 kishida, 1986-yilda 2877 kishida to'xtatilgan. Lekin bu vakolati to'xtatilgan deputatlarning aksariyati o'zlarining deputatlik burchlarini yoki saylovchilarning nakazini bajarmaganligi uchun ular tomonidan chaqirib olinganligida emas, balki "paxta ishi" bilan bog'liq bo'lganligi uchun chaqirib olinganligi hozirgi kunda ma'lum.

Ijtimoiy-siyosiy sohada "Qayta qurish" siyosatining asosiy ziddiyati (ayniqsa, uning dastlabki davrida) KPSSning "rahbarlik roli"ni va uning yakkahukmronligini to'la saqlagan holda sovet jamiyatini demokratiyalashga intilishdan iborat ekanligida edi. KPSSning "rahbarlik roli" uning mutlaq yakkahokimlikka intilishida o'z ifodasini topgan. Partiya nafaqat mafkuraviy hukmronlikni, shuningdek, davlat organlari, sovetlar va kasaba uyushmalarining vazifalarini, ishlab chiqarishni boshqarishni ham o'z qo'liga mustahkam olgan edi. Har qancha "qayta qurish"lar amalga oshirilmasin, partiya o'zining cheklanmagan hukmronligini qo'ldan bermasligi tabiiy edi. Masalan, XIX partiya konferensiyasi (1988-y. iyun-iyul) ham sovet federatsiyasini demokratik prinsiplar asosida qayta qurish masalasiga to'xtalar ekan, "sotsialistik qardoshlik negizi" bo'lgan "Respublikalarning noyob ittifoqi"ni zaiflashtirib qo'yish mumkin degan

mafkuraviy aqidalar bilan muammoni hal qilishni rasmiyatchilik tomonga burib yubordi. Shuningdek, ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi bevosita (Markaz ishtirokisiz) aloqalar o'rnatish masalasiga uni "huquqiy jihatdan chuqur anglab chiqish"ni talab qiladi, deb ta'kidladi, konferensiya milliy respublikalarda milliy — rus ikki tillikni yoqlab chiqdi. Partiya konferensiyasining "qayta qurish" masalasiga bunday yondashuvi hukmronlikni qo'ldan bermaslikdan dalolat edi.

Respublikada tobora kuchayib borayotgan demokratik jarayonlar mustabid tuzum davrida yillar davomida to'planib qolgan salbiy illatlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi. 1989-yil may-iyun oylarida Farg'ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro'y berdiki, u respublikada va butun mamlakatda g'oyat darajada katta shov-shuvga sabab bo'ldi hamda respublikada siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi. Bu mojaro shunchaki, oddiy bezorilikdan iboratdek ko'rinsa-da, lekin uning zaminida mustabid sovet tuzumi yillarida to'planib, pishib yetilgan, ertami-kechmi "portlashi" kutilgan milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muammolar yotgan edi [3; 36-b.].

Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan deportatsiya qilingan bir qator xalqlar qatorida mesxeti turklari ham bo'lib, ular, asosan, aholi zich yashaydigan Farg'ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan bo'lib, buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo'shimcha muammolarni yuzaga keltirgan edi. Bu muammolarga Sovet davlati o'z vaqtida e'tibor bermadi. Aksincha, "rivojlangan sotsializm" davriga kelib SSSRda "milliy masala butunlay hal qilindi" deb "tantana" qilindi. Biroq 1989-yil 24-mayda Quvasoy shahrida yoshlar o'rtasida (R.Nishonovning ta'rificha, "bir banka qulpinay" uchun) bo'lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o'rtasida) to'qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg'ona vodiysida ommaviy tus oldi. Respublikaning siyosiy

rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni o'z vaqtida to'g'ri baholay olmadi. Natijada, oddiy mojaro Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkentda aholining, ayniqsa, yoshlarning ommaviy chiqishlariga, millatlararo to'qnashuvlarga sabab bo'ldi.

Mudhish voqealardan keyin berilgan rasmiy bayonotlarga ko'ra, respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikdan ommaviy tartibsizliklarni, millatlar o'rtasida nifoq va to'qnashuvlarni keltirib chiqarishga uringan ekstremistik kuchlar turgan. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki, urushning azob-uqubatlariga qaramasdan, majburan ko'chirib keltirilgan, och-yalang'och, holdan toygan, xo'rlangan xalqqa nisbatan o'zining insonparvarlik xislatini ko'rsatgan o'zbek xalqi, o'zining tabiiy mehmondo'stligini necha bor butun jahonga namoyish qilgan xalq uchun hech qanday ijtimoiy muhtojliklar millatlararo janjal tug'dirishga bahona bo'lib xizmat qila olmas edi. Bu ataylab uyushtirilgan siyosiy ig'vogarlik edi. Farg'onadagi mudhish voqea Sumgait, Boku, Tog'li Qorabog', O'sh-O'zgan va boshqa mintaqalarda xuddi shunday tarzda uyushtirilgan ig'vogarliklar bilan bir qatorda turar edi. Tub xalqlarning milliy uyg'onishini, tobora o'sib borayotgan milliy o'zlikni anglash jarayonini bostirish, asosiy va hayotiy muammolardan, "inqilobiy qayta qurish" rejalarining aniq barbod bo'lganligidan mamlakat aholisining e'tiborini chalg'itish uchun qora niyatli kuchlar tomonidan ataylab uyushtirilgan favqulodda holat edi [4; 55-b.].

NATIJALAR: Lekin Farg'ona fojialari sodir bo'lgan vaqtda O'zbekiston kompartiyasining birinchi kotibi lavozimida o'tirgan R.Nishonov va u boshliq siyosiy rahbariyat bu mudhish hodisalarning aniq mohiyatini tushunib yetmadi, uni siyosiy jihatdan to'g'ri baholay olmadi. Oqibatda begunoh insonlar hayotdan ko'z yumdi.

Farg'ona voqealaridan keyin O'zbekiston KP MKning birinchi kotibi lavozimiga saylangan I.A.Karimov va u boshliq siyosiy rahbariyat bu masalada prinsipial mavqeni egalladi. Ana shu fojiali voqealardan keyin

tez orada respublika Kompartiyasi MK, Oliy Soveti Rayosati va hukumatining qo'shma majlislarida O'zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasining ahvolini xolisona, tanqidiy nuqtai nazardan baholashga birinchi bor urinib ko'rdi.

O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o'rganib, unga to'g'ri baho berar ekan, I.A.Karimov matbuot konferensiyasida: "O'zbekiston yana bir "Farg'ona"ga chidab tura olmaydi", degan edi. Bu, aslida, yangi rahbarning respublikadagi ahvolni tubdan o'zgartirishga azm-u qaror qilganligidan dalolat edi.

Ommaviy axborot vositalari tomonidan hamisha ham xolisona yoritib berilmagan ana shu hodisalar o'zbek xalqining milliy o'z-o'zini anglashini kuchaytirib, respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida burilish boshlanishiga sabab bo'ldi. Respublika ziyolilari va siyosiy kuchlari ana shu tahlikali kunlarda siyosiy va ma'naviy jihatdan yuksak mavqeni egalladilar. Fojianing asl sabablarini ochib tashlash, o'z xalqining shon-shuhrati va qadr-qimmatini himoya qilish yo'lidagi o'zlarining mashaqqatli urinishlarida ular respublikaning eng keskin muammolarini birinchi bor oshkora ravishda muhokamaga qo'ya boshladilar.

Respublikada keng munozaralarga sabab bo'lgan muammolardan biri o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo'ldi. Bu muammo yuzasidan demokratik kuchlar tomonidan boshlangan harakat qudratli tus oldi, unda ziyolilar, talabalar va yoshlar faol ishtirok etdilar. R.N.Nishonov boshchiligidagi respublika rahbariyati bu harakat o'rta tashlagan muammoni hal qilishga emas, aksincha, bu harakatni "jamiyatga qarshi" qaratilgan xatti-harakat deb baholab, uni barham toptirishga, qonunchilik, oshkoralik va ommaviylik talablariga rioya qilish oqimiga burib yuborishga urindi. Matbuotda, televideniye va radioda o'zbek tilini rivojlantirish muammolari, davlat tili va boshqa tillarning huquqiy jihatlari, rus tilining vazifalari va maqomi xususida munozaralar avj oldirildi. Ayniqsa, rus tilining maqomi to'g'risidagi masala tevaragida qizg'in tortishuvlar bo'ldi — bu til ikkinchi davlat tili

bo'lishi kerakmi yoki millatlararo aloqa tili bo'lib qolishi kerakmi, degan masala hammani o'ziga jalb qilgan edi.

Demokratik kuchlar qo'ygan masalani I.A.Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyat o'z vaqtida anglab yetdi va uni hal qilishga kirishdi. Natijada, "O'zbekiston SSRning davlat tili to'g'risida"gi qonun 1989-yil oktyabrda qabul qilindi. O'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi. Ish yuritish sekin-asta o'zbek tiliga o'tkazila boshlandi, uni o'rganishni yaxshilash yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilandi. Ayni vaqtda rus tilini va respublikada yashovchi boshqa xalqlarning tillarini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim edi, tilni o'rganishning ixtiyoriyligi va uni tanlash huquqi qonunda belgilab qo'yildi. Bu qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqi, shu xalq milliy o'z-o'zini anglashining o'sishi, respublikada millatlararo hamjihatlikning saqlanib qolishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining joriy qilinishini bir qancha omillar, eng avvalo, SSSRda 1990-yil boshlariga kelib mustabid davlat siyosiy inqirozining kuchayganligini taqozo etdi. Shuningdek, bu inqiroz iqtisodiyotda va ijtimoiy-siyosiy sohada qilingan va Markazning ittifoqchi respublikalar bilan aloqalarni yangilashga qaratilgan islohotlarining barbod bo'lishi bilan ham namoyon bo'ldi. 1990-yil martda Litvaning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, Latviya bilan Estoniyaning SSSR tarkibidan chiqishga faollik bilan ochiqchasiga tayyorgarlik ko'rayotgani unitar Sovet davlatining haqiqiy yemirilishi boshlanganidan dalolat edi [2; 29-b.].

O'zbekiston xalqi oshkoralik va demokratiyalashtirishdan, milliy va ma'naviy qadriyatlarini tiklashdan, o'z haq-huquqlarini, jumladan, o'z taqdirini o'zi belgilash va iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan ittifoq hokimiyati tuzilmalariga qaramlikdan xalos bo'lish huquqlarini amalga oshirishdan tobora ko'proq manfaatdor ekanliklarini ochiq namoyon qila boshladilar [5].

1990-yil iyunda KPSSning navbatdagi syezdiga tayyorgarlik ko'rish doirasida O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdi

bo'lib o'tdi. Syezdda respublika yangi rahbariyatining shijoati va tashabbuskorligi yaqqol sezilib turdi. Syezd (I.A.Karimovning siyosiy ma'ruzasini tingladi. Unda respublikadagi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga quyidagicha baho berilgan edi: — Mamlakatda murakkab tanglik vaziyati vujudga keldi. Shu bilan birga, jamiyatni insonparvar, demokratik prinsiplar asosida tezlik bilan tubdan yangilash uchun ittifoq siyosiy rahbariyatida tayyor muqobil yo'l yo'q edi, bo'lishi ham mumkin emasdi. O'zbekiston ham tanglik holatini boshdan kechirayotgan edi. I.A.Karimov O'zbekistonning tanglik holatini ta'riflar ekan, quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Shunday katta resurslarga, ishlab chiqarish va fan-texnika salohiyatiga, qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga va, eng asosiysi, shunday mehnatsevar xalqiga ega bo'lgan respublika qanday qilib asosiy iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar bo'yicha mamlakatda eng oxirgi o'rinlardan birida bo'lib qoldi, haqli sur'atda tanglik holati deb ataladigan holat darajasiga borib qoldi?" Bu savol avvalo Markazga qaratilgan edi.

Respublikadagi Farg'ona voqeasi va boshqa dramatik voqealar (bular haqida ochiqdan-ochiq aytib o'tildi) mahalliy partiya, sovet idoralari, jamoat tashkilotlari xalqdan ajralib qolganligi, uning dardlari va ehtiyojlaridan butunlay bexabar ekanliklari, mansabdorlarga oid huquqbuzarliklar va korrupsiyaning ko'payganligi, ijtimoiy-maishiy sohaning haddan tashqari o'z holiga tashlab qo'yilgani tufayli ro'y berdi. Shoshilinch tarzda ko'rilgan chora-tadbirlar: paxta yakka hokimligiga barham berilishi, uni tayyorlashning barqarorlashtirilishi, paxta terimi uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar va paxta narxining qayta ko'rib chiqilishi, kam ta'minlangan aholiga yordam ko'rsatilishi. shaxsiy yordamchi xo'jaliklar yer maydonlarining kengaytirilishi va boshqa bir qator chora-tadbirlar respublikada keskinlikning ortib borishini ma'lum darajada pasaytirishga yordam berdi.

Ma'ruzada Respublikada bozor munosabatlarini joriy qilishning obyektiv zarurligi alohida ko'rsatilib, unda shunday nuqtai nazar ta'kidlab o'tildiki, unga muvofiq

bozor iqtisodiyotiga o'tish aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan belgilangan chora-tadbirlar majmui bilan birgalikda amalga oshirilishi zarur edi.

Syezd Respublikani siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy rivojlantirish va millatlararo munosabatlarga doir muammolarning butun majmuini hal qilishda muhim bo'g'in O'zbekistonning milliy davlatchiligini mustahkamlashdan, uning chinakam siyosiy mustaqilligini ta'minlashdan iborat deb hisobladi. Biroq mafkuraviy faoliyatning yaxlit va barqaror konsepsiyasi hali yo'q edi. Shu bois milliy madaniyatni qayta tiklash kompartiyaning asosiy mafkuraviy muammosi sifatida ilgari surildi. O'zbekiston kompartiyasining XXII syezdi KPSSning bo'lajak XXVIII syezdi yakunlari bo'yicha o'zining yana bir majlisini o'tkazish, unda Respublika partiya tashkilotining dasturiy va ustav hujjatlarini qabul qilish huquqini o'zida saqlab qoldi.

I.A.Karimov boshchiligidagi siyosiy rahbariyat Respublikada yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanazzuldan chiqish choralari Markazdan so'ramagan holda mustaqil ravishda belgilash yo'lidan bordi. Shunga ko'ra, Respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos yo'lini mustaqil tarzda belgilay boshladi [6; 99-105-b.]. Dastlab "O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasini" tayyorlashga kirishildi. Konsepsiya Respublika, Davlat reja qo'mitasi,

Moliya vazirligi, boshqa vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya qo'mitalari bilan hamkorlikda tayyorlandi. Shuning asosida "O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy prinsiplari" ishlab chiqildi va u 1990-yil 17-oktyabrda umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilindi. Respublika aholisi bu muhim hujjatni muhokama qilishda faol ishtirok etdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ko'rinib turibdiki, Respublikaning yangi siyosiy rahbariyati vujudga kelgan ijtimoiy- siyosiy vaziyatdan chiqish uchun xalq ommasiga tayangan holda iqtisodiy va siyosiy islohotlarni ildam va samarali qilib amalga oshirish, fuqarolarni davlat yo'li bilan ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilish, O'zbekistonning siyosiy suverenitetiga erishish asosida milliy davlatchilikni barpo qilish yo'lida mustaqil harakat qila boshladi.

O'zbekiston xalqlarining manfaatlarini ko'zlab I.A.Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan ana shu dastlabki tadbirlarning o'ziyoq Prezidentlik boshqaruvining o'z vaqtida ta'sis etilganligidan dalolat berardi. 1990-yil 20-iyunda Respublika Oliy Soveti tomonidan qabul qilingan "Mustaqillik Deklaratsiyasi" ana shunday tadbirlardan edi. Bu muhim hujjat O'zbekistonning mustaqillikka erishishida qo'yilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri edi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – Q harfi. Toshkent.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2005. – 350 bet.
2. To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi. Toshkent, 2001. – 350 bet. 24-27-bet.
3. Ziyoyev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi. Toshkent.: "Sharq", 2001. – 438 bet.
4. Aminov B, Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. Toshkent.: "O'qituvchi", 2001. – 158-bet.
5. Norbekov, A. (2023). Legal nihilism: ideological foundations. Modern Science and Research, 2(9), 88-90.
6. Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi yillarida. Toshkent.: "Sharq", 2005. – 720 bet.

JANUBIY KOREYA VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MADANIY VA ILMIY SOHADAGI HAMKORLIGI

Urunov Xasan Rayimovich,

Samarqand shahar 78-sonli umumta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

<https://orcid.org/0009000331364878>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ko‘rib chiqilayotgan maqola ikki davlat Janubiy Koreya va O‘zbekiston Respublikalarining 1991-yildan boshlangan ilm-fan va madaniyat sohasidagi o‘zaro hamkorliklarini qamrab oladi.

Bu ikki davlatlarning hamkorlik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu aloqalarni ikki bosqichga bo‘lish o‘rinlidir.

Birinchi bosqich 1991-2016 yillar;

Ikkinchi bosqich esa 2017-yildan boshlandi.

Bilamizki, bugungi kunda Janubiy Koreya Respublikasi nafaqat, Osiyoda balki, dunyo hamjamiyatida ham iqtisodiy ham ilmiy salohiyat darajasi bo‘yicha o‘z so‘zini aytib kelayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston yoshlarining ham mana shunday ulkan natijalarni qayd etayotgani quvonarli albatta.

Ikki davlat o‘rtasidagi madaniy, do‘stona aloqalar kecha paydo bo‘lib qolmay, bu aloqalarning ilk tasvirlari Samarqanddagi „Afrosiyob“ devoriy suratlarida milodiy VII asr o‘rtalariga borib taqalishi alohida diqqatga sazovordir.

Mana shunday do‘stona munosabatlar abadiy bo‘lsin.

Kalit so‘zlar: Janubiy Koreya, O‘zbekiston, Strategik shartnoma, Afrosiyob, Choson, madaniyat, Osiyo, Tinch okean, gumanitar, KOICA, YUNICEF, Seul, Toshkent, prezident

Аннотация: В рассматриваемой статье рассматривается взаимное сотрудничество в области науки и культуры между двумя странами, Южной Кореей и Республикой Узбекистан, которое началось в 1991 году.

Глядя на историю сотрудничества этих двух стран, уместно разделить эти отношения на два этапа. Первый этап – 1991–2016 гг.; Второй этап стартовал в 2017 году.

Мы знаем, что сегодня Республика Южная Корея является одной из стран, выступающих не только в Азии, но и в мировом сообществе по экономическому и научному потенциалу. Конечно, отрадно, что сегодня молодежь Узбекистана показывает такие высокие результаты.

Культурно-дружественные связи между двумя странами возникли не вчера, особенно примечательно, что первые изображения этих связей относятся к середине VII века нашей эры в настенных росписях «Афросиаб» в Самарканде. Пусть такие дружеские отношения будут длиться вечно.

Ключевые слова: Южная Корея, Узбекистан, Стратегическое соглашение, афросиаб, Чосон, культура, Азия, Тихий океан, гуманитарная деятельность, KOICA, ЮНИСЕФ, Сеул, Ташкент, президент

Annotation: The article under consideration examines the mutual cooperation in the field of science and culture between the two countries, South Korea and the Republic of Uzbekistan, which began in 1991.

Looking at the history of cooperation between these two countries, it is appropriate to divide these relations into two stages. The first stage is 1991–2016; the second stage started in 2017.

We know that today the Republic of South Korea is one of the countries that performs not only in Asia but also in the world community in terms of economic and scientific potential. Of course, it is gratifying that today the youth of Uzbekistan shows such high results.

The cultural and friendly relations between the two countries are not new, it is especially noteworthy that the first images of these relations date back to the middle of the

7th century AD in the wall paintings of "Afrosiab" in Samarkand. May such friendly relations last forever.

Keywords: South Korea, Uzbekistan, Strategic Agreement, Afrosiab, Choson, Culture, Asia, Pacific, Humanitarian Activities, KOICA, UNICEF, Seoul, Tashkent, President

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni yoritib berish, ikki xalq o'rtasidagi o'xshash madaniyatlarni ko'rsatib berish, bu xalqlar o'rtasidagi yanada mustahkamlaydi desak mubolag'a bo'lmas albatta. Maorif sohasida ikki davlatning o'zaro tajriba almashinishdagi harakatlar bugungi kunda o'z natijasini bermay qolmayapti. Poytaxtimizdagi ba'zi maktablarda koreys tilining o'qitilishi, Koreys madaniyat markazlarining faoliyat yuritayotganligi esa yurtimizda odilona olib borilayotgan baynalmilal siyosatining yorqin namoyondasidir.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish kerakki, Janubiy Koreya va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilda o'rnatilgan bo'lib, shu yildan boshlab poytaxtimiz Toshkentda Koreya ta'lim markazi o'z faoliyatini boshlagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ushbu maqolani yozishda, Xurshidbek Samiyev O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi hamkorlik natijalari Laziza Alimovalarning Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Koreya nomli ilmiy ishlanmalari ma'lumotlaridan foydalanilib keng yoritildi. Ushbu maqolada undagi ma'lumotlarni biroz bo'lsa-da, boyitgan holda, mavzuni yoritishga imkon beradi. Zero, o'zga xalq, millat madaniyatini, uning yutuqlarini o'qib o'rganish millatlararo do'stlik uchun qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Janubiy Koreya va O'zbekiston: ta'lim sohasidagi hamkorlik Janubiy Koreya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar qadimdan mavjud bo'lgan, buyuk ipak yo'li orqali bog'langan aloqalar

bugungi kunga kelib tobora mustahkamlanib bormoqda. Koreya va O'zbekiston o'rtasidagi masofa uzoq bo'lsa-da, o'zaro manfaatli aloqalar orqali yaqinlik amalga oshgan. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan bo'lib, mazkur maqolada davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarning o'rnatilish tarixi, rivojlanish tendensiyalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy – gumanitar yo'nalishlarda hamkorlik masalalari yoritilgan.

Tashqi siyosiy yo'nalishda mustaqil O'zbekiston rivojlangan davlatlar bilan, shu bilan birga Koreya Respublikasi bilan ham yaqindan hamkorlik qilishga urg'u bermoqda. Koreya Respublikasi O'zbekistonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan, diplomatik aloqalar esa 1992-yil 29-yanvarda o'rnatilgan. O'tgan yillarda ikki davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi 17 ta uchrashuv o'tkazilgan. Ularda tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish yuzasidan muhim kelishuvlarga erishganlar.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi 2006-yilda Strategik sheriklik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolandi. 2014-yilda esa Strategik sheriklikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatlarimiz Buyuk ipak yo'li orqali o'zaro bordi-keldi qilgan. Samarqanddagi "Afrosiyob" devoriy suratlarida VII asr o'rtalarida Samarqand hukmdorining Choson (Koreya) elchisini qabul qilish marosimi aks ettirilgani bunga misol bo'la oladi. Mamlakatlarimiz vaqt sinovidan o'tgan ishonchli strategik sheriklardir. Oliy darajadagi muloqotlar samarasida mamlakatlarimiz hamkorligi barcha yo'nalishlarda izchil rivojlanmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim va madaniyat sohasidagi aloqalar rivojlanib bormoqda. 1992-yildan Toshkentda Koreya ta'lim markazi faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutida Koreys tili va madaniyati markazlari, Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Axborot texnologiyalari

markazi ochilgan.

Toshkent davlat Sharqshunoslik Universitetida Koreyashunoslik fakulteti mavjud, u yerda malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar qilinmoqda. Kasbga yo'naltirilgan o'quv va uslubiy majmualar yaratilmoqda. Universitetning talabalari Koreyaning nufuzli universitetlarida grant asosida tahsil olmoqda. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchilari Koreya Respublikasida malaka oshirib kelishmoqda. Toshkentda "O'zbekiston-Koreya" kasbga tayyorlash markazini ochish loyihasi ta'lim sohasidagi hamkorlikning yana bir muvaffaqiyati bo'ldi. Reja bo'yicha mazkur dargohda har yili 360 nafar yigit-qiz kompyuter yig'ish, grafika, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash, avtomobillarga xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha tahsil oladi.

Bir nechta universitet va institutlarda koreys tili va madaniyati markazlari ochilgan. 13 ta oliy ta'lim muassasasi, 28 ta maktab va litseyda koreys tili o'rgatilmoqda. O'zbekiston universitetlari Janubiy Koreyadagi o'ttizdan ziyod oliy o'quv yurti va ilmiy ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda Toshkent shahrida O'zbekistondagi birinchi ilmiy-texnik adabiyotlar elektron kutubxonasi ishga tushirilgan. Ilmiy-texnik adabiyotlar elektron kutubxonasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi va 2008-yil 26-avgustdagi "Koreya hukumati grantini jalb qilgan holda ilmiy-texnik adabiyotlar elektron kutubxonasini yaratish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining 2008-yil 5-sentyabrdagi 259-buyrug'iga muvofiq axborot-kutubxonachilik sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda O'zbekiston-Koreya hamkorligini amalga oshirish maqsadida ikkala Hukumat Kelishuviga asoslangan holda Toshkentdagi "Bilim" axborot-kutubxona markazi negizida Janubiy Koreya granti asosida va Koreya xalqaro hamkorlik

agentligi (KOICA)ning bevosita yordamida yaratildi. Loyihani 2008–2009-yillar mobaynida O'zAAning Respublika axborot kutubxona markazi va koreyalik mutaxassislar birgalikda amalga oshirishdi. Elektron kutubxona binosini to'la ta'mirlash va bezash ishlarini O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, kutubxonani kompyuter texnikasi, mebel, jihozlar bilan ta'minlash va o'rnatish ishlarini koreyaliklar bajarishdi. Elektron kutubxona mutaxassislari Koreya Respublikasida elektron kutubxonadagi ta'minotni texnik va boshqarish jihatdan olib borish, elektron resurslarni shakllantirish kabi yo'nalishlarda o'z malakalarini oshirib keldilar. Oliy ta'limning bakalavr va magistr tayyorlash bosqichlari uchun kasbiy ta'lim dasturi mazmunining uzluksizligi va uzviyligi, ta'lim sifatining mexanizmi va asosi – Davlat Ta'lim Standartlari yaratildi va ta'lim tizimiga joriy qilindi.

Koreya Respublikasi Osiyo-Tinch okean mintaqasining o'ziga xos mamlakatlaridan biri sifatida bir qator tadqiqotchilarning diqqatini jalb etib kelmoqda. Buning mohiyati shundaki, bu davlat postindustrial sivilizatsiyaning yutuqlarini o'zlashtirgan holda, o'zining an'anaviy madaniyatini saqlab qolishga intilmoqdalar va siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniyati, an'anaviy qadriyatlari va Sharq dunyo qarashlari bilan uyg'unlikda amalga oshirishga harakat qilmoqdalar. YUNISEF ekspertlari tomonidan mazkur mamlakatning ta'lim tizimi sanoati rivojlangan mamlakatlar qatorida eng samarali deb baholangan.

Koreya Respublikasi hukumati ta'lim tizimida sinovdan o'tgan va juda ham samarali hisoblangan siyosatni olib bormoqda. Koreyada maktablarni kompyuterlashtirish va Internet tarmog'iga erkin ulanishini ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi. O'zbekistonda ham shunga o'xshash vaziyat qaror topmoqda. Ta'lim muassasalarini axborot texnologiyalari bilan jadal ta'minlashga davlat tomonidan katta moliyaviy mablag'lar ajratilmoqda. Maktablarni kerakli jihozlar, darsliklar va sport anjomlari bilan ta'minlashga katta

e'tibor bilan qaralmoqda. Dars berishning yangi interaktiv usullaridan foydalanilmoqda, yangi zamon talablariga mos binolar qurilmoqda, ba'zilar ta'mirlanmoqda. Biroq shunga qaramay, ba'zi bir muammolarni hal etishda, maktab tizimini qayta qurishning strategik rejalarini ishlab chiqishda, moliyalashtirish masalalarida xorij tajribasini joriy etish zamon talabidir.

O'zbekiston va Janubiy Koreya axborot texnologiyalari, raqamli tibbiyot, ta'lim, madaniyat sohalarida samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Mamlakatimizning maktabgacha ta'lim tizimiga Janubiy Koreya tajribasi keng joriy etilmoqda. O'zbek va koreys xalqlarining dunyoqarashi va urf-odatlarini o'xshash. Mamlakatlarimiz eng qiyin davrlarda bir-birini qo'llagan. Bugun O'zbekistonda yashayotgan 180 mingdan ziyod koreys diasporasi ko'p millatli jamiyatimizning ajralmas qismiga aylangan. Koreys madaniyat markazlari uyushmasi, viloyatlarda uning bo'linmalari faoliyat yuritmoqda. Uyushma yurtimizda va xorijda koreys tili, madaniyati, urf-odat va an'analarini saqlash va rivojlantirish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

2017-yili O'zbekistonda koreys millati vakillari yashayotganining 80 yilligi munosabati bilan poytaxtimizdagi "Do'stlik" bog'ida yodgorlik monumenti ochildi. Poytaxtimizning markaziy ko'chalaridan biriga Seul nomi berildi. Koreys xalqining ma'naviy-madaniy merosini saqlash va rivojlantirish maqsadida Koreya Respublikasi hukumati tomonidan Toshkent shahrida Koreya madaniyati uyi qurib bitkazildi. Ushbu maskan xalqlarimiz abadiy do'stligining yana bir yorqin timsoli bo'ladi. Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari Janubiy Koreyadagi 45 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasasi bilan hamkorlik o'rnatgan. Poytaxtimizda Koreya Respublikasining to'rtta universiteti filiali ochildi.

O'zbekistonda Koreyaning Inxa, Puchon, Yoju, universitetlari, filiallari hamda Farg'onada Koreya xalqaro universiteti faoliyat yuritib kelmoqda. 2021-yil 1-fevralda esa Aju universitetining filiali ochildi. Toshkentda Koreya metodologiyasi bo'yicha

tashkil etilgan 324-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida ta'lim tizimida ham hamkorlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ham Koreya Respublikasining bir qator nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan keng qamrovli hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'ygan. Xususan, Kyungdong universiteti bilan hozirda amalda bo'lgan Koreyashunoslik yo'nalishidagi 2+2 qo'shma dasturini yanada kengaytirish, dastur doirasida 2024-2025 o'quv yilidan boshlab koreys tili bilan bir qatorda, Koreya iqtisodiyoti va turizmi yo'nalishlari bo'yicha ham 1+3 qo'shma dasturini yo'lga qo'yish borasida kelishuvga erishildi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori Gulchehra Rixsiyevaga Kyungdong universiteti faxriy professori unvoni berildi. Bu kabi hamkorlik loyihalari ko'lamini kengaytirish ikki davlat o'rtasida ta'lim va ilm-fan sohasidagi barqaror, ishonchga asoslangan rishtalarning yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

Koreya milliy politsiya universiteti prezidenti janob Li Chyol Gu xalqlarimiz o'rtasidagi asriy aloqalarni yuksak darajada qadrlashini aytib, O'zbekiston zaminida ilm-fan qadim-qadimdan ravnaq topgan. Bugungi Yangi O'zbekiston o'tmishi boy va kelajagi porloq mamlakat sifatida taraqqiyotning o'ziga xos yo'lidan jadal yuksalib bormoqda degan fikrlarni bildiradi.

2021/2022-o'quv yili davomida o'zbekistonlik professor-o'qituvchilar uchun Koreya milliy politsiya universitetida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, xavfsiz turizm, IT texnologiyalar, kiberjinoyatlarni fosh etish va tergov qilish kabi yo'nalishlarda malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Tomonlar Janubiy koreyalik malakali mutaxassislarini uzoq muddatga IIV Akademiyasiga tajriba almashish uchun yuborish, almashuv (paritet) asosida kursantlarni o'qitish, zamonaviy global tahdidlarning oldini olishga yo'naltirilgan master-klass mashg'ulotlarini tashkil etish,

axborot texnologiyalari, ilmiy-texnikaviy va intellektual hamkorlikni yo'lga qo'yish, madaniy aloqalarni kengaytirish borasida bir-birlarini qo'llab-quvvatladilar.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Mamlakatlarimiz BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda koreyslar o'rtasida ham o'zbek tili, milliy urf-odatlarimiz, madaniyatimiz va san'atimizga qiziqish bildirganlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Janubiy Koreyaning Tegu va Pusan chet tillari universitetlarida o'zbek tili o'rgatilmoqda. Malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Toshkent axborot texnologiyalari hamda Janubiy Koreyaning axborot texnologiyalari bo'yicha 4 nafar yetakchi oliy o'quv yurtlari – Inxa universiteti, Fan va texnologiyalar bo'yicha Seul Milliy universiteti, Yongam universiteti hamda Kyong-Xi universitetlari bilan hamkorlik hujjatlari imzolangan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Xurshidbek Samiyev. O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi hamkorlik natijalari. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorliknatijalari>.
2. Laziza Alimova. Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Koreya respublikalarining talim sohasidagi hamkorligi <https://yuz.uz/uz/news/mustaqillik-yillarida-ozbekiston-va-koreya-respublikalarining-talim-sohasidagi-hamkorligi>
3. Sanjar Said. O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari: tenglik, do'stlik, hamjihatlik. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 629 December, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal <https://kun.uz/uz/news/2015/11/06/ozbekiston-janubiy-koreya-munosabatlari-tenglikdostlik-hamjihatlik>
4. O'zbekiston va Janubiy Koreya: ta'lim tizimida hamkorlik aloqalari kengaymoqda. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekiston-va-janubiy-koreya-talim-tizimida-hamkorlik-alloqalari-kengaymoqda>
5. O'zbekiston va Janubiy Koreya: Ta'lim sohasidagi hamkorlik yangi bosqichga chiqmoqda. <https://akadmvd.uz/oz/news/zbekiston-va-zhanubiy-koreja-talim-soasidagi-amkorlik-jangi-bosi-chga-chimoda>

ETNOGRAFIYA

ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА ЭТНОНИМ ВА
ЭТНОТОПОНИМЛАРНИ АҲАМИЯТИ

Абдуллаев Улуғбек Сайданович,

*Анджсон машинасозлик институти профессори,**тарих фанлари доктори.*<https://orcid.org/0009-0006-4141-5597>

УДК: 94(575.1)

Аннотация: Ушбу мақола ўзбек халқининг этник тарихини ўрганишда этноним ва этнотопонимларни аҳамиятини кўрсатиб беришга бағишланган. Муаллиф унда халқимиз тарихининг турли даврларига хос этнонимларни этимологиясини, уларни манбаларда акс этганлигини таҳлил ва тавсиф қилган.

Шунингдек, мақолада муаллиф Ўзбекистон ҳудудидаги жуда кўп жой номлари у ёки бу уруғ-қабилани номи асосида пайдо бўлганлиги кўрсатилган, улар халқимиз ва бошқа қардош халқлар тарихини ўрганишда муҳим манба бўлиб хизмат қилишини таъкидлайди.

Калит сўзлар: Этноним, этник тарих, этногенез, этнос, этник бирлик, этнотопоним, жой номлари, ўзбек, тарихий манба.

Аннотация: Данная статья посвящена раскрытию значимости этнонимов и этнотопонимов в изучении этнической истории узбекского народа. В ней автор проанализировал и описал этимологию этнонимов, характерных для различных периодов истории нашего народа, а также их отражение в исторических источниках.

Также, в статье автор указывает, что многие топонимы на территории Узбекистана возникли на основе названий тех или иных родов и племен, и подчеркивает, что они служат важным источником в изучении истории нашего народа и других родственных народов.

Ключевые слова: Этноним, этническая история, этногенез, этнос, этническая общность, этнотопоним, названия мест, узбекский, исторический источник.

Abstract: This article is dedicated to revealing the significance of ethnonyms and ethnotoponyms in studying the ethnic history of the Uzbek people. In it, the author analyzed and described the etymology of ethnonyms characteristic of different periods of our people's history, as well as their reflection in historical sources.

The article also shows that many place names on the territory of Uzbekistan are based on the names of a particular tribe, which serve as an important source for studying the history of our people and other brotherly peoples.

Keywords: Ethnonym, ethnic history, ethnogenesis, ethnos, ethnic unity, ethnotoponym, place names, Uzbek, historical source.

КИРИШ

(ВВЕДЕНИЕ/

INTRODUCTION). Этноним юнонча этнос (ἔθνος - ethos) – “халқ” ва оним-“ном” сўзларидан таркиб топган бўлиб, “халқни номи” маъносини билдиради.[1;6] Этнонимларни ўрганиш жуда муҳим илмий аҳамиятга эга. Негаки, ҳар бир этноним аввало ахборот ташувчи ҳисобланади. Этнос номида қайсидир даражада ушбу халқнинг этногенези, этник тарихи, тотеми ва ижтимоий турмушининг айрим жиҳатига оид маълумотлар ўз аксини топган бўлиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Узоқ этник жараёнлар натижасида шаклланган ўзбек халқи ўрта асрларда ўз таркибига жуда кўплаб этник компонентларни

бирлаштирган. Унинг этник таркибида тарихий тараққиётнинг турли давларида келиб қўшилган уруғ-қабилалар мавжуд эди. Ўзбек халқи этник таркибига қўшилган ушбу уруғ-қабилалар ўз номлари (этнонимлари)га эга эдилар.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ўзбек уруғ-қабилалари ҳақида гапирганда ушбу этнонимлар қайд қилинган бир қатор ёзма манбаларга тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ. Бундай этнонимлар акс этган ёзма манбалар ичида маҳаллий муаллифлар томонидан ёзиб қолдирилган ишларнинг аҳамияти катта. Мазкур ёзма манбаларнинг аксарияти ўрта асрларнинг турли давларида туркий ёки форс тилларида ёзилган. Одатда улар бирор бир ҳукмдорнинг топшириги асосида ёзилган бўлиб, уларда ушбу ҳукмдор мансуб бўлган уруғ-қабилаларнинг ёки у ҳукмдорлик қилаётган давлат ҳудудидаги аҳолининг этник таркиби акс этган бўлади. Булар ичида “Мажмуъа ат-таворих” (“Тарихлар мажмуаси”), “Тарихи Абулхайрхоний”, “Тухфат ул-таворихи хоний” (“Хоннинг тарихдан тухфаси”), “Насабномайи ўзбек” (“Ўзбекларнинг насаб китоби”), “Асомийи наваду ду фиркайи ўзбек” (“92 ўзбек қабиласининг номлари”) каби ёзма манбаларда ўзбек уруғ-қабилаларининг номлари (этнонимлари) номма-ном санаб ўтилади.

XVI асрда ёзилган муаррих Сайфуддин Ахсикатий қаламига мансуб “Мажмуъ ат-таворих” (“Тарихлар мажмуаси”) асарида қуйидаги 92 қавмнинг рўйхати келтирилган: минг, юз, қирқ, жалоир, сарой, кўнғирот, олчин, арғин, найман, қипчоқ, қалмоқ, чакмоқ, қирғиз, қарлиқ, турк, туркман, боёвут, бурлайн, шамарчик (самарчик), кабаша, нужин, келачи, киламиш, бурат, убрат (уйрат), қиёт, хитой, қангли, урюз, жуналачи, кучи, ўтарчи, фулодчи, жийит, жуйит, чулчит, турмовит, уймовут, орлот, керинт, ўнгут, тангут, манғит, жаловут, мамасит, маркит, буркут, қиёт, қуралаш, ўғлон, қари, араб, илачи, жабруғон, қишлиқ, гирай, дўрмон, тобин, тама, рамадан, уйшун, бадий, хофиз,

авирчи, журот, тотор, юрға, батош, қавчин, тубойи, тилав, кордори, сайҳиён, қирғин, ширин, чимбой, чехилкас, уйгур, анмор, ёбу, тарғил, турғок, тайит, кўхат, фахир, кўжалик, шаврон (саврон), даражот, кимот, шижоат, авғон[2;110-113].

“Тарихи Абулхайрхоний” номли асар Шайбоний Абдуллатиф султон ҳукмронлиги (1540-1551 йилларда Самарқанд хони) даврининг бошларида Маъсуд ибн Усмон Кўхистоний томонидан ёзилган. Бу асарда XVI асрда Шайбонийхон билан бирга Моворауннаҳрга кўчиб келган буркут, дўрмон, ийжон, кенагас, қиёт, кўнғирот, қушчи, курловут, масит, тубойи, уйшин, косонбойли, кудағай, манғит, мулуж, уйгур, найман, чимбой, қорлиқ, ёнқожер, нукуз, тимат, туман-минг, ўтарчи қавмларининг номлари келтирилган. [3;261].

“Тухфат ул таворихи хоний” (“Хоннинг тарихдан тухфаси”) номли асар Қўқонлик тарихчи мулла Аваз Муҳаммад Аттор (XIX аср) томонидан ёзилган. Ушбу асарда 92 ўзбек қавмига доир қуйидаги этнонимлар келтирилган: минг, қирғиз, юз, қирқ, ўнғот, жалоир, кўнғирот, олчин, арғин, найман, қипчоқ, чакмоқ, бурлот, симирчик, булотжиб, катағон, қилачи, кенагас, буйрак, уйрост, қиёт, хитой, қангли, авар, жубалачи, тўйчи, буют, жийит, чулчит, уймовут, орлой, кераит, унгут, тангут, манғит, чолжут, масит, маркит, буркут, қиёт, қуралас, ўқалон, қари, араб, илочи, жабруғон, қишлиқ, гирай, туркман, дўрмон, тобин, тама, рамадон, митан, уйшун, бурия, хофиз, уюрчи (авирчи), жуйрат, бидой, баош, тотор, бошқир (бошқирд), сулдуз, азок, қалмоқ, қорақалпоқ, сануводон, тубойи, тилов, гироди, саҳтиён, қирғин, ширин, ўғлон, курлот, бағлон, чимбой, чилкас, уйгур, арномор, ёбғу, торғил, турғон, қухат, мажор, кўжалик, сарвон бахрин. [4;210-213]

“Насабномайи ўзбек” (“Ўзбекларнинг насаб китоби”) бори-йўғи икки вароқ (4 бет) дан иборат бўлиб, бошқа китобларда, чунончи Махдуми Аъзам Косонийнинг (1462-1542) “Танбех ас-салотин”,

“Рисолайи зикр”, “Силсилат ас-сиддиқин”, “Рисолайи батихия” ва бошқа асарлар билан бир муковада жамланган. Ушбу ёзма манбада ҳам 92 ўзбек уруғларини номлари санаб ўтилган. Чунончи, минг, юз, қирқ, ўзбек, ўн қажот, жалоир, сарой, қўнғирот, олчин, арғин, найман, қипчоқ, чақмоқ, азак, қалмоқ, торлиқ, тудак, бурлоқ, самарчиқ, қибчоқ, келачи, қинакаш, буйрак, урот, қиёт, хитой, туниди, узжулачи, қойчи ўтажи, булотчи, жуют, жоб, чулчут, буймовут, орлот, кераит, ўнгуат, тангут, манбут, чилчувит, месет, маркит, буркут, кувлас, ўқалан, қори, араб, илочи, жубурған, тишлик, керай, туркман, дўрмон, тобин, тама, рамадан, қуйтан, уйшин, бадойи, хофиз, қирғиз, можор кўчалик, саврон, бахрин, ўйрис, жуброт, бидай, татар, табаш, мичроқ, сулдус, тубойи, тилов, кирдор, бактия, қарқин, ширин, ўғлон, қурлаот (қурловут), бағлон, чинбой, чехилкас, уйғур, агар, ёбу, тарғил, туркан, қоҳат. [5;58-63]

“Асомийи наваду ду фирқайи ўзбек” (“92 ўзбек қабиласининг номлари”) номли асар Султон Муҳаммад ибн Дарвиш Муҳаммад ал-Балхий қаламига мансуб. Бу асар ҳам ўша даврда ёзилган бошқа асарлар билан бирга муковаланган. Ушбу асарда 92 ўзбек қавмининг рўйхати қуйидаги тартибда берилган: юз, қирқ, ўнг, ункажот, жалоир, сарой, хитой, найман, қипчоқ, чақмоқ, ўрмоқ, тудак (туғдақ), бўстон, самарчиқ, қалмоқ, қорлиқ, катағон, арлот, арғин, барлос, бўйтай, кенагас, келачи, буйрак, ўйрат, қиёт, қўнғирот, қангли, ўз, жиловчи, жусуловчи, қожи (хожи), ўтарчи, қирловчи, жуют (жиют), жид, чулчут (чулчит), буёзит, уймовут, керайит, бағлон, ланғит, лангут, манғит, мерки, буркут, моди, қиёт, ўқалон, олчин, қори, ғариб, шибирғон, қишлиқ, туркман, дўрмон, табан, там, тобин, рамадан, митон, уйшун, бўса, хафт, қирғиз, тотор, бочқир, сулдуз, келовчи, дужор, жураат, бадайи, ўғлон, қурювут, чимбой, махди, чилкас, уйғур, фаркон, нукус, қора тушлуб, ёбу, торғил, кўхат, шурон, ширин, тама, бахрин, кирай, сатҳиён, тўғал, қоён. [6;262]

Кўриб чиқилган ёзма манбаларда деярли бир хил ўзбек уруғ-қабилаларнинг номлари келтирилган. Фақат айрим тафовутлар мавжуд.

Яна шуни айтиш ўринлики, ушбу этнонимларнинг айримлари бошқа туркий халқларнинг чунончи, қирғиз, қозоқ, қорақалпоқ, уйғур, туркман, бошқирд ва бошқаларнинг этник таркибида ҳам учрайди

Ҳар қандай этнонимнинг ўз маъноси бор. Баъзи бир этнонимлар жуда қадимий сўзлар бўлганлигидан маъносини тушуниш қийин. Одатда халқлар, миллатлар, шунингдек, қабилалар, йирик уруғларнинг номлари қадимий бўлади. Таъкидлаш жоизки, қирғиз, қозоқ каби миллат номлари, қўнғирот, митан, қангли, қипчоқ, уйшун, қорлуқ, халаж каби уруғ-қабилалар номлари ҳақида бугунги кунда бир қанча фикр-мулоҳазалар билдирилган бўлса-да, бу этнонимларнинг маъноси ҳозиргача узили-кесил ҳал қилинмаган. Масалан, қирғиз -“қирқ-қиз”, қозоқ-“қочоқ”, метан-“мўйтан” (сержун), қангли-қанқли (аравали), қарлуқ-“қорлиқ”(қорда қолган), халаж-“қол оч” (оч қолган), қалмоқ-“четда қолган” (ислом динига кирмай қолган) маънони билдиради, деб тушуниш бу ҳали ушбу этносларни номини (этнонимини) маъносини тўла ҳал қилинди, дегани эмас.

Этнонимларни ўрганиш жуда муҳим илмий аҳамиятга эга. Негаки, ҳар бир этноним аввало ахборот ташувчи ҳисобланади. Этнос номида қайсидир даражада ушбу халқнинг этногенези, этник тарихи, тотеми ва ижтимоий турмушининг айрим жиҳатига оид маълумотлар ўз аксини топган бўлиши мумкин.

Ҳар бир халқ этнонимларининг ўз тарихи бўлади. Этнонимлар тарих тақозоси билан вужудга келади ва этногенетик жараёнларда пайдо бўлади, вақти келиб йўқ бўлиб кетади ҳам.

Жониворлар, хусусан уй ҳайвонлари номи билан аталган этнонимлар энг қадимийдир. Улар ибтидоий даврда пайдо бўлган. Маълумки, кўплаб уруғларнинг муқаддас ҳайвон (тотем-онгон)лари бўлиб,

уруғдошлар ўзларини шу хайвонлардан тарқалганмиз, деб ҳисоблаганлар. Масалан, жилонди (илонли), кулон, окбўра (бичилмаган оқ туя), қарға, эчки, шулар жумласидандир.

Кўпгина этнонимлар уруғ-аймоқ тамғаси номи билан аталган. Ўтмишда ҳар бир уруғнинг ўз тамғаси бўлган. Яъни чорва хайвонларига бошқаларникидан ажралиб туриш учун тамға босиб қўйганлар. Кўпгина тамғалар уй-рўзгор асбоблари шаклида бўлган. Масалан, болғали, косовли, сирғали, тарокли, қирғили каби уруғлар номи ёзма манба ва топонимларда кўп учрайди.

Киши исми билан боғлиқ этнонимлар ҳам кўп учрайди, чунончи бўронбой, жалмат, чигатой шулар жумласидандир.

Жой номларидан келиб чиққан этнонимлар ҳам бор: бешқўтон, булоқбоши, сойлик, урганжий, қайирма, қорабулоқ ва бошқалар.

Ўзбек этнонимлари ичида бирор касб-хунар номи билан юритиладиган этнонимлар ҳам қайд қилинади. Чунончи, қирсадок (садок-ўқдан), иярчи (эгарчи-эгар ясовчи), саёт (сайёд-овчи), миришкор ва бошқалар.

Ўзбек халқининг этник тарихини ўрганишда этнотопонимларнинг ҳам аҳамияти жуда катта. Ўтмишда бирор бир этнос (уруғ, қабила ёки элат) номини маълум бир жой номида сақланиб қолишидан этнотопонимлар ҳосил бўлади.

XX аср бошларига келиб Ўзбекистон ҳудудидаги кўплаб аҳоли яшаш жойлари (қишлоқ ва овуллар) уруғ-қабила ва элатлар номи билан аталар эди. Бундай этнотопонимлар бир неча давр мобайнида этник жамоаларнинг ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ҳаёт фаолияти билан боғлиқ ҳолда пайдо бўлган. Уларнинг аксарияти азалий чорвадор уруғ-қабилаларни ўтроқлашиши ёки бу ерга кўчиб келган мигрантларни жойлашиб қолиши натижасида пайдо бўлди. Ўтроқлашган кўчманчи ва яримкўчманчи уруғ-қабилалар ҳамда кўчиб келган элатлар аҳоли манзилгоҳларини ташкил қилиб, уни ўз этнонимлари билан атаганлар.

Ўтроқлашаётган кўчманчи ва яримкўчманчи уруғ-қабилалар ҳамда кўчиб келган элатлар ўз аҳоли манзилларини ташкил қилар эканлар, одатда унга ўз халқи номини берган.

Ўзбекистон этнотопонимлари тадқиқотчилар томонидан ўрганилган ва ўрганилмоқда. Бунда олимлар кўпроқ дала материаллари ва статистик маълумотлардан фойдаланадилар.

1900 йилда Зарафшон водийсида рўйхатга олинган 2800дан ортиқ қишлоқларнинг қарийб учдан бир қисми этнотопонимлар, яъни уруғ-аймоқ номлари билан аталган. [7;170-314]

Фарғона водийси этнотопонимлари ҳам турли давр статистик материалларида акс этган бўлиб, улар этнограф олима С.С.Губаева томонидан яхши ўрганиб чиқилган.

С.С.Губаева жуда кўп қишлоқларнинг номи уруғ-қабилалар номидан ташкил топганлигини ёзади. Масалан, Наманган вилоятидаги 178 та аҳоли пунктларининг 59 таси ёки жами қишлоқларнинг 33% ёки биргина Андижон шаҳридаги 80 та маҳаллани 16 таси этнонимлар асосида ташкил топганлиги ушбу тадқиқотчи томонидан кўрсатиб ўтилган. [8;17-28] Найман, Бўстон, Манғит, Қонди, Кўғай, Элатон, Турк, Бешбола, Қўнғирот, Қашқарқишлоқ, Сулдуз, Тожик, Балиқчи, Кенагас, Сарой, Қипчоқ қабилар Фарғона водийсидаги энг кўп тарқалган этнотопонимлар ҳисобланади.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хуллас, этнотопонимлар минтақамиз халқларини, хусусан ўзбек халқи этногенези ва этник тарихини ўрганишда муҳим манба ҳисобланади. Негаки, этнотопонимларда ҳар қандай этнос ўтмиш тарихини муҳим жиҳатлари – этник таркиби, жойлашиш хусусияти, этник қоришуви (ассимиляциялашуви), ва этник бирикиш (консолидациялашуви) намоён бўлади. Айниқса, тарихий этник харитани шакллантиришда этнотопонимлар асосий манба бўлиб хизмат қилади.

**АДАБИЁТЛАР ВА МАНБААЛАР РЎЙХАТИ
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. Қораев С. Этнонимика. Т.: 1979.
2. Материалы по истории киргизов и киргизии. Вип. I. М., 1973.
3. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т., 2001 й.
4. Материалы по истории киргизов и киргизии. Вип. I. М., 1973.
5. Хаников Н. Описание Бухарского ханства. СПб, 1843.
6. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари.. Т., 2001 й.
7. Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской част долины Зарафшана. // ИТОРГО Т.1. 1899. Вып 2. 1900.
8. Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начало XX в. Тошкент., 1983.

ЎЗЛИККА БИР НАЗАР

Мустафоқулов Рўзиқул Бойназарович,

*Термиз давлат университети ижтимоий фанлар факультети
бошланғич таълим кафедраси доценти, филология фанлари номзоди.*<https://orcid.org/0009-0005-2553-8845>

УДК: 94(575.1)

Аннотация: Ушбу мақолада Арслонбойлар уруғи тарихи ва шажараси, узоқ ўтмиши билан бирга тарихий маълумотлар ҳам ўрин олган.

Сурхондарё вилоятининг кўпгина туманларида кам хўжаликларда яшаётган арслонбойлар қадимий ўзбек уруғларидандир. Бу уруғнинг таг-заминига етиш ва уларнинг аجدодлари ким эканлигини аниқлаш анча мушкул. Шундай бўлса-да, салкам қирқ йил изланишлар, олим-у фузалолар билан савол-жавоблар ташкил этилди.

Кўпгина суҳбатдошлар бу уруғларнинг келиб чиқиши Аҳмад Яссавийга бориб тақалар экан. Бунга бир асос Арслонбоб отанинг Хўжа Аҳмад Яссавийга устозлиги назарда тутилади.

Маълумот берувчиларнинг айримлари авлодларини Ҳазрат пайғамбаримизга боғлашади. Арслонбоб отанинг тўрт қабри ҳақида ҳам маълумотлар ўрин олган. Бу уруғнинг таг-замини ва улар билан боғлиқ бўлган ривоятлар ҳам келтирилади. Арслонбойи уруғларининг кейинги авлодлари шажараси ҳам келтирилади.

Калит сўзлар: Арслонбоб, болдирбос, қатагон, Кўлоп, лақай, аъналар, ривоят, манқобалар, асхоби, киром, саҳобалар, зоҳир, Мазокири аҳбоб, Девони ҳикмат, Қақайди, Қорабў, Беганқул, Чигатой.

Аннотация: В эти дни включены также история и история рода Арсланбой, а также его давнее прошлое.

Арсланбой, живущие в небольших фермерских хозяйствах во многих районах Сурхандарьинской области, происходят из древних узбекских родов. Докопаться до корней этого рода и узнать, кто их предки, очень сложно. Тем не менее, около сорока лет исследований, сессий вопросов и ответов с учеными были организованы.

Многие собеседники полагают, что происхождение этих кланов восходит к Ахмаду Ясави. Одной из причин этого является наставничество Арсланбаба Ходжи Ахмеда Яссави.

Некоторые из информаторов связывают своих потомков с нашим Пророком. Также имеются сведения о четырех могилах отца Арсланбоба. Также приводятся предыстория этого рода и связанные с ним повествования. Также представлена генеалогия следующих поколений родов Арсланбойи.

Ключевые слова: Арсланбоб, балдирбос, катагон, Колоп, лакай, традиции, повествование, манқобалар, ашоби, киром, сподвижники, захир, Мазокири ахбоб, Девони хикмат, Қақайди, Карабах, Бегангул, Чигатой.

Abstract: These days, the history and genealogy of the Arslanboy clan, along with its long past, are also included in historical information.

The Arslanboy clan, which lives in small farms in many districts of the Surkhandarya region, is one of the ancient Uzbek clans. It is quite difficult to get to the roots of this clan and determine who their ancestors are. However, almost forty years of research and question-and-answer sessions with scholars and philosophies have been organized.

Many interlocutors trace the origin of these clans to Ahmad Yasawi. One reason for this is Arslanbob Ota's mentorship of Khoja Ahmad Yasawi.

Some of the informants link their descendants to our Prophet Muhammad. Information about the four graves of Arslanbob Ota is also included. The roots of this clan and the legends associated with them are also presented. The genealogy of the later generations of the Arslanboy clan is also

presented.

Keywords: Arslanbob, baldyrbos, qataghon, Kulop, lakai, traditions, narrations, sources, companions, kiram, companions, zahir, Mazokiri ahabab, Divani hikmat, Kakaidi, Karabagh, Begankul, Chigatai.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Инсон табиатидаги энг муҳим хусусиятлардан бири ўзликни англашга интилишдир. Болта Ёриев ҳам ўз аجدодлари, арслонбойи уруғининг тарихига доимо қизиқиб келади. Отаси, онаси, қариндошлари, уруғнинг пири Сайфихон эшон, шунингдек, Ғаффорхон эшон, кексалар, зиёлилар, этнограф олимлар билан бўлган суҳбатларда бу ҳақда маълумотлар сўраган¹⁰.

Ана шу суҳбатлардан маълум бўлишича, арслонбойилар ҳам қадимий ўзбек уруғлардан. Уруғнинг кексалари, пирнинг айтишича, бу уруғ Арслонбоб отага бориб тақалади.

Ушбу маълумотни берувчилардан бири Самад оқсоқол эди. Шўрчи туманидаги «Ёш ғайрат» участкасида яшади. У ерга арслонбойилардан Самад оқсоқол, укаси Абдуназар бобо, Райим бобо, Аликул бобо (Чориев), Аликул бобонинг қизи Баҳор опа (эри Чори исмли киши, у ҳам арслонбойи бўлган), Мажид бобо (Турди Мажидовнинг отаси), Қилич бобонинг хотини Розия момонинг укаси Замон ака ва бошқалар кўчиб ўтиб, бир қишлоқ бўлиб яшаганлар.

Самад оқсоқол уруғлар тарихи бўйича анча билимга эга эди. У арслонбойиларни Арслонбоб отанинг авлоди ҳисоблар эди. Бунинг учун халқ тилида яшовчи: Арслонбойи, болдирбоб, Хўжа Аҳмад Яссавийни “изла”, “топ”, деган нақлга таянар эди. Бу ерда Арслонбойи-уруғнинг (эхтимол, уруғ бошлиғининг) номи. Унга

¹⁰ Болта Ёриев билан булган суҳбатидан. Ушбу мақола шoir, Ўзбекистон ёзувчилари уюшмаси азоси, Ўзбекистон журналистлар уюшмаси аъзоси Болта Ёриев таржимаи ҳоли тўғрисидаги фақирнинг йўли номли биографик қиссага киритилмай қолган эди. Шу сабаб ушбу, мақолани эълон қилишни маъқул кўрдик.

аслингни унутма, яъни Аҳмад Яссавийни унутма, сенинг ўзагинг у билан боғланади, деган маъно бор. Бунда Арслонбоб отанинг Хўжа Аҳмад Яссавийга устозлиги назарда тутилган. Ушбу насихатда «болдирбос» сўзи суяк маъносида, лекин кўчма маъно ташийди. Уруғнинг аслини ташувчи, сакловчи суякка муносиб деган маънони беради¹¹.

Болта Ёриев Ғаффорхон эшон билан ҳам суҳбатлашди. Ғаффорхон Беккам амманинг ўғли, Беккам мома Ойсахат момонинг қизи. Ойсахат мома Чори бобонинг синглиси бўлган. Чори бобо Ёри бобонинг отаси. Шу жиҳатдан Беккам мома Б.Ёриевга амма бўлади. Беккам мома сайидлардан бирига назир тушган. Эшонлар қатағон қилинган йиллари Ғаффорхон Беккам амманинг қўлида бўлган. Сургун чоғи йиғлаб ўтирган ёшгина келинчақка Хушбоқ милициянинг раҳми келган ва уни поездга чиқармай олиб қолган. Хушбоқ бобо лақайлик, Кўлобдан эди, Хушбоқ лақай деган лақаби бор эди. Беккам момага уйланиб, Арслонбойи қишлоғида яшаб қолди. Ундан Хурсанд қизи, Шайдулла ўғли, Ойша қизи бўлди.

Ғаффорхон ҳалол, меҳнаткаш одам эди. Эшонман деб турмасди, доимо далага чиқиб, меҳнат қиларди. Шу билан бирга, диний ва дунёвий билимларга қизиқди. Б.Ёриев ундан ҳам арслонбойилар тарихини сўраганда, кўпроқ Арслонбоб ота тарихи, сифатлари ҳақида сўзлади.

-Мен арслонбойиларнинг у кишига алоқадорлиги ҳақида бирор илмий манба борми-йўқлигига қизиқаяпман, - деди Б.Ёриев. У кишига уруғнинг алоқадорлиги ҳақидаги гап оғиздан оғизга ўтиб келади, - деди Ғаффорхон. - Биз билган кексаларнинг ҳаммаси шу фикрни тасдиқлашган. Улар ҳам, ўз навбатида, ўзларидан олдинги кексалардан эшитишган. Арслонбойи - Арслонбобга тегишли дегани. Илмий маълумотлар берувчи китоблар Арабистон тарафларда

¹¹ Болта Ёриевнинг Ғаффорхон эшон билан бўлган суҳбатидан.

бўлмаса, бу ерларда бор-йўқлигини билмаймиз. Шўролар даврида кўп китоблар йўқолиб кетди. Арслонбоб ота ҳақидаги ривоят эл оғзида машҳурдир. Арслонбоб ота Аҳмад Яссавийнинг устозидир. Бу ҳақда донишманд шоирнинг ўзи шундай ёзган: Етти ёшда Арслонбоб Туркистонга келдилар, Бошим кўйиб йиғладим, ҳолим кўриб кулдилар. Минг бир зикрни ўргатиб, меҳрибонлиғ қилдилар, Арслонбобом сўзларини эшитдингиз, табаррук¹². Яссавий анъаналарига кўра, шоирнинг пири Арслонбоб (боб-бобо сўзининг қисқаргани) Аҳмаднинг маънавий тарбияси билан шуғулланган. Ривоятларда келтирилишича, шоир ҳали туғилмасдан бу тарбияни бошлаган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Манбаларда, шоирнинг умри турлича талқин этилади. Ўзбек шоири Тохир Қаххор турк олими Куприлизодадан қарашларига таяниб, уни 120 йил умр кўрган, деб белгилайди. Аҳмаднинг отаси 7 ёшида вафот этади. Манбаларда Аҳмаднинг отаси ўлиб, бошқа бир маънавий отага, Арслонбобога етишуви ривоят қилинган.

Ҳазрат пайғамбаримизнинг маънавий ишоратлари ила Аҳмадни излаб шайх Арслонбобо Сайрамга келди, уни топди. Бу ривоятнинг бошланиши шундай: Ҳазрат Пайғамбарга Аҳмад исмли умматининг туғилиши олдидан маълум бўлган. (Баъзи манбаларда 400 йил, баъзиларида 700 йил аввал деб кўрсатилган). Воқеан, ҳазрат пайғамбаримиз асхоби киром билан бир жойга боришганда, оч қолишади. Расулоллоҳ дуоси билан ҳазрат Жаброил жаннатдан бир товоқ хурмо келтиради. Ўша хурмолардан бир донаси ерга тушади. Шунда Пайғамбари акрам бу хурмо умматларидан бири Аҳмад Яссавийга тегишли эканлигини айтади. Ҳар омонатнинг эгасига берилмоғи табиий

бўлгани учун, ҳазрат Пайғамбар саҳобаларига улардан бирининг бу вазифани уддалашини таклиф этади. Асхобидан ҳеч бири жавоб бермайди. Фақат Арслон бобо оллоҳ элчисининг инояти билан бу ишни уддалай билажагини сўзлайди. Ўша бир дона хурмо устида бир парда зоҳир бўлади. Шунда ҳазрат Пайғамбар Арслон бобога Султон Аҳмад Яссавийнинг қандай бўлажагини таъриф ва таълим этиб, унинг тарбияси билан шуғулланишини амр қилади, Бу ривояти Тохир Қаххор «Аҳмад Яссавий» мақоласида (ЎзАС, 1990, 26 октябрь) келтирган¹³. Ўз навбатида, бу ривоятни Куприлизодадан олган, Куприлизода эса уни Саил Ҳасан Хўжанақобул Шароф Бухорийнинг «Мазокири аҳбоб» асарининг қўлёзмасидан олган, Айтиш мумкинки, бу ривоят халқ орасида ҳам кенг тарқалган, Арслонбоб ота, Аҳмад Яссавий ҳақида сўз кетадиган барча илмий, қўлёзма асарларда қайд этилган.

Шундай қилиб, ҳазрат Пайғамбаримиз амри боис, Арслонбоб, Аҳмад етти ёшда экан, Сайрамга (Яссана ҳам дейилади) келган. У узоқдан, мактабдан қайтаётган Аҳмадни кўраркан, таниб, унга салом беради. Аҳмад жавоб қайтариб, «омонат»ни сўрайди. Шунда Арслонбоб унинг валийлигига, Оллоҳнинг иродасига қойил қолади.

Манбаларда таъкидланишича, Аҳмад етти ёшгача ҳам жуда теран маънавий тарбия кўрган, Арслонбоб уни бир йил давомида янада юксак мақомга етказиб тарбиялаган. Сўнггра вафот этган. Яссавийчи шоирлардан бири Шамс эса, “Арслонбоб ҳазрат Пайғамбарнинг дуоси билан узун замонлар маъмур бўлди” деб ёзган. Бу фикр унинг руҳоний ҳаёти узоқ давом этганига ишора бўлиши ҳам мумкин. «Девони ҳикмат»да Арслонбобнинг вафоти, хурларнинг ипакдан кафан бичишлари, етмиш минг малак уни йиғлай-йиғлай жаннатга кўтарганликларини Яссавийнинг ўзи жуда

¹² Ғаффорхон эшон билан 1992 йил 28 мартдаги суҳбатдан

¹³ Тохир Қаххор мақола. Аҳмад Яссавий “ЎзАС, 1990, 26 октябрь.

гўзал тасвирлаган.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Болта Ёриев арслонбойиларнинг жойлашишини кузатди. Улар асосан, Шерободнинг Қишлоқбозор қишлоғида яшайди. Бу ердан турли жойларга тарқашган. Масалан, Жаркўрғон (ҳозир Қумкўрғон худудида) туманига кўчиб ўтиб, Сурхон дарёсининг икки ёнида жойлашишган. Бу ерда Юқори Какайди худудида Арслонбойи қишлоғини ташкил этишган. Бир қисми Юқори Какайдига хўжалар билан бирга Хўжақишлоққа бориб жойлашган. Какайди кўрғонига ҳам келиб, нефтчилик билан шуғулланганлари бўлган. Бу ерда улар яхши обрўй топишган. Масалан, Хўжаназар, Жўра (ака-ука), Худоймурод Жўраев, Бойсари Жўраев ва бошқалар ана шундай ҳурматли нефтчилар эди. Кўрғонда бошқа касб-хунар билан машғул арслонбойи уруғдошлари ҳам кўп эди. Бу кишиларнинг болалари, неваралари ҳамон Какайди кўрғонида яшашади. Юқори Какайди марказига Қишлоқбозордан Алмардон бобо, Юсуф оқсоқол, Чўтбой хўжа Бўриев ва бошқалар келиб жойлашишган. Шоирнинг эслашича, Арслонбойи қишлоғини ташкил этган Уруғдошлар асосан, бир-бирлари билан қариндош эди. Чори бобо, Усан бобо, Тўра оқсоқол, Олламурод бобо, мулла Менгли бобо ва бошқаларнинг катта-катта боғзор, дарахтзорлари бўлган. Лалмикорда Жума Очилдиев доврўкли нефтчи бўлди. Кўшни қишлоқларга ҳам кўчиб ўтиб яшаган арслонбойилар бор эди.

Болта Ёриев бир гал Б.Кармишеванинг китобида Қорабоғда арслонбойилар оилавий уруғ гуруҳи ҳам мавжудлигини ўқиб қолади. Шунда қорабоғлик Абдулла Бароталиев билан бир суҳбатда буни сўради. Абдулла Бароталиев филология фанлари номзоди, ташкилотчи маорифчи, кўп йиллар вилоят ўқитувчилар малакасини ошириш институти директори, ТерДУ филология факультети декани бўлди.

- Қорабоғда арслонбойилар вакиллари кўчиб боргани ростми? Улар ҳозир ҳам

борми? - дея сўради.

- Ҳа, бор. Менинг момом арслонбойи бўлган, - деди А. Бароталиев.

- Улар яна қаерларда бор?

- Арслонбойилар Термиз шаҳрида ҳам бор. Агар хоҳласангиз, арслонбойиларнинг қаерларда жойлашганини ва уларнинг сонига айтиб бераман¹⁴.

Афсуски, бу суҳбат кейинча давом этмади, А.Бароталиев кўп ўтмай вафот этди.

Болта Ёриев қорабоғлик Сафар Жумаев билан бу ҳақда суҳбат курди¹⁵. Сафар ака арслонбойилар ҳақида билишини, Қорабоғдан Термизга кўчиб келган Панжибойнинг онаси ҳам арслонбойилардан эканлигини айтади. Шоир ўша момо билан суҳбатлашади.

Омон момо Ғолиб бобо ҳақида сўзлади. Ғолиб бобонинг невараси Чоршами бобо. Ғолиб бобо Чоршами бобонинг онасининг отаси бўлган. Чоршами бобонинг турмуш ўртоғи Омон момо. Чоршами Саъдуллаев милиционер бўлган. (1939-1953 йиллар). 1939 йили армияга кетган, қайтиб келиб, яна милиционер бўлган. У Қорабоғдан Термизга кўчиб келиб, 24 йил яшаган, 1952 йили яна Қорабоғга кўчиб кетган. Чоршам Саъдуллаев ва Омон момо 5 фарзанд кўришди. Ғолиб бобонинг қизи Мукум, момо Чоршамининг онаси. Ҳукм момо ҳам Ғолиб бобонинг қизи. Омон момонинг айтишича, Ғолиб бобо Юқори Какайдига Арслонбойига қариндошларини излаб борган ва ўша ерда вафот этган.

Болта Ёриев акасида ўша кишини сўрайди. У Ғолиб бобонинг оғайнилари Юқори Какайдининг марказида яшашини айтади. Шундай қилиб, Болта Ёриев акаси билан суҳбатда Ғолиб бобо Парда Маманазаровникига келганини билади. Ғолиб бобонинг икки синглиси Какайдига, икки синглиси Қорабоғда бўлган. Какайдидаги сингилларидан бири хўжаларга, иккинчиси қораларга тушган.

Бу суҳбатлар 90-йилларнинг ўрталарида

¹⁴ Бу суҳбат 2000 йилнинг 14 феврилида бўлган.

¹⁵ Сафар Жумаев билан 1992йил 12 июнда Жаркўрғон туманида бўлган суҳбатдан.

бўлиб ўтган. У пайт ҳали Йўлдош Исмоилов тирик эди. Йўлдош Исмоилов ҳам қорабоглик, Абдулла Очиловнинг жияни, узоқ йиллар вилоят ўлкашунослик музейига директорлик қилди, Болта Ёриев Сафар ака билан унинг ҳузурида танишган. Сафар ака узоқ йиллар вилоят фирқа кўмитаси биринчи котибининг шофёри бўлиб ишлаган. Булар арслонбойи эмас. Тўйдаги суҳбатдан кейин Сафар ака арслонбойиларни суриштирган. Омон момо билан суҳбатлашганларида (йили товук) 80 ёшда эди. Болта Ёриев Панжибой тўй қилганда боради. Термизда ҳам арслонбойилар анчагина борлигини билади. Чоршами бобо 1993 йили 87 ёшида Қорабоғда вафот этган. Омон момо Қорабоққа бориб қилинган суҳбатлардан термизлик, янгиободлик арслонбойи уруғига оид кишилар ҳақида сўз юритилди.

Омон момонинг ўзи беган уруғидан экан. Айтишларича, Қорабоққа дастлаб уч уруғ, яъни эшон, беган, қул (мерган)лар келишган. Ёнида дарё бўлган. Сўнг, кейинча қуриб қолган. Ўзани ҳозир ҳам мавжуд. Кармишевнинг китобида Абдулла Очилов Қорабоғда 15 та оилавий-уруғ шажарасини санаган. Олима маҳаллий ўқитувчилардан яна тўртта шундай оилавий - уруғ бўлинма (шоҳча)сини ёзиб олган. 17-ўринда арслонбойилар ҳам бор. Демак, кейинроқ арслонбойилардан кимдир кўчиб борган ва кўпайиб алоҳида оилавий-уруғ даҳасини юзага келтирган. Кексалар ҳам Қорабоғда ҳозир 18 авлод (уруғ шаҳобчаси) бор дейишди.

Халқ тилида 300 уйли Қорабоғ, 300 уйли элбеги деган нақллар бўлган. Пошхурт минг уйли бўлган.

Омон момонинг отаси Бўри бобо бўлган. Арслонбойилар билан борди-келдиси яхши бўлган. Момонинг айтишича, илгари арслонбойилар алоҳида эътиборга сазовор уруғ бўлган, ҳатто улардан киз олишда бошқа уруғлар эҳтиёт бўлишган. Арслонбойилар эшонлар билан қудандачилик қилиши мумкин дейишган, чунки уларнинг бош бобоси Арслонбобота Пайғамбарга яқин киши бўлган.

Омон момо 2003 ёки 2004 йили вафот этди.

Гурунглardan маълум бўлишича, арслонбойилар жойлашган Қишлоқбозор ҳам катта қишлоқ бўлган. Доврукли бўлган. Бекликнинг тантана-маросимлари шу ерда ўтган. Собиқ шўролар тузими даврида биринчи шўро мактаби 1926-27 йиллари Пошхуртда, иккинчиси 1928-29 йилларда (айримларнинг фикрича, 1933 йили) Қишлоқбозорда қурилган.

Абдулла Бароталиевнинг отасининг онаси арслонбойи бўлган. Мулла Каюм бобонинг қизи бўлган. Қиз турмушга чиққан киши ҳам, яъни Абдулланинг бобоси ҳам мулла бўлган, мулла Чори дейишган. Саълулла бобонинг отаси ҳам мулла бўлган, мулла Тошболта дейишган. Арслонбойидан кўпроқ муллалар, отинбибилар чиқишганини айтишди¹⁶.

Б.Кармишева «е»ловчи уруғларнинг кўпини, жумлалан, арслонбойиларни ҳам чиғатой ўзбеклар сирасига киритган. Тўра Нафасовнинг маълумот беришича, арслонбойилар кўнғиротларнинг вахтамғали бўлимига қарашли уруғлардан бирининг шаҳобчаси. Аммо арслонбойилар шеваси жиҳатидан ҳам, қиёфа кўриниши жиҳатидан ҳам кўнғиротлардан айрим фарқларга эгаллиги сезилади. Бунинг устига, арслонбойилар қадимдан Шерободда яшаб келишадиганига қарамай, кўнғиротларнинг генеологик жадвалида кўрсатилмаган. Журналист Эштемир Нурқобиловнинг фикрича, арслонбойилар, улар ёнидаги тўғизлар Шерободнинг энг қадимий, туб аҳолисидир. Кўнғиротлар ва бошқа уруғлар бу ерга кейинча кўчиб келиб ўрнашганлар.

-Қишлоқбозор, Тўғиз, Сеплон, майдонликларнинг тили (шеваси) бир хил. Фикримча, асли ерли халқ ўшалар. Бошқалар турли жойлардан келган кўчманчи уруғлар, - деди у.

Б.Кармишевнинг 1924 йилги рўйхатга таяниб берган маълумотларида чиғатой-

¹⁶ Бароталиев Абдулла билан бўлган 1981 йилги суҳбатдан.

ўзбеклар Шеробод воҳасининг юқори қисмида, Юқори Мачайда, Лайлагон, Қорабоғ қишлоқлари, Азон ариғи бўйида, Қишлоқбозорда, Сеплон,

Навбоғ, Гегирдак. Чўйинчида яшаган. Қишлоқбозор катта қишлоқ бўлиб, икки қисмга ажралган: арслонбойилар ва хўжалар (ўзбек-хўжалар). Кексаларнинг олимага берган маълумотларига қараганда, бу ерда 200 дан ортиқроқ хўжалик яшаган. Сеплоннинг бир қисми афғонлардан, Навбоғнинг бир қисми афғон ва турклардан, Гегирдакнинг бир қисми араблардан иборат бўлган.

Шифокор Жўра Юсупов арслонбойилар ҳақида бошқачароқ фикр билдирди. Унинг фикрича, арслонбойилар, элбегилар, гиламбобилар, чўйинчилар, тўтаралар асли форслардир. Бу ерга кўчиб келиб жойлашиб қолишган. Демак, унинг фикрича, шимолдан кўчманчи уруғлар, қуйидан форслар келишиб, жойлашиб қолган. Аммо даврадаги айрим суҳбатдошлар бу фикрга қўшилиб бўлмаслигини айтишди. Уларнинг фикрича, бунча катта ҳудуддаги аҳоли ўз тилини тамомила унутиб юбориши ва бошқа тилга ўтиб кетиши мумкин эмас. Тўғри, бу шеваларда тожик тили элементлари мавжуд, бироқ бу тожиклар билан ёнма-ён яшаш, алоқа-аралашув ҳосиласи деб қараш керак бўлади. Иккинчидан, уруғ номлари ўзбекча. Бу ҳудудга келган араблар, эронийлар, афғонлар ҳам бор, улар ҳам ўзбек тилида гаплашади, бироқ эл-халқ номи сақланган¹⁷.

Педагог Очил Амиров 1979 йил декабри Шўро давлатининг чегараланган қўшинлари сафида Афғонистонга ўтди. Пуликумрига етмай, Девона деган тоғ қишлоғи бор. Оппоқ соқолли бир бобо билан учрашди. Қишлоқбозордан экан. Отаси бойнинг чўпони, катта ўғли (яъни ўша бобо)ни бирга олиб кетган. Буларга шу ердан жой бериб, бу ёқдан ўтганларни жамлаб, қишлоққа Девона деган ном

беришган. Очил Амировлар қишлоққа тушгач, болаларга дафтар, қалам улашишди. Бобо: «Мени олиб кетинг, Шерободдан бўлсангиз», деб йиғлаган. Бу ерда афғонлар ҳам хўмрайиб қараб турарди.

«Булар кимлар?»-деб сўради Очил Амиров. «Улар бизнинг назоратчилар», деди бобо¹⁸.

Очил Амиров, сўнг эшитса, шўро ҳарбийлари кетгач, бир ҳафта ўтгач, «Булар оға-иниларини топди», деб қишлоққа ўт қўйиб юборишибди.

Бобонинг болалари эшитган-билганларини тинглаб, телекўрсатувларни кўриб: «Бундай юртдан нега келдиларинг!» - деб алам билан сўзлашар экан.

2000 йил 24 октябрь, сешанба куни Болта Ёриев Элмурод аканинг вафотини эшитиб, Бозор Қақайдига, марҳумнинг оиласига таъзия билдиргани борди. Бу ерда Олламурод Жумаев, мулла Сафар ва бошқалар ўтиришган экан.

Олламурод ака бутун умрини педагогликка бағишлаган киши. Ҳозир нафақада. Бу ерда арслонбойилар ҳақида яна суҳбат кўзғалди.

-Сиз ҳа деб бошқаларни ёзмай, бизнинг қишлоқни ҳам ёзинг-да.

-Арслонбоб ота авлодларини.

-Мен арслонбойиларнинг Арслонбоб отага тақалиши тарихини билолмаяпман-да.бориб Арслонбоб ота Муҳаммад Пайғамбаримизнинг яқин қариндоши-амакиси бўлган. Имом Аскар вали, имом Акбар вали у кишининг (яъни пайғамбаримизнинг) амакилари.

Қишлоқбозор жойи у пайтлар очик майдон бўлган, қишлоқ бўлмаган. Ана шу икки ака-ука шу ерга уруш туфайли келиб, қазо қиладилар.

-Оғайинларига хабар етади:

-Икки оғайинларинг шаҳид бўлди, бориб ўша ерда дафн қилингллар.

Улар келиб, дафн қилишади. Мақбара устига кўк гумбаз кўтаришади. Кўкамаз

¹⁷ Шифокор Юсупов Жўра билан 1990 йил 18 мартдаги суҳбатдан.

¹⁸ Амиров Очил билан 1980 йил декабрдаги суҳбатдан.

ота номи шундан. Сўнг гумбази вақтлар ўтиб емирилган. Собик шўролар даврида қаровсиз қолди. Ҳозир таъмирланди. (Айтиш керакки, бу таъмирлаш ишларига ҳомийликни Олламурад Жумаевнинг ўғли Холбой Олламурадов қўлга олди). Икки ака-укани дафн қилган қариндошлари шу ерда қолиб, қишлоқ қуришди.

-Илгари арслонбойилар қизларини бошқаларга беришмасди, «биз саидларданмиз» деб билишарди.

- Ха, шундай гапни мен ҳам эшитганман, - деди Эргаш ака. (Бу киши ишқилилардан).

- «Арслонбойилардан қиз олаётган эмишсиз. Қандай бўларкан? Ўйлаб кўринг!» - дейишарди.

-Сўнг бойлар ўзининг етимига қизини беришиб, шу ерда олиб қолишиб, собик шўролар даврида эса насабнинг фарқи қолмай, шундай қилиб, уруғда ўзгаришлар бўлди.

-Бу тарихни Арабистондан излаш керак, хат ёзинг?

-Хат ёзиб, топиб бўлмайди, бориш керак, боринг. Бекатга

-Фарғонада Темур Малик бекатига тушгач, шундай тўғрида Арслонбоб ота қабри ва арслонбобликлар қишлоғи бор, ана шу ердан топасиз.

-Мен Наманганга борганда, арслонбойилар қишлоғида бўлдим, деди мулла Сафар. - 80 ёшли бобо билан суҳбатлашдим. «Қаердан бўласиз?» - деди. «Сурхондарёдан». -«Сурхондарёнинг қаеридан?». «Арслонбойидан». «Эҳ, биз

ҳам. Бизнинг шу қишлоқ арслонбойилар. 190 арслонбойимиз хўжалик. Биз Какайдени билмаймиз, Қишлоқбозорни биламиз. Вақтида биздан тўрт отлик бориб, ўша ерда ўрнашиб қолган».

Шунда Болта Ёриев Қишлоқбозорда бошқа кексалардан ҳам тўрт отлик ҳақида ҳикоя эшитганини эслади.

Сўнг Арслонбоб ота ҳақидаги ривоятлардан гурунг кетди. Аҳмад Яссавийга хурмони етказгани, қабри тўрт тарафда эканлиги, Туркистонда, Афғонистонда, Андижонда... Арслонбойиларнинг туб уруғлари ва келиб қўшилганлар таҳлили кетди.

Арслонбоб отанинг тўрт қабри ҳақидаги ривоятни Болта Ёриев Мамат тоғасидан ҳам эшитган. Ривоятда айтилишича, Арслонбоб отанинг тўрт ўғли бўлган. Ота вафот этгач, тўрт ўғли тўрт тарафдан келиб, «Отамни мен олиб кетаман, мен олиб кетаман», деб тортишган. Шунда уларга «Эртага келинлар» деб хабар келган. Эртаси тўртов уйнинг тўрт тарафидаги эшикдан навбатма-навбат келган ва ҳар қайсиси бир тобутни олиб, «Отамни мен олиб кетдим», деб ишониб кетган экан.

Кексаларнинг айтишича, илгари кўкамаз ота қабристонига арслон келиб турган. Қорақулоғи олдида юрган.

Арслонбойилар Туркменистон Чоршангисида ва Афғонистонда ҳам бор деган гаплар юради.

Арслонбойи қишлоғида ҳам оилавий уруғ гуруҳларига ажралади. Уларни тўда дейишади. Масалан, бир тўда шержонилар дейилган. Демак, бу уруғ тармоғи (гуруҳи) Шержондан кўчиб келиб, эҳтимол, шу ерликка уйланиб,

кўпайиб жойлашиб қолган. Гурунгда тулки тўда дейилган гуруҳ ҳақида ҳам айтиб қулиб қўйишди. Қишлоқда тақияликлар ҳам бор¹⁹.

Шоир айрим суҳбатларда арслонбойининг онаси айинни деган мулоҳазани ҳам эшитди. Юқори Какайдидаги Арслонбойи қишлоғининг ташкил топиши ҳақидаги оғзаки маълумотларга кўра, бу ерга арслонбойилардан 11 боб келиб канал қазган. Сўнг шу ерда ўрнашган. Меҳнатига яраша ўрин-жой белгиланган.

Болта Ёриев бир неча йил Шеробод академик лицейига қатнаб ишлади.

Бир гал автобусда ёнида ўтирган киши суҳбатлашиб кетгиси келди, шекилли, ундан сўради:

-Ошна, нечада бўлдингиз?

Ёшини айтди.

-Йилингиз аждар экан, илон.

-Термизда туриб, Шерободда ишлайсизми?

¹⁹ 2000 йил 24 октябрда сешанба кунги Какайди қишлоқ кексалари билан булган суҳбатдан.

-Ҳа.

Сўнг қўлидаги қизил жилдга разм солди-да, яна сўради:

Шерободда туриб, Термизга қатнаб ишлайсизми?

-Термизда тураман.

-Ҳа. Асли ота-боболарингиз жойи қаерда?

Шерободда. Мана шу В.Қодиров хўжалигининг Қишлоқбозоридан бўламиз.

-Ҳа, бу ерда икки катта қишлоқ бор: бири -Қишлоқбозор, бири - Ғўрин. Ғўриннинг халқи кўп, Қишлоқбозорнинг чобогони.

-Ғўринликлар қайси уруғдан?

-Улар тортувли. Ғўрин-тортувли дейишади.

Бу суҳбат 1999 йил июлида бўлиб ўтган суҳбатдан. Қакайди каналининг қазилиши ва бу ерда қишлоқлар пайдо бўлиши тарихи ҳақида Болта Ёриевга Мамат тоғаси ҳам ҳикоя қилиб берган²⁰.

Бир вақти Ҳисор беклигида жуз бойлари бекка ихрож (хирож) беришдан бош тортган. Мусурмон бойнинг ори келган. «Сенлар бекликка хирож тўламай, наҳс босди», деб. Ва Бойсун беклигига қараб жўнаган. У пайтлар Қакайди ерлари Шеробод ўрасига қарашли бўлган. Бой Бойсун беклигига шу ерда канал қазилса, обод бўлишини маслаҳат солган. Илгари бу ерларда ҳеч нима бўлмаган. Шеробод ўраси ёрдамлашиб, канал қазилган. Очамайлининг устига келиб, баландликка дуч келиб қолишади. «Уйимиз куйди, энди сув чиқмайди», деб қайфлари учиб қайғуришади. Сўнг: «Ниёз амин, кўркма, шу ердан парчаб ол», деган маслаҳат берилган. Парчаб қилиб, дарёга сув оқизилган. Парчаб тупрокни ювиб кетаверган. Каналнинг бу томони қазилаверган. Яқин-яқингача, яъни ўтган асрнинг 60-йиллари ўрталаригача, бу ерлар ўзлаштирилгунча, «Нияз аминнинг жари» бўларди.

Канал олингач, ишлаганига қараб, ер берилди. Биров кучлироқ бўлиб, икки бел

ҳажмида, биров бир бел ҳажмида ҳисоблаб ер олган. Ҳар бир уруғ шундай қилиб, канал ёқалаб қишлоқлар ҳосил қилган. Юқорида Хўжақишлоқ. Юқори Қакайди маркази, Арпопоя, пастроқда Боймоқли, сўнг Очамайли, кейин Арслонбойи, улар ёнида, дарё бўйида Гидамбобилар қишлоғи ташкил топган. Қакайди ва ундан пастида хўжалар, араблар, ишқилилар қишлоқлари бор эди.

Шу ўртада Питакбойнинг мол-мулки мусодара қилинган. Барча хўжаликлар унинг бойлигидан улуш олишган.

-Аммо арслонбойилар бормади, бойга вафо қилмаган мол-мулк бизга вафо қилармиди деб, - дейди Норсаҳатбой.

Арслонбойи қишлоғи қабристонида Чақчирон ота дафн этилган. Унга қўлбола мақбара қўтарилган ва ялов қўйилган эди. Ерли аҳоли, қишлоқдошларнинг уни шаҳид дейишига қараганда, шаҳид бўлган киши бўлиши керак²¹.

Айрим ривоят, нақлларга кўра, Қакайди каналида бир майит оқиб келади. Уни ушлаб, арслонбойилар қабрга қўйишади. Қабрдан «чарх-чарх» этиб кечалари ўт чиқаверган. Шундан Чақчирон ота деб ном қўйилган. Бу ривоят тўқимага ўхшайди. Чунки Чақчирон Афғонистонда жой номи. Каттадарё ва унинг водийси Чақчирон дейилади. Алишер Навоий «Садди Искандарий»да (35-боб, 102-бет) шундай ёзади: «Яна бу Хуросонда Чахчарон деган дарё ҳам бўлганки, унинг тўлиб оқадиган суви абадий ҳаёт бағишловчи оби ҳаётдан иборат эди». «Ҳирийнинг домани Кўх вилоятларини мисли Ўба ва Чахчарон мунга бердилар». («Бобурнома». Т.Т.Юлдузча, 1989, 155-б.). Демак, Чахчарон тоғли вилоятлар сирасига қиради²².

Агар Чархчарон ота номи билан бу мулоҳазаларга эътибор берилса, мулоҳаза қилиб кўрилса, Чақчирон ота ўша тарафлик авлиё ёки таниқли киши бўлиб

²⁰ Бу суҳбат 1999 йил июлида бўлиб ўтган суҳбатдан.

²¹ 1991 йил июль ойига қакайдида бўлиб ўтган суҳбатдан

²² Бўлиб ўтган суҳбатдан “Бобурнома”. Т.Т.Юлдузча, 1989, 155-б.

чиқади. Чунки кишиларни ўз юрти, жойи номи билан аташ ҳамиша бор гап. Эҳтимол, унинг: арслонбойиларга яқинлиги бўлган бўлиши мумкин. Шу ерга келиб яшаган, маърифат ишларини олиб борган ва шу ерда вафот этган бўлиши мумкин.

Шунда Болта Ёриев яна Мамат тоғасидан эшитган бир воқеани эслади. Бу воқеа улар Шерободда, Қишлоқбозорда яшаган пайтларида бўлган. Мамат тоға у пайт ёш бўлган. Уйларига бир дарвиш кечкурун келган. Меҳмон қилишган. Сўнг меҳмонхонада қолган. Эрталаб қарашса ётибди. Унинг кимлигини ҳам, қаердан келганлигини ҳам билишмайди, Суриштиришади, эга чиқмайди. Сўнг қабрга қўйишди. Уни йўқлаб ҳеч ким келмади²³. Киши ўз уруғи, аждоди ким бўлганлигига қизиқади. Болта Ёриев ҳам болалигидан бу гурунларни кўп эшитган. Ота томонидан қариндошларининг эсида қолгани Эрдонақул ҳожидир. Унинг ўғли Чори бобо. Чори бобонинг ука-сингиллари: Тошгул момо, Алмардон бобо. Энадош ука-сингиллари: Усан бобо, Нормат полвон, Ойсахат момо, Ширин момо. Чори бобонинг фарзандлари: Сулув момо, Аликул бобо, Ёри бобо. Холиқ бобо. Ойсара момолар, Қилич бобо, Жаббор ака. Чори бобонинг турмуш ўртоғи Ойбаланд момо.

Болта Ёриев ўғли Норменглини элбегилардан уйлантирганда, Кумуш опа: «ҳа, Норменгли момо томбнига тортибди-да», деди. Гап шундаки, Чори бобо Лайлаган томонларда чўпонлик қилиб юриб, элбегилардан уйланган. Сўнг қишлоққа (Қишлоқбозорга) қайтиб келиб, элга тўй қилиб берган. Ўшанда бош фарзанди Сулувнинг оёғи чиққан бўлган. Қизча қозоннинг бошига юриб келса, ошпазлар «Келиннинг қизи келди, гўшт беринглар» дейишиб, унга жилик (илик) беришган экан. Рухия опасининг айтишича, Ойбаланд момо кичик жуссали аёл бўлган. Сулув момо Тўра оқсоқолга тушди. Унинг фарзандлари: Мистон тоға, Тунуқ чеча, Маҳам (Муҳаммади), Мўмин тоға, Кумуш,

Паҳар опалар. Аликул бобонинг фарзандлари: Баҳор момо, Саттор ака, Обод момо, Уроқ ака, Бўрихол опа. Қилич бобо (оиласи: Розия чеча) фарзандлари: ўғли Чоршами, қизлари: Режаб, Ойтош. Ойноват амма боймоқлидан мулла Хиёга тушди. Ўғиллари: Ғаффор, Аби (эрта ўлган), Берди тоғалар. Холиқ бобонинг фарзандлари: Оппоқ чечадан: Бовол (Бобомурод), Новвот, Гулли опалар, Ўғилой опадан: Сафар, Рўзикул, Худоймурод, Ражабали, Панжи, Худойберди, Аллаберди, иккинчи ва охирги фарзандлари қиз эди. Оппоқ чеча эса Равшанга турмушга чиққан. Ундан Бўри, Ашир фарзандлари бўлди. Равшан ҳам урушга кетиб, қайтмади.

Ёри бобо (рафикаси Барот бобо ва Тошгул момонинг қизи Бозар момо). Фарзандлари: Рухия, Сапия (эрта ўлиб кетган), Бўри, Қудрат (эрта ўлиб кетган) шоиримиз Болта Ёриев

Жаббор ака дастлаб Бибихол деган аёлга уйланган. Ундан Усуп, Рўзикул деган икки ўғли бўлди. Уруш йиллари Тожикистонга кўчиб кетди. Сўнг у ердан, хотинини Рўзикул ўғли билан ташлаб, Усуп ўғлини олиб қайтди. Бу ерга келиб касалланди. Мопордан Шаҳар исмли аёлга уйланди. Аммо аёлга касал эр керак эмас эди, ажралишди. Сўнг Бегим холага уйланди. Бегим хола Бозор момонинг кенжа синглиси, Юсуф оқсоқолнинг Олламурод ўғлига турмушга чиққанди. Ўнгал исмли қизи бўлди. Олламурод урушга кетиб, қайтмади. Жаббор ака Бегим холага уйланиб, бир йил ўтмай вафот этди.

Болта Ёриевнинг суҳбатларда аниқлашича, она томонидан катта бобоси Ҳайдар бобо эканлигини билади. Ҳайдар бобо катта бой бўлган. Онаси Бозор момонинг ҳикоясига қараганда, беҳисоб мол-ҳоли, чўпон-чўлиғи томонидан Даҳана тарафда боқилган. Ҳар куни уйида етти тандиргача нон ёпилган.

Ҳайдар бобонинг ўғиллари: Усан бобо, Барот бобо, Юсуф оқсоқол, Алмардон бобо, Мустафокул оқсоқол. Болта Ёриевнинг онасидан эшитган

²³ Болта Ёриев билан 1991 - йилдаги суҳбатдан.

маълумотларига қараганда, Ҳайдар бобо Зиннат (Зийнат) момога ҳам уйланган. Ундан Ражабали деган ўғли бўлган. Аммо Ражабали кўп яшамаган.

Чори бобонинг синглиси Тошгул момо Барот бобога тушган. Барот бобонинг фарзандлари: Раҳматали, Бозор момо, Маъмур, Ойсара, Мамат, Бегим хола. Бозор момо Чори тоғасининг ўғли Ёри бобога тушган.

Ҳайдар бобонинг ўғли Усан бобонинг фарзандлари: Яраш, Қарши, Зиё, Чоршами тоғалар.

Юсуф оқсоқол Зумрад момога уйланган. Ундан Олламурад, Бекмурад, Қизларсулув фарзандларини кўрди. Олламурадга Бегим хола (амакиларнинг фарзандлари) тушди. Ундан Ўнгал исмли киз бўлди. Урушга кетиб, қайтиб келмади. Юсуф оқсоқол вафот этгач, Зумрад момо (есир эгаси деб) Алмардон бобога олиб берилган. Алмардон бободан Абсоат, Зоир фарзандлари бўлди.

Чори бобонинг Абдурахмон исмли укасининг Оппоқ исмли кизи, Қувват ўғли бўлган. Қувват урушга кетиб, қайтиб келмаган. Оппоқ момо дастлаб Чори бобонинг ўғли Холик бобога тушди. Ундан Бовол (Бобомурад) ўғли, Новвот,

Гулли исмли кизлари бўлди. Холик бобо иккинчи хотин (такияликлардан Ўғил янгани) олди. Юқорида фарзандларини айтдик.

Чори бобонинг энадош укаси Усан бободан (оиласи Холби момо) фарзандлари: Абдурайим, Норби (Кудрат Жўраевга тушди), Ғаффор (армиядан қайтиб келиб, вафот этди), Ойсоат (Хуррам Жўраевга тушди, Кудрат, Хуррам-ака-укалар), Мейлихол (Қувондиққа тушди), Робия, Жаббор.

Чори бобонинг яна бир энадош ака ёки укаси Нормат бободан (оиласи Бибисора момо эди. Норали Қурбоновларнинг аммаси) фарзандлари: Баҳор, Ҳожар, Улдон кизлари, ўғли Эргаш. Ойсаҳат момо Чори бобонинг синглиси эди. Унинг бир эридан Поён оқсоқол бўлди. Иккинчи эридан Беккам амма. Иккинчи эри ҳам ҳажга кетиб, қайтмаган.

Чори бобонинг хотини Ойбаланд момо бўлган. Айтишларича, тепаликда уйи, чайласи бўлган. Қизлари, неваралари байрам куни: «Момо, яхши ўтиринг, биз сайл қилиб келамиз», деб кетишган. Қайтиб келишса, момо ўлиб ётган.

Ойсаҳат момодан фақат 2 фарзанд қолди. Бошқа болалари турмаган. «Болам, турса, тўй қилиб бераман», дер экан.

Ширин амма Алимардон бобога тушган эди. Жўра исмли ўғли бўлди. Урушга кетиб, қайтиб келмади.

Ҳайдар бобонинг Мустафокул оқсоқол ўғлининг фарзандлари: Тоҳир, қизи Тош. Тошнинг ўғли: Асқар.

Барот бобонинг фарзандлари: Бозор момо (Ёри бобога тушди), Раҳматали, (унга Сулув момонинг кизи Тунук тушди). Раҳматали серғайрат киши бўлган. 1928 йили «Янги куч» ячейкаси бошлиғи, 1929 йили Тўғизда Сайдуллаҳон эшон (Ҳаби аканинг отаси) тугатилгач, унинг ерида ташкил этилган коммуна бошлиғи бўлди. 1930 йили Қишлоқбозорда колхоз тузилди. Лекин у раис бўлмади. Касал бўлиб қолди. Бир йилча касал бўлиб ётди. Колхозлар тузиш учун Шерободда штаб бўлган. Ячейка, коммуналар тажриба қилинган.

Раҳматалининг укаси Мамат стаҳоновчи звено бошлиғи бўлган. Маматалидан Анбар опа қолди. Маматали вафот этгач, (есир эгаси деб), укаси Маматга Тунук чеча берилди. Ундан Даврон, Ҳасан, Фотима бўлди. Даврон чаққон, абжир бўлган. Какайди каналига Боботоғ яйловидан кийиклар сув ичгани келганда, анҳордан ирғиб ўтиб, уларни қувиб, бирини ушлаган ҳам дейишади. Уруш йиллари очарчиликда ўлган.

Мамат тоға хотинини ташлаб, қишлоқда яшовчи такияликлардан Шоди бобонинг катта қизи Ойсаҳат чечага уйланди.

Барот бобонинг Ойсара қизи мулла Чорига тушди. Ундан Султон, Менгсулув қизлари бўлди. Момо ўлгач, мулла Чори уларни сағир ташлаб, бошқага уйланиб кетди.

Маъмур хола Қурбонали полвонга тушди. Фарзандлари: Тожиҳол (мулла Тўрага тушди), Имом, Бибихол, Азим,

Холиёр, Ойимхол, Ойнахол, Жангил.

Бегим хола, юқорида айтганимиздек, дастлаб Юсуф оқсоқолнинг ўғли Олламуродга тушди. Ундан Унгал исмли қиз кўрди. Олламурод урушга кетиб, қайтиб келмади. Сўнг Жаббор акага тушди. Ундан фарзанд кўрмади. Ундан кейин уста Абдураимга тушди. Октепага Бойсундан келган. Шу ерда оила куриб яшади. Бегим хола ундан Хуррам, Чоршами ўғиллари, Тожихол қизи (Абсаломга турмушга чиқди), яна бир қизи бор.

Бу шажара кейин яна тармоқланиб, неварга, чевара, эваралар вояга етиб, кўпайиб кетган. Болта Ёриев уларнинг бир-бирини излаб, якин бўлишини истаб яшади. Лекин турли тарафга тарқаб кетган

бу қариндошлар авлодларининг кўпи бир-бирини кўришмаган, бир-бирини танишмайди. Болта Ёриев Нормат бобонинг қизи Баҳор опанинг ўғли Норқувват, Новвот опанинг фарзандлари: Холбой, Алибой ва бошқа қариндошлари билан ахволашиб борди келди.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Мен ушбу мақолани шоир Болта Ёриевнинг ҳаётлик вақтида матбуотда эълон қилмадим. Аммо “ҳечдан кўра кеч” бўлса-да, фойдадан холи бўлмас ҳамда шоирнинг узоқ йиллик меҳнати изсиз йўқолмасин деб эълон қилишини мақсад қилдим Оллоҳ Болта Ёриевнинг охиратини обод қилган бўлсин. Рухлари шод бўлсин! Омин! (2006 йил).

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Турсунов С., Умаров И, Т. Пардаев., Холманова Ф., Турсунов А., Махмадиёрова Н., Нарзуллаева Н., Ўзбекистонда топонимик номлар ва уларнинг тарихи. 150-151 б.
2. Хасан Ато Абулий Туркий қавмлар тарихи. Тошкент, 1995, 185-186 б.
3. Қўзиев Р.Г. К этнической истории бахшикир в канце 1-начале 11 тысячелетний Н.Э. Археология и этнография Бошкрий, УФА, 1968 том, 111 стр. 236.
4. Турсунов Сайфулла, Турсунов Анвар, Тоғаева Мунира. Шеробод тарихидан лавҳалар “янги нашр” 2014.
5. Мустафоқулов Р. Фақирнинг йўли. “Сурхон-нашр” Термиз. 2012.
6. Қодиров Б. Сурхондарё олимлари. Тошкент “Меҳнат” 1990. 90-93 б.

JIZZAX VOHASI YUZ(JUZ)LARINING ULOQ O'YINI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI

Dulanov Otabek Yuldashevich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrası

katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

otabekdulanov56@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-1141-7475>

UDK: 39:316.334.52(091)(575.151)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax vohasi aholisining milliy o'yinlarida uloq o'yinining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Uloq, novvos, jussa, chavandoz, po'stak, tuyoq, teri, polvon, buzoq, tomoshabin.

Аннотация: В данной статье рассказывается об уникальных особенностях игры в козла в национальных играх жителей Джизакского оазиса.

Ключевые слова: Козел, пекарь, юсса, наездник, чистить, копыто, кожа, борец, теленок, зритель.

Abstract: This article discusses the specific features of the Uloq game in the national games of the inhabitants of the Jizzakh oasis.

Keywords: Uloq, novvos, jussa, cavandoz, bark, hoof, skin, wrestler, calf, spectator.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jizzax vohasi aholisi uloq o'yinlarining o'ziga xos hududiy lokal xususiyatlari uloq tanasini tanlash va tayyorlash bosqichidan boshlanadi. Chunki uloq tanasini tanlash, tayyorlash o'yinning qiziqarli, shijoatli, zavqli o'tishi uchun ahamiyatlidir. Uloq tanasini tanlashda birinchi galda to'planishi kutilayotgan polvon-chavandoz va otlar nufuzining geohududiy kengligi, g'oliblar uchun qo'yiladigan sovrinlarning salmog'iga e'tibor qaratilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jizzax vohasi o'zbek, turkman va tojik aholisi orasida uloq chopish uchun oldindan o'rtacha musobaqa uchun, asosan, tirik vazni taxminan 100-110 kilogrammli novvos buzoqcha tanlangan.

Uloq musobaqasiga buzoqcha tanlash asosan Farg'ona vodiysi hududidagi o'zbek, qirg'iz, tojik aholilari uloq o'yinlariga tegishli bo'lib, O'zbekistonning Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, va Surxondaryo voha viloyatlaridagi uloq o'yinlariga maxsus echki (taka) boqilib, og'irligi 40- 50, hatto 55-60 kilogrammgacha (ayrim hollarda 50-60 kilogrammli novvoscha tanasi ham) tayyorlangan[1]. Bu holat esa voha uloq turi uchun uloq tanasining tanlanishidagi lokal xususiyatdir.

Geohududiy jihatdan qat'iy nazar, uloq uchun tanlanadigan echki yoki buzoq erkak zotli bo'lishi shart. Bunday udum azaldan an'anaga aylanib kelgan. Agar sovliq yoki g'unajin tanasi tayyorlansa, bunday uloq o'yinlari talofatli o'tib, ayrim chavandoz va otlar sog'lig'iga shikast yetishi mumkin deb, hisoblangan. Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Jizzax vohasi etnomadaniy mintaqasida uloq o'yini uchun buzoqcha maxsus boqilmagan, to'g'ridan-to'g'ri tanlangan. Novvoschani tanlashda ular orasidan imkon qadar yaxshi o'smagan, tez katta bo'lmaganlari, yoshi oshgan bo'lsa-da, jussasi kichik bo'lganlari ajratib olingan. Chunki bunday buzoqlarning terisi (po'stagi) mustahkam bo'lib, uloq o'yinidagi chavandozlarning tortishuvlarida titilib ketmasligi e'tiborga olingan[2]. Masalaning yana bir jihati shundaki, mabodo Jizzax vohasi hududidan echki o'ynalanadigan viloyatlarga uloqchi chavandozlar musobaqa uchun tashrif buyursa, ularning izzati va hurmati uchun echki tanasidan tashqari, novvos tanasidan tayyorlangan uloq ham o'yinga tashlangan va echki uloq tanasi chopiladigan hududlardan mehmon chavandozlar tashrif buyursa, aksincha holat bo'lgan[3].

Uloq musobaqasiga tanlangan, ya'ni 100-110 kilogrammli tirik vaznli buzoq tanasining qorin qismidan 15-20 santimetr chamasida yorib, ichki a'zolari tozalangan, og'irligi taxminan 60-70 kilogramm qolgan. Teshib olingan joy pishiq ip yoki teri mahsulotidan tayyorlangan maxsus ip bilan qaytadan mustahkam qilib tikib qo'yiladi. Chunki ochiq qolgan hollarda go'sht ifloslanishi, shu joyga uloq o'yini jarayonida ot tuyog'i tushib qolishi va yiqilishi mumkin. Uloqning ichki qismi tozalanib tayyor bo'lgach uning to'rt oyog'i tirsagidan olib tashlanadi.

Ayrim hollarda, asosan, Jizzax viloyatida buzoq (novvoscha) ulog'i o'ynaladigan o'yinlardagi o'ziga xoslik shundaki, uloq uchun 110-120 kilogrammli novvoschalar tanlanib, so'yib tozalangandan so'ng og'irligi 70-80 kilogramm tashkil qilgan. So'yilgan uloq og'ir bo'lsa, bo'yin qismidan bir oz go'sht olinib, yana qaytadan tikib qo'yish hollari ham uchrab turadi. So'yilgan buzoq ulog'i kalla qismini olishda (agar uloq 80 kilogrammdan og'ir bo'lsa) ikki qulog'i terida qolgan holda boshidan ajratib jussasida qoldiriladi. Chunki, ikki quloqning qolishi ma'lum bir ma'noda chavandozga uloqni ko'tarish uchun qulaylik yaratsa, ikkinchi tomondan chavandozlarning tortishuvlariga, o'yinni kurashlar asosida qiziqarli o'tishiga ham ta'sir qiladi. Ko'p hollarda uloq dumi 15-20 santimetr qoldirilib, qolgan qismi olib tashlanadi, chunki tortishuv jarayonida uloq dumini boshqa bir chavandoz egari qoshiga o'rab olib, g'irromlikka yo'l qo'ymasligi uchun shunday qilinadi[4].

Aksariyat vaqtlarda va ayrim joylarda uloq (buzoqni) tanasining orqa oyog'i tirsagidagi pay qismidan ushlash uchun faqat bir oyog'i teshib qo'yiladi. Bu jarayon yerdan olayotgan chavandoz uchun qulaylik tug'dirsa, ikkinchi oyog'ining tirsagi teshilmasligi raqiblari g'irrom sanalgan ikkinchi oyog'iga ip bog'lash yoki qamchi dastasini tiqib olishi, egar qoshiga tiqib olishining oldi olinadi. Chunki ip bog'lash, qamchi dastasi yoki egar qoshiga kiritib olish g'irromlik sanaladi. Hududiy urf-odatga ko'ra bir to'yda faqat bitta, ikkita yoki uchdan ortiq uloq tayyorlangan. Yig'ilgan otlar, chavandozlar

ko'p bo'lgan hollarda uloq chidam bermasligi, yirtilib ketishi mumkin, shunda ikkinchisi tashlangan. To'ydan tashqari ommaviy hosil, Navro'z bayramlarida, viloyat, shaharlarning yubiley to'ylarida bir paytning o'zida ikkita, uchta uloq o'rta tashlanadi. Shuning uchun uloq tanasi o'ntagacha tayyorlanadi. Har bir tashlangan uloq guruhlariga maxsus hakamlar tayinlab qo'yiladi.

Jizzax vohasidagi aholi uloq o'yini uchun tayyorlanadigan jonzo'tni maydonga olib kirish jarayoni Farg'ona viloyatida amal qilib kelayotgan tartib-qoidalaridan farq qiladi. Jizzax viloyati hududida o'tkaziladigan uloslarda jonzo'tning ichki a'zolari hamda oldingi oyoq tuyoqlari tanasida qoldiriladi. Xuddi shuningdek, Samarqand viloyatida ham uloq tanasini tayyorlash shunday tartibda bo'lib, uning farqli jihati 10 taga yaqin uloq tanasi tayyorlanishi tamoyilga kirgan. Chunki, Samarqand viloyatining ayrim hududlarida uloq o'yinida g'olib chiqqan chavandoz bu yerda o'yinda ishtirok qilgan echki tanasining ham egasi hisoblangan[5].

Jizzax vohasida uloq o'yini uchun tashlangan uloq tanasining ichki a'zolaridan tozalab, qayta tikib qo'yish odati sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilishga yo'naltirilgan hamda o'yindan so'ng uloq o'yinida o'ynalgan echki yohud novvos go'shtining iste'molga yaroqlilik darajasi saqlanib qolingan. O'yinda chopilgan uloq tanasini iste'mol qilish borasida xalq orasida shunday naql borki, go'yo uzoq vaqt kasalmand bo'lgan bemor, farzandsiz ayol iste'mol qilsa, bemor shifo topadi, farzandsiz farzand ko'radi[6]. Buning yana bir muhim jihati shundaki, moddiy tejamkorlik nuqtai nazaridan ham jizzaxcha qoidalar e'tiborga loyiq. Yuqorida qayd etganimizdek, uloq tanasining bir kun oldin tayyorlanishi jarayonida biroz sovuq suvga solib olingach, salqin xonaga yoki tashqariga ilib qo'yiladi. Sovigan uloslarning chidamlilik, pishqlik darajasi yanada oshadi. Tanadagi barcha qon, suyuqliklar qotishi uchun ham shunday qilinadi[7].

Jizzax vohasida tashkil etiladigan o'yinning lokal jihatlaridan yana biri, uloq tanasini tayyorlash bilan birga o'yin

o'ynaladigan maydonni tanlash va tayyorlash ham jiddiy yondashuvni talab qilgan. Bu jihat tabiiy geografik omilga va xalqning uzoq asrlik tajribasiga tayanib, ish ko'rishni taqozo qilgan.

Bu o'rinda Farg'ona Mintaqasida esa aholi joylashuvi zichligi, hududning reylefi, tomoshabin aholining xavfsizligi, uyushtiriladigan uloq o'yinining qulay va ochiq tomosha qilish imkoniyati kabi omillar nazarda tutilgan. Yuzlab uloq o'yinlarining guvohi va kuzatuvchisi sifatida shunday xulosaga kelish mumkinki, Farg'ona vodiysi tuman va aholi markazlarida uloq o'yinlari asosan yalanglikda keng tekisliklarda o'tkazilib kelinmoqda.

Uloq o'yini uchun 2-3 gektar maydon tanlanib, maydon atrofi avto-ulovlar yordamida, ular bo'lmagan davrlarda ot-aravalar bilan o'ralgan. Kelishi mo'ljallangan ot, chavandozlar, tomoshabin xalq miqdoriga qarab, maydon bundan ham kengroq tanlangan va tayyorlangan. Shuning uchun maydon tanlashga ham katta e'tibor berilgan, maydonning balandroq joyida sovrin taqdim etuvchi hakamlar uchun alohida joy ajratilgan. Sovrin beruvchi sifatida oqsoqollardan biri to'y kuni tanlanib, unga sovrinlar ro'yxati tuzib berilgan. Maydonning arava bilan o'ralishi (hozirda avto-ulovlar bilan) tomoshaga kelgan xalq xavfsizligi, ularning o'yinga xalaqit bermasligi uchun tashkil qilingan. Tomoshabinlar aravalarda yoki xavfsizroq baland joylarda o'tirib tomosha qilishadi. Uloq o'yiniga maydon tanlash bilan bog'lik jarayon Jizzax vohasidagi o'zbeklar yashaydigan hududlardan farqli o'laroq, tojik hamda turkmanlarda tog' va tog' oldi Mintaqaviy kengliklar tanlangan. Ularda uloq o'yini uyushtiriladigan joy sun'iy to'siqlar bilan emas, tabiiy chegaralar bilan (dara, jarlik, adirlik va hokazo) muhofazalangan. Jizzax vohasida uloq o'yinining qadim zamonlardan, o'ziga xos tartib-qoidalari

shakllangan va zamonlar o'tishi bilan ularga yangi qoidalar qo'shib borilgan.

Jumladan, Jizzax vohasida qadimdan uloqni biror marra (belgilangan joy) ga tashlash qoidasi bo'lmagan. Marra qoidasi keyingi XX asrning 80-90 yillaridan boshlab kirib kelgan. O'yin boshlanishi oldidan uloq chopish qoidalari keksa chavandoz yoki o'rtadagi bosh hakam (bakovul, solimchi) tomonidan chavandozlarga ko'rsatib o'tilgan. Uloq o'yinida, ya'ni buzoq tanasi chopiladigan uloqda chavandoz yerga engashganda ustiga ot solmaslik, piyodalar tomonidan chavandozga uloqni olib berish, uloq ko'targan chavandozning teskari, orqa tomonidan tortib yiqitmaslik, uloqqa ip (yakka tizgin, ko'r tizgin) solmaslik, qamchi dastani buzoq poyiga tiqmaslik. uzangini qayirib egar qoshiga ilish, uloq payini egar qoshiga tiqib olmaslik, tomoshabinlar ichiga olib bormaslik, yoppa (otga o'ngarilgan) uloqni tortmaslik (faqat Baxmal tumanida)[8] o'yinni bosh solimchi (hakam) tomonidan to'xtatish haqidagi buyruqqa bo'ysunish kabi qoidalar belgilangan. Jizzax vohasida, (Baxmal tumanidan tashqari) otga o'ngarilgan (yoppa qilingan) uloqni tortish mumkin. Baxmal tumanida esa otga o'ngarilgan uloqni tortish ta'qiqlangan (hozirda bu qoidaga amal qilinmaydi)[9].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xullas, Jizzax vohasi aholisining uloq o'yini qadimiy tarixga ega, uning turlari, u bilan bog'liq marosimlar asrlar mobaynida takomillashib, rivojlanib o'zining asosiy ko'rinishlarini saqlagan holda hanuzgacha davom etib kelmoqda. Bu esa Jizzax vohasi aholisining o'tmishi, etnomilliy madaniyati va ma'naviyati yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham uloq o'yinlari bilan bog'liq urf-odat va marosimlarni tarixiy-etnografik aspektda o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Yo'ldashev. S.V. Farg'ona vodiysi aholisining xalq o'yinlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. – 2019. B – 87.

2. Dala yozuvlari. Baxmal, Zomin, G'allaorol va Forish tumanlarining tog' oldi hududlari. 2023-2024-yillar.
3. Холлиева К. От — мардлик, куч-ғайрат ва тимсоли. // Маърифат. 2009. 14 апрел
4. Dala yozuvlari. Baxmal tumani, Sutli buloq qishlog'i. 2024-yil.
5. Dala yozuvlari. Zomin tumani, Yettikechuv, Duoba, Karimsoy, Sarikamar qishloqlari. 2023-yil.
6. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. G'allaorol tumani, Dovul qishlog'i. 2023-yil.
7. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani Novka qishlog'i. 2023-yil.
8. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati, Baxmal tumani. 2023- yil.
9. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati, Baxmal, G'allaorol va Zomin tumanlari. 2023-2024-yillar.

JANUBIY O'ZBEKISTON CHIG'ATOYLARINING KELIB CHIQISHI TARIXI VA HUDUDIIY JOYLASHUV MASALASI

To'rayev Sherzod Gulboy o'g'li,

Termiz davlat universiteti Etnografiya, etnologiya va antropologiya

mutaxassisligi tayanch doktoranti

ORCID ID: 0009-0007-7666-1541

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya. Ushbu maqola XX asr birinchi yarmidagi Surxondaryo hududida qabila bo'linishiga ega bo'lmagan elatlardan biri chig'atoylar haqida. Maqolada Chig'atoylarning kelib chiqish tarixi, Surxon vohasi bo'ylab joylashuv hududlari, ularning til jihatdan bo'linishi, soni va qaysi urug'lar bilan yashaganligi yoritib berilgan. Bunda taniqli etnograf Bilqiz Xalilovna Karmisheva tadqiqotlari va asarlariga tayanildi.

Tayanch so'zlar: Surxon vohasi, tojik-chig'atoylar, Boysun, To'palangdaryo, o'zbek-chig'atoylar, Sangardak, Sherobod, Zarabog', chig'atoy tili.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о чигатайцах, одном из народов, не имевших племенного разделения в Сурхандарьинской области в первой половине XX века. В статье описывается история происхождения чигатаев, их расположение по Сурханскому оазису, их языковое деление, численность и с какими родами они проживали. При этом опирались на исследования и труды известного этнографа Балкис Халиловны Кармишевой.

Ключевые слова: Сурханский оазис, таджикско-чигатайцы, Байсун, Топалангдаря, узбекско-чигатайцы, Сангардак, Шерабад, Зарабаг, Чигатойский язык.

Annotation. This article is about the Chigatays, one of the peoples who did not have tribal divisions in the Surkhandarya region in the first half of the 20th century. The article describes the history of the origin of the Chigatai, their location along the Surkhan oasis, their linguistic division, number and which clans they lived with. In this, the researches and works of the well-known ethnographer Bilqiz Khalilovna

Karmisheva were relied upon.

Key words: Surkhan oasis, Tajik-Chigatoy, Boysun, Topalangdarya, Uzbek-Chigatoy, Sangardak, Sherabad, Zarabog, Chigatoy language.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Etnograf B.X.Karmisheva o'zining ko'p yillik izlanishlari natijasida Surxon vohasi aholisi tarkibini uch qatlamga ajratgan. Birinchi qatlam – qabila bo'linishiga ega bo'lmagan o'troq aholi bo'lib, ularga chig'atoylar, xo'jalar va qarshiliklar kirgan. Ikkinchi qatlam esa Mo'g'ullardan oldingi turkiy qabilalarning avlodlari va mo'g'ullar hukmronligi davridagi turkiy-mo'g'ul qabilalari bo'lib, ular o'troq aholi orasida tarqalmagan, ammo yarim ko'chmanchilikni saqlab qolgan. Bularga turklar, qarluqlar, xalachilar, mo'g'ullar, merishkarlar va boshqalar kirgan. Uchinchi qatlam sifatida XVI asrda Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda kelgan qo'ng'irotlar, yuzlar, laqaylar, semiziylar, kesamirlar, qatag'onlar, durmenlar va boshqa o'zbek qabilalari tasvirlangan. XIX asr oxiri–XX asr boshlarida Janubiy O'zbekiston mintaqasining mahalliy aholisi–mo'g'ullar hukmronligi va undan oldingi davrlarda Movarounnahr hududlarida yashagan va yerli o'troq dehqon aholi bilan jadal aralashib ketgan bir qancha etnik guruhlarining avlodlaridir. Ko'pgina etnografik adabiyotlarda mazkur hududning mahalliy aholisi sifatida asosan chig'atoylar ko'rsatib o'tilgan. Talay tadqiqotchilarning ishlarida urug'larga bo'linish tartiblariga ega bo'lmalik aholining mahalliy o'troq qismiga xos xarakterli xususiyatlardan biri ekanligi ta'kidlab o'tilgan[8.b.75].

N.A.Kislyakov Ko'lobda, keyinchalik

Sayrobda mahalliy aholidan “chig‘atoy” so‘ziga izoh so‘raganda Chig‘atoylar “tog‘larda tarqalib ketgan tojiklardir” degan javob olgan[5.b.98]. Aleksandr Boris Buxoro amirligida “qashshoqlikda” yashagan Chingiz avlodlari bo‘lgan chig‘atoylar haqida yozgan[2.b.122]. N. G. Mallitskiy “chig‘atoy”larga turkiy aholi bilan bir qatorda mahalliy tojiklar ham kirishiga shubha qilmagan. U shunday deb yozgan edi: “Dashtiq Qipchoq o‘zbeklariga turklar ham, tojiklar ham qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Ularning ikkalasi ham o‘zbeklardan farqli ravishda o‘zlarini “Chig‘atoy xalqi” deb atagan”. N. G. Mallitskiy: “O‘zbeklar O‘rta Osiyoni bosib olgandan so‘ng, ko‘plab Temuriylar oilasiga sodiq bo‘lgan “Chig‘atoylar” Hindistonga borishgan va hozirda Agra va Dehli shaharlari atrofida bir necha o‘n minglab odamlar yashamoqda[6.b.77].

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ma‘lumki, Chingizxon zabt etgan hududlarni o‘z o‘g‘illariga ulus sifatida bo‘lib bergan. Jumladan, Movarounnahr uning katta o‘g‘li Chig‘atoyning mulki hisoblangan. Mo‘g‘ullar bosqiniga qadar, bu yerda yashagan va madaniyati ancha yuksak bo‘lgan mahalliy o‘troq aholi ham Chig‘atoyxon nomi bilan chig‘atoylar deb atala boshlagan va ularning boy turkiy tili-chig‘atoy tili deb yuritilgan. Shuningdek, Chig‘atoy ulusi hududlarida yashagan tojik tilli aholi ham o‘zbeklargacha bo‘lgan turkiy aholi bilan bir qatorda chig‘atoy nomi bilan atalganligini tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rishimiz mumkin[1.b.432]. “Chig‘atoy” atamasi dastlab turkiy-mo‘g‘ullarning

imtiyozli doirasini hamda Chig‘atoyxon va ularning avlodlarini (XIII-XIV asrlar), so‘ngra Movarounnahr va Sharqiy Xurosonning butun turkiy aholisini (XV asr), hatto keyinroq Movarounnahrda turkiy va tojik aholiga nisbatan ishlatilgan. Bundan kelib chiqadiki, chig‘atoy atamasi Chig‘atoy ulusi va Chig‘atoyxon nomlari bilan bevosita bog‘liq. Tadqiqotchilar tojik tilida so‘zlashuvchi chig‘atoylarni mo‘g‘ullarning avlodlari qatoriga kiritgan.

Dastlab ushbu Barlos, Jaloyir, Qauchin va Orlat qabilalari alohida bo‘lishgan. Bir asrdan bir oz ko‘proq vaqt o‘tgach, XIV asr 60-70-yillarida chig‘atoylar ko‘rsatilgan to‘rtta qabilani anglatgan va ularning vakillari faqat turkiy tilda gaplashdilar. XV asrda butun turkiy aholi chag‘atoy deb atala boshlandi. Keyinchalik temuriylar va shayboniylar o‘rtasidagi kurash davrida Movarounnahrning butun aholisi — turkiy va tojik xalqi chig‘atoylar deb atala boshlagan[4.b.97].

Chig‘atoylar o‘zbek va tojik chig‘atoylarga bo‘lingan va ularning kelib chiqishi murakkab hisoblanadi. Chig‘atoy tojiklarini o‘z tili va umumiy madaniy qiyofasi jihatidan pasttekislik tojiklari deb ataladigan tip deb hisoblash mumkin edi, garchi ularning bir qismi tog‘larda yashagan bo‘lsa ham. Ularning moddiy va ma‘naviy madaniyatida, jumladan, tilida Qashqadaryo va Zaravshon havzalaridagi tojiklar bilan umumiyligi yaqqol ko‘rinib turardi. Chig‘atoy o‘zbeklari ham xuddi shunday madaniy qiyofaga ega edilar. Chig‘atoylarning joylashuv masalasiga kelsak, ular butun Janubiy O‘zbekiston bo‘ylab tarqalgan edi (1-jadval).

1-jadval

XX asr boshlarida Janubiy O‘zbekiston hududida Tojik chig‘atoylarning joylashuvi

Hududlar	Soni
Ko‘hitang tog‘i sharqiy etaklari	2755
Sherobodaryo havzasi	3718
Boysundaryo havzasi	4000
Surxondaryoning yuqori oqimi	9488
Surxondaryo o‘rta oqimi	3420

Chig‘atoylar Ko‘hitang tog‘larining sharqiy etaklaridagi Sherjand, Vandob,

Zarabog‘, Poshxurd, Chakob kabi 10 dan ortiq qishloqlarda tojik tilida so‘zlashuvchi

chig'atoylar istiqomat qilishgan. Katta Poshxurd qishlog'ining aralash aholisining yarmiga yaqini chig'atoy tojiklari edi. Sanab o'tilgan qishloqlardan janubda, past suvli Poshxurd vodiysining janubida G'oz, Yoqubbayqarez, Axtash, Alg'uy, Yarmaqarez, Chorvag'arez, Bulakkarez, Kattaqamish, Kampirbuloq kabi qishloqlar Karezat umumiy nomi bilan mashhur edi, chunki ularning aholisi karez suvidan foydalangan. Bu qishloqlarda qo'ng'irotlar va chig'atoylar birgalikda, Buzrukobodda chig'atoylar xo'jalar bilan birga istiqomat qilishgan. Shuningdek, Gaz qishlog'i ikki qismga bo'lingan bo'lib, birida Tentak-qishloqda qo'ng'irotlar, ikkinchisida esa chig'atoy tojiklar yashagan.

Boysun bekligi aholisining 9 urug'idan 3 tasi chig'atoylardan iborat edi. Chig'atoylarning uch urug'i tojik-chig'atoylar, tojik va o'zbek xo'jalar va o'zbek-tog'chilar deb tushunilgan. Bu yerda tog'chilar chig'atoylar tarkibiga kirgan. B.X.Karmisheva ma'lumotlariga ko'ra, tojik chig'atoylar Boysun shahri va shahar atrofidagi qishloqlarning asosiy aholisini tashkil qilgan. Boysun, Darband, Ko'hitang tizmasining sharqiy yon bag'iridagi ba'zi qishloqlar chig'atoylari o'zlarini bu hududning asl aholisi deb hisoblagan.

Sheroboddaryo havzasida uchta yirik tojik qishlog'i — Sayrob, Panjob va Darband bo'lgan. Ular bir-biridan ma'lum masofada joylashgan bo'lib, bitta soy vodiysi bo'ylab zanjir bo'lib cho'zilgan, aniqrog'i gavjum bo'lib, aslida qishloqning qismlari bo'lgan, ammo ular qishloqlar deb atalgan. Tarixiy o'rta asr manbalarida shu nom bilan atalgan mashhur tog' dovoni yaqinida joylashgan Darbandda shunday 11 ta qishloq mahallasi bo'lgan: Qapchig'ay, Axmachit, Ispandiyor, Qizilqishloq, Birg'abir, Sangchilsay, G'urum,

Chambul, Sesangi, Jalg'uzbuloq, Koshasiya. Ular Sheroboddaryoning Machay darasidan chiqqandan so'ng ikkala qirg'og'ida joylashgan edi. Eng baland qishloq o'zbek tilining qipchoq lahjalarida, xususan, qo'ng'irotlar shevasida Qapchig'ay deb atalishi bejiz emas edi. Panjob ikki qishloqdan iborat bo'lgan: Tashqari ("tashqi", ya'ni daradan tashqarida joylashgan) va Ichkari ("ichki", ya'ni darada joylashgan). Poshxurd vodiysi va Sheroboddaryoning yuqori oqimidagi sanab o'tilgan qishloqlar Chig'atoy qishloqlari hisoblangan. Qishloqlarning umumiy nomi Daxparakent bo'lib, adabiyotlarda geografik nom sifatida uchraydi. Daxparakentni tashkil etgan 10 ta qishloq — Darband, Sayrob, Panjob, Xatak, Zarabog', Qorabog', Vandob, Sherjand, Poshxurd va Karezatlardir[3.b.122].

Daxparakentdagi Chig'atoy qishloqlari suv yetishmasligi va yog'ingarchilikning kamligi tufayli qishloq xo'jaligi bilan kamroq shug'ullanib, chorva mollari, xususan, echki boqib, o'ziga xos yarim ko'chmanchi hayot kechirgan. Butun issiq mavsum davomida ular qishloqlarini tark etib, bahorda chorva bilan dasht va tog'larga ko'chib o'tganlar, yoz va kuzni bog'larda o'tkazishlari kera edi. Shu bilan birga, qo'ng'irotlar kabi, ular deyarli butun yil davomida uylarda yashab, qishki qisqa vaqt ichida qishloqlarda doimiy turar-joylarga joylashganlar.

O'zbek, turk, chig'atoy atamalari tegishli guruhlarining nomlari edi. O'zbek so'zini tor ma'noda tushunilgan holda turklar va o'zbekzabon chig'atoylar o'zlarini o'zbek deb hisoblamagan. 1924-yil ma'lumotlariga ko'ra, chig'atoylar jami o'zbek qishloq aholisining 3,5 foizini tashkil etgan. Bunda o'zbek-chig'atoylar 5732 kishi ro'yxatga olingan va ular joylarning sharoitiga qarab turli miqdorda tarqalgan(2-jadval).

2-jadval

XX asr boshida Janubiy O'zbekiston hududida o'zbek chig'atoylarning joylashuvi

Hudud	soni
Sherobod daryosining yuqori oqimi	1127 kishi
Poshxurd vodiysi	1000 kishi
Sherobod vodiysi	500 kishi
Surxondaryoning quyi oqimi va Termiz hududi	2160 kishi

Surxondaryoning quyi oqimida ularning Manguzar, Sallibod va Chig'atoy qishloqlari mavjud edi. Birinchi ikkitasida ular o'zbekzabon xo'jalar bilan birga, Termiz hududidagi Katta-juijangan qishlog'ida turkmanlar bilan birga o'zbek-chig'atoylar ham yashagan. Cho'lbayir tizmasi etaklarida, Denov shahri g'arbida Katta va Kichik-Vaxshivorning Chig'atoy qishloqlari kichik buloqlar yonida joylashgan edi. B.X.Karmisheva ta'kidlanganidek, Denov bekligi aholisi asosiy qismini o'zbekzabon chig'atoylar va qarshiliklar, shuningdek, turkman-juzlar tashkil etgan. Yurchi shahrida, Stetkevichning so'zlariga ko'ra, 100 ta xonadon bor edi. Yurchi shahrida tojik-chig'atoylar biroz ustunlik qilgan[7.b.56].

Hisor tog'i etaklarida, Sariosiyo shimolida ikki yirik chig'atoy qishlog'i Gazarak va Dashnavod edi. Hisor tizmasining janubiy etaklaridagi adirlar orasida, kichik soy bo'yida joylashgan va uzumzorlari bilan mashhur bo'lgan Gazarak qishlog'ida o'zbekzabon chig'atoylar yashagan va bu yerda umumiy 400 ta xonadon bo'lgan. Gazarak besh dahaga bo'lingan: Kalaguzar, Yuqoriguzar, O'rtaguzar, Yangiqishloq va Qalliqguzar. Aholisining asosiy qismi o'zlarini chig'atoylar, bundan 400 yil avval to'qaylar orasida qo'nim topgan qirqta jasur o'g'rining avlodlari deb hisoblardi. Bundan tashqari, Yuqori-Machay yoki Katta-qishloqda ham o'zbek chig'atoylarini uchratish mumkin edi.

Sherobod vohasi o'zbek aholisi orasida qo'ng'irotlar va chig'atoylar ko'p bo'lgan. Azon-Chig'atoy, Qishloqbozor, Arslonboy, Seplan, Naubog', Gegirdak va Chuyanchi o'zbek chig'atoylarining qishloqlari bo'lgan. O'zbekzabon chig'atoylar turklar bilan Gegirdakda, afg'onlar bilan birga Naubog'da yashagan. Kelib chiqishi juda xilma-xil bo'lgan Qorabog'ning o'zbekzabon aholisi o'zlarini chig'atoylar deb hisoblagan. Xatak Daxparakent-Chig'atoy qishloqlariga qarashli o'nta qishloqdan biri bo'lib, asosan tojik va o'zbekzabon chig'atoylar hududi hisoblangan. Daxparakentning Vandob, Sherjand, Poshxurd, Zarabog', Qorabog' qishloqlari

Poshxurd vodiysida joylashgan. Ulardan tojiklarning Vandob va Sherjand qishloqlari eng qadimgi qishloqlar hisoblangan. Ularning aholisi o'zlarini bu yerlarning aborigenlari deb atagan, ammo Vandob mahallalaridan birida Xatak qishlog'idan kelgan ko'chmanchilarning avlodlari bo'lgan o'zbek tog'chilari yashagan.

Poshxurd qishlog'i vodiyni markazi hisoblangan. Poshxurdning paydo bo'lishi va aholisining tarkibi haqida rivoyat bor. Unga ko'ra, Qorako'llik Xidirali qabilasidan bo'lgan ikki aka-uka turkman yoshlari Poshxurdning janubida joylashgan Buzrukobod qishlog'ida yashovchi bir eshonning xizmatida edi. Kunlarning birida ular oz miqdordagi yerni suv bilan sug'orish, u yerda qovun-tarvuz yetishtirish uchun eshondan chakalakzorlar bilan qoplangan Qorachashma degan kichik buloqni so'radilar. Eshon rozi bo'ladi. Unga hamroh bo'lgan yigitlar o'zlari bilan bir qo'chqor olib, buloqda qurbonlik qilishadi. Ovqatdan so'ng eshon o'zi bergan buloqqa duo qildi, suvi ko'paydi. Suv haqida eshitgan odamlar har tomondan buloqqa oqib kela boshladilar. Vandobning sug'orma yerlari bo'lmagan aholisi ham pastga tushdi. Lekin yigitlar ularga suv berishni istamadi. Shunda bekning o'zi yigitlarga suvning faqat boshigina egalik qilgani uchun quyi oqimni tasarruf eta olmasligini aytdi (Bash xud (bash o'zbekcha boshlanishi, xud Toj)). Shuning uchun qishloqning nomi Poshxurd. Yigitlar buloq yonida joylashdilar, ularning avlodlari uning ikki qirg'og'idagi yerlarni o'zlashtirdilar, vandobliklar esa ortiqcha suv tushadigan joylarni egallab olishdi. Sherjandlar ham u yerga kelishgan, lekin ular soyning eng quyi oqimida juda kam suv olishgan, shuning uchun ular asos solgan qishloq Chakob, ya'ni "suv tomchisi" deb atala boshlagan va bu suvni pulga sotib olgan[3.b.127].

Zarabog'ning vujudga kelishi ham rivoyatlarga asoslanadi. Binobarin, Zarabog'ning paydo bo'lishini XVIII asr boshlariga bog'lash mumkin. U Sherobod tumanidagi qishloq. X—XI asrlar yodgorliklari asosida tuzilgan "Lug'ati

furs”da bu soʻz “Zamini zarogʻan va sathi chu sang. Na oromgohu na obu giyoh” (tosh—singari qattiq, qumloq yer, unda na suv, na giyoh, na oromgoh bor) deb izohlanadi. Fors tili tarixida zarogʻan, zarogʻang (varianti jarogʻan, jarogʻang)—qumli joy, zarang yer, qattiq joy; qumloq, qumi koʻp maydon; shoʻrxok yer, shoʻrazor. Zaragʻon va bogʻ soʻzlaridan tuzilgan va quyidagicha oʻzgarish yuz bergan: Zarogʻonbogʻ>zaronbogʻ>zarangbogʻ>zarabogʻ[8.b.45]. Qishloq togʻ ichkarisida, Poshxurtning yuqorisida joylashgan, oʻrning toshloq joy ekanligiga nisbat etilgan. Qizigʻi shundaki, Zarabogʻda bir nechta yirik chinorlar bor va bu yerda koʻpchilik hududlardan farqli oʻlaroq, har bir daraxt ekanlarning ismlari maʼlum. Ulardan birini 4-5 avlod oldin Lundamiyon ismli eshon ekan. Boshqa birini 250 yildan koʻproq vaqt oldin Said oqsoqol, uchinchi daraxtni Ortiq oqsoqol deb maʼlumot berishgan mahalliy aholi. Zarabogʻ qishlogʻi aholisining murakkab tarkibi alohida taʼkidlangan. Qorabogʻ qishlogʻida ham oʻzbekzabon chigʻatoylar yashagan. Bu qishloq aholisining kelib chiqishi ham juda murakkab boʻlgan, 1966-yilda Termiz shahrida asli qorabogʻlik A.Achilovning soʻzlariga koʻra, bu qishloqda turli millatga mansub 15 ta oilaviy guruh

istiqomat qilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, deyarli barcha Chigʻatoy qishloqlari suv manbalariga nisbatan qulay tarzda kanal boʻyida, buloq yaqinida, suvi sugʻorish uchun ham ishlatilishi mumkin boʻlgan togʻ daryosi yoki kariz yaqinida joylashgan. Ushbu qishloqlarda bogʻ-u uzumzorlar, ulkan tut va chinorlar boʻlishi fikrimiz isboti boʻladi. XX asr boshida har bir qishloqda bir yoki bir nechta hurmatli joylar — daraxt, tosh, buloq yoki “muqaddas” mozorlari boʻlgan ziyoratgohlar mavjud edi. Aksariyat qishloqlar yaqinida qadimiy yoki oʻrta asrlarga oid tepa mavjudligi shundan dalolat beradiki, bu qulay joylarda qadimdan odamlar yashagan. Agar u yerda vaqti-vaqti bilan hayot toʻxtab qolsa, bu uzoq davom etmagan va birinchi imkoniyatdayoq bu qulay joylarda odamlar istiqomat qilishgan. Koʻp hollarda, u yoki bu katta Chigʻatoy qishlogʻi aholisi oʻzlarini boshqa joylardan kelgan odamlarning avlodlari deb hisoblasalar ham, bu faqat maʼlum guruhlariga tegishli boʻlishi mumkin, asosiy xalq esa mahalliy tubjoy aholi vakillari edi. Unga asta-sekin oʻzbek qabilalari, shuningdek, arablar, turkmanlar va boshqa yarim koʻchmanchi xalqlar guruhlari vakillari kelib qoʻshilganlar.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Бартольд В.В. Чагатайская литература. Соч. Т. V. М.: 1968.
2. Борис А. Путешествие в Бухару, ч. 3. М., 1849. 67. Борозна Н. Г. Изменения в хозяйстве узбеков долины Кафирнигана, — СЭ, 1963, № 1.
3. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. — М., 1976.
4. Кармышева Б.Х. К истории формирования населения южных районов Узбекистана и Таджикистана,—СЭ, 1964, № 6.
5. Кисляков Н. А. Сайробские таджики, СЭ, 1955, № 2.
6. Маллицкий Н. Г. Учебное пособие по географии Таджикистана (куре родиноведения), ч. 1, Ташкент Самарканд, 1929.
7. Стеткевич. Бассейн Каратагдарьи. Военно-статистический очерк 1889 г., СМА, вып. LVII, 1894.
8. Қажумов А. XX аср бошларида Ўзбекистон ҳудудида этник ҳолат // «Адабиёт учқунлари» Тошкент – 2015.
9. Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari // A.Navoiy milliy kutubxona. Toshkent. 2008.

BUXORO HAMMOMLARI VA "HAMBOMBARON" NIKOH TO'YI MAROSIMI

Zilola Shamsiyeva Askarovna,

*Termiz davlat universiteti Etnografiya, etnologiya va antropologiya
mutaxassisligi tayanch doktoranti*

ORCID-0009-0000-8591-6082

UDC-392.51

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro vohasi madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan an'anaviy hammomlar, tarixiy manbalarda hammomlar haqida keltirilgan ma'lumotlar va voha aholisi tomonidan nikoh to'yidan oldin an'anaviy tarzda o'tkazilgan "hambombaron" marosimi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada ushbu marosimning o'tkazilish tartibi dala tadqiqotlari ma'lumotlariga asoslangan holda tarixiy-etnografik nuqtai-nazardan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hammom, "hambombaron", "garmoba", sangi poy, kagil, xalta, "bug'joma", xaltador, hambom puli, kelin, kuyov.

Аннотация: В данной статье рассматриваются традиционные бани, считающиеся неотъемлемой частью культуры Бухарского оазиса, сведения о банях в исторических источниках, а также обряд «хамбомбаран», традиционно совершаемый жителями оазиса перед свадьбой. В статье также анализируется процедура этого обряда с историко-этнографической точки зрения на основе данных полевых исследований.

Ключевые слова: баня, «хамбомбаран», «гармоба», санги пой, кагил, сумка, «бугжом», халтадор, хамбом пули, невеста, жених.

Abstract: This article deals with the traditional baths, which are considered an integral part of the culture of the Bukhara oasis, the information about the baths in historical sources, and the "hambombaron" ceremony traditionally performed by the oasis residents before the wedding. The article also analyzes the procedure of this ceremony from a historical-ethnographic point of view based on field research data.

Key words: bath, "hambombaron", "garmoba", sangi poy, kagil, khalta,

"bugzhoma", khaltador, "hambom puli", bride, groom.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Buxoro vohasi nikoh to'y marosimlari tizimida to'ydan oldin an'anaviy ravishda o'tkazilgan "hambombaron" marosimi alohida ahamiyatga ega. Ushbu marosim bugungi kunda aksariyat xonadonlar tomonidan o'tkazilmaydi. Biroq marosimning aholi uchun tibbiy va ijtimoiy roli muhim bo'lsa ham, uning tarixi, o'tkazilish tartibi tarixiy-etnografik nuqtai nazarda tadqiq etilmagan.

Buxoro hammomlari boy tarixga ega bo'lgan jamoat binolaridan biri va voha madaniyatining muhim qismidir. Hammomlar nafaqat gigiyena uchun, balki ijtimoiy hayotning muhim markazi sifatida ham xizmat qilgan. Buxoro hammomlari o'zining me'morchiligi, bezagi va an'anaviy usullari bilan ajralib turadi. Xususan, Hammom xonalarining har biri o'ziga xos haroratga ega bo'lgan va ma'lum bir vazifani bajarish uchun mo'ljallangan. Hammomlar uchun suv yer osti manbalaridan olingan. Buxoro hammomlari o'zining o'ziga xos me'morchiligi bilan ajralib turadi. Ularning ko'pchiligi gumbazli va bezakli bo'lib, an'anaviy uslubda qurilgan. Tarixan, Buxoro hammomlari odamlarning uchrashuv va muloqot joyi ham bo'lgan. Islom dinining tarqalishi bilan hammom madaniyati yanada rivojlandi. Islom hammomlari lekin o'ziga xos me'morchilik va an'analarga ega bo'lgan. Ular nafaqat tozalik uchun, balki ijtimoiy va diniy maqsadlar uchun ham xizmat qilgan. Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlardagi hammomlar buning yorqin misolidir.

Buxoroda hammomlarda yuvinish an'anasi qadimiy hisoblanib, "hammom"lar tarixchi Narshaxiy asarlaridayoq qayd

etilgan[1:62]. Biroq Narshaxiy arab tilidagi “hammom”(buxorochasiga “hambom”) atamasi o’rnida eski tojik tilidagi “garmoba”(o’zb. “garm-issiq, ob-suv”) so’zidan foydalangan. Inqilobgacha bo’lgan davrda faqatgina shaharlarda mavjud bo’lgan hammomlar O’rta Osiyo shaharlaridagi ko’p asrlik madaniy yutuqlaridan biri hisoblanar edi. Puxta ishlab chiqilgan qurilish uslubi, o’ziga xos arxitekturasi, isitish tizimi, masxux suv o’tkazmaydigan tarkiblar va boshqalar hammomlarning azaldan Buxoroda mavjud bo’lganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Hammomlar qurilishi to’g’risida ko’plab manbalarda ma’lumot beriladi. V.V.Bartold Ulug’bek davrida, ya’ni XV asrda Samarqandda hammomlar qurilganini qayd etadi[2:27]. Buxoroda bir asrdan so’ng hammomlar qurilishi haqida A.Jenkinson ham aytib o’tadi[3:182].

Buxoro hammomlarining tarixi, ularning tuzilishini XIX asrda sharqshunos olimi O.A.Suxareva ham o’z tadqiqotlarida qayd etib o’tgan. Buxorodagi XX asrgacha saqlangan ko’pchilik hammomlarning qurilishi “ulkan maydonlarda marmar pollar bilan bunyod etilgan katta hammomlar” qurgan Abdullaxon davriga borib taqaladi[4:26]. Bu hammomlar orasida O.A.Suxareva Buxoroni tadqiq etgan paytda ham o’z vazifasini bajarib turgan Sarrofon hammomi(Hammomi Sarrofon) bunga yaqqol misol bo’ladi.

Buxoro hammomlarining iqtisodiy ahamiyatini Filipp Yefremov ta’kidlab o’tgan[5:27]. Uning aytishicha, Aholi sonining o’sishi bilan hammomlar soni ham ko’payib borgan.XX asr boshlarida Buxoroda 18 ta hammom bo’lib, ulardan 9 tasi erkaklar hammomi, 8 tasi ayollar hammomi, bittasida esa ham erkaklar, ham ayollar uchun maxsus xonalar bo’lgan. Demak, hammomlarning yarmi ayollarga tegishli ekanligining o’zi Buxoroda hammomlardan foydalanish qanchalik darajada ommalashib ketganligidan dalolat beradi.

O’z vaqtida Buxoroda faoliyat ko’rsatgan

hammomlarning 19 tasi sanash mumkin. Bular: Toqi Sarrofon hammomi, Xo’ja Porso Hammomi, Govkushon hammomi, Hammomi bozori kord, Hammomi kavshi olak, Hammomi Naxib, Qozi kalon hammomi, To’kim tikuvchilar hammomi, Hammomi kunjak, Jo’ybor hammomi, Hammomi Muhammad Payk, Bibi Halfa hammomi, Poyi ostona hammomi, Qoziyon hammomi, Domla Sher hammomi, Shishaxona hammomi, Chashmai Ayub hammomi, Abdulla Xo’ja hammomi va Hammomi obi otash. Ko’plab hammomlar o’sha hudud, joylashgan manzil nomi bilan nomlangan. Masalan, hammomi Kunjak Masjidi Kalonning janubi g’arbiy burchagida joylashganligi uchun shunday nomlangan. Shuningdek, mahallalar nomi bilan ham hammomlar nomlangan. Hammomi Chuqur mahalla, hammomi Bibi Xalfa, hammomi G’oziyon, hammomi Shishaxona, hammomi Chashmai Ayub, Hammomi Kappa shular jumlasidandir. Buxoroda ayollar hammomi faqat Kunjak, Shishaxona, Bibi-Xalfa bo’lib, ularga faqat ertalab borish ruxsat etilgan. G’oziyon, Bozori Xo’ja va Poyi Ostona hammomlariga esa yahudiylar uchun ma’lum soatlarda ruxsat etilgan[6:193].

Hammomga nafaqat musulmonlar, balki doimiy ravishda Buxoroda istiqomat qiladigan g’ayridinlar ham borishgan.Hammomga borishga ehtiyoj kattaligi ularni hatto musulmon-mutaassiblari tomonidan haqorat qilinishlaridan ham saqlamagan.Aytishlariga qaraganda, shunday vaziyatlar ham bo’lganki, musulmon fuqaro uning oldida yuvinayotgan boshqa din vakilini “o’z badani suvini unga sachratgani” uchun uni ayblagan, do’pposlagan, haqoratlagan[7:64].

Hammomlar xususiy yoki ijarachilar tomonidan boshqarilgan. O’z kassiri va hisobchisiga ega bo’lgan. Hammom xo’jayiniga yana olov yoquvchi ishchi hamda olti nafargacha xizmatchisi bo’ysungan. Ular ko’chada binoning yonib bo’lgan chiqindilarini yig’ib olishgan. Bu paytda esa ikki kishi quduqdan suvni tortib turgan. Hammom ichkarisida bir necha kishi bo’lib, ular har birining ham o’z ishi bo’lgan. Biri uqalovchi — xodimichi, hamda xaltachi-

xaltador ham faoliyat ko'rsatgan. Oyoq og'rig'iga chalinganlarga semiz qushlar yog'i, tananing bel va orqa tomonlariga esa ot qazisi yog'i yaxshilab surtilgan. Bu kabi salomatlik sirlarining qo'llanilishi ota — bobolarimizning sharq tabobatidan yuqori darajada xabardor ekanliklaridan dalolat beradi[6:195].

Sh.Bobojonovning ta'kidlashicha, hammomlar alohida-alohida xonalarga ajratilgan. Qadimiy hammomlar kirish xonasi, pul to'lanadigan xona(kassa), baland ayvonli kiyim-kechak almashtiriladigan xona, poysho'yxona, xunukxona, garmxona, miyonsaroy, hamba (basseyn), miyonsufa, sufa, dam oladigan xona, uqalash xonasi hamda choy ichiladigan xonalardan iborat bo'lgan[7:152].

Hammomda sovunsiz yuvinishgan, chunki sovun musulmon aholi orasida "harom" hisoblangan. Sababi, mahalliy aholi sovunlarga cho'chqa yog'i qo'shiladi, degan fikr mavjud bo'lgan, cho'chqa esa islom dinida harom sanaladi. An'anaga muvofiq, issiq hammom bug'ida isigan terini maxsus qo'lga kiyiladigan "xalta"(qopcha)lar yordamida yuvishgan. Bundan tashqari, hammomlarda, asosan, boy xonadon vakillarini yuvintigan "xaltador"lar ham ishlagan. Xaltadorlar, shuningdek, sun'iy massaj bilan ham aholiga xizmat ko'rsatgan, chunki massaj ham turli kasalliklarga davo deb hisoblangan[7:65].

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Buxoroda nikoh to'yi marosimlaridan oldin bo'lajak kelinni tantanali ravishda hammomga etishgan va bu udum xalq orasida "hambombaron"(o'zb."hammomga etish") deb nomlangan. Axborotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, nikoh to'yidan oldin kelinni hammomga etish marosimi Buxoro va Samarqand "eroniylari" orasida keng tarqalgan edi. Ayniqsa, 1936-yilda tavallud topgan axborotchining aytishiga qaraganda, 1940-yillarda bo'lajak kelinni hammomga etish maqsadida ikki ot qo'shilgan foytunga zeb — ziynat berilgan, marosim uchun turli taomlar va shirinliklar tayyorlangan, maxsus sozandalar, xonandalar chaqirilgan.

Shuningdek, Buxoro eroniylarida kelinni ko'proq Jo'ybor mahallasidagi hammomga etishganini dala tadqiqotlari davomida respondentlardan bilib oldik[9].

An'anaga ko'ra, hammomga kirish oldidan ziyofat uyushtirilgan, yoshlar o'yin — kulgi qilishgan, qo'shiqchilardan biri bo'lg'usi kuyov nomidan kelinga murojaat qilib quyidagicha muxammas kuylagan:

Tu ki hambom meravi, az sari rohat gardam,
Sangi hambom shavamu az kafti poyat gardam.

Sobuni qal'a shuda az mushki ruyat gardam,
Man shona shavamu az tori muyat gardam,
Obi hammom shavamu az hamha choyat gardam[10].

Mazmuni:

Sen hammomga boryapsan, yo'lg'ingandan aylanay,

Hammom toshi bo'lib, oyog'ing kaftidan aylanay.

Qal'a sovuni bo'lib, yuzingdagi mushk(xushbo'y hid)dan aylanay.

Men taroq bo'lib, soching toridan aylanay,

Hammom suvi bo'lib, hamma joyingdan aylanay.

Ushbu muxammasdan ko'rinib turibdiki, hammomda yuvinishda Buxoro vohasida hammom toshi, qal'a sovuni, taroq kabi anjomlar kerak bo'lgan. Hammom toshi(toj. "sangi poy") oyoqlarni tozalash uchun ishlatilgan. Shuningdek, qal'a tuprog'i(xalq orasida "kagil" deyiladi)dan tayyorlanadigan aralashma sovun vazifasini bajargan va tana uchun shifobaxsh hisoblangan. Bugungi kunda ham tug'ruqdan keyin chilla ichida yosh onalar va chaqaloqlarni hammomga etib cho'miltirish odati ayrim xonadonlarda saqlanib kelinmoqda. Shu jarayonda chaqaloq terisiga zarar yetkazmaslik maqsadida tabiiy qal'a tuprog'idan tayyorlangan aralashma bilan yuviladi, kimyoviy moddalar qo'shilib tayyorlangan sovunlar ishlatilmaydi[11].

Vohada nikoh to'yidan oldingi hammomga borish xarajatlarini kuyov tomon ko'tarishi lozim bo'lgan. Bunda marosimda ishlatiladigan sochiq, sovun, atir-upa, hammomda kelinni yuvintiradigan ayolga hadya tariqasida beriladigan mato, non, shirinlik, hammom puli kuyov tomonidan

berilgan. Bo'lg'usi kelinga ammasi, xolasi yoki yangasi barcha rasm – rusumlarini tushuntirgan.

Axborotining ma'lumotlariga qaraganda, XX asrning 40-50-yillarida marosim uchun xonadon ayollari ikki patnisda shirmoy kulchalar, shirinliklar, turli xil holvalar solib, olib borishardi. Kelinga dugonalaridan tashqari amma(xolasi), mahalla kayvonisi hamrohlik qilishardi. Kelinga kayvoni oro berardi, uzun va keng yengli kashidaduzi ko'ylak, boshiga zardo'zi popukli do'ppi kiydirilgan. Shundan so'ng do'ppi ustidan harir matodan yopinchiq (bugungi kunda "sharf" deyiladi) tashlangan. Xonadon ayollari kelin uchun yopinchiqning turli ranglilaridan o'zlari bilan olishgan, zero tez – tez kelin boshiga tashlangan yopinchiq almashtirilgan. Bir aravada kelin dugonalar bilan, boshqa aravada amma xola, kayvoni va san'atkorlar joylashgan. Aravalarga kelinning akasi (ukasi) yo'l boshlovchilik qilgan. Otlar karnay-u surnay sadolari ostida yo'lga tushgan. Yo'lda kuyovning onasi-yu opa – singillari uchrashib, kelin ustiga tanga-yu pul, qandolat sochishgan, bolalar esa xursand bo'lib, yerdan pullarni terganlar.

Hammomga yaqinlashgach, doira chalish, raqsga tushish yana boshlangan. Hammomchi va boshqalar kelinni kutib olishga chiqib hadya olganlar. Kayvoni ayol kelin liboslarini yechib ikkita ro'mol bilan kelinning belini yupqa tortib bog'lagan. Kelin boshiga yopinchiq – oq rangli patdo'zi gulli yopinchiq tashlangan. Bu yopinchiq voila tojiklarida "bug'joma"(o'zb. "bug' chopon") deb atalgan. Kelinning dugonalaridan to'rt kishi yopinchiq

burchaklaridan tutib borgan va kelinni doira sadolari-yu raqslar bilan hammomga olib kirganlar. Dugonalar suv keltirib turishgan, ammasi yoki xolasi cho'miltirgan. Bo'lajak kelin o'z qizlik liboslarini yaqin dugonalaridan biriga hadya qilgan. Hammomda cho'milib bo'lgach, kelin va uning hamrohlarini yaxshi oshxonaga etib ziyofat berishgan, oxirida "yor – yor " sadolari ostida uyga yo'l olishgan[12].

Buxoro shahrida XXI asr boshigacha kelin va uning dugonalarini to'ydin oldin Kunjak ayollar hammomiga etishardi. Tumanlardagi qishloqlarda esa jamoat hammomlari bo'lmaganligi sababli ushbu marosim o'tkazilmagan. Bugungi kunda esa tabiiy gaz sharofati bilan deyarli hamma hovlilarda hammom mavjud bo'lgani sababli bugungi kunda ushbu marosim o'tkazilmay qoldi[12].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Buxoro vohasida nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlar, udumlar, urf-odatlarining bajarilishida bugungi kunda sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan. Ayniqsa, ayrim marosimlar, shu jumladan, "hambombaron" marosimi qadimda barcha xonadonlar nikoh to'yida o'tkazilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu marosim o'tkazilmaydi. "Hambombaron" marosimining ahamiyati nafaqat gigiyena bilan bog'liq, balki ijtimoiy munosabatlar va aholining kundalik turmushi bilan ham chambarchas bog'liq. Ular tarix davomida insonlarning turmush tarziga, sog'lig'iga va ijtimoiy hayotini boyitishda muhim rol o'ynagan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Сухарева О. А. Бухара. XIX — начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966.- С. 62
2. В.В.Бартольд. Улугбек и его время. Пг., 1918. -С. 27.
3. А.Дженкинсон, Путешествие в Среднюю Азию в 1558-1560 гг., -сб. "Английские путешественники в Московском государстве в XVI в.", пер. с английского, Л., 1932, -С. 182.
4. В.А.Шишкин. Города Узбекистана. -Т. 1943. -С.26.
5. Ф.Ефремов, Десятилетнее странствование., -С. 27.
6. Бобожонов Ш. Шариф шаҳар ёдгорликлари. Бухоро тарихий обидаларига саёҳат. — Бухоро: «Бухоро», 2017.-Б.193.

7. О. А. Бухара. XIX — начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966. -С. 64.
8. Bobojonov Sh. Toshkentning o'rta asr hammomlari.//”Moddiy va nomoddiy madaniy meros uyg'unligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.”Durdona” nashriyoti. Buxoro.-2023.-B.152.
9. Dala ma'lumotlari. Buxoro shahri, Tagbandbofon guzari.2024-yil oktyabr.
10. Dala ma'lumoti. Buxoro shahri, 2024-yil sentyabr. Axborotchi Shamsiyeva Baxshanda tilidan yozib olindi. 2024-yil oktyabr.
11. Dala ma'lumoti, Buxoro shahri, Jo'ybor ko'chasi. 2024-yil sentyabr
12. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro shahri. 2024-yil avgust.

MUNDARIJA TARIX

Мустафоқулов Рўзиқул Бойназарович. Термиз давлат университети ижтимоий фанлар факультети бошланғич таълим кафедраси доценти, филология фанлари номзоди. **Шариф Ёқубов.** Термиз давлат университети ижтимоий фанлар факультети бошланғич таълим кафедраси доценти, филология фанлари номзоди. *Танинқли олим ва устоз профессор Парда Исмоилов — 80 ёшда.....*3

Эргашева Юлдуз Алимовна. Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти Ўзбекистон тарихи кафедраси мудири, профессор, тарих фанлари доктори. **Узаков Баҳром Негматович.** Шаҳрисабз давлат педагогика институти Тарих кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди. *Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширилишининг тарихий тажрибаси (Қашқадарё мисолида)*7

Толипов Файзулла Саидович. Тошкент давлат иқтисодиёт университети Ижтимоий фанлар кафедраси профессори, тарих фанлари доктори (DSc). *Ўзбекистонга аҳолини кўчириш сиёсати тарихидан: ижтимоий-иқтисодий ва демографик омилар.....*17

Холмуминов Хусан Эшмўминович. Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси доценти, тарих фанлари доктори (DSc). **Бобомуродов Исломбек Нарзулла ўғли.** Термиз давлат университети Тарих мутахассислиги 1-курс магистранти. *Иккинчи жаҳон уруши йиллари ўзбекистонга кўчирилган халқлар тақдири.....*24

To'rayeva Matluba Xoliqulovna. Qarshi Davlat universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc). *Ikkinchi jahon urushi yillarida ta'lim: muammo va yechimlar (Qashqadaryo viloyati misolida)*28

Бўриев Соатмўмин Донаевич. Андижон давлат педагогика институти Ижтимоий фанлар кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди. *Мамлакатимизда аҳолини ичимлик суви билан таъминлашнинг ўзига хос жиҳатлари.....*32

Annayev Tuxtash Jo'rayevich. Termiz davlat universiteti arxeologiya kafedrasida dotsenti. **Qurbonov Islom Sharofiddin o'g'li.** Termiz davlat universiteti arxeologiya mutaxassisligi magistranti. **Xoliyrov Toshturdi Ramazon o'g'li.** Termiz davlat universiteti arxeologiya mutaxassisligi magistranti. *Shimoli-g'arbiy Bqtriyaning Kushon davri shaharsozligi.....*39

Бердиев Хайридин Абдуллоевич. Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети Ўзбекистон тарихи кафедраси доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). *Араб манбаларида Ўрта Осиё тарихий топонимиясига доир айрим қайдлар таҳлили.....*45

Каноатова Феруза Бобоқуловна. Доцент Шаҳрисабзского государственного педагогического института, доктор философии по истории (PhD). *Особенности развития женского предпринимательства в 1991-2001 гг.....*52

Исаев Ойбек Ахмед ўғли. Термиз давлат Педагогика институти Тарих кафедраси мудири, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). *Сурхон воҳасида озиқ-овқат маҳсулотларини тайёрлашнинг бориши (Ленин байроғи газетаси мисолида).....*58

Xasanova Nodira Ibragimovna. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Tarix va falsafa” kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). *Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishdagi muammolar (Buxoro amirligi hamda Chor Rossiyasi misolida).....63*

Ботирова Халима Эшмаматовна. "Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети “Гуманитар фанлар” кафедраси доценти в.б., тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). **Мамадаминова Бахтигул Абдупаттаевна.** "Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети “Гуманитар фанлар” кафедраси доценти в.б., тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). *Мустақилликнинг дастлабки йилларида аграр соҳада мулкӣ муносабатларнинг шаклланиши ва унинг ҳуқуқӣ асослари.....67*

Алимухамевова Нодира Ядгаровна. "Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети “Гуманитар фанлар” кафедраси доценти в.б., тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). *Халқларнинг хилма-хиллиги уларнинг бирлигидадир.....72*

Muminov Ulmas Ravshanqulovich. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). *Surxondaryo viloyati mahallalarining umumiy tavsifi, tasnifi va etnohududiy xususiyatlari.....76*

Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich. Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). *Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Xiva xonligining tashqi siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.....85*

Tursunov Anvar Saypullayevich. Termiz davlat pedagogika instituti Tarix va uni o‘qitish metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). **Norboyev Temur Rustamovich.** Termiz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Tarix) mutaxassisligi magistranti. *Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati qishloq ijtimoiy-maishiy infratuzilmasidagi o‘zgarishlarning tarixiy tahlili.....95*

Mamarajabov G‘ayrat Abdulxakimovich. Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). *Aholi bandligini ta‘minlashda kasanachilikning o‘rni.....100*

Zulfikarov Baxtiyor Xurramovich. “Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi direktori. *Mustaqillik yillarida termiz davlat muzey-qo‘riqxonasi faoliyati tarixi.....105*

Normamatova Pardaxol Ochildiyevna. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o‘qituvchisi. *Ziyorat turizmini rivojlantirishda Surxondaryodagi muqaddas qadamjolarining tarixiy ahamiyati.....111*

G‘aniyev Bobur. Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi. *Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri faoliyati.....117*

Xamidova Rislig‘oy Faraxadovna. Andijon davlat pedagogika instituti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi. *Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlashdagi muammolarni aniqlash.....120*

Abdusalomov Muslimbek Yusuffjon o'g'li. Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi. *BXSRda ma'muriy-hududiy o'zgarishlarning amalga oshirilish jarayonlari (Janubiy hududlar misolida)*.....123

Rasulova Muhayyo Mirzamurot qizi. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti. *Surxondaryo okrugida oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash tizimni yo'lga qo'yish borasidagi tadbirlari*.....127

Suyunov Ilyos Juma o'g'li. Surxondaryo viloyati IIB xodimi, Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi. *Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlar*.....133

Boltayeva Gulnoza Raxmatullayevna. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida tarix fani o'qituvchisi. *Sovet davrida Surxondaryo viloyatida xotin-qizlarning iqtisodiy islohotlardagi ishtiroki*.....140

Muhammadiyev Omon Mamataliyevich. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi. *XVII — XIX asrlarda Surxon vohasida me'morchilik*.....145

Safarov Nurali Chori o'g'li. Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi. *Surxon vohasida shaharlar taraqqiyoti (qadimda va o'rta asrlar misolida)*149

Shamayev Umarali Turg'unboyevich. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi. *Mustaqillik yillarida tarixiy-madaniy yodgorlikka bo'lgan e'tibor (Surxondaryo misolida)*153

Norbekov Ahmadjon Norbekovich. Navoiy shahar 23-sonli umumta'lim maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari. *Ikkinchi jahon urushidan 1991-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy holati*.....157

Urunov Xasan Rayimovich. Samarqand shahar 78-sonli umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi. *Janubiy Koreya va O'zbekiston respublikasining madaniy va ilmiy sohadagi hamkorligi*.....163

ETNOGRAFIYA

Абдуллаев Улуғбек Сайданович. Андижон машинасозлик институти профессори, тарих фанлари доктори. *Ўзбек халқининг этник тарихини ўрганишида этноним ва этнопонимларни ахамияти*.....168

Мустафокулов Рўзикул Бойназарович. Термиз давлат университети ижтимоий фанлар факультети бошланғич таълим кафедраси доценти, филология фанлари номзоди. *Ўзликка бир назар*.....173

Dulanov Otabek Yuldashevich. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). *Jizzax vohasi yuz(juz)larining uliq o'yini va uning lokal xususiyatlari*.....184

To‘rayev Sherzod Gulboy o‘g‘li. Termiz davlat universiteti Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi tayanch doktoranti. *Janubiy O‘zbekiston chig‘atoylarining kelib chiqishi tarixi va hududiy joylashuv masalasi*.....188

Zilola Shamsiyeva Askarovna. Termiz davlat universiteti Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi tayanch doktoranti. *Buxoro hammomlari va "hambombaron" nikoh to‘yi marosimi*.....193

«СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР» ЖУРНАЛИДА ЧОП ЭТИЛАДИГАН МАҚОЛАЛАРГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

“SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR” JURNALI TAHRIRIYATIDAN

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali yiliga 4 marta (har chorakda) nashr qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi (OAK)ning 2021 yil 12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati asosida ro‘yxatga olingan. Jurnal “Tarix” ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnalda o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi maqolalar nashr etiladi. Maqolalar quyidagi tartibda qabul qilinadi: maqola hajmi 6 sahifadan kam bo‘lmasligi lozim. Maqola tahririyatga Times New Roman shrifti, 14 o‘lchovda, 1,5 qator oralig‘ida, chap tomondan 3 sm, qolgan tomonlardan 2 sm qoldirilgan holatda A4 formatli standart qog‘ozda Word 2000-2023 dasturi, doc yoki docx formatida tursunovsafullo12@mail.ru elektron pochta manzili hamda +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55 raqamli telegram sahifalari orqali qabul qilinadi.

Maqolaga tegishli fan sohasi bo‘yicha fan doktori, professor, fan nomzodi, dotsent yoki tegishli fan bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo‘lgan xodimning taqrizi talab qilinadi (Ilova tariqasida maqolaga yozilgan taqrizning imzolangan nusxasi rangli holatda, skanerlangan variantda yuborilishi kerak).

Maqolani rasmiylashtirilganda, dastlab yuqori chap tomondan UO‘K (UDK) qaydi, bir oraliqdan so‘ng bosh harflarda maqola mavzusi, keyingi satrda muallif(lar)ning ismi, sharifi, otasining ismi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, ish joyi va lavozimi to‘liq, o‘zbek, ingliz va rus tillarida yoziladi. Keyin o‘zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya va kalit so‘zlar keltiriladi. Matnda adabiyotlarga havola kvadrat qavslarda ko‘rsatiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati amaldagi davlat standartlari asosida rasmiylashtiriladi. Maqolalar kirill va lotin alifbosida qabul qilinadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING 2024-YIL 31-YANVARDAGI 24-SON BUYRUG‘IGA BINOAN maqolalar xalqaro IMRAD talablari asosida quyidagi namuna bo‘yicha qabul qilinadi:

NAMUNA

MAVZU (O‘ZBEK, INGLIZ, RUS TILLARIDA)

Qarshiyev Islom Maxmarahim o‘g‘li, ish joyi, lavozimi, ilmiy unvon (o‘zbek, ingliz va rus tillarida), elektron pochta manzili, muallifning ORCID identifikatori, ya’ni identifikatsiya raqami; maqolaning DOI raqamli obyekt identifikatori (DOI.org platformasidan ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi identifikator raqami).

Annotatsiya (Abstract / Аннотация): Annotatsiya o‘rtacha 200-250 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim. Agar maqola o‘zbek va rus tilida yozilgan bo‘lsa, Annotatsiyadan keyin, albatta, ingliz tilida ABSTRACT beriladi.

Kalit so‘zlar (Key words / Ключевые слова): Kalit so‘zlar o‘rtacha 8-12 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

KIRISH (BЕВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION) Kirish, kirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar [1] (iqtibos)

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS) Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION) Xulosa, xulosa.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. G‘oziyev.E.G. Umumiy psixologiya –T.: Sharq, 2010. – B. 459.

2. Doniyorov H.T. O‘zbekistonda dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta’minlash – ijtimoiy barorlikning bosh omili sifatida. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali. Toshkent, 2018 yil - № 2 - B. 57- 61.

3. Buranov S.M. China’s geopolitical role and influence in solving the modern Afghan problem // International conference «Scientific research of the SCO countries: synergy and integration», Beijing. 2020. – P.127-132.

4. Rahmatjonova K. Hindiy va o‘zbek tillaridagi kelishik shakllarida izomorfizm hodisasi // Ilm sarchashmalari. - Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali, №1, 2019 yil. - B.38-40.

5. Pulatova M.R. Handwritten copies of «Arba’in»works // Indonesian Journal of Education Methods Development. Volume 8, November 2019. – P. 194-196. ISSN: 0738-0593 (№23, SJIF – 5.083).

6. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developingcross-cultural-awarenessmonolingual-classroom-0> (adabiyotlar shu tartibda yozilishi lozim)

Maqolada keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi va to‘g‘riligiga mualliflar javob beradi.

Bog‘lanish uchun muallifning telefon raqami, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi shart. Muallifning sifatli fotosuratining elektron shakli taqdim etilishi lozim.

Tahririyat maqolalarni tahrir qilish va qisqartirish huquqiga ega. Talab darajasida rasmiylashtirilmagan maqolalar jurnalda e’lon qilinmaydi. Maqola mualliflariga tahririyat qo‘lyozmalarini qaytarish va yozma javob berish majburiyatini olmaydi. Maqolani tahrir qilish, nashrga tayyorlash va chop qilishga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun ___ ming so‘m miqdorida badal puli to‘lanadi.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnalining mavjud sonlari bilan nashrning rasmiy sayti <https://surxondaryoilmtafakkur.uz> orqali tanishishingiz va yuklab olishingiz, telegram kanalga <https://t.me/surxondaryoilmtafakkur> havolasi orqali kirishingiz mumkin.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali bosh muharriri Tursunov Saypulla Narzullayevich.

Tel: +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55